ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

6
2021
(Maxsus son)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Ta'lim-tarbiya, ilm-fan – millatni buyuk qiladi

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

S. Turg'unov, D. Akmalova	6	Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish strategiyalari
M. Saidova	13	Ta'lim islohotlari yangi bosqichda
Z. Isaqova	16	Yangi O'zbekiston – ma'naviy yangilanish: mavjud muammolar va istiqboldagi yechimlar
G. Narzullayeva	21	Oila munosabatlarda gender tengligiga erishishning muhim tomonlari
S. Mirzaxolov	25	Mustaqillikning o'ttiz yilligi – yosh tadbirkor kadrlarni tayyorlash sohasidagi islohotlarning tarix sahifasida aks etishi

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

G'. Tajibayev	30	Boshlang'ich sinflarda chet tilini o'rganish va o'rgatishning maqsad va natijalari
H. Najmiddinova	35	Matematik tafakkur: u qachon va qanday shakllanadi?
R. Dehqonov, Sh. Abdullayev, S. Mamatqulova	40	"Tovarlar kimyosi" fanini o'qitishning zarurati va dolzarbligi
I. Zaxidov	44	Fizika fanini o'qitish va uning uzviylik bilan bog'liqligi
R. Ikramov, R. Jalalov, X. Muminov, A. Ergashev	48	Amorf yarim o'tkazgichning zonalararo yutilish spektrini kubo – grinvud formulasida hisoblash
I. Islomov	54	O'zbek tili geografik terminlarida polifunksionallik
G. So'fiboyeva	59	Boshlang'ich sinflarda geometrik materiallarni o'rgatish metodikasini takomillashtirish
D. Kuliyeva	64	Forscha fe'llar leksikasi ("kodeks kumanikus" qo'lyozmasi misolida)

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

M. Sobirova	73	Yangi O'zbekistonda integratsiyalashgan texnologiya asosida insonparvarlik tarbiyasini berish
U. Fayzullayev	79	Kichik biznes – yoshlarni hayotga tayyorlashning muhim yo'nalishi

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

U. Babaxodjayev, O. Ismanova	81	Akademik litsey va ixtisoslashgan maktablarda fizika fanini o'qitish sifatini oshirish usullari
M. Raximova	87	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning diagnostik usullari

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

B. Madaminov	93	Jismoniy madaniyat va sportning inson kamolotiga erishishdagi ahamiyati



MAKTABGACHA TARBIYA

M. Ikromova **97** Kelajakka yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarining tahlili (maktabgacha ta’lim tizimi misolida)



ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

I. Mirabdullayev **102** Iqtisodiy masalalarni yechishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari



PSIXOLOGIYA

S. Boltobayev, S. Azizov **106** Gandbolchilarning musobaqa oldi va musobaqa davridagi psixologik tayyorgarliklari ulardagi stress holatlarini oldini olish omili

G‘. Abdullayev, D. Jabbarova **109** Bolalarning psixik rivojlanishida oilaviy muhitning salbiy va ijobiy ta’sirini psixologik jihatlari



TA’LIMDA SOTSIOLOGIYA

X. Mirzahmedov **115** Yoshlar sotsiologiyasi: innovatsion tarbiya



TA’LIMDA MUTOLAA

D. Muminova **119** Bolalarda mutolaa madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

А. Мирзаназарова **124** Республика Узбекистан – инициатор и архитектор добрососедских отношений



МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ

Р. Габдулхакова **129** Вопросы становления современной методики обучения русскому языку в общеобразовательной школе

С. Мамадалиева **135** К проблеме обучения русской фразеологии общеобразовательной школах



НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Д. Мирзабдуллаева **139** Актуальность учений восточных мыслителей как рациональное средство разрешения конфликтов

TA'LIM-TARBIYA, ILM-FAN – MILLATNI BUYUK QILADI

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Shavkat MIRZIYOYEV

Zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash bugungi oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifadir.

Bugun oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish zarur. Shuningdek, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamon ahamiyatini yo'qotmagan.

Ta'lim va fan sohasiga investitsiyalarni yo'naltirish, ta'lim sohasida keng qamrovli va chuqur islohotlar o'tkazish, mamlakat intellektual salohiyatini rivojlantirish iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishning muhim garovi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbarining ta'lim sohasiga alohida e'tibor bilan yondashgani, ta'lim tizimida tubdan islohotlarni amalga oshirish siyosati davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi deb belgilangani mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi muvaffaqiyatlarining kafolati bo'lishi shubhasiz.

O'tgan yillar mobaynida Namangan davlat universiteti ijtimoiy-iqtisodiy sohalar uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlaydigan yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biriga aylandi. Bunda yurtimizga har tomonlama yetuk, bilimli, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollangan, raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Universitetning moddiy-texnik bazasi davr talablari darajasida yanada mustahkamlandi. Yangi o'quv binolari qurildi, zamonaviy auditoriyalar, mutaxassislik kafedralari uchun maxsus xonalar, sport inshootlari va boshqa obyektlar barpo etildi, mavjudlari rekonstruksiya qilindi. O'quv-ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalar joriy qilinib, o'quv xonalari zarur jihozlar bilan ta'minlandi.

Namangan davlat universiteti professor-o‘qituvchilari jamoasining sa’y-harakatlari bilan nafaqat mutaxassislik, balki ijtimoiy-gumanitar fanlardan ham yuzlab darslik, qo‘llanma va ma’ruzalar kurslari tayyorlandi.

Xususan, keyingi uch yil ichida fakultetlar soni 9 tadan 15 taga, mutaxassislik kafedralari soni 27 tadan 46 taga, ta’lim yo‘nalishlari soni 31 tadan 52 taga, magistratura mutaxassisliklari soni esa 12 tadan 26 taga yetkazildi. Bunga mos ravishda ilm istagida bo‘lgan universitet talaba-yoshlari soni 5100 nafardan qariyb 21000 nafarga yetdi. Professor-o‘qituvchilar soni 470 nafardan 710 nafarga yetdi.

Universitetda 2018-2020-o‘quv yiliga qadar ilmiy salohiyat 26 foizni tashkil etib, bironta ixtisoslik bo‘yicha ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormagan. Keyingi yillarda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e’tibor qaratilib, ilmiy salohiyat 37 foizdan oshdi, ta’lim sifatini ta’minlash yo‘lida bugungi kunda 12 ta ixtisoslik bo‘yicha 9 ta ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormoqda. Albatta, bu borada 27 ta ixtisosliklarda tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar hisobidan universitet ilmiy-pedagog kadrlari saflarini salohiyatli kadrlar bilan to‘ldirish maqsadi belgilab olingan.

Universitetda yetakchi xorijiy mamlakatlar ta’limi tajribalarini o‘rganish va ular bilan hamkorlik qilish ishlariga alohida e’tibor qaratiladi. Shu maqsadda Rossiya, Xitoy, Turkiya, Qozog‘iston, Belarus va boshqa davlatlarning ta’lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash va o‘zaro tajriba almashish borasida hamkorlik o‘rnatilgan.

Namangan davlat universitetida malakali kadrlar tayyorlash jarayoni muntazam islohotlar asosida davom ettirilmoqda. Bu esa yuksak ma’naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir oliy malakali mutaxassis kadrlar safini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Oliy ta’lim tizimi sifat va mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shuvchi va o‘z o‘rnini topa olishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimi oldida turgan vazifa ta’lim oluvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni bilim olishga qiziqtirish, bilishga moyillik, ijodiy tafakkur, mustaqil aqliy mehnat bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirilishini ta’minlashdan iborat bo‘lgan yangi vazifalar faol metodlarning paydo bo‘lishi va takomillashuvini taqozo etdi. Bu kabi vazifalarning vujudga kelishiga axborotning shiddat bilan taraqqiy etishi sabab bo‘lmoqda.

XXI asr texnika texnologiyalar asrida ta’lim tizmida yangi zamonaviy oliy ta’lim muassasalari qad rostlamoqda. Bularning barchasi bizning yosh avlodlarimiz kelajagimiz uchun qurilayotgan mustahkam poydevor desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Sobitxon TURG'UNOV,
Namangan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor
Dildora AKMALOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya

Maqola oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga strategik yondashuvni tatbiq etish asosida ta'lim-tarbiya jarayonlari samaradorlini ta'minlashga bag'ishlangan. Unda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishning asoslaridan biri sifatida strategik yondashuvni ta'lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlariga tatbiq etishning yaxlit pedagogik tizimning samaradorligini ta'minlashdagi amaliy ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar. Strategik yondashuv, mustaqil ta'lim, funksional vazifalar, funksional strategiya, diversifikatsiyalashgan strategiya, mujassamlashtirilgan strategiya, maxsus strategiya, strategiya turlari, pedagogik jarayon, pedagogik tizim, strategik maqsad, strategik boshqaruv, strategik reja, strategik rejalashtirish.

Статья посвящена обеспечению эффективности образовательных процессов на основе реализации стратегического подхода к организации и управлению педагогическими процессами в высшей школе, который включает целостный подход к организации и управлению образовательными процессами, практическое значение которого имеет практическое значение.

Ключевые слова. Стратегический подход, независимое обучение, функциональные задачи, функциональная стратегия, диверсифицированная стратегия, интегрированная стратегия, специальная стратегия, типы стратегий, педагогический процесс, педагогическая система, стратегическая цель, стратегическое управление, стратегический план, стратегическое планирование.

The article is devoted to ensuring the effectiveness of educational processes based on the implementation of a strategic approach to the organization and management of pedagogical processes in higher education institutions. The practical importance of ensuring the effectiveness of the pedagogical system and the specific aspects of functional, diversified, integrated and special strategies that provide for the joint implementation of the functional tasks of the subjects of the educational process are also scientifically based.

Key words. Strategic approach, education, independent learning, education, self-education, subjects, functional tasks, functional strategy, diversified strategy, integrated strategy, special strategy, types of strategy, pedagogical process, pedagogical system, strategic goal, strategic management, strategic planning, strategic planning.

Bugungi uzluksiz ta’lim islohotlari oliy ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish g‘oyalarini har tomonlama, ya’ni barcha pedagogik ahamiyat kasb etuvchi jarayonlar majmuini yaxlit tizim sifatida, ya’ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqish zaruratini belgilaydi. Shuningdek, pedagogik jarayonlar samaradorligini o‘rganishda o‘ziga xos yaxlitlik, umumiylik, universallik, differensiallik kabi tushunchalar asosida mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya’ni integratsion texnologiyalarni alohida tadqiq etish muhim.

Ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan pedagogik tizim – insonlarga ta’lim va tarbiya berish, ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog‘liq bo‘lgan komponentlar majmuidan iborat bo‘ladi.

Pedagogik tizimni o‘zgartirish, uni qayta tashkil etish va moslashtirish qaysidir qism yoki qismlarning o‘zaro ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishiga bog‘liq bo‘ladi:

– tizimlilik, yaxlitlilik – bunday shakldagi tizimni komponentlar, o‘zaro ta’sir etuvchi qismlar va bo‘g‘inlarning o‘zaro birikishini tashkil etadi va uning funksional vazifalarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta’minlaydi;

– pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi omillardan biri – maqsad bo‘lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi;

– pedagogik tizim uni tashkil etuvchi komponentlar majmuini ifodalab, uning o‘zgarishi ichki ziddiyatlarga bog‘liq bo‘ladi;

– pedagogik tizim ochiq bo‘lganligi sababli tashqi muhit bilan ko‘pgina kommunikatsiyalar orqali bog‘liq bo‘ladi, tashqi muhit va mavjud munosabatlar pedagogik tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi;

– axborotlarning pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o‘zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.

Shunday ekan, pedagogik jarayonlarni o‘zaro bog‘liq holda yaxlit tizim sifatida tashkil etish va boshqarish tizimli xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Pedagogik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagi tamoyillar asosida ko‘rsatishimiz mumkin:

• pedagogik jarayon ishtirokchilari hisoblangan professor-o‘qituvchilar va talabalar mazkur jarayon subyektlari sifatida faoliyat ko‘rsatishi, ya’ni pedagogik jarayonlarda subyekt-subyekt munosabatlarining qaror topishi;

• pedagogik jarayon subyektlari faoliyatining maqsadga yo‘naltirilganligi, izchilligi va o‘zaro bog‘liqligi;

• majmuaviylilik – pedagogik jarayonlar o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan komponentlar majmui ekanligi;

• integrativlik – harakatlanish va rivojlanishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi omillarning o‘zaro birligi;

• o‘zaro bog‘liqlik – pedagogik jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit pedagogik tizimni tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi;

• kommunikativlik – pedagogik tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o‘zaro ta’sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Demak, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarining unikal modelini takomillashtirishda tashkil etuvchi qismlar ta’sir ko‘rsatishining ahamiyatini

inobatga olish, shuningdek, bir xil, teng sharoitlarda pedagogik jarayonlarning rivojlanishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatuvchi ba’zi qism va bo‘g‘inlarni o‘zgartirishga kengroq imtiyozlar berish zarur.

Pedagogik jarayonlarning umumiy modelini o‘zgartirishda subyektlarning imkoniyatlari, boshlang‘ich tushunchalari va ishonchlariga asoslanish kerak, chunki yangilangan model zamonaviy talablar darajasida talabalarning o‘zgaruvchan ta’lim-tarbiyaviy, ma’naviy ehtiyojlarini qondira olishi, yuqori darajada ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan professor-o‘qituvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur bo‘lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olish lozim:

– pedagogik jarayonlarni samarali rivojlantirish yo‘llari tasodifiy holda va taxminiy belgilanganda ularning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar subyektlarning qobiliyatlariga, professor-o‘qituvchilarning qulay vaziyatlarni ko‘ra olishi va ularni qo‘ldan chiqarmasligiga bog‘liqligi;

– tizimga xos xususiyatlar kasb etuvchi obyekt sifatida pedagogik jarayonlarning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun uni tashkil etuvchi barcha komponentlarning rivojlanish sur’atlarini, subyektlar munosabatlari va faoliyati integratsiyasini ta’minlash hamda muvofiqlashtirishning zarurligi;

– pedagogik jarayonlarning rivojlanishidagi muvaffaqiyatlar mavjud omillarga asoslangan holda professor-o‘qituvchilarning kelajakni ko‘ra olishi va rivojlanish imkoniyatlarini oldindan aniqlay olishi mahoratlariga bog‘liqligi;

– murakkab tuzilishga ega bo‘lgan pedagogik jarayonlarning ichki ehtiyojlarini, subyektlar imkoniyatlari va boshlang‘ich tushunchalarini aniqlamasdan pedagogik jarayonlarni rivojlantirish yo‘nalishlarini majburan belgilash mumkin emasligi;

– pedagogik jarayonlar samaradorligini kuchli, majburiy va keng qamrovli ta’sir ko‘rsatish usullari asosida ta’minlash imkoniyatining mavjud emasligi;

– tashkil etuvchi qismlar va bo‘g‘inlar bo‘yicha aniq belgilangan tartibda (lokal) ta’sir ko‘rsatish pedagogik jarayonlarning samarali rivojlanishida yaxshi natijalarga erishishga asos sifatida xizmat qilishi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda uning komponentlari bo‘lgan ta’lim-tarbiya jarayonlari har birining funksional vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirish asosida pedagogik jarayon subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, eng avvalo, strategiya turlarini tanlash va ularni takomillashtirish yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, takomillashtirilgan strategiyalarni amalga oshirishga qaratilgan yangi strategik rejalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi.

Pedagogik jarayonlar boshqaruvida strategik maqsad pedagogik tizim komponentlari bo‘lgan ta’lim-tarbiya jarayonlari barcha shakllarining umumiy samaradorligini ta’minlashni ifodalaydi hamda unga erishishda barcha komponentlar va ularning subyektlarida natijaviylikka qiziqish shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday bo‘lsa-da, pedagogik tizim komponentlari bo‘lgan ta’lim jarayonlari (obyektlar) va ularning subyektlari faoliyati samarali boshqarilishi zarur. Agar obyektlar va subyektlar faoliyati o‘z vaqtida muvofiqlashtirib borilmasa, pedagogik tizimda turli xil darsga salbiy munosabatda norasmiy guruhlar va pedagogik tizimning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muammolar ham vujudga kelishi mumkin. Bunday muammolarni oldini olish va strategik maqsadni amalga oshirishda strategiyalar va strategik rejalar o‘ziga

xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, pedagogik tizimni samarali tashkil etish va boshqarishda ixtiyoriy shakldagi ta'lim-tarbiya jarayonida subyektlarni strategik maqsadga erishishga undash hamda maqsadlarga erishish jarayonida ularning faoliyatini uyg'unlashtirish yo'nalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan demokratik boshqaruvning quyidagi bir necha usul va shakllarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– maqsad yo'nalishidagi topshiriqlar orqali boshqaruv – bu usuldagi boshqaruv birinchi o'rinda, barcha subyektlar bo'yicha, ya'ni professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi pog'onaviylik asosida maqsadga erishish yo'nalishida vazifalar belgilaydi, ma'lum bir belgilangan tartib va rejaga hamda kuzatuvlar tahliliga, erishilgan yutuqlarga asoslangan holda maqsadga erishish metodlari va yo'llarini belgilashda qulayliklar yaratadi;

– xodimlarning aloqadorligi orqali boshqaruv – maqsadni shakllantirish, shuningdek, uni amalga oshirish va ta'minlash jarayonida xodimlarni ishtirokini ta'minlash;

– kelishilgan maqsad orqali boshqaruv – bu maqsad yo'nalishidagi topshiriqlar va xodimlarning aloqadorligi orqali boshqaruvlarning o'zaro birikkan shakli bo'lib, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilashda xodimlar ishtirok etishadi va joriy maqsadlarga erishish yo'nalishlari kelishiladi.

Demak, pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etish va boshqarishda strategik maqsadlarga erishish barcha subyektlarning hamkorlikdagi samarali faoliyatini nazarda tutadi. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish jarayonlarida subyektlar faoliyatini takomillashtirish boshqaruv jarayonining samaradorligiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi va pedagogik tizim faoliyati samaradorligini ta'minlashning eng asosiy shartlaridan biri hisoblangan strategiyalarni tanlash va ular asosida strategik rejalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bunday shartlarning bajarilishini nazarda tutuvchi boshqaruv jarayoni strategik boshqaruvni ifodalaydi.

Pedagogik tizim barcha komponentlari samaradorligini ta'minlashda ularning subyektlari hamkorligini ta'minlovchi strategik boshqaruv jarayonlarida strategik maqsadni aniqlashtirish, strategiyalarni tanlash, strategik rejalashtirish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonlariga barcha subyektlarning ishtirokini ta'minlash; tanlangan strategiyalar yo'nalishlarida nafaqat subyektlar, balki tashqi ta'sir ko'rsatuvchi ta'lim muassasalari rahbarlari faoliyati va munosabatlarini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayon subyektlarining imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, motivlashtirish va nazorat qilish kabi vazifalarni ham qamrab oluvchi strategik rejalarni amaliyotga tatbiq etish zarur.

Demak, pedagogik tizim faoliyatini muvofiqlashtirishda strategik boshqaruvni tashkil etishdan asosiy maqsad obyektlar (ta'lim jarayonlari) va barcha subyektlar (ta'lim muassasasi rahbarlari, professor-o'qituvchilar va talabalar)ning umumiy faoliyatini takomillashtirish yo'nalishidagi masalalarni hal etish, muammolarning ijobiy yechimini topish, strategiyalarni tanlash va takomillashtirish, turli xil strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarida subyektlarning barchasini ishtirokini ta'minlash hamda strategik rejalarni amalga oshirishda ularning faoliyatini muvofiqlashtirishdan iborat bo'ladi. Bunda strategik boshqaruv jarayonining maqsadi obyektiv bo'lib, o'z o'rnida barcha subyektlar tomonidan belgilanadi va uning natijalariga barchada qiziqish shakllanadi.

Strategik boshqaruv o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular maqsadga erishishda harakatlar izchilligi bilan belgilanadi ya'ni bu jihatlar o'z-o'zidan maqsadga ko'ra, aniqlanmaydi, balki maqsadga erishishdagi o'zaro hamkorlik, o'zaro tushunish, o'zaro

ta’sir jarayonining samarasi, qulay ta’limiy muhit, ta’lim oluvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar orqali belgilanadi, chunki pedagogik tizimning asosiy maqsadi umumiy bo‘lib, u o‘zgarmasa-da, mazkur maqsad belgilangan vaqtdagi shart-sharoitlar hamda subyektlar munosabatining o‘zgarishi natijasida pedagogik jarayonlar samaradorligi o‘zgarishi mumkin.

Shunday ekan, strategik boshqaruv asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish uchun strategiya turlarini tanlash yoki ularni takomillashtirish asosida yangilarini ishlab chiqish zarur bo‘lib, bu o‘z mohiyatiga ko‘ra, maqsadga erishish yo‘nalishida barcha boshqaruv subyektlarida qiziqishlar uyg‘otishga yo‘naltirilgan tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutuvchi, ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, uning natijaviyligini ta’minlash orqali pedagogik tizim faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Takomillashtirishga yo‘naltirilgan tadbirlarni tashkil etish muddatlari, ularni amalga oshirish yo‘nalishidagi funksional vazifalar va ularni ham amalga oshirish muddatlari, mas’ul subyektlar, belgilangan vazifalarni amalga oshirish obyektlari strategik rejalarda keltiriladi. Strategik rejalarni ishlab chiqish jarayonlari strategik rejalashtirish jarayonlarni ifodalaydi.

Strategik rejalashtirish jarayonlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarida strategik rejalashtirishda strategiya turlari va ularning o‘ziga xos tomonlari o‘rganiladi, ularning har biri qanday maqsadlarga qaratilgani va ulardan qachon foydalanish mumkinligi aniqlanadi hamda strategik maqsadlarga ko‘ra, strategiyalar takomillashtiriladi. Takomillashtirishda subyektlar faoliyati hamda pedagogik tizim komponentlari bo‘lgan ta’lim jarayonlarining mavjud holati o‘rganiladi va qaysi strategiya turini tatbiq etishga ko‘proq ehtiyoj borligi aniqlanadi hamda strategiyalar tatbiq etish (birlamchi va ikkinchi darajali) darajalari belgilanadi. Shuningdek, takomillashtirishda pedagogik tizimning umumiy maqsadi va vazifalariga ko‘ra, har bir ta’lim va tarbiya jarayonlari strategiyasini belgilash, erishish mumkin bo‘lgan natijalarni oldindan aniqlashtirish, funksional vazifalarni bajarishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, strategik rejada belgilangan vazifalarni subyektlarning imkoniyatlariga muvofiqlashtirish hamda ta’lim jarayonlarining mazmunan uzviyligini ta’minlash ham takomillashtirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

S.Turg‘unovning fikricha, strategik rejalashtirish oldindan belgilangan maqsadlardan kelib chiqib amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilash, mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun boshqaruv funksiyalari, metodlari hamda maqsadlarini aniqlash va amalga oshirish yuzasidan strategik rejalar ishlab chiqish jarayoni bo‘lib, bunda maqsad va vazifalarning ilmiy asoslanganligi, belgilangan muddatlarning aniqligi va obyektivligi, ijrochilarning bilimi va kasb mahorati, tashqi muhit ta’siri, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, muassasa imkoniyatlari, shuningdek, boshqaruv strategiyasi, ya’ni strategiyani amalga oshirishni boshqarish yo‘nalishlari o‘rganilib tahlil qilinadi.

Strategik yondashuv asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish uning barcha komponentlarining o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi, integrativ tabiati kabi qator o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish, subyektlarning innovatsion va hamkorlikdagi faoliyati uchun shart-sharoitlar yaratish, professor-o‘qituvchi bilan talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish kabi qator yo‘nalishlar bo‘yicha mavjud muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Demak, strategik yondashuv pedagogik jarayonlarni belgilangan strategik

maqsadlarga ko‘ra, to‘g‘ri rejalashtirish va uni izchil amalga oshirish, ta’lim va tarbiya jarayonlari subyektlari faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishda, shuningdek, strategik maqsadlarga hamda ko‘zlangan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etuvchi strategik rejalashtirish, strategik qarorlar qabul qilish hamda ularning ma’lum bir izchillikda bajarilishini nazorat qilish, tahlil qilish va obyektiv baholash jarayonlarida o‘ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tizim boshqaruvi ikki kichik tizim faoliyati jarayonlarida, ya’ni uzluksiz ta’lim jarayonlarining alohida komponentlari bo‘lgan ta’lim hamda mustaqil ta’lim jarayonlarida amalga oshiriladi. Mazkur jarayonlar hamda o‘zaro uzviy bog‘liq va aloqadorlikda bo‘lgan barcha komponentlar faoliyati, ularni muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan hamkorlikdagi faoliyatlar boshqaruv obyektlari bo‘lib, professor-o‘qituvchilar va talabalar mazkur jarayonlar subyektlari hisoblanadi.

Pedagogik tizimining funksional vazifasi strategik maqsadga qaratilgan faoliyatlar yo‘nalishi, falsafasi, ta’lim va tarbiya jarayonlari tashkilotchilari tomonidan tanlangan model, strategiya va taktikalar orqali tavsiflanadi.

Mazkur tizim faoliyati samaradorligi esa qo‘llaniladigan barcha faoliyat usullari, texnologiya va mexanizmlar hamda tanlangan taktika va strategiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda mazkur tizim subyektlari mustaqil qarorlar qabul qilish, strategik maqsadni shakllantirish, taktika va strategiyani mustaqil belgilash, individual va jamoaviy rivojlanishning istiqbol dasturlarini mustaqil ishlab chiqishi zarur.

Strategik rejalashtirish jarayonlari samaradorligi ko‘p jihatdan strategik rejalarning bir necha muqobil variantlarini ishlab chiqish hamda strategik maqsadga va muassasaning imkoniyatlariga ko‘proq mos keladigan variantni tanlab olish bilan bir qatorda, strategiyalarni tanlab olish jarayonlarida barcha subyektlarning ishtirokining ta’minlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Shunday ekan, pedagogik tizimning har bir komponentining strategik maqsadi va imkoniyatlari inobatga olingan, shuningdek, pedagogik tizimni tashkil etuvchi har bir ta’lim, mustaqil ta’lim-tarbiya va o‘zini-o‘zi tarbiya jarayonlari subyektlarining funksional vazifalarini hamkorlikda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi funksional, diversifikatsiyalashgan, mujassamlashtirilgan va maxsus strategiyalarni ham mazmun-mohiyatan, yo‘nalishiga ko‘ra, yaxlit pedagogik tizim faoliyatida belgilangan strategik maqsadlarga ko‘ra takomillashtirilishi zarur.

Bizning fikrimizcha, mazkur turdagi strategiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda ularning har birining funksional vazifalaridan kelib chiqib hamda pedagogik tizim komponentlarining tizimga xos xususiyatlarini inobatga olib, strategiyalarning yo‘nalishi va funksional vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin.

Maxsus strategiya pedagogik jarayonlar subyektlari faolligini ta’minlash va hamkorlikdagi faoliyat samaradorligini oshirish hamda ta’lim oluvchilar kasbiy va ilmiy qiziqishini rivojlantirish orqali ta’lim jarayonlari natijaviyligini ta’minlash, shuningdek, pedagogik tizim komponentlari bo‘lgan mustaqil ta’lim va o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayonlari ahamiyatini inobatga olish asosida aniq muddatlarga tuziladi.

Funksional strategiya strategik maqsadlar yo‘nalishida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirishga qaratilgan korporativ yondashuv texnologiyalari hamda ularni amalga oshirish jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari majmuidan iborat ishchi strategiya sifatida shakllantiriladi.

Mujassamlashtirilgan strategiya ta’lim va tarbiya jarayonlarining tizimga xos

xususiyatlariga asoslangan va barcha komponentlar funksional vazifalarining uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan hamda strategik maqsadga erishish yo‘nalishida yaxlit pedagogik tizimning faoliyatini amalga oshirilishini ta’minlaydigan strategik rejalarni ifodalaydi.

Diversifikatsiyalashgan strategiya ta’lim oluvchilarning iqtidori, qobiliyati va qiziqishlariga ko‘ra, ta’lim va mustaqil ta’lim jarayonlariga kengroq qamrab olish asosida ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, turdosh kasblarni o‘rgatish va kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish, bitiruvchilarning kelgusida o‘zlari tanlagan kasbdan boshqa yo‘nalishlarda faoliyat yuritishga ketib qolishlarini oldini olishga qaratilgan funksional vazifalarni amalga oshirish yo‘llarini ifodalaydi.

Mazkur strategiyalarni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlariga tatbiq etilishi, tizim komponentlari hisoblangan ta’lim jarayonlarini muvofiqlashtirishga ijodiy erkinlik imkoniyatlarini berish asosida ta’lim jarayonlarining diversifikatsiyalashuvi natijasida, strategik yondashuv pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonining asosiy mazmuniga aylanib boradi. Shuni ham ta’kidlash joizki, barcha keltirilgan strategiya turlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, yaxlit pedagogik tizim faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishida ular tizimga xos xususiyatlarni kasb etadi.

Demak, keltirilgan strategiyalarning muhim xususiyatlaridan biri – pedagogik tizim boshqaruvida tizimning barcha komponentlari va ularning barcha subyektlari hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishni nazarda tutadi va o‘z navbatida, strategik maqsadning natijaviyligi oldindan aniqlangan bo‘lishi, ta’lim muassasasi maqsadi va funksional vazifalariga muvofiq bo‘lishi zaruratini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 2007. – 362-b.

2. Turg‘unov S.T. Ta’lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat. // Uzluksiz ta’lim.–T., 2006. – №4. –3-6-betlar.

3. Turgunov S.T., Akmalova D.T. Improving the organization and management of pedagogical processes inhigher education institutions through a strategic approach.- // Scientific bulletin of NamSU. –T., 2021 № 4 P. 324-330.

4. Turgunov, S.T., Akmalova, D.T. Mechanisms of application of modern approaches to the organization and management of educational processes in Universities. International Journal of Social Sciences, 4(1), 2021. P. 162-167.

5. Управление качеством образования // Под.ред. М.М.Поташник. – М.: Пед. общест. России, 2001. – С.448.

Muhabbat SAIDOVA,
Namangan davlat universiteti, ‘‘Rus tilshunosligi’’ kafedrasi mudiri

TA’LIM ISLOHOTLARI YANGI BOSQICHDA

Annotatsiya

Maqolada mustaqillik yillarida, xususan, keyingi 5 yil mobaynida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, ta’lim tizimini yanada yaxshilashga qaratilgan farmon va qarorlari asosida amalga oshirilayotgan ishlar aniq misollar bilan ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Islohot, ijtimoiy-iqtisodiy, ta’lim tizimi, oliy ta’lim, ta’limdagi islohotlar, qaror va farmonlar.

В статье анализируется социально-экономические и образовательные реформы в Узбекистане за годы независимости, а также в сфере образования, в частности за последние 5 лет. На конкретных примерах показана работа, проводимая на основе указов и постановлений по дальнейшему совершенствованию системы образования, также освещены результаты комплексных реформ школьного образования и высшей школы.

Ключевые слова. Реформа, социально-экономические, система образования, высшеее образование, реформы образования, указы и постановления.

The article analyzes the socio-economic and educational reforms in Uzbekistan over the year of independence as well as in the field of education in particular over 5 years. The work carried out on the basis of decrees of regulations for the further improvement. The article also highlights the results of comprehensive reforms in school education and higher education.

Key words. Reform, socio-economic, education system, higher education, educational reform, decrees and regulations.

O‘zbekiston Davlati Mustaqilligining 30 yillik bayramiga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rilmoqda. Bu o‘z navbatida, 30 yil mobaynida, xususan, keyingi 5 yilda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida yuz bergan keng ko‘lamli ishlarni har bir kishining ko‘z o‘ngidan o‘tkazilishi tabiiy holdir. Shu jihatdan o‘tgan davr haqida fikr yuritganda bir jihatni alohida ta’kidlash joizdir. O‘tgan 30 yil davr mobaynida o‘ziga xos tarixiy bosqichlarga ega, lekin keyingi 5 yil ichida mamlakatimizda siyosiy, iqtisodiy, ta’lim sohalarda va tashqi siyosat borasida amalga oshirilgan ishlar, yuz bergan o‘zgarishlar ko‘lami beqiyosdir. Avvalo, shuni aytish kerakki, mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilgan barcha islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad xalqimizning turmush darajasining bugun kechagidan, ertaga bugungidan yaxshiroq qilishga, aniqrog‘i odamlarni hayotdan rozi qilishga qaratilganligi bilan muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan, oxirgi yillarda oshirilgan islohotlarning o‘ziga xos jihati shundaki, har bir islohot, avvalo, xalq bilan maslahatlashib, puxta loyihalar asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarda bugun, ertaga va kelajakda amalga oshiriladigan ishlar real asoslarga ega. Shuning uchun ham mamlakat miqyosida ham, joylarda ham amalga oshirilgan o‘zgarishlarning natijasini har bir oila, mahalla, shahar va viloyat misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning har bir tashabbuslari chuqur ilmiy asosga egaligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda davlatimiz rahbari “Mahallabay”,

“Xonadonbay” tarzda ishlarni tashkil qilish to‘g‘risidagi tashabbuslarini, men nafaqat iqtisodiy tadbirlar yig‘indisi, yoki kredit ajratish, yoki yer ajratish kabi chora-tadbirlardan iborat deb hisoblayman, shu bilan birga bu tashabbus juda katta ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan “O‘zbekiston tajribasi” sifatida o‘zini namoyon qilyapti, deb aytishim mumkin. Bu tashabbusning yana bir qimmati shundaki, odamlar kunlik hayotining asosiy qismini o‘z oilasida va mahallasida o‘tkazadi. Mamlakatimiz va viloyatimiz miqyosida o‘tkazilayotgan islohotlarni oilasi va mahallasi misolida ko‘rib, davlatimiz rahbarining xalqparvarlik siyosati, odamlarning kundalik hayotda aks etayotganini ko‘rib, O‘zbekistonni buguni va ertasi uchun juda katta ishonch bildiryapti. Bugun yuz berayotgan o‘zgarishlar uchun shukronalik tuyg‘usi ham shundandir.

Keyingi yillardagi o‘zgarishlar haqida gapirganda, ta’lim sohasidagi islohotlarga alohida to‘xtalish o‘rinli bo‘lar edi. Prezidentimiz ta’lim sohasidagi yutuq va muammolarni ichidan bilganliklari uchun bu sohani mazmun va sifat jihatdan tubdan yaxshilashga doimiy e’tibor berib, g‘amxo‘rlik ko‘rsatyaptilar.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu sohaga aloqador videoselektor yig‘ilishlarida, soha xodimlariga bayram tabrigi va Murojaatnomalarini eshitib har birimizda shunday his-tuyg‘u vujudga keladiki, davlatimiz rahbari har bir chiqishlarida xoh u mamlakatimizda bo‘lsin, xoh xalqaro miqyosdagi nufuzli anjumanlarda bo‘lsin yangi g‘oya va tashabbuslarini ilgari suradilar. Yaqinda O‘zbekistonni xalqaro miqyosda obro‘-e’tiborining oshishi bilan bog‘liq voqeani guvohi bo‘ldik. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar tashkilotining 75-yubiley sessiyasida tarixiy nutq so‘zladi. Avvalo, nutq o‘zbek tili ona tilida bayon qilingani bilan tarixiy ahamiyatga ega. Ikkinchidan, yer yuzi aholisining tashvishga solayotgan masalalar yechimi bilan bog‘liq aniq takliflar ilgari surildi. Shu bois, Prezidentimizning BMT sessiyasida so‘zlagan nutqlari jahon hamjamiyati siyosatdonlari tomonidan juda katta qiziqish bilan kutib olindi, uni ular o‘rganmoqda, ma’qullamoqda. Bular tabiiyki, har bir O‘zbekistonlik qatori biz ma’rifatchilarda ham g‘urur va faxr uyg‘otmoqda. Ushbu fikrni davom ettirib, yana bir jihatni ta’kidlamoqchimiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Mustaqillik bayrami munosabati bilan xalqimizga yo‘llagan bayram tabriklarida O‘zbekistonning kelgusi rivoji, yuksalishi bilan bog‘liq bir muhim g‘oyani ilgari surdilar, ya’ni “O‘zbekistonda uchinchi Renessans davri uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda” – dedilar. Ushbu da’vatni joriy yildagi Murojaatnomalarida atroflicha asoslab berdilar, aniqrog‘i, xalqimiz o‘zining qadimiy va boy tarixida birinchi va ikkinchi uyg‘onish davrini o‘z boshidan kechirganini chuqur ilmiy tahlil qilib berdi. Ayni chog‘da, “Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar misolida uchinchi uyg‘onish davri uchun mustahkam poydevor yaratilmoqda” – deganlarida chuqur ilmiy asos bor, va bu yangi g‘oya “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy konsepsiyaga hamohang deb bilamiz. Shuning uchun ham, avvalroq aytganimizdek, mamlakatimizda yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat egasi qilib tarbiyalashda ta’lim tizimini yanada rivojlantirishga katta g‘amxo‘rlik qilinmoqda. O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan bayram tabrigini har yili Prezidentimizning shaxsan o‘zlari yo‘llaganliklari, ushbu Murojaatnomada sohani yanada yangi bosqichga olib chiqish bilan bog‘liq, o‘qituvchining jamiyatda obro‘-e’tiborini yanada oshirish bilan bog‘liq aniq vazifalarni belgilab berganlari, yuqoridagi fikrimizning isbotidir. Prezidentimiz o‘z Murojaatnomalarida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘ini: maktabgacha ta’lim, maktab ta’limiga doir barcha dolzarb vazifalarni belgilab berdilar, uyg‘onish davri uchun aynan shu tizimni yanada rivojlantirish zarurligini ilmiy asoslab berdi. Shu bilan birga, oliy ta’lim tizimiga doir, uning rivoji bilan bog‘liq qimmatli yo‘l-yo‘riq va ko‘rsatmalarni ham berdilar. Ushbu tizimning yutuq va kamchiliklarini ichidan biladigan kishi

sifatida doimo bir fikrni ilgari suradilar. Ya'ni, oldimizda turgan o'ta mashaqqatli va murakkab vazifani bajarish faqat yuqori salohiyatli va zamonaviy bilimga ega kadrlar bilan hal qilish mumkin deydi. Bunday fikrni soha xodimlariga Murojaatnomalarida yana bir bor ta'kidladi. Tabiiyki, davlatimiz rahbari talab qilgan zamonaviy bilim, malaka va salohiyatga ega kadrlar oliy o'quv yurtlarida tayyorlanadi. Shu boisdan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim islohotiga katta e'tibor bermoqda. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish keyingi yillarda 9 foizdan 25 foizga oshdi. Oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga yetdi, oliy ta'lim tizimining kechki va sirtqi shakllari yo'lga qo'yildi, yetakchi xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan qo'shma fakultetlar tashkil qilindi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan talabalarning 48 foizini talaba-qizlar tashkil qilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan o'tgan o'quv yilidan boshlab yo'lga qo'yilgan tizimga muvofiq 950 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlar oliy o'quv yurtlariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindilar. Birgina Namangan davlat universiteti o'zida ham mana shunday imtiyozdan foydalanib ko'plab xotin-qizlarimiz tahsil olmoqdalar. Bu albatta, quvonarli va tahsinga sazovordir.

Tabiiyki, mamlakatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimiga, soha xodimlariga bunday e'tibor uchun har birimiz, u maktab o'qituvchisimi, yoki oliy o'quv yurti professor-o'qituvchisi bo'ladimi, u bunday g'amxo'rlik uchun biz qanday javob berishimiz kerak, – degan savolni o'zimizga berishimiz kerak. Shu ma'noda, biz talabalarga davlatimiz rahbari talab qilgan darajada chuqur bilim, zamonaviy ko'nikma va malaka bera olyapmizmi, albatta, bunga avvalo, o'zimiz tayyor bo'lishimiz, universitet, institut o'qituvchisi degan maqomga o'zimiz munosib bo'lishimizni hayot taqozo qilmoqda.

Olib borayotgan tadqiqotlarimizning amaliy natijalari, ulardan kelib chiqib berilayotgan taklif va tavsiyalarimiz amaliyotga, ishlab chiqarishga qanday tatbiq qilindi, bu borada jiddiy o'ylashimiz kerak deb hisoblaymiz.

O'ylaymizki, viloyatimiz olimlari, ziyolilari muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'lim tizimi xodimlari oldida turgan vazifalarni bajarishda fidoiylik ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan murojaatnomasi, 2020-y. 31-avgust "Xalq so'zi".

2. Shavkat Mirziyoyev O'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan murojaatnomasi. 2020-yil 30-sentabr. "Xalq so'zi" 1-oktabr.

3. Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 30 yilligiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish to'g'risida"gi Qarori... 2021-yil, mart.

4. Shavkat Mirziyoyev Mamlakat Prezidentining Parlament va xalqqa Murojaatnomasi. 2021-yil, 24-yanvar.

5. "Xalq so'zi" gazetasi. Xotin-qizlarga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha vazifalar muhokama qilingan videoselektr yig'ilishi haqida hisobot. 2021-yil, fevral.

6. Toshqulov A. Yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish eng muhim vazifa. "Xalq so'zi", 2021-yil 26-iyun.

Zamiraxon ISAQOVA,
Namangan davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

YANGI O‘ZBEKISTON – MA’NAVIY YANGILANISH: MAVJUD MUAMMOLAR VA ISTIQBOLDAGI YECHIMLAR

Annotatsiya

Maqolada “Irfoniylik va dunyoviylik uyg‘unligi (plyuralistik yondashuv, mustaqil fikrlash, irodani chiniqtirish, tafakkurni yuksaltirish, dunyo xalqlari ilg‘or madaniyatini tanqidiy o‘zlashtirish)” tamoyilini ta’lim tizimi modernizatsiyasiga yo‘naltirish orqali sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish konsepsiyasi falsafiy-irfoniy talqin etilgan.

Kalit so‘zlar. Irfoniylik, insoniylik, orif, ilm, ma’rifat, o‘zlikni anglash, imkoniyat, iroda, sog‘lom tafakkur, sog‘lom qalb, sog‘lom ijtimoiy muhit, ruhiy xotirjamlik, shukronalik, kechirimlilik.

В статье философско-эпистемологический интерпретируется концепция создания здоровой социальной среды, путем направления принципа модернизации системы образования акцентируя на принципе “Гармония духовное и светское (плюралистический подход, независимое мышление, укрепление воли, воспитание мышления, критическая ассимиляция передовых культур народов мир)”.

Ключевые слова. Человечность, мудрость, знания, просветление, самосознание, воля, здоровое мышление, здоровое сердце, здоровая социальная среда, душевный покой, благодарность, прощение.

The article philosophically and epistemologically interprets the concept of creating a healthy social environment, by directing the principle of modernizing the education system, focusing on the principle “Spiritual and secular harmony (pluralistic approach, independent thinking, strengthening will, mentoring, critical assimilation of advanced cultures of the peoples of the world)”.

Key words. Humanity, wisdom, knowledge, enlightenment, self-awareness, will, healthy thinking, healthy heart, healthy social environment, peace of mind, gratitude, forgiveness.

XXI asrda tubdan ruhiy yangilanish va axloqiy mukammallashishga zarurat tug‘ildi. Ruhiyatdan uzoqlashib, moddiylashib, ratsionallashib ketgan inson qayerda xato qilganini anglashi hayot ehtiyojiga aylandi. Nanotexnologiyalarda erishilgan so‘nggi yutuqlar ham, iqtisodiy barqarorlik ham, moddiy farovonlik ham ma’naviy-ruhiy ehtiyojni qondira olmaydi.

Buning uchun nima qilish lozim?

Insonning ruhiyati, axloqi va ma’naviyatidagi kemtiklarni to‘ldirish uchun irfon ahlining hayoti, fikrlari, hikmatli so‘zlari, yozgan asarlariga murojaat qilish va masalaning yechimini umumbashariy asosda ko‘rib chiqish asosida “Irfoniylik va dunyoviylik uyg‘unligi (plyuralistik yondashuv, mustaqil fikrlash, irodani chiniqtirish, tafakkurni yuksaltirish, dunyo xalqlari ilg‘or madaniyatini tanqidiy o‘zlashtirish)” tamoyilini yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi modernizatsiyasiga yo‘naltirish orqali sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish konsepsiyasi taklif etildi.

Sharq falsafiy tafakkurida inson va uning ruhiyati, sir-asroriga yetish dolzarb muammo sirasiga kirgan. Abu Nasr Farobiy “Odamlar o‘zlarining xos xususiyatlari va tabiiy ehtiyojlariga ko‘ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe’llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qobiliyat belgilaydi” – deydi. Ibn Xaldun inson tabiatida ezgulik va yovuzlik mavjudligi, odamlar o‘z holiga qo‘yilsa, insoniylik ruhida tarbiyalanmasa, ilohiy marhamatni qo‘lga kirita olmasligi, ilohiy ne’mat kamdan-kam kishiga muyassar bo‘lishi, buning izohi esa insonning “xayr” va “sharr” oralig‘ida qolib, ulardan muqobilini tanlash lozim bo‘lganida, unda “sharr”ni tanlashi, inson tabiatida “sharr”ga moyillik ustunligi, adolatsizlik va hukmronlik qilish insonga xosligi, jamiyatda kishilar bir-biriga jabr qilmasligi uchun ma’rifatga erishishlari zarurligini ta’kidlagan.

G‘arb falsafasida inson ruhiyatining yangicha talqini XX asr o‘rtalaridan boshlanib, F.Nitsshe tomonidan asos solingan. V.Diltey, O.Shpengler, G.Zimmel, A.Bergson uni rivojlantirib, inson hayotining mohiyatini insonning o‘zidan anglab olishga qaratganlar. Texnogen taraqqiyotning hozirgi bosqichida insoniyat yechimini topmagan yangi xavf-xatar va tahdidlardan yuksak axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lish va o‘z insoniy mohiyatini anglash orqali xalos bo‘lishi muqarrar. Shu o‘rinda mashhur ingliz sharqshunosi J.S.Trimingemning quyidagi xulosalarini eslash o‘rinlidir: “tasavvufiy yo‘l ilgarigidek insoniyatning ma’naviy sog‘lomligini saqlash uchun muhim bo‘lib qolmoqda”.

Insonning asl qiymati uning odobi, axloqi va ma’naviyati bilan belgilanadi. Inson tanasida hosil bo‘ladigan quvvatning asosiy qismi ruhdan hosil bo‘ladi. Yurakning quvvati miyaning quvvatidan taxminan besh yuz barobar yuqori bo‘lib, inson o‘zidan tarqatayotgan elektromagnit to‘lqinlari boshqa inson tanasi va miyasiga ma’lumot tarzida yetib boradi. Inson shu taxlit boshqalarda taassurot qoldiradi va boshqalar tarqatayotgan energiyaning xossasidan ularning yaxshi-yomonligini biladi.

Insonni o‘z ruhiyatidan uzoqtashtiradigan, begonalashtiradigan holatlar aslida insonning o‘zida, ya’ni insonning o‘ziga-o‘zi sig‘inishidadir. Insonning “xudoparast”ligi zamirida uning “xudparast”ligi, ya’ni o‘z manfaati, betizgin orzusiga yetish, o‘zini himoya qilish mujassam. Bunday sig‘inish tijorat oldi-berdisiga o‘xshaydi. Azaldan insonning Xudodan begona holda uning marhamatiga sazovor bo‘lish ilinji juda ko‘plab xudolarni kashf qilishga sabab bo‘lgan: hosildorlik xudosi, urush xudosi, muhabbat xudosi, san’at xudosi va hokazo. Qur’onda “O‘z havoyi nafsini iloh qilganni ko‘rmadingmi?” deyilganki, inson xudbinlik, manmanlik, xudparastlik illatidan qutulsa, Haq yo‘l, ilohiy mohiyatni topa oladi. Inson so‘zining lug‘aviy ma’nosi “unutuvchan”dir. Insonning tuyg‘u, holat, kayfiyatlari kabi “men”ligi ham tez o‘zgaradiki, “inson o‘ziga xos, betakror (individual) “men”ga ega bo‘lishi mushkul.

Bugungi kunda jahon afkor ommasini tashvishga solayotgan muammolar ichida iqtisodiy muammodan ham e’tiborlisi ma’naviyat bilan bog‘liq bo‘lgan axloqiy parokandalik, ma’naviy tanazzul, tamadduniy inqirozdir. Zero, inson ma’naviyati bilan insonlik maqomini saqlab qoladi, aksincha, ma’naviyatdan mahrum inson befarq, manqurt (indefferent)ga aylanadi. Bugungi kunda olomon madaniyati bilan birga ruhsizlik va ruhiyatsizlik ham rivojlangan, rivojlanayotgan va qashshoq mamlakatlarda birdek ta’sir ko‘rsatib, insoniy tushunchalar asta-sekin o‘lib, yo‘qolib bormoqda. Iqtisodiy qiyinchilik va siyosiy nizolar xalqning ma’naviy buzilishiga, jamiyatda axloqiy illatlarning ko‘payishiga zamin yaratadi, agar inson o‘z zamoni haqida jon kuydirmasa, uni inson deb hisoblab bo‘lmaydi.

Ma’naviy inqirozning oldini olish imkoni bormi? Bugun illatning oldi olinmasa, ertaga nima bo‘ladi? Ilmiy izlanishlar samarasi bashariyat oldida ko‘ndalang turgan muam-

molarni ijtimoiy bashorat qilish imkoniyatini beradi: “Bunday keskin va tahlikali sharoitda ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y xushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz, bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim, bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”.

Inson ruhiy barkamollik uchun tug‘iladi, ya’ni inson mutlaq ideal sari qadam tashlashi bilan unda yangi va sirli olam namoyon bo‘ladi. Inson istak-orzusini amalga oshirishi uchun imkoniyatlar mavjudki, qanday ishni bajarishni istasa, o‘shani qila oladi, qiyin vaziyatga tushib qolsa, undan chiqish yo‘lini biladi, undan faqat ruhan kuchli va irodali bo‘lish talab etiladi. Buning uchun zohiriy olamdagi shart-sharoitning dahli yo‘q, aksincha, orzu insonning botiniy olamida ro‘yobga chiqishi lozim. Insonning botini hurriyat olamidir.

Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg‘unligidagi me’yorlarning buzilishi diniy va dunyoviy qadriyatlarning qadrsizlanishiga, ya’ni odamlarning axloqiy va aksiologik jihatdan tanazzulga uchrashga olib keladi.

Inson hayotida paydo bo‘lgan turli salbiy kechinmalar, ruhiy holatlar va ko‘ngilsizliklardan diniy amallarni bajarish orqali taskin izlaydi va ibodat orqali “forig‘lanish”, ya’ni “katarsis” (katarsis jarayonida qarama-qarshi, og‘ir va azobli kechinmalar yechim topadi. Bu qisqa to‘qnashuv asosida, bir kechinmaning barham topishi, negativ kechinmalardan ozod bo‘lish, “poklanish” hodisasi yuzaga keladi) holatiga erishadi.

Barqaror jamiyat qurish unda yashaydigan kishilarni ma’naviy-axloqiy takomillashtirish yo‘lini topish shartini qo‘yadi. Texnika va texnologiya yuksalgan XXI asr o‘zining hayratomuz yangiliklari va axborot olamidagi novatorligi bilan ilgarilab ketgan bo‘lsa ham, axloqiy, diniy masalalar, mutaassiblik, aqidaparastlik, kelishmovchilik, nifoq, madaniyatlararo tushunmovchilik, noqislik, yashash sirlaridan bexabarlik borasida X-XIII asrdan uncha farq qilmaydi. Aksincha, bugungi davrda yashayotgan insonga o‘tmishda qadrga ega bo‘lgan, axloqiy kamolot, mehr-muhabbat, uyg‘unlik, hayotning mohiyati va maqsadi bo‘lgan altruistik qadriyatlar, jumladan, mehr-oqibat, insonparvarlik, odamiylik, saxovat, ishq, xotirjamlikka har qachongidan ko‘ra ko‘proq muhtojlik sezilmoqda.

Ilk bor taklif etilayotgan “Irfoniylik va insoniylik tamoyili”ga ko‘ra, masalaning mohiyati quyidagi aspektda teran anglashiladi:

1. Bilim insoniy qadriyatlardan biridir. Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyoti asosida bilim konsepsiyasi mujassam bo‘lib, ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar iqtisodiy o‘sishga zamin yaratgan. Har qaysi jamiyatda yoshlar taraqqiyotning juda katta tayanchi, ulkan resurs, bebaho xazina deb yuksak baholanadi. Yosh avlodda bilimga chanqoqlik, qiziquvchanlik, kreativlik, insaytlik kabi sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish lozim.

2. O‘zlikni anglash bugungi kunda jamiyatda sodir bo‘layotgan salbiy illatlar zamiri insonning mohiyatdan uzoqlashgani, soxtakorlik, e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik, korrupsiya, havoi nafs, shaklparastlikka borib taqaladi. Inson qachon jinoyat qiladi? Jaholat pardasi bilan o‘ralgan (bilimsizlik) bo‘lsa yoki Xudoni tanimasa. Islom tarixida juda ko‘p ta’sirli voqealar bo‘lganki, bir valiy (Sayfiddin Boxarziy)ning taqvosi, ya’ni to‘g‘riso‘zligi tufayli butun boshli mo‘g‘ullar islomni qabul qilgan bo‘lsalar, islom dinining asl mohiyatidan bexabar musulmonning johilona xatti-harakati yoki so‘zi bilan islom terror, ekstremizm, mutaassiblik dini sifatida ko‘riladigan bo‘ldi.

3. Hayotga yangicha yondashuv o‘z-o‘zini tanqid qilishdan boshlanadi. Boshqalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson, avvalo, o‘zini o‘zgartirishi kerak. O‘zining kamchiliklarini atroflicha ko‘rib chiqish va birma-bir bartaraf etish orqali inson tafakkurida o‘zgarish bo‘ladi. Jamiyat gradatsiya (bosqichma-bosqich kuchaytirish) bo‘ylab rivoj-

langani sari insonning dunyoqarashi, tafakkuri, idroki va nutqi ham tadrijiy o‘zgaradi. Sog‘lom tafakkurning asosi Qur’on, hadis, mutafakkirlarning hikmatli so‘zlari va barhayot ma’naviyat sarchashmalaridir.

4. Farzandning yoshligidan ilmga rag‘bat uyg‘otish, axloq-odob ko‘nikmalarini singdirish natijasida, unda ilm-ma’rifat va ma’naviyatga moyillik uyg‘onadi. Yoshlarni begonalar va yot mafkuralar aldovidan qutqarish uchun internetni ma’naviy-axloqiy qiyofaga solish, jaholatga qarshi ma’naviyat bilan qurollanish, eng ommaviy saytlar (tik-tok, instagram, youtube)da ilm-ma’rifatga chorlovchi mazmunli, qiziqarli, yoshlarning intellektual va ma’naviy ehtiyojlarini qondira oladigan chiqishlar bilan to‘ldirish shartki, yoshlar to‘g‘ri tanlov qilishi uchun imkoniyat bo‘lsin. Ilm-ma’rifat egalari zamonaviy texnologiyaning yutuqlaridan unumli foydalanayotgan va yoshlar ongini bema’ni chiqishlar bilan zaharlayotgan “yalla”chi-yu tik-tokchilardan ma’naviy ustunligini ko‘rsatishi davr taqozosidir.

5. Shukronalik qilingan yaxshilikni e’tirof etib, uni ovoza qilishdir. Alloh o‘zining fazilati, karami va ne’matlarining yanada ziyoda bo‘lishiga shukrni sabab qilgan. Qur’onda ne’matlarga shukr qilish ulug‘ fazilat deyilgan.

6. Ruhiy xotirjamlik. Kayfiyat insonning ijodi, ko‘tarinkilik baxsh etadigan, unga yorqin kelajakni ko‘rsatadigan ko‘zgudir. Kayfiyat qanchalik yaxshi bo‘lsa, inson bir necha kunda uddalay olmagan ishini bir necha soatda uddalashi mumkin. Fikr ham kayfiyatga bog‘liq, kayfiyat qanchalik zo‘r bo‘lsa, fikr shunchalik kognitiv bo‘ladi. Kayfiyat o‘lganda, yangi, toza fikr kelmaydi. Ijobiy fikrlash va kelajakka umid bilan qarash muvaffaqiyatning o‘zidir.

7. Kechirimlilik. Allohning kechirimlilik sifati bandaga nisbatan yuksak rahm-shavqat namunasidir. Kechirimlilikning inson qalbi uchun foydali jihatlari qalb xotirjamligi, oliyjanoblik, yengillikda namoyon bo‘ladi. Kechirimli bo‘lish inson salomatligi uchun manfaatlidir. Qalbni isloh qilish orqali maqsadga erishiladi, chunki qalb to‘g‘ri bo‘lsa, qolgan barcha holatlar to‘g‘ri bo‘ladi.

8. Minnatdorlik insonning o‘zida ayni vaqtda bor narsasiga shukronalik tuyg‘usidir. Bu falsafadagi sabab-oqibat kategoriyasiga to‘g‘ri keladi. Insonning olamga berayotgan quvvati, u qanday bo‘lishidan qat’i nazar, albatta, o‘ziga qaytib keladi. Qalb shukronalik hissi, minnatdorlik tuyg‘usi bilan to‘lsa, inson sog‘lom va baxtli yashaydi. Inson o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini topishi va o‘zini kashf etishi insonning Yaratuvchisi bilan munosabatiga bog‘liq bo‘lib, inson ruhiyati kashfini uning o‘zidan boshqa hech kim topa olmaydi. Bu masalaga har bir shaxs individual yondashadiki, din va e’tiqod, ilohiy mohiyatni tanish va anglash qalbning ishidir. Inson boshqalarning unga munosabatini o‘zgartirishlarini istasa, avvalo, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishi lozim.

9. Ruhiy tarbiya haqida tushunchaning to‘g‘ri shakllanmagani, aqida (e’tiqod)ning zaifligi va shar’iy ilmlarga bee’tiborlik, axloqiy me’yorlarga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, dangasalik, tafakkur oqsoqligi va nafs qulligi va hokazo. “Nafsi ammora” darajasidan ko‘tarila olmaslik, dunyo muhabbati, mol-mulkka o‘chlik, hukmronlikka intilish, mashhurlik vasvasasi, keragidan ortiq darajada dunyo bilan mashg‘ul bo‘lish, ruhiyatni zaiflashtiradigan, oxiratni unuttiradigan, faqat hozir bilan yashashni targ‘ib qiladigan olomon madaniyatining millat ongini zaharlashi va ko‘ngilochar tomosha va tadbirlarning ko‘payib ketishi, insonni yashashga vaqti yetmaydigan darajada televizor, telefon, internet va boshqa ermaklar bilan band qilinishi, kelajakka ishonchning susayishi va gunohlardan tiyilmaslik, halol-haromning farqiga bormaslik, manfaat uchun axloqiy qadriyatlardan voz kechish, yaratuvchisidan uzoqlashish va hokazo.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish orqali anglashildiki:

– birinchidan, insonning ruhoniyat va tuyg‘ular olamiga qarashni tubdan o‘zgarti-

rish, irfoniy bilimlar sarchashmalarini yangi usul, yo‘l va vositalarda targ‘ib etish lozim;

– ikkinchidan, yangilangan islohotlar yangicha dunyoqarash, yangicha tafakkur, yangicha hayot tarzi, yangicha faoliyatni talab etadi. Yangi islohotlar bilan eski qolipdagi dunyoqarash va tafakkur kelisha olmaydi, aksincha, irfoniy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish kerak;

– uchinchidan, jamiyatga irfoniy bilimlarni majburlab taqdim etib bo‘lmaydi, negaki, erkin va ixtiyoriy o‘zlashtirilgan bilimlar qalbga singadi;

– to‘rtinchidan, “Dunyoni ma’rifat qutqaradi” tamoyili asosida internet tarmog‘ida ma’rifiy suhbatlar orqali irfoniylik va insoniylik tamoyilini targ‘ib etish lozim.

– beshinchidan, “Irfoniylik va dunyoviylik uyg‘unligi” tamoyilini ta’lim tizimi modernizatsiyasiga yo‘naltirish orqali sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish konsepsiyasiga ko‘ra, muammoga plyuralistik yondashuv, mustaqil fikrlash, irodani chiniqtirish, tafakkurni yuksaltirish, dunyo xalqlari ilg‘or madaniyatini tanqidiy o‘zlashtirish jamlangan treninglar, master klasslar, davra suhbatlari olib borish orqali ko‘zlangan maqsadga erishiladi.

“Irfoniylik va dunyoviylik uyg‘unligi” konsepsiyasini jamiyatda faol qo‘llash orqali insonning ruhoniyat va tuyg‘ular olamiga qarashni tubdan o‘zgartirish, irfoniy bilimlar sarchashmalarini yangi usul, yo‘l va vositalarda targ‘ib etish, irfoniy ma’no va timsolning zohiriy “qatlam”lari haqida bahs-munozaraga barham berish va bu qatlamlar haqidagi bilimlarni ochib berish imkoniyati kengayadi. Buning uchun irfoniy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish talab etiladi. Irfon ilmi ilohiy mohiyatni kashf etish, ideal, go‘zal axloq, mukammal ishq, pok ruhoniyat, yuksak ma’naviyat, sog‘lom aql, hikmat va ilm uyg‘unligini o‘zida mujassam etgan Allohni tanish, bilish hamda anglash ilmi bo‘lsa, orif insonning qalbi va ruhining tabibi, tom ma’noda insonshunos, axloqiy kamolot darajasiga ko‘ra, bashariyat uchun yuksak namunadir. Masalaga innovatsion yondashuv global ma’rifiy, ma’naviy-madaniy jarayonlarni uyg‘unlashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni asrash uchun gumanistik ahamiyatga ega bo‘lib, barcha xalqlar ma’naviy va axloqiy takomiliga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ал-Фараби. Философия политики. – М., 1989. С.229.

2. Ибн Хальдун. Введение в историю (ал-Мукаддима). Фрагменты. Перевод с арабского, комментарии и примечания Алексеева И.Л., Душак А. В. и Столыпинской А.Ш // Pax Isamica, 1/2008, С.15-21.

3. Ницше. Ф. Сочинение в 2-х томах. – М.; 1990.

4. Дильтей В. Типы мировоззрения и обнаружение их в метафизических системах / Современная буржуазная философия. – М.; 1978.

5. Шпенглер О. Закат Европы. – М.,1992.

6. Ионин Л. Георг Зиммель – социолог. Критические очерки. – М.; 1981.

7. Бергсон А. Творческая эволюция. – М., 1908; Время и длительность. – М.: 1910.

8. Тримингэм Д. Суфийские ордены в Исламе // Пер. с английского Ставиской А. Под ред. Акимушкина О.Ф – М.: Наука, 1989. С.298.

Guli NARZULLAYEVA,
Namangan davlat universiteti, stajyor tadqiqotchi

OILA MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIGIGA ERISHISHNING MUHIM TOMONLARI

Annotatsiya

Maqolada oilaning rivojlanish qonunlarini o‘rganish va oilaviy munosabatlarning ilmiy, ma’naviy axloqiy asoslarini jamiyat a’zolari ongiga singdirish ijtimoiy fanlar oldidagi eng dolzarb muammolardan bo‘lsa, mehnat taraqqiyoti bilan oila taraqqiyotini o‘zaro muvozanatda, mutanosiblikda olib borish siyosatini tashkil etish jamiyatning, har bir millatning asosiy vazifalaridanligi va erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi tenglikni mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Gender tenglik, nohaqlik va qo‘pollik, dunyosi va ruhiyatida qo‘rquv va qullik, itoatkorlik, ijtimoiy va ma’naviy kamsitishlar, oilaning rivojlanish qonunlari.

Одной из наиболее актуальных проблем, стоящих перед общественными науками, является изучение закономерностей развития семьи и внедрение в сознание членов общества научных, духовных и нравственных основ семейных отношений. нация и суть равенства мужчин и женщин.

Ключевые слова. Гендерное равенство. несправедливость и грубость, страх и рабство в мире и в духе, послушание, социальная и духовная дискриминация, законы развития семьи

One of the most pressing problems facing the social sciences is the study of the laws of family development and the inculcation of the scientific, spiritual and moral foundations of family relations in the minds of members of society, is one of the main tasks of every nation and the essence of equality between men and women.

Key words. Gender equality. injustice and rudeness, fear and slavery in the world and in the spirit, obedience, social and spiritual discrimination, the laws of family development.

Qadimda hamma mamlakatlarda ham ayolning ijtimoiy ahvoli, oila va jamiyatdagi o‘rni har xil bo‘lgan. Tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, har doim ham ayolga inson sifatida qaralmagan.

Asrlar davomida ayollarga nisbatan ijtimoiy va ma’naviy kamsitishlar ularning ijtimoiy faolligini yanada susayishiga olib keldi. Ayollar asta-sekinlik bilan bu holatni tabiiy deb tan olib, ushbu turmush tarziga ko‘nika boshlasalar, boshqalari esa bunday kamsitishlarga turli yo‘llar bilan qarshilik ko‘rsatishga harakat qilishgan. Uy yumushlari, ro‘zg‘or tashvishlari, oila boshlig‘iga, ota yoki erga so‘zsiz itoat qilish, tinimsiz haqoratlarga, xo‘rliklarga chidash – ayollarning ichki dunyosi va ruhiyatida qo‘rquv va qullik, itoatkorlik paydo bo‘lishiga olib keldi. Shunday bo‘lsa-da, biron dinda ayollarning ijtimoiy hayotda erkaklar bilan teng ekanligini (ularning xudo oldidagi tengligi bundan mustasno), ularni davlat, cherkov va diniy idoralar ishida teng qatnashishi mumkinligini e’tirof etuvchi manba uchramaydi.

Islom dinining vujudga kelishi Arabistonda ijtimoiy-siyosiy hayotni muolaja qiluvchi

bir dastur sifatida qarshi olindi. Hayotning barcha jabhalarini qamrovchi Islom ayollar haq-huquqlariga ham katta e’tibor berdi. Islomda ayolning haqlari quyidagicha ado etilishi lozim deb ko‘rsatilgan.

Ayollarga yaxshi muomalada bo‘lish, ularga nisbatan xushmuomala, shirinso‘z, muloyim munosabatda bo‘lish, nohaqlik va qo‘pollik qilmaslikni targ‘ib etdi. Bu xususda Payg‘ambarimiz (s.a.v) Muhammad mo‘minlarning eng to‘la ishonchlisi xush xulqlisidir. Sizlarning yaxshilaringiz ayollarga, zavjalariga yaxshi muomalada bo‘lganlaringizdir, ayollar xususida Allohdan qo‘rqingiz. Zero, siz ularni Allohdan omonat o‘laroq olgansiz, deb ta’kidlaganlar. Ayollarga munosabat to‘g‘risida Qur’oni Karimda: “Xotinlarning itoatsizligidan qo‘rqsangiz, avvalo, ularga nasihat qilingiz, so‘ng (bu ta’sir qilmasa) ularni yotoqlaridan tark etingiz, so‘ngra (bu ham kor qilmasa) ularni (majruh bo‘lmagudek darajada) uringiz. Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi (boshqa) yo‘l axtarmangizlar, deb qayd qilingan. Lekin, ma’lumotlarga ko‘ra, Payg‘ambarning o‘zi ayollarini urmagan va xotin kishini urganlarga ham qarshi turgan. “Ne bo‘ldi erkaklarga, xotinlarini qul kabi uradilar, holbuki, ayni kun so‘nggi (tun)da latiflashadilar”, degan hadis ham bu fikrning isbotidir.

Oila munosabatlarining ijtimoiy xarakteriga ahamiyat kamaya borib, bu masala kishilarni kamroq qiziqtira boshladi. U xususiy ishga aylanib, ishlab chiqarishning bu ikki turi orasidagi muvozanat buzildi, u kishilik jamiyati uchun ko‘plab o‘ta jiddiy va xatarli muammolarni keltirib chiqara boshladi. Shunday muammolardan biri gender tengligi muammosi bo‘lib sanaladi. Masalan, oila munosabatlari kishilarning ma’naviy-ruhiy faoliyatini belgilaganligi uchun ham bu jarayon, eng, avvalo, ularning ma’naviy-ruhiy dunyosini barbod eta boshladi. Bu esa jamiyatni ma’naviy-ruhiy inqirozga olib keldi. Bu inqiroz yerda odamzotning biologik tur sifatida bundan keyin ham yashab qolishini taxlika ostida qoldirmoqda. Shuning uchun ham oilaning rivojlanish qonunlarini o‘rganish va oilaviy munosabatlarning ilmiy, ma’naviy axloqiy asoslarini jamiyat a’zolari ongiga singdirish ijtimoiy fanlar oldidagi eng dolzarb muammolardan bo‘lsa, mehnat taraqqiyoti bilan oila taraqqiyotini o‘zaro muvozanatda, mutanosiblikda olib borish siyosatini tashkil etish jamiyatning, har bir millatning asosiy vazifalaridan biridir.

Kishilik hayotida xotin-qizlarning mavqei ham jamiyatning oila munosabatlariga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqib belgilanadi. Oila munosabatlari ijtimoiy hayotni belgilashda juda muhim ahamiyatga ega, deb qaraydigan xalqlar orasida ayolning mavqei birmuncha yuqori turadi. Shuning uchun ham kishilik jamiyatining ilk davrida, ya’ni ona urug‘i hukmronlik qilgan davrda ayollarning mavqei juda yuqori bo‘lgan va u jamiyat taraqqiyotida belgilovchi ahamiyat kasb etgan. Keyinchalik oila xo‘jaligini yuritish o‘zining ijtimoiy xarakterini yo‘qotgach, ayollarning ijtimoiy mavqeiga ham putur yetdi.

Jamiyat iqtisodiy jihatdan yanada yuksaldi, lekin ayolning obro‘-e’tibori ko‘tarilmadi. Demak, ijtimoiy ishlab chiqarishda ayolning o‘rni jamiyatning oila taraqqiyotiga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Insoniyat o‘z zurriyodi yer yuzida yashab qolishini istasa, u bor imkoniyatlarini oila taraqqiyotiga qaratmog‘i, oilaning ijtimoiy hayotga ta’sirini kuchaytirmog‘i lozim. Faqat shundagina ayolning ijtimoiy mavqei, uning obro‘-e’tibori qayta ko‘tarilishi mumkin. Ijtimoiy ishlab chiqarishning faqat bir tomoni, ya’ni mehnatga munosabat taraqqiy etishi bilan oila taraqqiyoti orqada qolishi jinslar orasidagi munosabatlarning nomutanosibligiga olib keladi. Odamzotning o‘z zurriyodini dunyoga keltirishi va voyaga yetkazishi o‘ziga xos murakkab jarayon. Bu ko‘proq ayolga bog‘liq bo‘lib, bu vazifani bajarishda turli psixoemotsional kechinmalar kabi murakkabliklarni vujudga keltiradi. Demak, jamiyat mana shu jarayonning mushkulligini tan olishi muhim.

Ayolning homiladorligi, farzand tug‘ishi, uning uzoq vaqt parvarishga, his-tuyg‘u, e’tiborga muhtoj bo‘lishi onadan bu ishlarni sabr-toqat bilan bajarishni talab etadi. Ammo bu mehnat jamiyat tomonidan yetarlicha baholanmaydi. Ayollarning vazifasi bu bilangina cheklanmaydi. Ular quyidagi uch: reproduktiv, produktiv va ijtimoiy vazifani bajarishadi. Erkaklar esa, odatda, produktiv va ijtimoiy siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanishadi. Reproduktiv vazifa – bola tug‘ish va uy xo‘jaligini yuritish ishchi kuchini tiklash va qo‘llab-quvvatlash uchun zarurdir. Produktiv vazifa – erkak va ayollar tomonidan moddiy boylik yaratish uchun bajariladigan ish. Ijtimoiy vazifa – odamlarning atrof-muhitni muhofaza qilish, sog‘liq va ta’lim-tarbiya kabi jamoat ishlarida amalga oshiradigan faoliyatidir. Bu xizmat haqi to‘lanmaydigan, ixtiyoriy ravishda, bo‘sh vaqtda bajariladigan mehnat faoliyatidir. Ijtimoiy-siyosiy vazifa – ko‘pincha erkaklar tomonidan jamiyat yoki rasmiy siyosiy darajada, milliy siyosat doirasida bajariladigan faoliyatdir. Odatda, bu mehnatga ish haqi to‘lanadi. Reproduktiv faoliyat butun insoniyat tarixi davomida asosan ayollar tomonidan haq to‘lanmaydigan mehnat sifatida bajarib kelingan.

Ayollar mehnatining reproduktiv qismi esa jamiyat tomonidan yetarli darajada e’tirof etilmasdan va baholanmasdan qolmoqda. Bunday holat ayol bilan erkak o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normalar va urf-odatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Shunday qilib, jinsiy tavofutlarning ham o‘ziga xos, umumiy sababiy-bog‘lanishlari (determinantlari) mavjud bo‘lib, bular ta’sirida erkaklarga xos bo‘lgan kuchlilik, mustaqillik, faollik, tajovuzkorlik, ratsionallik, shaxsiy muvaffaqiyatga intilish kabi, ayollarda esa zaiflik, tobelik, sustkashlik, muloyimlik, hissiyotga moyillik, boshqalar yordamiga muhtojlik, ta’sirchanlik va hokazo xarakter xususiyatlari tarkib topadi.

Erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi bunday ziddiyatli tafovutlarga qaramay, jinslar bir-biriga nisbatan doimiy ma’naviy-ruhiy ehtiyoj sezadi. Inson tabiatan jinslarga ajratilgan bo‘lsa-da, ruhan umumiy yaxlitlikka intiladi. Tabiatan erkak va ayol ruhiy tomondan bir-birlarini to‘ldiradi, bir-birlaridan ruhiy va ma’naviy kuch-quvvat oladi. Shu tarzda inson mukammallashib, ma’naviy yuksalib boradi. Ruhiy begonalashuv esa jinslarning orasiga ixtilof solib, ma’naviy qashshoqlik va ruhiy g‘ariblik sari yetaklaydi. Bu ehtiyojlarning jami erkak va ayol jinsini bir-biriga bog‘laydi, ularni yaxlit, bir butun holda tarkib topishlari va faoliyat olib borishlarini ta’minlaydi. Jinslar orasidagi munosabatlar dialektik xarakterga ega bo‘lib, tabiat va jamiyatning eng umumiy qonunlariga bo‘ysunadi. Bu qonuniyatlar esa gender g‘oyasida o‘z ifodasini topadi. Gender g‘oyasi sotsiologiya fanidan tashqari falsafa, iqtisodiyot, demografiya, tarix, antropologiya, pedagogika, psixologiya, siyosatshunoslik, etnografiya, madaniyatshunoslik va shu kabi fanlar tomonidan ham o‘rganilib kelinmoqda. Hozirgi davrga kelib falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik qarashlarda erkak va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha yondashish paydo bo‘ldi. Jumladan, jinslarning ijtimoiylashuvi jarayoni hokimiyat, zo‘ravonlik, shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi, erkinligi va boshqa sohalarda individning ijtimoiy rollari muammolari sifatida oydinlashtirilgan. Falsafaning asosiy masalalaridan biri bo‘lgan insonning ijtimoiy mohiyati muammosi gender nuqtayi nazardan ko‘rib chiqildi va bu holat bugungi kunda butun dunyoda keng yoyilgan gender tadqiqotlarida o‘z aksini topdi. Shu masalani o‘rganish ayollarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlarini ta’minlash uchun qanday huquqiy cheklashlar bartaraf etilishi kerakligi va erkaklar bilan ayollar o‘rtasidagi tengsizlikni tugatish uchun islohotlar siyosatining mohiyati qanday bo‘lishi lozimligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. So‘nggi tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, mavjud gender muammolari va kelishmovchiliklari, ayollarning jamiyatdagi tobeligi mavjud institutsional tuzilma-

lar orqali takrorlanib turadi, bunday tuzilmalarga uy-ro‘zg‘or xo‘jaligi, jamoa, davlat va fuqarolik jamiyati kabilar kiradi. Ana shu institutsional tuzilmalarning va ularda tarkib topgan o‘zaro munosabatlar gend erning rivojlanishiga, jamiyatning barcha a’zolari uchun tanlash imkoniyatlaridagi ta’sirini tadqiq qilish zarurligini taqozo etadi. Turli loyihalar, dasturlar, rivojlanishning tarmoq va makrosiyosatning jinslar tengligiga ta’sirini o‘rganish gender tengligiga erishishning yana bir muhim jihatidir. Gender tengligi muammosi ham makro, ham mezo va mikrodarajalarda ko‘rib chiqilishi mumkin. Bunda gender andozalarini o‘zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Gender andozalari – shu kungacha ayol va erkak munosabatlarida mavjud bo‘lib kelgan va ko‘pchilik tomonidan odat sifatida qabul qilinadigan qoidalarni o‘z ichiga oladi. Bunday qoidalar axloq va odob normalarini, ijtimoiy fikr, ehtiyoj va talablarni ifodalaydi.

Gender tengligiga erishishda erkaklar va ayollarning yer, kapital, uskunalar, ko‘chmas mulk, bank kreditlari kabi ishlab chiqarish resurslaridan bahramand bo‘lishlarida va ularni nazorat qilishda teng imkoniyatlar mavjudligi muhim ahamiyatga egadir. Kambag‘allik va mahrumliklar, jinsidan qat’i nazar barcha kambag‘allarga xos bo‘lsa, ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollarning an’anaviy tarkib topgan gender bo‘ysunuvi ayollarni ana shu ne’matlardan bahramand bo‘lishdan mahrum etadi, ularni nihoyatda nochor ahvolga solib qo‘yadi. Erkaklar va ayollarning qonun tomonidan kafolatlangan ijtimoiy resurslardan teng bahramand bo‘lishlari gender tengligini ta’minlashda muhim ahamiyatga molik yana bir jihatdir. Bilim olish, sog‘liqni saqlash,iqtisodiy xizmatlar, ijtimoiy himoya kabi va boshqa huquqlargina emas, balki mana shu resurslardan bahramand bo‘lishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari ham shular jumlasiga kiradi. Ushbu ijtimoiy resurslardan erkaklar va ayollarning teng bahramand bo‘lishlarini ta’minlash ham jamiyatda gender rivojlanishi siyosatining muhim vazifasi hisoblanadi. Xotin-qizlarning mustaqilligini ta’minlashda ularning o‘z mehnati va daromadini o‘zi tasarruf qilish imkoniyatining mavjudligi uslubiy ahamiyatga ega. Garchi patriarxal mafkura ayollarning uydan tashqarida faoliyat etishlarini cheklasa-da, iqtisodiy zarurat ko‘pincha ularni shunday faoliyatga majbur qiladi. Natijada, ayollar mehnatining uch-yoqlama funksiyasi: uy-ro‘zg‘or yumushlari, bolalarni parvarish qilish va tarbiyalashishlari, ishlab chiqarish va jamoat faoliyati kuchayadi. Ko‘p hollarda ayollar daromadining asosiy qismini oilada topadi, ammo ular hamisha ham shu daromadni tasarruf eta olmaydi. Oilada patriarxal bo‘ysunish qo‘llab-quvvatlanib kelinar ekan, ayollar iqtisodiy mustaqillikka erisha olmaydil. Gender teng huquqliligi ayollarning o‘z taqdirlariga daxldor masalalar bo‘yicha mustaqil qarorlar qabul qilish imkoniyatini ham nazarda tutadi. Buning ma’nosi shuki, ayolning o‘zi kimga va qachon erga tegishini, qanday kasbni tanlashini, tug‘ish va qancha farzand ko‘rish to‘g‘risidagi masalalarni hal etishda uning teng huquqli ishtiroki ham shu jumlaga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. – T.: 2002, 106-108-betlar.

2. NьyuYork. Oksford yuniversiti press. 1995. – C.6.

3. Muravyova N. O‘zbekiston xotin-qizlari ijtimoiy maqomini yuksaltirish. – T.: – 2004. 23 – 71-88-betlar.

Sardorbek MIRZAXOLOV,
Namangan davlat universiteti, tayanch doktoranti

MUSTAQILLIKNING O‘TTIZ YILLIGI – YOSH TADBIRKOR KADRLARNI TAYYORLASH SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING TARIX SAHIFASIDA AKS ETISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada, mustaqillik yillarida ta’lim muassasalarining bozor talablariga mos ravishda isloh qilib borilishini tarix nuqtayi nazarida tahlil qilingan, shuningdek, sohaga doir muammolar va kamchiliklar hamda yosh tadbirkor kadrlarni tayyorlashda bir necha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Hunar texnika bilim yurti, tadbirkorlik, kollej, hunar maktablari.

В статье анализируется реформа образовательных учреждений в соответствии с требованиями рынка за годы независимости, а также проблемы и недостатки данной отрасли, а также некоторые рекомендации по обучению молодых предпринимателей.

Ключевые слова. Профессионально-техническое училище, предпринимательство, колледж, профессиональные училища.

The article analyzes the reform of educational institutions in accordance with the requirements of the market over the years of independence, as well as the problems and shortcomings of this industry, as well as some recommendations for training young entrepreneurs.

Key words. Vocational school, entrepreneurship, college, vocational schools.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng asosiy e’tibor iqtisodiy erkinlikka qaratildi. Chunki iqtisodiy erkinlik davlatning to‘liq mustaqilligini anglatishi tarixdan ma’lum. Garchi Sovet Ittifoqi davrida savdo-sotiq, tadbirkorlik keskin qoralangan bo‘lsa-da, hududda milliy hunarmandchilik sohalaridan bo‘lgan temirchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik va boshqa xalq hunarmandchilik sohalari saqlanib qoldi. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e’lon qilingandan so‘ng xususiy mulk erkinligi qonun bilan mustahkamlanib, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochildi. Tadbirkorlik rivojlanishi bilan bir qatorda, sohada ilg‘or, zamon talabiga javob beradigan, ilmli kadrlar zahirasini yaratish zaruriyati vujudga keldi. Bu esa o‘z navbatida, ta’lim sohasida tub islohotlarni talab etdi. Sobiq Sovet Ittifoqi respublikalari iqtisodiyoti bevosita markazga bo‘ysundirilgan bo‘lib, o‘ta murakkab ijtimoiy muhitni vujudga keltirgan edi. Kadrlar tayyorlash sohasi esa partiya g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, xususiy mulk erkinligini qoralagan. Shuning uchun ham mustaqil davlatda yosh tadbirkor kadrlarni demokratik ruhda tayyorlovchi ta’lim muassasalarini tashkil etish va milliy kadrlar tayyorlash nafaqat tadbirkorlik sohasini rivojlantiradi, balki davlatni iqtisodiy erkinligi, jozibadorligi va xalq farovonligiga erishishga imkon beradi. Bundan tashqari, ko‘plab ijtimoiy muammolarga ham yechim bo‘ladi.

Tadbirkorlik, albatta, katta san’at, chuqur bilim va mahorat, qolaversa, alohida iste’dod talab qiladi. Shu bois hamma ham tadbirkor bo‘lavermaydi. Dunyoning yoshi katta aholisining atigi 7-10 foizi tadbirkorlik bilan shug‘ullanadi. O‘zbekiston Respublikasi aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etishini hisobga olib, tadbirkorlik sohasiga yoshlarni jalb etish iqtisodiy taraqqiyotga erishish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalarni chuqur anglash, amaliyotdagi muammolarni to‘g‘ri hal qilish maqsadida tadbirkorlik sohasi uchun kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish zaruriyatini vujudga keltirdi.

1993-yilda Farg‘ona viloyatida 11,5 mingdan ortiq ishsiz aholi ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 70 foizini yoshlar tashkil qildi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida yangitdan yaratilayotgan ish o‘rinlari katta mablag‘ni talab etdi. Natijada, harbiy xizmatni o‘tagan, o‘rta maktabni bitirgan yoshlarning ko‘pchiligi yetarli ko‘nikmalarsiz va hunarsiz mehnat bozorini to‘ldirib bordi. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni ish bilan ta’minlashning ilg‘or usuli edi. Ammo sohada yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan yoshlarni faoliyat turiga jalb qilib bo‘lmas edi. Shu boisdan ham, butun respublika hududida joylashgan hunar-texnika bilim yurtlari va Xalq ta’limi boshqarmasi bilan hamkorlikda “Band bo‘lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta o‘qitish va yoshlarni milliy hunarmandchilikka o‘rgatish ishlarini olib borish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi markaz” (keyingi o‘rinlarda Markaz deb yuritiladi – mualllif) tuzildi.

Markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– aholini ish bilan ta’minlanmagan qismini o‘qitish, qayta tayyorlash, kasbga yo‘naltirish, yoshlarga hunar o‘rgatish, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish sohasida hududda yagona davlat siyosatini olib borish va uni amalga oshirish;

– mahalliy hokimiyat organlarining aholini ish bilan ta’minlash dasturlariga, yoshlarni ish bilan ta’minlashga doir takliflar ishlab chiqish;

– o‘rta maktab bitiruvchilari, harbiy xizmatni o‘tab qaytgan ishsiz yoshlarni hisobini yuritish va ularni kerakli kasb-hunarga yo‘naltirish, xohish va istaklaridan kelib chiqib, usta hunarmandlarga biriktirish;

– ish bilan band bo‘lmagan yoshlarni mehnat bozorida, jumladan, kompyuter texnologiyasi, texnik ta’mirlash va boshqa kichik biznes sohasida yuqori talabga ega bo‘lgan kasb bo‘yicha xo‘jalik hisobi asosida o‘qitish, keyinchalik o‘z mintaqasida, respublikada va xorijda ish faoliyatini olib borishga tayyorlash.

Markaz tomonidan 1993-yilda Farg‘ona viloyati hududida olib borilgan hisobotga ko‘ra, aholining o‘sish sur’ati o‘rtacha 2,5-2,6 foizni, Mehnat resurslari esa 1106,3 ming kishini tashkil qilgan. Shundan 1993-yilning o‘zida maktab bitiruvchilari va harbiy xizmatni o‘tab qaytgan, 32600 nafar ishsiz yoshlar ro‘yxatga olingan. 1993-1995-yillar mobaynida faoliyat olib borgan Markaz, o‘zini oqlamadi, oqibatda o‘z faoliyatini tugatdi. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘ldi:

– birinchidan, kadrlar tayyorlash tizimi faqatgina nazariy bilimlarga asoslangan bo‘lib, amaliy ko‘nikmalar berib borilmadi;

– ikkinchidan, ko‘plab talaba yoshlar Markaz pedagog xodimlari tomonidan jalb qilingan bo‘lib, o‘zi ixtiyoriy ravishda o‘rganishga harakat qilmagan, bunga esa oilaviy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy muammolar sabab bo‘lgan;

– uchinchidan, jahon tajribasining ilg‘or usullari o‘zlashtirilmagan, chet elning nufuzli o‘quv yurtlari, firmalari va biznes vakillari bilan yaqindan aloqa o‘rnatmagan.

1995-yil 29-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlarining kasbiy ta’limini qayta yo‘naltirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 296-son qarori e’lon qilindi. Qaror qishloqda xususiy sektorni rivojlantirishga, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlik faoliyatiga hamda bozor iqtisodiyoti sharoitlarida zarur kasblar va mutaxassisliklarni egallash

uchun jalb qilishga, bu yo‘lda ularni rag‘batlantirishga qaratilgan. Qishloqda joylashgan hunar bilim yurtlari faoliyatini tubdan qayta yo‘naltirishni amalga oshirish, ularni tadbirkorlik sohasi bo‘yicha o‘quv markazlariga – kasb va biznes maktablariga; o‘rta maxsus o‘quv yurtlarini esa kichik va o‘rta biznes, fermer xo‘jaliklari va aholiga xizmat ko‘rsatish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha kollejlarga aylantirishni ko‘zda tutadi.

Kollejlarni tashkil qilishdan asosiy maqsad, yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatish, tadbirkorlik va qishloq xo‘jaligiga kerakli bo‘lgan o‘rta ma’lumotli kadrlarni tayyorlash edi. Kollejlar faoliyati davrida kasb-hunar ta’limini rivojlantirish, ta’lim jarayonini modernizatsiyalash va mazmunini yangilashni ta’minlash maqsadida uning huquqiy bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi, iqtidorli yoshlarning xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlarida ularni manzilli qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator tizimli chora-tadbirlar ko‘rildi.

Shu bilan birga, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning zamon talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko‘rsatdi, xususan:

– birinchidan, kasb-hunar kollejlari aholi yashash joylariga yaqin bo‘lmagan masofada joylashtirilganligi, ayniqsa, hududlarda transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda ob-havo sharoitlari tufayli o‘quvchilarning vaqti-vaqti bilan ommaviy ravishda dars mashg‘ulotlarini qoldirishlariga sabab bo‘ldi;

– ikkinchidan, kasb-hunar kollejlarining moddiy-texnika bazasini shakllantirishning mavjud amaliyoti kasb-hunar kollejlari ta’lim yo‘nalishlariga javob bermaydigan o‘quv ustaxonalari tashkil etilishiga, butlovchi va ehtiyot qismlar bilan yetarli darajada ta’minlanmasligiga olib keldi. Respublika bo‘yicha kasb-hunar kollejlari moddiy-texnik jihozlanishining o‘rtacha darajasi atigi 56 foizni tashkil etdi, 31 ta kasb-hunar kollejida o‘quv ustaxonalari umuman mavjud bo‘lmagan;

– uchinchidan, yetarli darajada moliyalashtirilmaganligi natijasida kasb-hunar ta’limi tizimi uchun zarur bo‘lgan ko‘plab darsliklar va o‘quv-qo‘llanmalari nashr etilmadi, darsliklarning 50 foizi rus va qoraqalpoq tillariga tarjima qilinmagan, amaldagi darsliklar yangilanmagan;

– to‘rtinchidan, kasb-hunar kollejlarida kadrlar tayyorlash tizimi hududlardagi iqtisodiy tarmoqlarning real ehtiyojlaridan ortda qolganligi, shuningdek, kasb-hunar kollejlari uchun belgilangan qabul kvotalarida mehnat bozori konyunkturasi va ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish imkoniyatlari hisobga olinmasligi bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qiyinchilik tug‘dirdi;

– beshinchidan, kasb-hunar kollejlaridagi mavjud o‘quv jarayonini tashkil etishning holati, qo‘llanilayotgan o‘quv-normativ hujjatlar hamda o‘qitish muddatlari kasblarning murakkablik darajasiga javob bermadi, ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etishdagi kamchiliklar olinayotgan bilim darajasi tushib ketishiga va tegishli ravishda qator ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha bitiruvchilarga bo‘lgan ehtiyojning pasayishiga olib keldi va natijada o‘qishni tamomlagandan keyin ish joylarida ularni qo‘shimcha o‘qitish zaruratini keltirib chiqardi;

– oltinchidan, aholi turli toifalarini “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi bo‘yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo‘lib qolishiga olib keldi;

– yettinchidan, kasb-hunar kollejlarida o‘quv jarayonini tashkil etishga va

o‘quvchilarni intellektual, ma’naviy-ma’rifiy tarbiyalashga yuzaki yondashish, ularning bo‘sh vaqtlarini band etishning samarasiz mexanizmi o‘quvchilar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik va jinoiy qilmishlar soni ortishiga, ularning o‘qishga qiziqishi hamda davomatning tushib ketishiga sabab bo‘ldi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, 2018-yildan boshlab kollejlar faoliyatini tubdan isloh qilishga kirishildi. Ushbu maqsadda 2018-yil 25-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 Farmoni e’lon qilindi. Farmon tadbirkorlik sohasi, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha kadrlarni maqsadli tayyorlashni nazarda tutadi. Farmon ijrosini ta’minlash maqsadida, ko‘p tarmoqli kasb-hunar kollejlari o‘rnida, kasb-hunar maktablari qayta tashkil etildi. Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab, jami 93 ta shunday ta’lim maskanlari tinglovchilarni qabul qila boshladi.

Qayta tashkil etilgan kasb-hunar maktablarini, oldingi kollejlardan farqi quyidagicha:

– birinchidan, kasb-hunar maktablari nafaqat o‘rta ta’lim bitiruvchilarini, balki bozor sharoitidan kelib chiqib yangi kasbni egallamoqchi bo‘lgan, oldin o‘rta, o‘rta-maxsus, oliy ta’limni olgan fuqarolarni yangi kasbga o‘qitishni nazarda tutadi, bunda ta’lim oluvchining yosh chegarasi belgilanmagan;

– ikkinchidan, ta’lim 3 yillik majburiy emas, ya’ni 6 oydan ta’lim turini qiyinlik darajasiga qarab 2 yilgacha davom etishi belgilangan.

Respublikada kasb-hunar maktablarini tadbirkorlik sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini yangicha usulda yondashilgani, jahon tajribasi asosida tashkil etilganini e’tirof etish joiz. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasida yoshlar o‘zlari qiziqqan tadbirkorlikni biron turi bilan shug‘ullanishlari va o‘z sohalarini rivojlantirish uchun, albatta, ushbu yo‘nalishda ta’lim olish yoki malaka oshirishlari mumkin. Ayni shu maqsadda, ko‘plab qisqa muddatli ta’lim maskanlari tashkil etilgan bo‘lib, biznes faoliyati bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lganlar, o‘zlariga kerakli bo‘lgan sohada ta’lim oladilar. O‘qish so‘ngida, kollejni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga, maxsus diplom beriladi. Ushbu diplom sohiblariga banklar ko‘proq ishonch bildirib, imtiyozli kreditlar taqdim etish shartlari osonlashadi.

Kasb-hunar maktablarini tashkil etishda quyidagi takliflar o‘rinlidir:

– birinchidan, yoshlarga biznes boshlash uchun taqdim etiladigan kreditlarni olish shartlarini kasb-hunar maktablari o‘quv dasturiga qo‘shish va bevosita bitiruv imtihonlarida a’lo baholarga topshirganlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kredit taqdim etish;

– ikkinchidan, kredit taqdim etilishi baholash jarayoni bilan bevosita bog‘liqligini inobatga olib, imtihon jarayonlariga inson omilini kamaytirib, bitiruv imtihonlarini DTM yagona test tizimi orqali baholash, bu esa o‘z o‘rnida ko‘plab ko‘ngilsiz korrupsion holatlarini oldini oladi;

– uchinchidan, Banklarni imtiyozli kreditlarini olish shartlarini 30 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarga taqdim etilishida ko‘plab sun’iy to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida, banklarni yillik kredit limitlarini onlayn rejimda kuzatish imkonini beruvchi yagona onlayn ilova yaratish zarur;

– to‘rtinchidan, mahalliy hokimlik organlari tomonidan yosh tadbirkorlarga yer-joy va boshqa biznes boshlash uchun kerakli bo‘lgan imtiyozlarni qo‘llashni robotlashtirilgan onlayn rejimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq, chunki yoshlarni sohaga olib

kirishda uchraydigan to‘siqlar ko‘pincha sun’iy bo‘lib, mahalliy va boshqa organlar befarq munosabatda bo‘ladilar, oqibatda yoshlarda kelajakka ishonchsizlik kayfiyati paydo bo‘ladi;

– beshinchidan, nazariy ta’lim shaklidan, amaliy shaklga o‘tishdir. Bunda talaba haftasiga ikki kun nazariy bilim olgan holda, haftaning qolgan kunlari amaliyot o‘tashi va o‘rganishi, yetarli bilim va tajriba orttirib tayyor kadr bo‘lib chiqishini tezlashtiradi. Buning uchun kasb-hunar maktabi va katta-kichik firmalar o‘rtasidagi korporativ hamkorlikni kuchaytirish zarur. Tadbirkor, hamisha foydasi bor ishga hissa qo‘shishini inobatga olib, yoshlarni o‘z bag‘riga olgan, amaliyot o‘tash jarayonida asosiy shtatga ishga olib, oylik maosh to‘lagan tadbirkorlik subyektlarining ta’sischilarini yoshidan qat’i nazar, yoshlarga taqdim etiladigan imtiyozlar qo‘llanilishi tavsiyaviy xarakterdan, shartli etib belgilanishi yaxshi samara beradi.

Xulosa o‘rnida, O‘zbekistonda ta’lim tizimini yoshlar uchun mehnat faoliyatining yetarli darajada muhim sohalardan biri bo‘lib borayotgan tadbirkorlik sohasida kadrlar tayyorlashga mos ravishda isloh qilib borish va zamonaviy tadbirkor yoshlarni tayyorlab borish, ularni nafaqat ish bilan ta’minlashni ko‘zda tutadi, balki davlat iqtisodiyotini rivojlantiradi. Shuningdek, sotsiologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, ishlayotgan yoshlarning 30 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to‘g‘ri keladi. Demak, tadbirkorlik sohasida yosh kadrlarni tayyorlash ularning moddiy manfaatdorligini ta’min etibgina qolmay, ularning ijtimoiy harakatchangligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allaqulov X. Kichik biznes taraqqiyotda oliy maktabning ulushi katta bo‘lishi mumkin // Xalq so‘zi, 2001, 23-avgust № 167.

2. Topildiyev O.R. Yoshlar-kelajak bunyodkorlari. – Namangan nashriyoti, 2013.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313 Farmoni https://lex.uz/docs/3523206

4. Труд и занятность в Узбекистане. Статистический сборник. – Т., 2007.

G'ayratjon TAJIBAYEV,
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
"Ingliz tili o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri, dotsent

BOSHLANG'ICH SINFLARDA CHET TILINI O'RGANISH VA O'RGATISHNING MAQSAD VA NATIJALARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillaridagi til ta'limi siyosati qisqacha sharhlangan, boshlang'ich sinflarda chet til o'qitishning maqsadlari va erishilgan natijalar tillar ta'limshunosligi bo'yicha tadqiqotga tortilgan. Muallif chet til o'qitishda sifat va samaradorlikni ta'minlanishiga hizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqqan.

Kalit so'zlar. Til ta'limi, tillar ta'limshunosligi, chet til ta'limi, ta'lim maqsadi, ehtiyojlar tahlili.

В статье анализируется ведущая политика языкового образования в Узбекистане, иллюстрируются лингвистические и дидактические исследования целей и результатов преподавания и изучения иностранных языков в начальных классах. А также автор обсуждает свои предложения по обеспечению качества и эффективности обучения иностранным языкам.

Ключевые слова. Языковое образование, лингвистическая дидактика, иноязычное образование, цель обучения, анализ потребностей.

The article analyses the language education policy in Uzbekistan, illustrates linguistic and didactic investigates on aims and results of teaching and learning foreign languages in the primary classrooms. The author offers proposals for providing quality and effectiveness in teaching foreign languages.

Key words. Language education, linguistic didactics, foreign language education, aim of the education, needs analyses.

Ma'lumki har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Shu boisdan respublikamizda sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish maqsadida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish borasida miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha fuqarolarning madaniy va diniy o'ziga xosligini ta'minlashga, turli-tuman madaniyatlar hamda tillarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan muhim qonun hujjatlari qabul qilindi. Konstitutsiyamizning 4-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi qayd etilgan, 8-moddasida esa O'zbekiston xalqini, millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi, deb mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston 1995-yil 16-noyabr kuni YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari Butunjahon deklaratsiyasi" loyihasini ishlab chiqishda faol ishtirok etgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. "Bag'rikenglik tamoyillari

Butunjahon deklaratsiyasi" millatlararo va dinlararo hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan fundamental xalqaro-huquqiy hujjat bo‘lib, bugungi kunda uning normalari respublikamiz qonunlariga to‘liq implementatsiya qilingan va hayotimizga samarali tatbiq etilmoqda. O‘zbekistonda maktab ta’limi 7 ta tilda olib borilmoqda.

Ta’limni o‘quvchilarning ona tillarida olib borilishi O‘zbekistondek ko‘p millatli davlatda demokratik jamiyat barpo etilishi uchun dini, madaniyati, tili turlicha bo‘lgan xalqlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lmoqda. Buning natijasida yosh avlod ongiga barcha tillar teng, tillarni va madaniyatlarni o‘rganish esa yuksak insoniy qadriyat ekanligi singdirib borilmoqda. Shu tariqa O‘zbekistoning ko‘pmadaniyatli va ko‘ptilli "landshafti" shaxsning til kompetentligini rivojlantirishga samarali asos bo‘lmoqda. Chet til ta’limi yoki "Lingvomadaniy ta’lim" yosh avlodning yangi va foydali axborot (informatsiya) olish, yetkazish hamda interaksiyaga kirishish imkoniyatlari va sarhadlarini yanada kengaytiradi.

Keyingi yillarda mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga yanada chuqur integratsiyalashuvi til ta’limining davlat tomonidan isloh etilishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda, umumiy e’tirofga ko‘ra, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va Internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotganini isbotlab berishga hojat yo‘q, albatta. Yosh avlodga chet tillarni o‘qitish, shu tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish maqsadida 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-1875-son qarori qabul qilindi. Ushbu qaror uyg‘un kamol topgan, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodni shakllantirishga yo‘naltirilgan chet tillarni o‘qitishning kompleks tizimini yanada rivojlantiruvchi, sohaning yo‘nalishi va istiqbolini belgilovchi, ta’minlovchi mustahkam asos bo‘lib, tub islohotlarni boshlab berdi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610 son "Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori hamda "O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 sonli qarorida " ... bog‘cha – maktab – oliy ta’lim tashkiloti – korxona" tamoyilidagi uzluksiz ta’lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo‘lgan tilni o‘rganish bo‘yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Ushbu qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 312-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi (Agentlik) hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etildi. Qarorga ko‘ra, 2021/2022 o‘quv yilidan tumanlar (shaharlar)da umumiy o‘rta ta’lim muassasalari negizida xorijiy tillarni o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 207 ta maktab tashkil etiladi. 1-sentabrdan xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi natijalarga erishgan maktablarni rag‘batlantirish maqsadida Prezident sovrini ta’sis etiladi.

Ma’lumki, har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo‘ladi. Metodik adabiyotlarda ehtiyojni tahlil qilishda ta’lim sharoitidan kelib chiqib, obyektiv va subyektiv ehtiyojlar farqlanadi. Obyektiv ehtiyoj: a) chet til o‘rganuvchilarning yoshga oid psixologik

xususiyatlari, ona tili, qiziqishlari, chet til o‘rganish layoqatlari, b) chet tilda nutq faoliyat turlaridan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikma darajalari, d) davlat va jamiyat talabidan, ya’ni ijtimoiy buyurtmadan kelib chiqib o‘quvchilarning chet tilidan bilim, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan dasturiy talablar asosida aniqlanadi.

Subyektiv ehtiyoj o‘quvchilarning a) o‘rganilayotgan chet til va madaniyatiga munosabatlari, b) chet tili o‘rganish usulari va strategiyalari, d) qaysi nutq faoliyat turlari (gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv)ni egallashga qiziqishlari asosida tahlil etiladi. Obyektiv va subyektiv ehtiyojlar haqidagi tahliliy ma’lumotlar asosida ta’lim maqsadlari aniqlanadi.

Ta’lim maqsadlarini aniqlashda o‘rganuvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga ustuvor ahamiyat qaratish zarur. Maqsad – ta’limda umumiy yo‘nalish bo‘lib, muayyan vazifa(lar)ni hal etish rejasidir. Maqsad deganda, chet til va uning sohibi madaniyatini o‘rgatish va o‘rganishning ongli tarzda rejalashtirilgan natijasi ko‘zda tutiladi. Ta’lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma – topshiriq bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi, u ta’lim mazmuni va unga muvofiq erishiladigan natijani belgilash orqali chet til o‘qitish tizimini aniqlashtiradi.

Chet tili o‘qitish maqsadlari mazkur tizimining asosiy komponenti sifatida umumta’lim sharoitlari va jamiyat hamda shaxs talabidan kelib chiqib aniqlashib boradi. Maqsad o‘z navbatida chet til o‘qitish mazmuni, tamoyillari, shuningdek o‘qituvchi va o‘quvchilarning faoliyat xususiyatlaridan kelib chiqadigan usul va texnologiyalarni belgilaydi.

Har qanday ta’limning sifati va samaradorligi maqsadning belgilanishidagi aniqliq darajasiga bog‘liq. Chet til o‘qitishda amaliy (ustuvor), umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar e’tirof etilgan. Mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlarida chet til o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdan iborat.

Rivojlangan demokratik davlatlarda to‘plangan tajribalar va ayni paytda shiddat bilan o‘zgarib borayotgan hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib mamlakatimizda chet til kommunikativ faoliyat ko‘rsatish, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo‘ljallangan integrativ yondashuv asosida o‘rgatiladi. Ya’ni, boshlang‘ich sinflarda chet til o‘qitish:

– o‘quvchilariga chet tillarning ajib dunyosiga bemalol kirishi uchun imkoniyatlarni to‘liq ochib berish va xalqaro standartlar darajasida ta’lim va tarbiya berish;

– har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish, o‘quvchining nutqiy va til malakalarini hamda diqqat, idrok, xotira kabi psixologik jihatlarini rivojlantirish;

– o‘quvchilarda chet tillarni o‘rganishga ijobiy munosabatni shakllantirish, ularda o‘zlariga nisbatan ishonch, chet til o‘rganishdan zavqlanish va faxrlanish tuyg‘ularini qaror toptirish;

– o‘quvchilarga erta yoshdan yangi til dunyosiga kommunikativ-psixologik moslashishlari uchun sharoit yaratish, chet tildan muloqot vositasi sifatida foydalanishga xalaqit beradigan psixologik to‘siqlarni bartaraf etish;

– o‘quvchilarni chet til o‘rganish faoliyatiga nisbatan qiziqtirish va ularning chet tildan kommunikativ kompetensiyani egallashga mayillarini shakllantirish;

– o‘quvchilarda nutqiy imkoniyatlari va ehtiyojlari doirasida chet tilda og‘zaki (tinglab tushunish va gapirish) va yozma (o‘qish va yozuv) muloqot qilishning dastlabki sodda ko‘nikmalarini shakllantirish;

– o‘quvchilarni lingvomadaniyatning rangdorligi bilan tanishtirish, ularda turli

madaniyatlarga nisbatan samimiy va bag‘rikeng (tolerant) munosabatda bo‘lish xislatini shakllantirish;

– o‘quvchilarni tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar)dagi tengdoshlarining dunyosi, folklor va adabiyot namunalari bilan tanishtirish hamda umuminsoniy qadriyatlarni bolalikdan anglashga va hurmat qilishga o‘rgatish;

– o‘quvchilarni o‘rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosdan bahramand etish;

– o‘quvchilarda tili o‘rganilayotgan mamlakat xalqlarining fe’l-atvor, xarakter, odob-axloq me’yorlari, taomil, rasm-rusum va urf-odatlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish;

– tinglab va o‘qib tushunish, fikrni og‘zaki va yozma ifodalash malaka va ko‘nikmalarini egallash jarayonida o‘quvchining avval egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy va emotsional tajribasini oshirish;

– o‘quvchida aksentsiz talaffuz va istiqbolda o‘z fikrini chet tilda tabiiy nutqqa yaqin ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun mustahkam zamin yaratish;

– o‘quvchilarda chet til va madaniyatni samarali o‘rganilishini ta’minlovchi (darslik, mashq daftari, o‘qish kitobi, lug‘at va boshqa ta’lim vositalari bilan ishlash) malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda ta’limning keyingi bosqichlarida ikkinchi va uchinchi chet tillarni jadalroq o‘zlashtirishga zamin yaratish, ya’ni o‘quvchilarning til o‘rganish tajribalarini shakllantirish;

– o‘quvchilarga tillarni farqlashni o‘rgatish va ularda ona tili hamda chet tilida uchraydigan ayrim universal lingvistik tushunchalarni shakllantirish kabi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Yuqoridagilardan tashqari, boshlang‘ich chet til ta’limi o‘quvchining ta’lim jarayoni va jonli muloqotning asosiy ishtirokchisi sifatidagi mavqeini, faolligini, o‘zga til va madaniyatni o‘rganishga ichki turtkisi (motivatsiyasi)ni, mazkur jarayonning natijasi uchun shaxsiy mas’uliyatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Xorijiy til ta’limi, o‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natija sari intiluvchi hamkorlikdagi faoliyatdir. Boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitishda quyidagi natijalarga erishiladi:

– o‘quvchiga ikki turda bilim, ya’ni, nutqiy jarayonda ishtirok etish uchun kerakli til (fonetika, grafika va orfografiya, leksika, grammatika)ga oid algoritmik qoidalar va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan o‘quvchi hayoti davomida foydali bo‘ladigan ma’lumotlar beriladi;

– o‘quvchi chet til sohibining nazari bilan dunyo manzarasiga yangicha qarashga va oqibatda, umumbashariy va milliy qadriyatlarni uyg‘un his qilishga o‘rgatiladi;

– o‘qish va yozish, o‘qish va tinglash, o‘qish va gapirish, tinglash va o‘qish, tinglash va yozish, tinglash va gapirish kabi mashqlar orqali nutq faoliyatining to‘rt turi: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozuv malakalari o‘zaro bog‘langan holda rivojlantiriladi.

2013-2014-o‘quv yilida chet tillarni o‘yin va og‘zaki nutq tarzidagi darslarda o‘rgana boshlagan 6-7 yoshli birinchi sinf o‘quvchilari, ikkinchi sinfdan alifbo, o‘qish va grammatikani o‘zlashtirishni bosqichma-bosqich boshlashgan bo‘lsa, 2016-2017-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonda ilk marotaba barcha o‘quvchilar yangi DTS asosida chet tillarni o‘rganishda to‘liq qamrab olindi.

Bugungi kunda Respublikadagi barcha umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida ta’lim-tarbiya olayotgan o‘quvchilarga chet tillar o‘rgatilmoqda. Uzluksiz ta’limning mazkur bosqichidagi o‘quvchilarning chet tillarni o‘rganishlarini ta’minlash maqsadida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasiga ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha bakalavriat yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib, O‘zbekistonda boshlang‘ich chet til ta’limida sifat va samaradorlikka erishilishida:

– avvalo, jamiyatda chet tillarni o‘rganish uchun qulay muhit yaratilganligi;

– uzluksiz ta’lim tizimining chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi, xalqaro andozalarga mos yangi ta’lim standartlari yaratilib, unga asosan yetakchi xorijiy o‘quv markazlarini, chet tillar bo‘yicha xalqaro ekspertlar va mutaxassislarni jalb etgan holda o‘quv reja, dastur, darslik majmualar va qo‘llanmalar yaratilganligi va o‘quvchilarga bepul yetkazib berilganligi;

– boshlang‘ich sinflarda chet tillarini o‘qitish uchun alohida chet tili xonalari tayyorlanganligi va ularning barchasi maxsus to‘plamdagi texnik vositalar va o‘quv-ko‘rgazmali qurollar, lug‘at va adabiyotlar bilan to‘liq ta’minlanganligi;

– o‘quvchilarini ikki guruhga ajratib dars o‘tilayotganligi;

– davlat test markazi tomonidan o‘tkazilgan sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan chet til fani o‘qituvchilarining maoshlariga ustamalar belgilanayotganligi;

– chet tilni bilish darajasi to‘g‘risidagi davlat namunasidagi malaka sertifikatiga ega bo‘lgan o‘quvchi, talaba va pedagoglarga yetakchi xorijiy ta’lim muassasalarida til o‘rganish amaliyotlarini tashkil etilayotganligi;

– oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim, pedagogika, psixologiya va chet til o‘qitish metodikasi mutaxassislik fan sifatida o‘qitiladigan maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish ixtisosligi bo‘yicha yo‘nalishlar ochilganlgi;

– har bir maktab va tumanda ingliz tili o‘qituvchilari orasida “Yilning eng yaxshi ingliz tili o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovi tashkil etilib, viloyat bosqichi g‘oliblari Yevropadagi til o‘rgatish markazlariga tajriba almashish uchun yuborilayotganligi kabi omillar sabab bo‘lmoqda, degan xulosaga kelindi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich chet til ta’limida sifat va samaradorlikka erishish uchun a) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash institutlarida (boshlang‘ich ta’lim yoki filologiya va tillarni o‘qitish ixtisosligiga ega bo‘lgan pedagoglar uchun) qayta tayyorlov kurslari tashkil etish, b) hududlarda tashkil etilgan chet tillarga ixtisoslashtirilgan davlat maxsus maktablari huzurida o‘quvchilarning chet tillar bo‘yicha va chet til o‘rganish bo‘yicha zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirib borayotganliklarini doimiy monitoring qilib boruvchi ishchi guruhlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, d) rasm, atrofimizdagi olam, mehnat va jismoniy tarbiya darslarini ingliz tili bilan integratsiyalashtirish kabi tavsiyalar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2014. – 76-b.

2. Brown D.H. Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. – NY.: Longman, 2007. – P.570.

3. Edwards A., Knight P. Effective early years education: Teaching Young Children. – London. Open University Press. 2001, – P.168.

4. Flanagan T. Final Report on the Modern Languages in Primary Schools Initiative. – Dublin. MLPSI ConsultativeManagement Committee, 2012. – P.70.

5. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432-b.

Hilola NAJMIDDINOVA,
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

MATEMATIK TAFAKKUR: U QACHON VA QANDAY SHAKLLANADI?

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim sohasida, xususan, matematika ta'limida olib borilayotgan islohotlar, Prezidentimiz tomonidan bu borada pedagoglar va mutaxassislar oldiga qo'yilayotgan vazifalar, matematika ta'limining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lgan matematik tafakkur, uning mazmun-mohiyati, shaxs rivojlanishida tutgan o'rni va ahamiyati hamda matematik tafakkurni shakllantirish yo'llari va usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Matematik tafakkur, matematiklar kabi fikrlash, mantiqiy fikrlash, abstrakt fikrlash, topologik tafakkur, tartibli tafakkur, metrik tafakkur, algebraik tafakkur, proyektiv tafakkur.

В статье рассматриваются проводимые реформы в сфере образования, в частности математического образования, задачи, поставленные Президентом Республики Узбекистан перед учителями и специалистами в этой области, математическое мышление, его содержание, роль в личностном развитии в качестве одним из важных факторов в повышение эффективности математического образования, значение, способы и методы формирования математического мышления у человека.

Ключевые слова. Математическое мышление, думать как математик, логическое мышление, абстрактное мышление, топологическое мышление, порядковое мышление, алгебраическое мышление, проективное мышление.

The article discusses the ongoing reforms in the field of education, in particular, mathematical education, the tasks set by the President of the Republic of Uzbekistan for teachers and specialists in this field, mathematical thinking, its content, the role in personal development as one of the important factors in increasing the effectiveness of mathematical education, meaning, ways and methods of forming mathematical thinking in humans.

Key words. Mathematical thinking, thinking like a mathematician, logical thinking, abstract thinking, topological thinking, ordinal thinking, algebraic thinking, projective thinking.

O'zbekiston ta'lim tizimining jahon ta'lim maydoniga kirib borishi mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish zaruratini yuzaga chiqardi. Zamonaviy ta'lim tizimi har bir ta'lim oluvchining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'z oldiga muammolardan qo'rqmaydigan, ularning yechimi uchun nostandart yondashuvlarni qo'llay oladigan, yuqori texnologiyali jamiyatda yashashga tayyor, hayot davomida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qodir shaxsni tarbiyalash maqsadini qo'yadi. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish, ko'p jihatdan matematik tafakkurning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz tomonidan matematika ta'limini rivojlantirishga qaratilgan bir qator qarorlar qabul qilinib, ularda ta'lim jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan qator vazifalar belgilab berildi. 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti

faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son, 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarorlari shular jumlasidandir. Matematik tafakkur bolalarning maktabgacha ta’lim yoshidayoq elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonlarida paydo bo‘ladi. Ayniqsa, axborotlashtirish va texnologiyalashtirish hukm surayotgan bugungi davrda matematik tafakkurning o‘rni va ahamiyati beqiyos. Rivojlangan matematik tafakkur har bir shaxsga jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topishi va yuqori texnologiyalarni tez, oson o‘zlashtirishi uchun juda zarurdir. Zero, “Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi ...”

Matematika – keng qamrovli fandir. U murakkab, tushunish qiyin bo‘lgan formulalar, uzundan-uzoq hisoblashlar yoki uch noma’lumli tenglamalardangina iborat emas. Birinchi navbatda, matematika – “strukturalar, tartiblar va munosabatlar” haqidagi fandir. Hattoki eng murakkab matematik konstruksiyalar ham universal mantiqiy qonunlar asosida quriladi.

Matematik fikrlash bilan odatiy fikrlash o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, matematik fikrlash – bu chuqurroq o‘ylash, axborotni tanqidiy qabul qilish, ya’ni har qanday ma’lumotga ko‘r-ko‘rona ishonmaslik malakasidir. Tanqidiy fikrlash, inson dunyodagi barcha narsalardan norozi bo‘lishi, degani emas. Tanqidiy fikrlash orqali inson mazmun va sabablarni izlashga, hodisalar va tushunchalarning mohiyatini bilishga intiladi.

Matematik fikrlash o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

– mantiqiy fikrlash – bu aniq va muayyan tushunchalardan foydalangan holda tafakkur qilish jarayoni bo‘lib, bunda fikrlash mantiq qonunlariga zid bo‘lmaydi, qaror esa avval egallangan quyidagi bilimlar asosida qabul qilinadi:

– analiz va sintez, ya’ni umumiydan xususiyga va xususiydan umumiyga qarab xulosa qila olish ko‘nikmasining rivojlanishi;

– o‘ylash va fikr yuritish ko‘nikmasi, ya’ni farazlar qilish va o‘zining taxminlarini rivojlantirish;

– ko‘p sondagi tushunchalarni, shuningdek, matematik tushunchalarni yodda tutish va ulardan o‘rinli foydalanish qobiliyati (bunda yaxshi xotira ham nazarda tutiladi);

– abstrakt fikrlash – faqat eshitgan va ko‘rgan narsalari bo‘yicha fikr yuritishdan farqli o‘laroq, obrazli konstruksiyalar yaratish va abstrakt tushunchalar (xususiyatlar, belgilar, munosabatlar) bilan ishlash jarayoni.

Ravshanki, matematik tafakkurning rivojlanishi bolaga, o‘quvchiga va umuman, har bir insonga matematik masalalarni osongina hal qilishga yordam beradi. Biroq, fikrlash ko‘nikmalarini egallashning afzalliklari va qulayliklari ancha keng.

Rivojlangan matematik tafakkurga ega bo‘lgan inson:

– har qanday masala yechimga egaligiga ishonadi;

– masalaning yechimini izlashni ketma-ket bosqichlar – masalalar va kichik masalachalarga ajratish orqali amalga oshirishga qodir bo‘ladi;

– xatolarni to‘siqlar va mag‘lubiyat sifatida emas, balki to‘g‘ri yechimga borish yo‘lidagi qadamlar sifatida qabul qilishga tayyor inson bo‘ladi.

Matematik fikrlash insonga kundalik hayotda ham yordam beradi. Muammo qismlarga ajratilsa va voqeiylikning rivojlanishidagi barcha omillar inobatga olinsa, odatda eng yaxshi qaror qabul qilinadi. Har qanday muammoning hal etilishiga bo‘lgan ishonch tufayli, muammoning qiyinligi hech bir qo‘rquv va havotir tug‘dirmaydi.

Matematik tafakkurga ega bo‘lishning ijobiy jihatlari quyidagilarda namoyon

bo‘ladi:

1. Matematik tafakkur muvaffaqiyatli bilim olishni ta’minlaydi. Murakkab masalalarni oddiy masalalarga ajratish, ko‘p sonli tushunchalarni yodda saqlash va ulardan foydalanish, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslik, o‘zaro bog‘liqliklarni izlash va masalaning mohiyatiga kirib borish ko‘nikmasi nafaqat matematikani, balki har qanday fan va mavzuni o‘zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, gumanitar soha vakillari – filologlar, tarix, ijtimoiy fanlar vakillari ham matematik fikrlash asoslarini o‘zlashtirganlar va bundan foydalanadilar. Faqat buni o‘zlari sezmaydi xolos.

2. Axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Professor D. Ellenberg shunday yozadi: “... Matematika – bu haqiqiy olamdan yiroq bo‘lgan abstrakt g‘oyalardan iborat emas. Matematika atrofimizdagi barcha narsa va hodisalarga singib ketgan. U biz yashab turgan olamning tartibsiz, xaotik yuzasiga nazar solishga, uning ortida yashiringan strukturalarni kuzatishga imkon beradi”.

“Matematiklardek” fikr yuritadigan inson atrofimizdagi olamni sog‘lom tanqidiy ruhda qabul qiladi, haqiqatni ro‘yodan farqlay oladi, narsa va hodisalarning “sehrli” qudratiga ishonmaydi. Bunday insonni bir narsaga ishontirish qiyin va shu tufayli u juda ko‘p muammolarga duch keladi.

3. Hayotiy muhim qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Matematik fikrlash muammolarni komponentlar, bosqichlar, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlar va oqibatlarga qarab yechishni odatiy holga aylantiradi. Muammolarni hal qilish mumkinligi va xatolar hech bo‘lmaganda tuzatilishi mumkinligiga ishonch mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga, shubha va qo‘rquvdan qochish va hech bo‘lmaganda har qanday vaziyatda o‘zi uchun aniq harakatlar rejasini ishlab chiqishga imkon beradi. D. Ellenbergning ta’kidlashicha, matematika – bu “qanday qilib xatoga yo‘l qo‘ymaslik haqidagi fandir, matematik shakllar va metodlar esa ko‘p yillik tinimsiz mehnat va bahs-munozaralar natijasida vujudga kelgan”.

4. Matematik tafakkur kechiktirishni yo‘qotishga yordam beradi. Kechiktirish – bu bugun bajarilishi lozim bo‘lgan ishni ertaga qoldirish bilan bog‘liq bo‘lgan noxush odatdir. Ammo bu dangasalik belgisi emas. Muammoni yechishga bo‘lgan hadik, jur’atsizlik deb baholanishi mumkin.

Kechiktirishni yo‘qotish uchun inson muammoga quyidagicha yondashuvi kifoya:

– oldida turgan qiyinchiliklarni tahlil qilish va umuman olganda, masalani “hal qilib bo‘lmaydigan”, deb hisoblamaslik;

– o‘z tajribalaridan kelib chiqib, yuzaga kelgan murakkab vaziyatdan chiqish uchun qanday yo‘l tutish kerakligini “taxmin qilish”;

– o‘zi uchun yana qanday masalalarga aniqlik kiritish kerakligini, mavzuga to‘g‘ri yondashish uchun nimalarni o‘rganish kerakligini aniqlash;

– muammoning yechimini bosqichlarga ajratish va har bir bosqich uchun bajarish muddatlarini belgilash.

Yuqorida ta’riflangan fikrlash usuli bilan na matematik va na boshqa soha vakillari muammoni hal qilishning “qulay fursat”ini kutish uchun sabab izlamaydilar. Buning uchun ularda shunchaki “sabab”ning o‘zi mavjud bo‘lmaydi.

5. Matematik tafakkur muvaffaqiyatli karyera uchun asos bo‘ladi. B. Oakli shunday yozadi: “Dunyo o‘zgarib bormoqda va muammolarni texnik hamda matematik yondashuvlar orqali hal qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda”. Aynan rivojlangan analitik (matematik) tafakkur ko‘plab kasblar va rahbarlik lavozimlarida asosiy o‘rin tutadi.

Endi tabiiyki savol tug‘iladi: “matematiklardek” fikrlashni o‘rgansa bo‘ladimi?

Albatta, bo‘ladi. Inson miyasi doimo murakkab matematik hisoblashlarni amalga oshiradi. Masalan, yo‘ldagi to‘siqni aylanib o‘tish trayektoriyasini e’tiborga olishda yoki voleybol o‘yinida to‘pni qo‘l bilan urishda inson miyasi avtomatik tarzda o‘ziga xos hisoblashlarni amalga oshiradi.

logiclike.com sayti matematik fikrlashni o‘rganishga va umuman, matematik, mantiqiy rivojlanish muammolarini hal qilishda yordam beradigan quyidagi 9 ta usulni taklif qiladi:

1. O‘zingizni va o‘z xususiyatlaringizni qabul qiling. Bu individual xarakter xususiyatlarni, temperament va muammolarni hal qilish usullarini hisobga olishni nazarda tutadi. Agar sizga odatda “o‘ylab ko‘rish” uchun vaqt kerak bo‘lsa, o‘zingizga “imkon qadar tezroq tartibga solish” vazifasini yuklamang.

2. Tasavvuringizdan foydalaning. Noma’lum muammoga duch kelganda yoki qiyin masalani hal qilishga to‘g‘ri kelganda, unga yangicha nuqtayi nazar bilan yondashing, boshqacha “ko‘z bilan qarang”.

3. Siz uchun tushunarli bo‘lgan o‘xshashliklarni tanlang. B. Oakli quyidagi misolni keltiradi: agar siz tenglamaning mohiyatini tushunmasangiz, undan she’riyatni izlang, chunki tenglama – bu kodlangan ma’noga ega bo‘lgan matematik ibora, she’r esa – falsafiy, chuqur ma’noga ega bo‘lgan poetik ibora. Eynshteyn fotonning mohiyatini tushunishga intilib, o‘zini uchayotgan foton sifatida tasavvur qilgan va boshqa fotonlarning u bilan qanday munosabatda bo‘lishini taxmin qilishga uringan.

4. Harakatlar orqali ishlashni odat qiling. Bilimlarni bo‘lib-bo‘lib o‘zlashtiring va murakkab masalalarni bir nechta kichik masalachalarga ajrating. Muammolarni (xatto o‘ta qiyin va qo‘rqinchli bo‘lsa ham) hal qilishga darhol kirishing. Buning uchun mos keladigan vaqtni boshqarish usullaridan foydalaning.

5. Muammoni hal qilishga ichki “qulaylik” bilan yondashing. Darhol ilm-fanning murakkab tushunchalaridan foydalanishga urinmang: avval ma’lumotlar ichida hayolan “suzing”, muammo bilan yuzaki tanishib ko‘ring.

6. “O‘rnatish effekti”dan saqlaning. Mavjud fikrlar va g‘oyalar, shuningdek, mavjud yoki standart yechimlar sizni muammodan chalg‘itmasin, muammoni hal qilish jarayoniga xalaqit bermasin.

7. Muloqot va munozaraga chog‘laning. Munozara qilishga tayyor turing: nizodan qo‘rqish, doimiy “murosaga kelish” muammo yoki masalani hal qilishning ijodiy jarayonini yo‘qotadi.

8. Har qanday muammoni hal qilish mumkinligiga o‘zingizni ishontiring. Har qanday vaziyatdan muvaffaqiyatli chiqish, har qanday muammoni hal qilish qobiliyati, aksariyat hollarda tashqi holatlarga yoki tug‘ma qobiliyatlarga emas, balki qat’iyatlilik va mehnatsevarlikka bog‘liqdir.

9. Amal qiling! Bolalarga matematik fikrlashni rivojlantirishga yordam berishni xohlaysizmi? U holda matematik va mantiqiy masalalarni ko‘proq yechish kerak. Maktab, oliy ta’lim o‘quv dasturlari bilan cheklanmang. Jumboqlar, boshqotirmalar, mantiqiy o‘yinlar va qiziqarli masalalar ustida ko‘proq ishlash kerak.

Yuqorida sanab o‘tilgan maslahatlar umumiy. Bolalarni matematiklardek o‘ylashga, fikrlashga o‘rgatish uchun ularning matematik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish kerak bo‘ladi. Buni bolalarning faoliyatlari ichida, hayotiy vaziyatlarda, o‘yinlar yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Psixologiyadan ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati – bu o‘yindir. Asosiy faoliyat esa – bu shunday mashg‘ulotki, u insonning ma’lum bir

yosh davrida nafaqat yoqimli (biz bilamiz, bolalar o‘yin o‘ynashni qanchalik yoqtiradi), balki foydali hamdir. Bola o‘zining yosh davrida aynan shu yetakchi faoliyat bilan shug‘ullanish orqali dunyoni, o‘rganadi, o‘zligini anglaydi, o‘zida kelajak hayoti uchun muhim bo‘lgan va aynan shu yoshda, shu faoliyat turi orqali shakllanadigan eng yaxshi shaxsiy xususiyatlarni rivojlantiradi.

Bola ko‘p mashg‘ulotlarni bajara oladi, ammo har bir faoliyat turlarining rivojlantirish imkoniyatlari turlicha. Masalan, go‘daklik davrida bolaning asosiy faoliyati onasi bilan bo‘ladigan emotsional muloqotdir. Agar bu muloqot yetarli bo‘lmasa, u holda xatto onasi turli xil o‘yinchoqlar yasash va ularni bolaning krovati atrofiga osishga ko‘p vaqt va kuch sarflagan bo‘lsa ham, bola nutqida, ruhiy va jismoniy rivojlanishda orqada qoladi. Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan davrda bola predmetlar bilan faol muloqotda bo‘ladi va shu orqali unda dunyo haqida tasavvurlar paydo bo‘la boshlaydi, o‘z tanasining imkoniyatlarini o‘rganish va tilni o‘zlashtirish rivojlanadi. Agar bu yoshdagi bola so‘zlashuv muloqotidan, erkin harakatlanish, predmetlar bilan o‘ynash va dunyoni barcha sezgi organlari bilan o‘rganish imkoniyatlaridan cheklansa, natijada, bolada ruhiy, nutq va intellektual rivojlanishda kechikish ro‘y beradi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun har qanday o‘yin – syujetli-rolli, o‘yinchoqlar bilan, harakatli o‘yinlar, stol ustidagi o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari bunday faoliyat vazifasini bajaradi.

O‘yin bolaning shaxsiy irodaviy xususiyatlaridan tashqari, muloqot qilish, muzokara olib borish, nizolarni hal qilish, liderlik qilish va qoidalarga rioya qilish kabi qobiliyatlarni ham rivojlantiradi va bolalar egotsentrizmini yengishga yordam beradi. O‘yin jarayonida turli xil rollarni ijro etib, bola, go‘yoki, u yoki bu personajning nigohi bilan vaziyatga qarab, o‘zidagi “men”ning chegaralarini ochib tashlaydi. O‘yinda insoniy munosabatlar haqidagi bilimlar paydo bo‘ladi va bolada bunday munosabatlarni qurish qobiliyati shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar juda ko‘p o‘yin o‘ynashlari kerak. O‘yin qancha ko‘p o‘ynalsa, shuncha foydali bo‘ladi. O‘yin kattalar bilan boshqa bolalar bilan va xatto yolg‘iz o‘zi o‘yinchoqlari bilan o‘ynalishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-son Qarori. 9.07.2019-y. https://lex.uz/docs/4409503.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son Qarori. 7.05.2020-y. https://lex.uz/docs/4807552.

3. Каплунович И.Я. Учет индивидуальных особенностей мышления при обучении учащихся решению математических задач // Психология обучения. – 2005. – N 1. – С. 22-24.

4. Урлапова В.П. Нужна ли математика дошкольникам? // https://russianclassicalschool.ru/methods/podgotovka-k-shkole/5-6-let/item/355-v-p-urlapova-nuzhna-li-matematika-doshkolnikam.html.

Raxmatilla DEHQONOV,
Namangan davlat universiteti, kimyo fanlari nomzodi,
‘‘Organik kimyo’’ kafedrasi dotsenti
Shavkat ABDULLAYEV,
Namangan davlat universiteti, kimyo fanlari doktori,
‘‘Organik kimyo’’ kafedrasi professori
Surayyo MAMATQULOVA,
Farg‘ona davlat universiteti, ‘‘Organik kimyo’’ kafedrasi katta o‘qituvchisi

“TOVARLAR KIMYOSI” FANINI O‘QITISHNING ZARURATI VA DOLZARBLIGI

Annotatsiya

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab, “Tovarlar kimyosi” fanini yaratilishi tarixiy zarurat bo‘lib qoldi. Ushbu tadqiqot ishining maqsadi, mustaqilligimiz ne’mati bo‘lgan “Tovarlar kimyosi” fanini Respublika miqyosida keng targ‘ib qilish, dunyo miqyosida yangi kimyo fanining o‘zbek olimlari tomonidan yaratilganligini yoshlar ongiga singdirish orqali, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanishdan iborat.

Kalit so‘zlar. Yangi fan, tovarlar kimyosi, o‘zbek kimyogar olimlari, tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar nomenklaturasi, tovar kodi, tovarlarni tasniflash, sertifikatlash, sholg‘om, lavlagi, turp, topinambur, pektin.

С момента обретения Республикой Узбекистан независимости создание предмета “Товароведческая химия” стало исторической необходимостью. Целью данного исследования является популяризация науки ‘‘Химия товаров’’, которая является благом нашей независимости, на национальном уровне, чтобы воспитывать молодых людей в духе патриотизма, знакомя их с новой химией, созданной узбекскими учеными

Ключевые слова. Новая наука, товарная химия, узбекские химики, Товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности, товарный код, классификация товаров, сертификация, репа, свекла, редис, топинамбур, пектин.

From the moment the Republic of Uzbekistan gained independence, the creation of the subject “Commodity Science Chemistry” has become a historical necessity. The aim of this study is to popularize the science of “Chemistry of goods”, which is a blessing of our independence, at the national level, in order to educate young people in the spirit of patriotism, introducing them to the new chemistry created by Uzbek scientists.

Key words. New science, commodity chemistry, Uzbek chemists, Commodity nomenclature of foreign economic activity, commodity code, classification of goods, certification, turnips, beets, radishes, jerusalem artichoke, pectin.

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining mustaqillikka erishgan ilk kunlaridanoq o‘sha davr talabidan kelib chiqib iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar bilan ikki tomonlama teng huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan savdo-iqtisodiy munosabatlarni yo‘lga quyish bo‘yicha keng hajmdagi ishlarni olib bordi.

Bu esa O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazish borasida davlat bojxona tizimida katta ishlar olib borilishiga turtki berdi. Respublikamizga olib kelinayotgan va Respublikamizdan olib chiqilayotgan tovar mod-

diy boyliklaridan boj to‘lovlarini qonuniy to‘g‘ri undirishni ta’minlash davlat xazinasini boyitishning va iqtisodiyotimizni yuksaltirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy kimyo fanlari hozirda 20 ta hisoblanadi. Ushbu fan yo‘nalishlarining 19 tasini yevropa va Amerika qit’asining eng ilg‘or olimlari yaratgan. Eng yangi va tez rivojlanayotgan kimyo fani hisoblangan “Tovarlar kimyosi” fani esa O‘zbek kimyogar olimlari mualliflari t.f.d.,akademik T.T.Risqiyev va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan ixtirochi, k.f.d.,professor I.R.Asqarovlar tomonidan yaratilgan va pasporti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Rayosati tomonidan tasdiqlangan (28.09.2017-y., 242/4-qaror).

“Tovarlar kimyosi” fanining yaratilishi – tarixiy zarurat bo‘lib, olamshumul ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, xalq xo‘jaligining barcha moddiy ishlab chiqarish sohalarida mahsulotlar, oldi-sotdi operatsiyalari uchun tovarlar ishlab chiqariladi. Aynan yangi kimyo fani, “Tovarlar kimyosi” – tovarlarning kimyoviy tarkibini o‘rganish orqali Tashqi Iqtisodiy Faoliyatda Tovarlar Nomenklaturasi (TIF TN) asosida ularga mos raqamli tovar kodlarini belgilaydi. O‘z navbatida, har bir tovar kodi tovarning xom ashyo manbai, qayta ishlash usuli, narxi, sifati, ekologik xavfsizligi haqida xulosa qilishga imkon beradi. Bu esa tovarlarning dunyo bo‘ylab bojxona amaliyotidagi eksport va import jarayonlarini, savdo amaliyotini bir necha 10 barobargacha tezlashtiradi. Shunga ko‘ra, u fan dunyo miqyosida amaliy ahamiyatga ega.

Tovarlar kimyosi tadqiqot uslublari orqali tovarlarga TIF TN bo‘yicha to‘g‘ri, raqamli kodlarni belgilash orqali iste’molchi va ishlab chiqaruvchining manfaatlarini himoya qiladi. Ayniqsa, respublikamizga import qilinayotgan tovarlarni bojxona ko‘rigidan o‘tkazishda taklif qilingan xalqaro tovar kodlarini TIF TN bo‘yicha qayta tekshirish, aniqlash orqali ularga mos bojxona to‘lovlari undiriladi. Mamalakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sertifikatlash orqali har bir korxona iqtisodiy manfaatini muhofaza qilish ta’minlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Komitetining ma’lumotnomasiga ko‘ra, oxirgi 8 yilda “Tovarlar kimyosi” fanining bojxona amaliyotiga joriy qilinishi orqali, davlat xazinasiga jami 100 mlrd. so‘mdan ortiq qo‘shimcha bojxona tushumlari undirilgan. Bu esa yangi fanning respublikamiz iqtisodiyotida ahamiyati yuksak ekanligini ko‘rsatadi.

“Tovarlar kimyosi” fanining yangi taxrirdagi pasportida fanning qator ilmiy-tadqiqot usullari qatorida organoleptik, biologik, kimyoviy, fizik-kimyoviy, kvant kimyoviy uslublar kabi eng zamonaviy fan yutuqlaridan keng foydalanishi ko‘rsatilgan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyoning eng rivojlangan 40 dan ortiq mamlakatlarida ham ushbu fan yo‘nalishi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

“Tovarlar kimyosi” fani Respublika miqyosida keng targ‘ib qilinishi, dunyo miqyosida yangi kimyo fanining o‘zbek olimi tomonidan yaratilganligini yoshlar onggiga singdirish orqali, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanish zarur. Har bir tovarni “Tovarlar kimyosi” usullari yordamida tahlil qilish – nafaqat mamlakat iqtisodiyotini, shu bilan birga, aholi salomatligini himoya qilishda muhim ahamiyatga egadir. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining ilmiy tadqiqot institutlarida va mamlakatimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalarida talabalarga “Tovarlar kimyosi” haqida maxsus kurslarni o‘qitish, tovar mahsulotlarini eksport-import opreatsiyalarini nazorat qilishi uchun ular bazasida alohida zamonaviy ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari tashkil etish va jihozlash orqali, mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni jahon bozoriga tez va sifatli chiqarilishiga imkon yaratiladi. Bu fanning yaratilishi nafaqat O‘zbekiston ilm

ahlining, balki butun mamlakatimiz aholisining katta ilmiy yutug‘idir. Ushbu fanning yaratilishi – mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning barcha sohalar qatori ilm – fanga juda katta e’tibor qaratayotganining amaliy natijalaridan biri deb hisoblaymiz va 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishi “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” asosida, yanada zamonaviy innovatsion kashfiyotlar amalga oshirishda turtki bo‘ladi. “Tovarlar kimyosi”ga bag‘ishlangan xalqaro simpozium, konferensiya va uchrashuvlar tashkil etilishi, o‘zbek va chet tillarida kitob, o‘quv-qo‘llanmalar chop etilishi, televideniye va ommaviy axborot vositalarida, internet tarmoqlarida keng targ‘ib etilishi esa, ushbu fan yutuqlaridan dunyo miqyosida oqilona va samarali foydalanishga imkon beradi.

Hozirgi vaqtda yangi fanning amaliyotga tatbiq etilishi tufayli tovarlarga xalqaro kod raqamlarini kimyoviy tarkibi asosida to‘g‘ri belgilash juda katta iqtisodiy samaralar bermoqda. Natijada, tovarlarga noto‘g‘ri kod raqami belgilanganligini aniqlash orqali respublikamiz xazinasiga milliardlab qo‘shimcha bojxona to‘lovlari undirilmoqda.

“Tovarlar kimyosi” fani tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga ko‘ra, tovarlarni tasniflash, sertifikatlash bilan bog‘liq holda moddalarning tarkibi, olinishi, kelib chiqishi, tuzilishi, organoleptik va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish kabi kimyoviy, texnologik tadqiqotlar bilan bir qatorda iqtisodiy tadqiqotlar ham olib borish rejalashtirilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatdagi tovarlar nomenklaturasida (TIFN) 0706100009 kod raqami sholg‘om (repa) uchun ajratilgan. Boshqa sholg‘omsimon ildiz mevalar uchun 0706909009 kod raqami ajratilgan bo‘lib, ularga rediska, turp va boshqalar mansubdir. TIFTN da turp uchun alohida raqam ajratilmagani eksport-import jarayonlarini qonuniy amalga oshirishda bir oz qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun turp mahsuloti uchun biz quyidagi kod raqamini tavsiya etamiz: 0706909008. TIFTN dagi 0706909009 raqami esa rediska, daykon va boshqa sholg‘omsimon ildizmevalari uchun taalluqli bo‘lib qolaveradi. Bu o‘simlik uchun berilgan kod raqamlari bo‘lsa uning tarkibidan ajratib olingan biologik faol moddalarga ham kod raqamlarini berish taqozo etiladi. Shuning uchun ushbu tadqiqot ishida lavlagidan pektin moddasi ajratib olindi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Turli sharoitlarda ajratib olingan lavlagi pektinining ayrim fizik-kimyoviy xossalari

Ekstrogent konsentratsiyasi	Ekstraktsiya vaqti, soat	T, єC	Efirlanish darajasi, λ, %	Ozod karboksil guruhlar miqdori, K_o	Efirlangan karboksil guruhlar, miqdori $K_э$
0,2 % HCl	1,5	70	55,2	7,8	9,6
0,4 % HCl	3,0	85	61,0	6,6	10,3
2,0 % HNO3	1,0	70	41,4	10,6	7,5
0,5 % H2C2O4	2,0	70	71,8	4,8	12,2

Ajratib olingan pektin moddalari amorf holatida, oq qaymoqsimon rangdan to ozroq kulrangsimon ranggacha bo‘lib, suvda yaxshi eriydi.

Pektin moddalari karboksil guruhlar miqdoriga ko‘ra u turli efirlanish darajasiga ega bo‘ladi. Agar 50 fozidan past bo‘lsa, quyi efirlangan bo‘ladi. Bir xil sharoitda va yuqori temperaturada yuqori-efirlangan pektinlar quyi efirlanganlardan tezroq jele hosil

qiladi.

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, protopektinni gidroliz jarayonida vaqt va harorat oshgan sari pektin moddalarni chiqishi ortgan, lekin bunda zollanish past.

Lavlagidan olingan pektin moddasining xlorid va azot kislota eritmasidagi ekstraksiya oksalat kislotasiga ko‘ra, kuchli metoksillangan bo‘lib, olma va sitrusli mevalarning pektinlaridan farq qilib, karboksil guruhlarni o‘zida saqlaydi. Kuchli kislotali muhitga nisbatan kuchsiz kislotali muhitda ekstraksiyalab olingan pektin namunalarining efirlanish darajasi yuqori bo‘lib, bu namunalarning suvda eruvchanligi ham yaxshi. Shu bilan birga viskozimetrik usulda aniqlangan molekulyar massalari 5000 dan 37 000 dalton oralig‘ida bo‘ldi.

Tadqiqot natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, kislota agressivligi va haroratni ortishi pektin moddasi molekulyar massasini kamayishiga, ya'ni glyukozid bog‘larini uzilishiga (destruksiyani ortishiga) olib kelgan bo‘lishi mumkin.

Lavlagidan pektin moddasi ajratib olishda ekstrogent turi va konsentratsiyasi va optimal sharoitni tanlagan holda kerakli unum, kerakli efirlangan hamda molekulyar massali pektin moddalarini ajratib olish mumkin ekan.

Olingan pektin moddalari tovar sifatida foydalanishi va bundan tashqari boshqa biologik faol moddalar bilan birgalikda biologik faol qo‘shimcha tovar sifatida ishlab chiqarilishi mumkin va bu o‘z navbatida, tovar sifatida sinflashni taqozo etadi.

Amaldagi TIF TN bo‘yicha pektin moddalari 13 guruhda joylashgan. 130220 pozitsiya o‘simliklarning soki va ekstraktlari, pektin moddalari, pektinatlar va pektatlar pektin moddalariga taalluqli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq so‘zi” gazetasining 2018-yil 16-noyabrdagi soni.

2. Asqarov I.R., Tovarlar kimyosi. Monografiya. –T.. 2019. 17-22-betlar.

3. Asqarov I.R. va boshqalar. Tovarlar kimyosi. – T.: Yangi asr avlodi. 2019. 8-26-betlar.

4. Асқаров И.Р, Каримқулов К.М. Таможенная экспертиза и классификация товаров на остове химического состава –Т. 2003. С. 192.

5. МГС-межгосударственный стандарт. ГОСТ 23452-79. –М. 2003 г. С.169.

6. Salixov S.A. “Tovarshunoslik”. Darslik. –T: 2011, 345-b.

7. ТН ВЭД РУз (Последняя версия) –Т. 2012. С. 845.

Ibrohimjon ZAXIDOV,
Namangan davlat universiteti ‘‘Fizika o‘qitish metodikasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

FIZIKA FANINI O‘QITISH VA UNING UZVIYLIK BILAN BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzviylik tamoyilining mazmun va mohiyati, uning fizika fanini o‘qitishdagi ahamiyati bayon etilgan. Uzviylik falsafaga tegishli bo‘lishi bilan birga uning “uzviylik va fanlararo bog‘lanish”ga doir tushunchasi atom tuzilishi misolida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. Fizika o‘qitish, uzviylik tamoili, falsafiy kategoriya, didaktika, bilish jarayoni, moslashish, izchillik, moslik, fanlararo bog‘lanish, atom tuzilishi.

В статье описаны содержание и сущность принципа последовательность, его значение в преподавании физики. Хотя последовательность принадлежит философии, сущности понятия ‘‘органичности и междисциплинарной связи’’ раскрыто на примере атомной структуры.

Ключевые слова. Преподавание физики, принцип органичности, философская категория, дидактика, познавательный процесс, адаптация, последовательность, совместимость, междисциплинарная связь, структура атома.

The article describes the content and essence of the principle of consistency, its significance in teaching physics. Although the consistency belongs to philosophy, the essence of the concept of ‘‘organicity and interdisciplinary connection’’ is revealed on the example of atomic structure.

Key words. Teaching physics, principle of organicity, philosophical category, didactics, cognitive process, adaptation, consistency, compatibility, interdisciplinary communication, structure of the atom.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, iqtidorli o‘quvchilarni saralash, mehnat bozoriga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni rivojlantirish hamda amaliy natijadorlikka yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xalq ta’limi xodimlarining asosiy vazifasi komil farzandlarni tarbiyalash, bilimdon, vatanparvar, milliy iftixor tuyg‘ulari yuqori bo‘lgan avlodni kamol toptirishdir. Bularga erishish uchun ta’lim tizimini takomillashtirishning eng maqbul mazmuni, shakl va usullarini yaratish taqozo etiladi. Komil insonni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-tarbiya jarayonining asosiy vazifasi ta’lim samaradorligini oshirishdir. Ta’lim samaradorligi, ta’lim mazmunining maqsadi va vazifalariga mosligi, uning ilmiy jihatdan asoslanganligi, izchilligi, turmush bilan bog‘liqligi, shu bilan birga o‘quvchilarga mos usullar, modellar va vositalarning tanlanishi bilan asoslanadi.

Fizika o‘qitishning samarali yo‘llaridan biri o‘quv materialini fundamental g‘oya va nazariyalar asosida bayon etishdan iborat. Ta’kidlash lozimki, juda ko‘p faktlarni qamrab olishga, ularni o‘zaro bog‘liqlikda qarashga va bir vaqtning o‘zida ilmiy-nazariy, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, bilimlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi umumpedagogik masalalarni yuksak darajada hal qilishga imkon

yaratadi.

O‘quvchilar tomonidan bilimlarning o‘zlashtirilishi uchun o‘qituvchi tomonidan ushbu bilimlarni shakllantirish jarayonini to‘g‘ri tashkil etilishi va ularning o‘zlashtirilishini boshqarib turilishi lozim.

Zamonaviy nazariya va ta’lim amaliyotida o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirish usullarini aniqlash borasida izlanishlar olib borilmoqda. Ana shu jarayonni takomillashtirishda umuminduktiv qoidalarni, xususan uzviylik tamoyilini qo‘llash muhim ahamiyatga egadir.

Uzviylik tamoyilining mohiyati quyidagicha: bir holatdan yoki bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish jarayonida umumiy tizimning qandaydir elementlari yoki qismlari saqlab qolinadi. Ilmiy bilish jarayonida uzviylik moslashish tamoyili bilan bog‘liq. Didaktikada esa, keyingi bosqichning oldingi bosqichlar asosida tashkil etilishi anglanadi. Bundan tashqari, turli tipdagi maktab o‘qituvchilari funksional faoliyatning mazmunini tashkil etishini ham bildiradi. Bu ma’noda uzviylik deganda, ta’limning bir turidan ikkinchisiga o‘tish davrida fizik bilimlarning yadrosini saqlash va rivojlantirish kerakligi tushuniladi. Ta’kidlash lozimki, uzviylik tamoyilini qo‘llash ayni vaqtda o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish jarayoni bilan birga uslubiyotning invariant tamoyillarini ham inobatga olinishni taqozo etadi.

Nazariy bilimlarning amaliy ko‘nikmalar bilan aloqasi tamoili falsafaning bilish jarayonida nazariya va amaliyotning birligi haqidagi ta’limotiga asoslanadi. Mazkur qoidani qo‘llash umumiy o‘rta ta’lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va oliy ta’limdagi fizika ta’limining asosiy vazifalaridan biridir. Ulardagi fizika ta’limi o‘quvchilar va talabalarga fan sohasida chuqur bilim berish bilan birgalikda ularda fizikaviy tushuncha va qonuniyatlarni tushunish, ular orasidagi uzviylikni idrok etishni ham o‘rgatish lozim.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, izchillikni quyidagicha ta’riflash mumkin: “O‘qitishdagi izchillik bilim, malaka va ko‘nikmalarning rivojlanish bosqichlari orasidagi bog‘lanishni ifodalaydi, ya’ni o‘qitishning dastlabki bosqichida olgan bilimlar saqlanib, keyingi bosqichda yangi bilimlarga ega bo‘lishda qo‘llaniladi. Eski va yangi bilimlar birlashib, bir butun yaxlit holga keladi”. Demak, o‘quvchi va talabalarni o‘qitish jarayonida fizika ta’limining uzviyligini ta’minlash muhim ekanligini yuqoridagi fikrlar yana bir bor tasdiqlaydi. Shuning uchun mazkur tamoyilning didaktik asoslarini yoritish maqsadida uzviylik qoidasining falsafiy, fizikaviy va ta’lim jarayonidagi mohiyatini aniqlash lozim. Falsafa tarixida uzviylik muammosi ilk bor Gegel tomonidan yoritilgan edi. Inkorni inkor etish qonunini ishlab chiqarish jarayonida inkor eski holatni bartaraf etishdangina iborat emasligi, balki yangi holatda avvaldagidan biror narsa saqlanib qolishi va u kelajakdagi rivojlanishi uchun zaruriy asos bo‘lishini isbotlagan edi.

Uzviylik falsafiy kategoriya sifatida borliq va bilishning to‘la bosqichlari elementlari orasidagi aloqa bo‘lib, uning mohiyati butunlik qismlarining tizim kabi o‘zgarish jarayonida saqlanib qolinishidan iborat. Uzviylik o‘tmishni kelajak bilan bog‘lab, butunlikning turg‘unligini ta’minlaydi. Demak, hozirgi zamon falsafasida uzviylik yagona talqinga ega: uzviylik-moddiy obyektlar rivojlanishi jaryonidagi yangi vujudga kelgan narsaning uning avvalgi holatidagi ayrim elementlari saqlanib qolganidir.

Fizika nazariyasining rivojlanishi tarixida moslik tamoyili muhim evristik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda u mavjud nazariyalar orasidagi bog‘lanishni ta’minlovchi mantiqiy vazifani ham bajaradi. Falsafiy adabiyotlarni tahlil qilib, ta’lim jarayonidagi uzviylikning asoslari sifatida quyidagilarni ko‘rsatishi mumkin:

– uzviylik tushunchasi tabiat, jamiyat va tafakkurdagi obyektiv mavjud bo‘lgan rivojlanishni aks ettirib, rivojlanishdagi bog‘lanishlarni hamda bog‘lanishlarning ham rivojlanishini xarakterlaydi. Didaktika – o‘qitish va ta’limning nazariyasi bo‘lganidan, u mazkur jarayonlarning rivojlanishini xarakterlashi kerak. Demak, uzviylik didaktikaga taalluqlidir, ya’ni u didaktik tushunchadir;

– uzviylik falsafiy tushuncha bo‘lganligi sababli falsafa kategoriyalari bilan bog‘liqdir. Didaktik tadqiqot uchun “uzviylik va umumlashtirish”, “uzviylik va fanlararo bog‘lanish”, “uzviylik va sistemalash” kabi tushunchalardagi bog‘lanishni tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi;

– rivojlanish miqdoriy va sifat jihatlariga ega bo‘lgani uchun bilishdagi uzviylik va umumlashtirish tushunchalari orasidagi bog‘lanishga asoslanib, uzviylik turlarini bilishning rivojlanish darajasiga mos holda qarash lozim. Demak, bu usulni didaktik tadqiqotlarga ham qo‘llasa bo‘ladi;

– uzviylik pedagogik va didaktik yo‘nalishdagi tadqiqotlarning uslubiy asoslarini ham tashkil etadi.

Yuqoridagi fikrlarga ko‘ra, agarda uzviylik va fanlararo bog‘lanishga to‘xtalsak, fizikada atom tuzilishiga doir bilimlar u yoki bu ko‘rinishda asta-sekin rivojlanib boradi. Bu jarayon umumiy o‘rta ta’limdan boshlab oliy ta’limda ham davom etadi. Ayniqsa bunda fanlararo aloqalarning roli katta.

Fizika o‘qitishda fanlararo bog‘lanishni ta’minlash o‘quvchilar bilimini chuqurlashtirishga, mustahkamlashga, fikrlash qobiliyatini o‘stirishga va ularning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Fanlararo bog‘lanishlarning turlari, shakllari va mazmunini namoyon qilish jarayonida o‘quvchilarni boshqa fanlarni qanday darajada o‘zlashtirilganligi aniqlanadi va o‘rganilayotgan materiallarning mohiyatini to‘la va chuqur anglab, tushunib yetishni ta’minlaydi. Masalan, fizika va kimyo darsliklari orasida chuqur bog‘lanishning mavjudligi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ham yetarlicha hisobga olinmasa, o‘quv predmetlarini to‘la yoritib bo‘lmaydi. Fanlararo bog‘lanishni ta’minlash talablari esa, qo‘llanilayotgan tushuncha va qonuniyatlarni talqin qilishda o‘zaro moslikka erishish zarurligini ta’kidlaydi. Bunday tushunchani fanlararo bog‘lanish darajasida o‘rganilishi esa, shubhasiz o‘quv materiallarini mustahkamlash bilan birga tabiat qonunlari haqida to‘laroq tasavvur hosil bo‘lishida va bilimlarning uzviyligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim kimyo darsliklarida atomda elektron holatlarini orbitallar yordamida ko‘rsatilib, orbital deganda, elektron bulutni yadro atrofida eng zich sohasini tushinish lozimligi aytib o‘tiladi. Odatda, orbitallar shakli jihatidan farqlanib, s,p,d,f kabi nomlar bilan belgilanadi. Elektron bulutning zich sohalarining fazodagi o‘rniga qarab turlicha bog‘lanishlar yuzaga kelishi va bunday model yordamida turli xil jarayonlar mexanizmini izohlab beriladi. Umumiy o‘rta ta’lim fizika darsliklarida-chi? Fizika darsliklarida atomdagi elektron holatini Bor nazariyasi asosida elektron yadro atrofida statsionar orbita bo‘ylab harakatlanadi deb ko‘rsatiladi. Atomning bunday modeli kamchiliklardan xoli emasligi ham e’tirof etiladi. Lekin, atomni hech bo‘lmaganda kimyo fani bilan bog‘lab, uning tasavvuri bilan mos keladigan zamonaviy modeli ham mavjudligi va u Bor modelidagi kamchiliklardan holi ekani eslatib o‘tilmaydi. Fizika va kimyo darsliklarida zamonaviy fanlar rivojining asosi bo‘lgan atom modelini o‘zaro mos bo‘lmagan “elektron bulut” “statsionar orbita” kabi har xil tushunchalar yordamida bayon etilishi esa, atom to‘g‘risida turlicha tasavvur hosil bo‘lishiga olib keladi. Fizika darsliklarida ham atomning bulutli modelini taklif etish va bulut tushunchasini shakllan-

tirish kimyo fani bilan o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash bilan birga atomning bir xil tasavvurini hosil qilishga imkon beradi.

Umuman mikroobyekt o‘rganilayotgan soha kichiklashib, atom o‘lchamlariga yaqinlashib borgan sari noaniqlik munosabatining ahamiyati kuchayib, koordinata aniq bo‘lsa, tezlik noaniqligi ortadi va aksincha, tezlik aniq bo‘lsa, koordinata noaniqligi ortib, bu ikki kattalikni bir vaqtda aniq bilish mumkin bo‘lmay qoladi. Natijada, trayektoriyani aniq ko‘rsatish imkoniyati ham yo‘qolib mikroobyektlar uchun trektoriya tushunchasini qo‘llab bo‘lmaydi. Ularni harakat holatini de-Broyl to‘lqini yordamida ehtimoliy qonuniyatlar orqali topiladi. Shunday qonuniyatlar yordamida atomdagi elektron harakat holatlari o‘rganilsa, u elektronning topilish ehtimolligini ko‘rsatuvchi nuqtalardan iborat muayyan formadagi bulut ko‘rinishida bo‘lishi aniqlanadi.

Atomda elektron o‘zini bulut kabi namoyon etolmasligi haqida ham aytish kerakki, bulut bo‘la olish elektronga xos xususiyat emas va uni bulutga o‘xshatib tasavvur qilish ham mumkin emas. Yuqorida aytganimizdek, bulut tushunchasini kiritilishi atomdagi elektron holatlarini aniqroq tasavvur etishimizga yordam beradi. Shunday qilib, “elektron bulut” deganda, yadro atrofidagi elektronning bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘lgan ko‘rsatuvchi nuqtalar zichligini tushunish kerak. Bu nuqtalar zichligi shunday ko‘rsatkichki, qayerda nuqtalar eng zich bo‘lsa, o‘sha sohada elektronning topilish ehtimolligi yuqoriroq va shu soha ichida elektronning harakat holati ro‘y beradi deb qarash kerak. Qisqacha qilib qilab aytganda, elektron bulut atomda elektronning harakat holatini baholaydigan tushunchadir.

Shuning uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablari fizika darsliklarida atomda elektron holatini aniqlashda s,p,d,f kabi orbitallarni keng yoritib o‘tish foydali bo‘lib, maktabdan boshlab toki ilmiy tadqiqotlargacha bo‘lgan davrda olgan bilimlar bir-biriga uzviy bog‘langan va ta’lim bosqichlarida bir-birini to‘ldirib borgan bo‘ladi.

Ta’limning sifatli bo‘lishida shuni ta’kidlash lozimki, didaktik tamoillarning mohiyati oliy ta’lim uchun ham, o‘rta maxsus ta’lim uchun ham, umumiy o‘rta ta’lim uchun ham bir xil. Lekin ba’zi tamoyillar umumiy o‘rta ta’lim uchun, boshqasi esa oliy ta’lim uchun muhimroq. Bu holat o‘quvchi va talabalarning yosh psixologik xususiyatlari hamda ta’lim vazifalari bilan bog‘liqdir.

Yuqorida bayon etilganlar asosida uzviylikning quyidagi ta’rifini keltirish mumkin: ta’limdagi uzviylik bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar rivojlanishidagi turli bosqichlar orasidagi aloqadir. Oldingi bosqichda o‘zlashtirilgan bilimlar saqlanadi va yangi bilimlar bilan yaxlit holatga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-son qarori.

2. Toshboyev T. Eshnazarov G. XXI-asr fizikasi qanday bo‘lishi kerak. XXI asrda fizika ta’limi va fani muammolari: Respublika ilmiy uslubiy anjumani. –Samarqand, 2003.

3. Jo‘rayev M. Fizika o‘qitishda statistik g‘oyalar. –T: O‘qituvchi, 1994.

4. Zoxidov I. Atom tuzilishini predmetlararo o‘qitish. Uslubiy qo‘llanma, Namangan, 2008.

Rustamjon IKRAMOV,
Namangan davlat universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Ravshanbek JALALOV,
Namangan davlat universiteti, fizika-matematika fanlari bo‘yicha (PhD), ilmiy-tadqiqotlar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘lim boshlig‘i
Xurshidbek MUMINOV,
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Azizjon ERGASHEV,
Namangan davlat universiteti magistranti

AMORF YARIM O‘TKAZGICHNING ZONALARARO YUTILISH SPEKTRINI KUBO – GRINVUD FORMULASIDA HISOBLASH

Annotatsiya

Amorf yarim o‘tkazgichlar uchun Devis – Mott yaqinlashish usuliga ko‘ra, Kubo-Grinvud formulasidan zonalararo yutilish spektrini hisoblashni yangi usuli keltirilgan. Bu usulga ko‘ra, hisoblangan zonalararo yutilish spektri tajribalardan olingan natijalarni tushuntira olishi uchun Kubo-Grinvud formulasidagi aniqmas integralni aniq integral ko‘rishiga keltirib olish shart ekanligi ko‘rsatilgan. Amorf yarim o‘tkazgichlardagi elektron holatlari zichligini taqsimoti uchun yoziladigan Tausni empirik modeliga ko‘ra, aniq integral chegaralarini aniqlanishi tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar. Amorf yarim o‘tkazgichlar, elektronlarni zonalararo opik o‘tishlari, zonalararo yutilish spektri, Kubo-Grinvud formulasi, Devis-Mott yaqinlashish usuli, Tausning empirik modeli.

Для аморфных полупроводников представлен новый метод расчета спектра межзонального спектра поглощения по формуле Кубо-Гринвуда в соответствии с методом приближения Дэвиса-Мотта. Было показано, что для того, чтобы рассчитанный этим методом спектр межзонального спектра поглощения объяснял результаты, полученные в результате экспериментов, необходимо привести неопределенный интеграл в формуле Кубо-Гринвуда к точному интегральному виду. Объясняется, что точные интегральные границы определяются в соответствии с эмпирической моделью Тауса, написанной для распределения плотности электронных состояний в аморфных полупроводниках.

Ключевые слова. Аморфные полупроводники, межзональные оптические переходы электронов, межзональный спектр поглощения, формула Кубо-Гринвуда, метод приближения Дэвиса-Мотта, эмпирическая модель Тауса.

For amorphous semiconductors, a new method is presented for calculating the spectrum of the interband absorption spectrum using the Kubo-Greenwood formula in accordance with the Davis-Mott approximation method. It was shown that in order for the spectrum of the interband absorption spectrum calculated by this method to explain the results obtained as a result of experiments, it is necessary to reduce the indefinite integral in the Kubo-Greenwood formula to an exact integral form. It is explained that the exact integral boundaries are determined in accordance with the Taus empirical model, written for the distribution of the density of electronic states in amorphous semiconductors.

Key words. Amorphous semiconductors, interband optical transitions of electrons, interband absorption spectrum, Kubo-Greenwood formula, Davis-Mott approximation method, Taus empirical model.

Ma'lumki, kristall bo'lmagan yarim o'tkazgichlarning optik yutilish koeffitsienti spektral xarakteristikasini yutilgan fotonlarni energiyasiga mos ravishda, energetik sohalarga ajratib tadqiq qilindi. Ana shu sohalardan biri, zonalararo yutilish sohasidir. Bu sohada elektronlarni valent zonadan o'tkazuvchanlik zonasiga optik o'tishlari sodir bo'ladi. Amorf yarim o'tkazgichlar uchun zonalararo yutilish spektrini Devis – Mott yaqinlashish usuliga ko'ra, Kubo-Grinvud formulasidan hisoblanadi [1]:

$$\alpha(\hbar\omega)=\frac{8\pi^4e^2\hbar^2a}{m^2n_0c}\int\frac{g(\varepsilon)g(\varepsilon+\hbar\omega)}{\hbar\omega}d\varepsilon\,. \qquad (1)$$

[2,3] ishlarda (1) formulani hisoblash usullari keltirilgan. Bu formulani:

$$\alpha(\hbar\omega)=A\int\frac{g_V(\varepsilon)g_C(\varepsilon+\hbar\omega)}{\hbar\omega}d\varepsilon\,, \qquad (2)$$

ko'rinishda yozilgan. Bu yerda proporsionallik koeffitsienti

$$A=\frac{8\pi^4e^2\hbar^2a}{m^2n_0c}\,.$$

[4] ishda valent va o'tkazuvchanlik zonalarning chegaralaridagi elektron holatlari zichliklarning taqsimotlari darajali bo'lishi ko'rsatilgan: valent zonaning yuqorisi chegarasi yaqinida

$$g_V(\varepsilon)=C_1(\varepsilon_B-\varepsilon)^p\,,\quad \varepsilon\le\varepsilon_B \qquad (3)$$

o'tkazuvchanlik zonaning quyi chegarasi yaqinida

$$g_C(\varepsilon)=C_2(\varepsilon-\varepsilon_A)^s\,,\quad \varepsilon_A\le\varepsilon \qquad (4)$$

bu yerda C_1, C_2 – o'zgarmaslar, *p* va *s* lar o'zgarmas sonlar bo'lib, S va 1 qiymatlarga ega bo'lishi mumkin [5].

(3) ва (4) formulalardagi ε_A – o'tkazuvanlik zonaning quyi va ε_B – valent zonaning yuqori chegaralarining energetik o'rinlari bo'lganligi uchun:

$$\varepsilon_B=\varepsilon_V,\ \varepsilon_A=\varepsilon_C,\ \varepsilon_A-\varepsilon_B=\varepsilon_C-\varepsilon_V=E_g.$$

Bu yerda E_g harakatchanlik tirqishining energetik kengligi.

Quyidagi belgilashni kiritib

$$y=\frac{\varepsilon_A-\hbar\omega-\varepsilon}{\varepsilon_A-\hbar\omega-\varepsilon_B}\,,\quad 0\le y\le 1\,. \qquad (5)$$

uni differensiallab quyidagi ifoda olingan:

$$dy=\frac{-1}{\varepsilon_A-\hbar\omega-\varepsilon_B}d\varepsilon=\frac{1}{\hbar\omega-Eg}d\varepsilon\,, \qquad (6)$$

va (2) formulani quyidagi ko'rinishda yozilgan:

$$\alpha(\hbar\omega)=A\int\frac{C_1(\varepsilon_B-\varepsilon)^pC_2(\varepsilon-\varepsilon_A+\hbar\omega)^s}{\hbar\omega}d\varepsilon\,. \qquad (7)$$

(5) formuladan foydalanib quyidagi ifodalar olingan:

$$\varepsilon-\varepsilon_A=y(\hbar\omega-E_g)-\hbar\omega\,, \qquad (8)$$

$$\varepsilon_B-\varepsilon=(1-y)(\hbar\omega-E_g)\,, \qquad (9)$$

(6), (8) va (9) ni (7) ga qo'yib:

$$\alpha(\hbar\omega)=AC_1C_2\int\frac{(1-y)^py^s(\hbar\omega-Eg)^{p+s+1}}{\hbar\omega}dy=C\frac{(\hbar\omega-Eg)^{p+s+1}}{\hbar\omega}\int(1-y)^py^sdy\,, \qquad (10)$$

ifoda olingan. y ni o'zgarish chegarasini hisobga olib, bu integralni quyidagi ko'rinishda

yozilgan:

$$\alpha(\hbar\omega) = C\frac{(\hbar\omega - E_g)^{p+s+1}}{\hbar\omega}\int_0^1 (1-y)^p y^s dy \quad . \tag{11}$$

Bu ifodadagi integralni yechimi gamma funksiya orqali quyidagi ko‘rinishda yozilgan:

$$\int_0^1 (1-y)^p y^s dy = \frac{\Gamma(s+1)\Gamma(p+1)}{\Gamma(s+p+2)} \quad . \tag{12}$$

Bundan foydalanib zonalararo yutilish koeffitsienti spektri uchun quyidagi ifoda olingan:

$$\alpha(\hbar\omega) = C\frac{\Gamma(s+1)\Gamma(p+1)}{\Gamma(s+p+2)}\frac{(\hbar\omega - E_g)^{p+s+1}}{\hbar\omega} \quad . \tag{13}$$

Bizningcha, (12) integralni hisoblash uchun gamma funksiyadan foydalanish shart emas. Chunki bu formuladagi p va s lar S va 1 qiymatlar ega bo‘lganda (12) integralni analitik yechimlarini olish mumkin

[6]:

1. p = S va s = S bo‘lganda

$$\int_0^1 (1-y)^{1/2} y^{1/2} dy = \frac{1}{4}((2y-1)\sqrt{y(1-y)} + arctg\sqrt{\frac{y}{1-y}})\Big|_0^1 = \frac{\pi}{8} \quad , \tag{14}$$

2. p = S va s = 1 bo‘lganda

$$\int_0^1 (1-y)^{1/2} y^1 dy = -\frac{2(3y+1)}{15}\sqrt{(1-y)^3}\,|_0^1 = \frac{4}{15} \quad , \tag{15}$$

3. p = 1 va s = S bo‘lganda

$$\int_0^1 (1-y)^1 y^{1/2} dy = -\frac{4}{15}\sqrt{(1-y)^5}\,|_0^1 = \frac{4}{15} \quad , \tag{16}$$

4. p = 1 va s = 1 bo‘lganda esa,

$$\int_0^1 (1-y)^1 y^1 dy = (\frac{y2}{2} - \frac{y3}{3})\,|_0^1 = \frac{1}{6} \quad . \tag{17}$$

(15) va (16) formulalardan ko‘rinadiki, ruxsat etilgan zonalarni chegarasidagi holat zichligining taqsimotlari darajali bo‘lganda bu darajalarni o‘rni almashgani bilan zonalararo yutilish spektrini ifodasi o‘zgarmas ekan. [5] Ishda ham xuddi shunday natija olingan. Shuni aytib o‘tish kerakki, (12) ifodadan foydalanib bajarilgan hisoblashlar ham xuddi shunday natijalarni beradi. Misol uchun p=1 ва s=1 bo‘lganda quyidagi natijani olish mumkin:


$$\int_0^1 (1-y)^1 y^1 dy = \frac{\Gamma(1+1)\Gamma(1+1)}{\Gamma(1+1+2)} = \frac{1}{6} \quad .$$

(11) ifodaga (14)-(17) larni qo‘yib zonalararo yutilish spektrlari uchun quyidagi ifodalarni olamiz:

1. p = S va s = S bo‘lganda

$$\alpha(\hbar\omega) = C_0\frac{(\hbar\omega - E_g)^2}{\hbar\omega} \quad , \tag{18}$$

2. p = S va s = 1, hamda p= 1 ва s= S bo‘lganda



1-rasm 1-(18), 2-(19) va 3-(20) formulalardan hisoblangan zonalararo yutilish spektrlari.

$$\alpha(\hbar\omega) = C_0 \frac{(\hbar\omega - E_g)^{5/2}}{\hbar\omega}, \quad (19)$$

3. p = 1 va s = 1 bo‘lganda esa,

$$\alpha(\hbar\omega) = C_0 \frac{(\hbar\omega - E_g)^3}{\hbar\omega}. \quad (20)$$

(18), (19) va (20) ifodalardan hisoblangan zonalararo yutilish spektrlarining grafiklari 1-rasmda keltirilgan. Hisoblashlarni amorf gidrogenizatsiyalangan kremiy (*a-Si:H*) uchun [7] ishda keltirilgan E_g=1.8 eV va C_0=2.5*10^5 sm^{-1} qiymatlarni qo‘yib bajarildi. Bu grafiklarni hisoblashda reper nuqta sifatida, $\hbar\omega$=Eg=1.8 eV bo‘lganda $\alpha(\hbar\omega)$=5*10^5 sm^{-1} teng bo‘ladigan nuqta tanlandi [8].

Amorf yarimo‘tkazgichlarda o‘tkazilgan tajriba va boshqa usullarda bajarilgan hisoblashlarni ko‘rsatishicha zonalararo yutilish spektrlarining grafiklari birinchidan qabariq bo‘lishi, ikkinchidan bu spektrining qiymatlari ruxsat etilgan zonalarning darajasi kattalashib borgan sari ortib borishi kerak [9]. 1 – rasmdan ko‘rinadiki, (18), (19) va (20) ifodalardan hisoblangan grafiklar, tajriba natijalarini qanoatlantirmas ekan.

Bizningcha bu kamchilikni bartaraf etish uchun (7) ifodagi integralni (5) ifodadan foydalanib aniq integaral ko‘rinishda ifodalash kerak.

Buning uchun (5) ifodadan y=0 ga teng bo‘lganda (7) formuladagi integralni quyi chegarasi (ε_1) uchun:

$$0 = \frac{\varepsilon_A - \hbar\omega - \varepsilon_1}{\varepsilon_A - \hbar\omega - \varepsilon_B}, \quad \varepsilon_A - \hbar\omega - \varepsilon_1 = 0, \quad \varepsilon_1 = \varepsilon_A - \hbar\omega, \quad (21)$$

tenglikni olamiz. Shu integralni yuqori chegarasi (ε_2) uchun esa, y=1 ga teng bo‘lganda:

$$1 = \frac{\varepsilon_A - \hbar\omega - \varepsilon_2}{\varepsilon_A - \hbar\omega - \varepsilon_B}, \quad \varepsilon_A - \hbar\omega - \varepsilon_2 = \varepsilon_A - \hbar\omega - \varepsilon_B, \quad \varepsilon_2 = \varepsilon_B, \quad (22)$$

tenglikni olamiz. Bulardan foydalanib (7) formulani quyidagi ko‘rinishda yozamiz

$$\alpha(\hbar\omega) = \frac{C}{\hbar\omega} \int_{\varepsilon_A - \hbar\omega}^{\varepsilon_B} (\varepsilon_B - \varepsilon)^p (\varepsilon - \varepsilon_A + \hbar\omega)^s d\varepsilon. \quad (23)$$

11) formuladagi integral bilan (23) formuladagi integrallar teng kuchli bo‘lganligi uchun, agar p va s lar ma’lum bo‘lsa, undan zonalararo yutilish spektrlarining analitik yechimini olish mumkin. [10] dan foydalanib quydagi ifodalarni olamiz:

1. p = S va s = S bo‘lganda:

$$\alpha(\hbar\omega) = C \int_{\varepsilon_A - \hbar\omega}^{\varepsilon_B} \frac{(\varepsilon_B - \varepsilon)^{1/2} (\varepsilon - \varepsilon_A + \hbar\omega)^{1/2}}{\hbar\omega} d\varepsilon =$$

$$= \frac{C_0}{\hbar\omega} (2(\hbar\omega - E_g)\sqrt{E_g \hbar\omega} + (E_g + \hbar\omega)^2 arctg(\frac{E_g - \hbar\omega}{\sqrt{4E_g \hbar\omega}})), \quad C_0 = \frac{C}{4}. \quad (24)$$

2. p = S va s = 1, bo‘lganda:

$$\alpha(\hbar\omega) = \frac{C}{\hbar\omega} \int_{\varepsilon_A - \hbar\omega}^{\varepsilon_B} (\varepsilon_B - \varepsilon)^{1/2} (\varepsilon - \varepsilon_A + \hbar\omega)^1 d\varepsilon =$$

$$= \frac{C_0}{\hbar\omega} (5(\hbar\omega + E_g)(\sqrt{(\hbar\omega)^3} - \sqrt{E_g^{\,3}}) - 3(\sqrt{(\hbar\omega)^5} - \sqrt{E_g^{\,5}})), \quad C_0 = \frac{2C}{15}. \quad (25)$$

3. p = 1 va s = S bo‘lganda:

$$\alpha(\hbar\omega)=\frac{C}{\hbar\omega}\int_{\varepsilon_A-\hbar\omega}^{\varepsilon_B}(\varepsilon_B-\varepsilon)^1(\varepsilon-\varepsilon_A+\hbar\omega)^{1/2}d\varepsilon=$$

$$=\frac{C_0}{\hbar\omega}(5(\hbar\omega+E_g)(\sqrt{(\hbar\omega)^3}-\sqrt{E_g{}^3})-3(\sqrt{(\hbar\omega)^5}-\sqrt{E_g{}^5})) \quad , \quad . \text{(26)}$$

4. p = 1 va s = 1 bo‘lganda esa:

$$\alpha(\hbar\omega)=\frac{C}{\hbar\omega}\int_{\varepsilon_A-\hbar\omega}^{\varepsilon_B}(\varepsilon_B-\varepsilon)^1(\varepsilon-\varepsilon_A+\hbar\omega)^1 d\varepsilon=$$


$$=\frac{C_0}{\hbar\omega}(\hbar\omega-E_g)(E_g{}^2+4\hbar\omega E_g+(\hbar\omega)^2) \quad , \quad C_0=\frac{C}{6} \quad . \text{(27)}$$

Amorf gidrogenizatsiyalangan kremiy (*a-Si:H*) uchun (E_g=1.8 эВ va C_0=2.5*10^5 см$^{-1}$) (hisoblangan (24), (26) va (27) zonalararo yutilish spektrlarining grafiklari 2 - rasmda keltirilgan. Rasmdan ko‘rish mumkinki, bu spektrlarni barchasi qabariq bo‘lib, tajriba natijalariga mos keladi. Bundan tashqari, ruxsat etilgan zonalardagi elektron holatlari zichligi taqsimotning darajasi kattalashib borgan sari zonalararo yutilish koeffitsientining qiymatlari ham kattalashib boradi. Bundan ko‘rinadiki, Kubo-Grinvud formulasidan zonalararo optik yutilish koeffitsienti spektrini hisoblashda, bu formuladagi integral aniq integral bo‘lishi kerak ekan.


Endi Kubo-Grinvud formulasidagi aniq integralni chegarasi qanday aniqlanishini qarab chiqamiz. Buning uchun elektron holatlari zichligi taqsimotini Tausning empirik modeli [11] ko‘rinishida tanlaymiz. Bu modelga ko‘ra, amorf yarimo‘tkazgichlarni ruxsat etilgan zonalarini dumlari holat zichliklari hisobga olinmaydi.

$$g_V(\varepsilon)=C_1\begin{cases}0, & \varepsilon>\varepsilon_V\\ (\varepsilon_V-\varepsilon)^{1/2}, & \varepsilon\le\varepsilon_V\end{cases}$$

$$g_C(\varepsilon)=C_2\begin{cases}(\varepsilon-\varepsilon_C)^{1/2}, & \varepsilon\ge\varepsilon_C\\ 0, & \varepsilon<\varepsilon_C.\end{cases}$$



2-rasm. Amorf gidrogenizasiyalangan kremiy *(a-Si:H)* uchun 1-(24), 2-(25) va 3-(27) formulalardan hisoblangan zonalararo yutilish spektrlari.



3-rasm. Taus modeliga ko‘ra, $\hbar\omega_0$ energiyali fotonlar yutilganda mumkin bo‘lgan elektronlarni optik o‘tishlari.

Shuning uchun elektronlarni faqat valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasiga optik o‘tishlari sodir bo‘ladi. Ma’lumki, buning uchun yutilgan fotonlarni energiyasi harakatchanlik tirqishining energetik kengligidan kichik bo‘lmasligi kerak $(\hbar\omega 0 \geq Eg)$. Bu optik o‘tishda ishtirok etuvchi eng katta energetik holatdagi elektron valent zonani yuqori chegarasida joylashgan bo‘lishi kerak. Chunki, optik o‘tishda ishtirok etuvchi elektronni energetik holati valent zonaning yuqori chegarasidagi energetik holatdan yuqorida joylashgan bo‘lsa bu elektron valent zonaning dumidan o‘tkazuvchanlik zonasiga o‘tadi. $\hbar\omega_0$ energiyali fotonlar yutilganda eng kichik energetik holatdagi elektron esa, o‘tkazuvchanlik zonasining quyi chegarasidagi energetik holatdan $(\varepsilon C\text{-}\hbar\omega_0)$ intervalga pastda joylashgan bo‘lishi kerak. Agar optik o‘tishda ishtirok etuvchi elektronni energetik holati $\varepsilon_C\text{-}\hbar\omega_0$ intervaldan pastda joylashgan bo‘lsa, u valent zonadan o‘tkazuvchanlik zonasining dumiga o‘tadi. Bu hollarda elektronning optik o‘tishlari zonalararo bo‘lmaydi. Shuning uchun, Kubo – Grinvud formulasidan zonalararo yutilish koeffitsientini hisoblashda, bu formuladagi aniq integralni yuqori chegarasi valent zonaning yuqori chegarasiga (ε_V), quyi chegarasi esa $\varepsilon_C\text{-}\hbar\omega_0$ energetik holatga mos kelishi kerak.

Shunday qilib, ushbu ishda amorf yarim o‘tkazgichlarga xos bo‘lgan tajribalardan aniqlangan va Devis-Mott yaqinlashish usuliga ko‘ra Kubo – Grinvud formulasidan hisoblangan zonalararo yutilish spektrlari bir-biriga mos kelishi uchun, Kubo – Grinvud formulasidagi integralni aniq integral ko‘rinishiga keltirish shart ekanligi ko‘rsatildi. Bu integralni yuqori va quyi chegaralarini aniqlashni Tausning empirik modelidan foydalanib tushuntirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davis E.A., Mott N.F. Electronic Processes in Non Crystalline Materials.1979.P.172.

2. Davis E.A., Mott N.F. Conduction in Non-crystalline Systems. // Phil. Mag. 1970. V 22. N 179. P. 903-922.

3. Наджафов Б.А. получение гидрогенизированных тонких пленок кремния углерода, для изготовления электронных приборов. International journal of applied and fundamental research. 2016.C.764-775.

4. Аморфные полупроводники /под ред. М.Бродского.М. Мир.1982. С. 419.

5. Зайнобидинов С., Икрамов Р.Г., Жалалов Р.М., Нуритдинова М.А. Распределения плотности электронных состояний в разрешенных зонах и межзонные поглощения в аморфных полупроводниках. //Оптика и спектроскопия. 2011, –Т. 110, № 5. С. 813-818.

6. Бронштейн И.Н., Семендяев К.А. Справочник по математике для инженеров и учащихся втузов. М. Наука, Гл. Ред. Физ. Мат. Лит. 1986.С. 544.

7. Зайнобидинов С., Икрамов Р.Г., Жалалов Р.М. Энергия Урбаха И хвосты плотности состояний аморфных полупроводников. Журнал прикладной спектроскопии. 2011, –Т. 78, № 2. С. 243-247.

8. Фистуль В.И. Аморфные примеси в полупроводниках. –М.: Мир. 1992. С.240.

9. Аморфный кремний и родственные материалы. /Сб. обзор. под ред. Х. Фрицще – М.: Мир. 1991. С.542.

10. Градштейн И.С., Рыжик М.И. Таблицы интегралов, сумм, рядов и произведений. –М.: Гос. изд. физ. - мат. лит. 1963.С.1100.

Ikrom ISLOMOV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
katta o‘qituvchisi

O‘ZBEK TILI GEOGRAFIK TERMINLARIDA POLIFUNKSIONALLIK

Annotatsiya

Ushbu maqolada til birliklariga xos polifunksionallik hodisasi xususida fikr yuritiladi. Polifunksional birliklar va ularning yuzaga kelish sabab va omillari, lingvistik tadqiqi, terminlar tarkibida polifunksionallikning amal qilishi yuzasidan ma’lumotlar keltirilgan. Polifunksional geografik terminlar polisemantiklik xususiyati susaygan, biroq omonimlik darajasiga yetmagan ko‘p ma’noli terminlar sifatida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Omonimiya, polisemiya, polifunksional birlik, terminologiya, geografik termin, sof termin, leksema-termin.

В этой статье обсуждается феномен полифункциональности, характерный для языковых единиц. Есть информация о полифункциональных единицах и их причинах и факторах, лингвистические исследования, применение полифункциональности в структуре терминов. Полифункциональные географические термины были проанализированы как многозначные термины, которые уменьшили многозначность, но не достигли уровня омонимии.

Ключевые слова. Омонимия, многозначность, полифункциональная единица, терминология, географический термин, абсольют термин, лексема-термин.

This article discusses the phenomenon of polyfunctionality specific to language units. It has an anlysis on polyfunctional units and the causes and factors of their occurrence, their linguistic research, and the operation of polyfunctionality in the structure of terms. Polyfunctional geographical terms have been analyzed as polysemous terms that have diminished polysemantic properties but have not reached the level of homonymy.

Key words. Homonymy, polysemy, polyfunctional unit, terminology, geographical term, pure term, lexeme-term.

Til birligi shunday serqirra hodisaki, u shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra, nutqda rang-barang holatda voqeiylanadi. Xususan, terminlar tabiatida ham omonimlik, polisemantik, polifunksionallik kuzatiladi. Polifunksional terminlar polisemantiklik xususiyati susaygan, biroq omonimlik darajasiga yetmagan ko‘p ma’nolilik kasb etuvchi birliklar sifatida alohida ma’nolari bilan turli sohalarda qo‘llaniladi. Masalan: morfologiya 1 (biol.), morfologiya 2 (tilsh.) kabilar.

Polifunksionallik – (yunonchadan polys ko‘p va lot. funstio ishlash, amalga oshirish, faoliyat) bir ohangdoshlikda turli funksiyalarning kombinatsiyasi. Tilshunoslikda polifunksionallik tushunchasi g‘oyat xilma-xildir. Polifunksionallik turli darajadagi birliklarning xususiyati sifatida ajralib turadi. Ayrim tadqiqotchilar morfemalarning, boshqalari so‘zlarning (so‘z shakllari) polifunksionalligini ochib beradilar. Polifunksionallik ba’zan torroq, ba’zan juda keng tushuniladi. Morfemaning polifunksionalligi bir vaqtning o‘zida affiks va o‘zak sifatida harakat qilish qobiliyatidir.

Polifunksional terminlar turli sohada bir turning ma’lum bir darajada farqlanuvchi jins sifatidagi mohiyatini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, tuz bilan tuproqni mustahkamlash terminologik birikmasi yo‘l qurilishi sohasida ham, melioratsiya ishlarida ham, obodonlashtirishda ham, shuningdek, binokorlikda ham bitta denotatni ifodalaydi. Shu bois bu kabi terminlarni ma’nosiga ko‘ra bitta termin sifatida baholash maqsadga muvofiq.

A.N.Tatarinova sistemalararo quyidagi atamalar guruhlarini aniqlaydi:

1) polifunksional so‘zlar – bir-biri bilan obrazli assotsiatsiyalar bilan bog‘langan tushunchalarni bildiruvchi atamalar;

2) intersistem (sistemalararo) omonimlar – teskari bog‘lanishni yo‘qotgan tushunchalarni bildiruvchi so‘zlar.

Terminlarni sohalararo darajasiga qarab esa quyidagicha guruhlaydi:

1) turli, lekin o‘zaro aloqadorlikni bildiruvchi polifunksional so‘zlar, bir xil ma’noli turli terminosistemalarda ishlatiladigan atamalar;

2) aloqasizlikni ifodalovchi sohalararo omonimlar.

Rus tilida polifunksional so‘zlar ruscha-xitoycha lug‘atlar muammosi sifatida Syuy Xun tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, rus tilida polifunksional so‘z va so‘z birikmalari mavjud, ular mustaqil va yordamchi so‘zlar sifatida (hatto, qayerda bo‘lsa ham, yaxshiroq, nima bor va hokazo.) yoki turli ma’nolarga ega bo‘lgan yordamchi so‘zlar sifatida (ana shunday, qani va hokazo.) xizmat qiladi. Ruscha va ruscha-xitoycha lug‘atlarda polifunksional so‘zlar bir ma’noli leksik va sintaktik tarkibli gaplarda keltirilgan, ular polifunksional so‘zni aniqlashtirish uchun xizmat qiladi.

Zamonaviy lingvistikada ruscha so‘zlarning polifunksionalligi masalasi munozarali bo‘lib qolmoqda. Mazkur atama turlicha talqin qilinadi. Т.М. Николаева “Функции часциц в высказывании” (“Gaplarda yuklamalarning funksiyalari”) asarida polifunksionallikni (yuklamalarga nisbatan) ichki semantikaga asoslangan so‘zlardagi o‘zaro almashinuvchanlik xususiyati sifatida tushunadi, ya’ni semalardagi farqlar va tasodiflar sifatida. U “yuklamalar o‘z ma’nosiga va deyarli har doim sinonimiga ega, ya’ni ular “semalar to‘plami”, deb ta’kidlaydi. Yuklamalarning bu polifunksionalligi, ularning semantikasining sinonimligi va originalligi ko‘pchilik tan olgan ikkita boshqa hodisani ham keltirib chiqaradi: yuklamalar bir-birini mustahkamlashi kerak (yoki bir-birini mustahkamlashi mumkin) va ularning ma’nosi asosan kontekst bilan belgilanadi”.

Yana bir guruh tadqiqotchi-olimlar polifunksionallikni turli leksik va sintaktik tarkibdagi bir qator so‘zlarning turli sintaktik vazifalarni bajarish qobiliyati deb tushunadilar va talqin etadilar. Masalan, so‘zning yuklama yoki bog‘lovchi, hol yoki boshqa bo‘lak bo‘lib kelishi sifatida baholaydi.


V.A. Beloshapkovaning tahriri ostida nashr etilgan “Современный русский язык” (“Zamonaviy rus tili”) darsligida polifunksional so‘zlar sinfi ajralib turadi, ular mustaqil va yordamchi yoki turli ma’nolarga ega bo‘lgan yordamchi so‘zlar sifatida xizmat qiladi. So‘zlarning polifunksionalligi uning leksik tarkibini, intonatsiya va semantik, kontekst bilan o‘zaro munosabati mazmunini gapda o‘zgartira olishida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, polifunksional so‘zlar rus tilining tipologik xususiyatlaridan biridir. Ular so‘zlashuv nutqi va badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi. Leksik va sintaktik tarkibli ko‘p ma’noli gaplarda polifunksional so‘zlar sintaksis, so‘z birikmasi, intonatsiya va kontekstning turli nisbatini hisobga oluvchi kommunikativ

tahlil yordamida qaraladi. Shuni ta’kidlash joizki, har bir vositalar roli turli xil bo‘lishi mumkin. Ayrim gaplarda leksik va sintaktik vositalarning o‘rni mustahkamlansa, boshqalarida – intonatsiya, boshqalarida – gaplarning mazmuniy bog‘lanishlarining o‘rni mustahkamlanadi. Bu bog‘lanishlar xilma-xil, lekin har bir muayyan gapda til vositalari birgalikda namoyon bo‘ladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, faqat sintaksis, so‘z birikmasi, intonatsiya va semantik aloqaning kontekst bilan o‘zaro bog‘liqligi polifunksional so‘z va gapning ma’nosini konkretlashtirishga imkon beradi. O‘zbek tilshunosligida polifunksionallik masalasiga doir Yo.Tojiyev, J.Eltazarov, N.Qodirova, G.Sulaymonova, A.Botirova va boshqalarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Polifunksionallik muammosini affikslar misolida maxsus tadqiq qilgan N.Qodirova affikslardagi polifunksionallik bilan ulardagi omonimlik, ko‘p ma’nolilik bir xil hodisalar emasligini qayd etadi. Bular o‘rtasida umumiylik bo‘lsa ham, har biri alohida-alohida hodisalardir. Affiksal omonimiyada turli affikslarning shakl munosabati haqida, affiksal ko‘p vazifalilikda esa bir affiksning turli xil vazifa bajarishi haqida gap borsa, affiksal ko‘p ma’nolilikda bir affiksning ma’lum bir vazifada qo‘llanganda, turli xil ma’nolarni ifodalashi xususida fikr yuritiladi. Dunyo, turkiy va o‘zbek tilshunosligida so‘zlarni tiplashtirishning uch mezoni ommalashgan: semantik, morfologik, sintaktik. Bu mezonlar tilning paydo bo‘lishi, shakllanishi va taraqqiyoti kesimida so‘zning rivoji muammosi bilan bir tomondan, so‘zlarning polifunksionallik xususiyatlari bilan ikkinchi tomondan bog‘lanib ketadi. Boshqacha aytganda, diaxronik jihatdan ayrim so‘zlarning o‘z turkumlarini tark etib, boshqa turkumlarga ko‘chishi hodisasi bilan birga, tilning muayyan bir sinxronik holatida kamida ikki paradigmaga kirish imkoniyatining saqlanib turishi bu mezonlarning har doim ham birday amal qila olmasligini ko‘rsatadi. Tilshunos J.Eltazarov so‘z turkumlarida polifunksionallik har doim ham ko‘chish tarzida namoyon bo‘lavermasligiga urg‘u beradi. Jumladan, olmosh boshqa so‘z turkumlariga ko‘chmaydi, balki u bir qancha so‘z turkumlarining o‘rinbosari vazifasini bajaradi. Yordamchi so‘z turkumlari o‘rtasidagi polifunksionallikni ham tugal ko‘chish deb bo‘lmaydi. Otning nutqdagi polifunksionalligi uning ayni semantik jihatdan keng va mavhum substantivlik tushunchasi bilan bog‘liqligi, jumla ichida esa o‘sha keng kategorial ma’no imkon beradigan darajada noan’anaviy pozitsiyada qo‘llanishi bilan bog‘liqligini izohlaydi. Tadqiqotchi G.Sulaymonova ot turkumi misolida polifunksionallikni tadqiq qilib, tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar, birinchi navbatda, asl (bosh) ma’nosida qo‘llanishini, ehtiyoj tug‘ilishi bilan so‘zlarning leksik-semantik ma’nosini funksional ko‘chirish usulidan foydalanishga o‘tilishini ta’kidlaydi. So‘z ma’nosining ko‘chishi natijasida yuzaga kelgan funksional-semantik ma’no, birinchidan, denotativ, ikkinchidan, konnotativ ma’noga o‘tib, nutq jarayonida qo‘llanaveradi. Ayni shunday holat so‘zlarning polifunksionalligini tasdiqlovchi muhim lisoniy omildir, deb ta’kidlaydi.

Aytilganlardan ma’lum bo‘ladiki, til birliklarining polifunksionalligi masalasida tilshunoslar yakdil fikrda emas. Ba’zi tilshunoslar til birliklariga xos polifunksionallikni polisemiya doirasida o‘rganishsa, bu muammo ayrim olimlar tomonidan polisemiya va omonimiya oralig‘idagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida e’tirof etiladi. Uchinchi toifa olimlar esa polifunksionallikni so‘z semantik strukturasidagi turli so‘z turkumlariga xos ma’nolarning sinkretizmi sifatida baholaydi.

Biz polifunksional geografik terminlarni polisemantiklik xususiyati susaygan, biroq omonimlik darajasiga yetmagan ko‘p ma’noli terminlar sifatida tushunamiz, ular alohida ma’nolari bilan turli sohalarda qo‘llanadi.

Izohli lug‘atdan polifunksional so‘zlarni ajratib, quyidagicha tasnif etib, tahlilga tortdik:



Sof terminlar polifunksionalligiga izobara, izotermalar, mintaqa, parallel, polosa, poyas, tadrij, qutb kabi terminologik birliklarni kiritish mumkin. Sof geografik polifunksional terminlardan izobara geografiya, fizika va kimyo, izotermalar geografiya va fizika, parallel matematika va geografiya, poyas geografiya va iqtisod, qutb geografiya va fizika sohasida keng qo‘llanadi.

Leksema-terminlar polifunksionalligiga esa botqoq, botqoqlik, dala, yer, yoq, yoqa, yoyilma, jarlik, jahon, makon leksemalari misol bo‘la oladi. Izohli lug‘atda berilgan izohlarini keltirish orqali fikrni dalillash mumkin:

BOTQOQ 1 Oyoq bosib bo‘lmaydigan bo‘sh loy va shunday loy bilan qoplangan yer, maydon; botqoqlik, botqoqzor. 2 sft. Bo‘sh loyli, shunday loy bilan qoplangan. 3 ko‘chma Salbiy muhit, girdob.

BOTQOQLIK 1 Doimo va uzoq vaqt nam va zaxdan balchiq va loy holatda yotishlik. 2 Botqoq yerlardan iborat bo‘lgan joy; botqoqzor.

DALA 1 Aholi yashaydigan joydan tashqarida bo‘lgan, ekin ekiladigan yer, ekinzorlar. 2 Umuman keng tabiiy sayhon yer, yovon. 3 Uydan (xonadan) tashqari joy, hovli, ko‘cha.

YER 1 (ye – katta) Quyoshdan keyingi uchinchi planeta. 2 Shu planetaning quruqlik qismi (suv bilan qoplangan qismiga qarama-qarshi qo‘yilganda). 3 Planetamiz qobig‘ining sirtqi qatlami. 4 Narsalar turgan, tirik organizmlar hayot kechirayotgan yuza, sath (shaxs yoki boshqa narsalarga nisbatan). 5 yer sathining muayyan bir qismi; joy, hudud. 6 Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan tuproq qatlami, ekin, daraxt va sh.k. ekiladigan joy, maydon. 7 Biror narsa band qilib turgan, egallagan o‘rin, joy: makon. 8 Biror mamlakat, davlat, xalq, xo‘jalik va sh.k. ga qarashli hudud. 9 Biror narsaning yoki a’zoning ayrim qismi, o‘rni, nuqtasi, joyi. 10 Ish joyi, muassasa, tashkilot. 11 (j., o‘.p., ch. k. shaklida) ko‘m. vzf. Payt, o‘rin, sabab kabi munosabatlarni bildiradi.

YOQ 1 Tomon, taraf. 2 Geometrik jismni o‘rovchi har bir tekislik. Kub yoqlari.

YOQA I 1 Sohil, qirg‘oq; bo‘y, lab. 2 Chet, chekka, yon.

YOZ 1 Yilning bahor bilan kuz orasidagi eng issiq fasli. 2 ko‘chma Umrning eng gullagan, yoshlik davri.

YOYILMA 1 Daryoning suvi yoyilib oqadigan keng joy. 2 ko‘chma Keng, hududsiz maydon, kenglik. 3 mat. Geometrik jismning yoyiq holga keltirilgan ustki sirti.

JARLIK 1 q. jar I. Chuqur jarlik. Tubsiz jarlik. 2 Xavf-xatar, falokat.

JAHON (f. ~ dunyo, olam) 1 yer yuzi va undagi butun borliq; dunyo, olam. 2 poet. Dunyodagi hamma xalqlar, butun insoniyat. 3 Jahon (xotin-qizlar ismi).

MAKON (joy, hudud; daraja; martaba) 1 fls. Vaqtning muayyan lahzasida olamni tashkil etgan nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibini aks ettiruvchi, materiyaning masofa va hajm bilan belgilanadigan asosiy obyektiv yashash shakllaridan biri. 2 Turar-joy, yashash joyi; maskan, vatan. 3 Biror narsa to‘plangan yoki ko‘p bo‘lgan joy; kon.

Yuqoridagi so‘zlar orqali leksema-terminlar polifunksionalligi namoyon bo‘ladi. So‘z bir ma’nosi bilan termin, boshqa ma’nosi bilan umumiste’moldagi so‘z sifatida qo‘llaniladi. Geografik terminlarda omonimiya, polisemiya va polifunksionallik hodisasi ko‘p uchraydi. Terminlar tizimiga ushbu lingvistik hodisalar orqali munosabatda bo‘lish terminshunoslik uchun qimmatli va ahamiyatli ma’lumotlar beradi.

Tilda terminlar o‘z o‘rniga ega bo‘lgan lingvistik birlik hisoblanar ekan, ularning ma’no mundarijasi, tabiati, qo‘llanish doirasi, ifoda maqsadini to‘g‘ri yo‘naltirish, o‘rganish va tadqiq etish, bu orqali barcha soha terminologiyasini mukammallashtirish muhim masalalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valiyev T. O‘zbek tili yo‘lsozlik terminlarining struktur-semantik xususiyatlari va leksikografik talqini: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2018. –13-b.

2. Gulyamova Sh. Polifunksionallik xususida // “O‘zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi respublika 19-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari. – 7-qism. – T., 2020. –46-47-betlar.

3. Татаринова А.Н. Опыт системного исследования немецкой химической терминологии: на материале общей и неорганической химии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005.

4. Сюй Хун. Полифункциональные слова в русском языке как проблема русско-китайских словарей: автореферат диссертации по филологии // http:// cheloveknauka.com

5. Николаева М. Функции частиц в высказывании. – М.: Наука, 1985. – С.168.

6. Современный русский язык// под. ред. В.А. Белошапкова. – М.: Высшая школа, 1989. – С.800.

7. Qodirova N.A. O‘zbek tilidagi affikslarda polifunksionallik: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – T., 2002. –16-b.

Gulchehra SO‘FIBOYEVA,
Namangan davlat universiteti, “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O‘RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida geometrik materiallarni o‘rgatishning samarali usullari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Geometriya, nuqta, to‘g‘ri chiziq, kesma, yuza, simmetriya, ekskursiya.

В этой статье обсуждаются эффективные способы обучения геометрическим материалам на уроках математики в начальной школе.

Ключевые слова. Геометрия, точка, прямая линия, отрезок, поверхность, симметрия, экскурсия.

This article discusses effective ways to teach geometry in elementary school math classes.

Key words. Geometry, point, straight line, line segment, are, symmetry, excursion.

Mamlakatimizda ta’lim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilari bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunonchi mustaqil fikr, intellektual jihatdan rivojlangan, o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash har doimgidek dolzarb bo‘lib kelmoqda.

Ta’limda faqat bilimlarni tarkib toptirishga e’tiborni qaratish ta’lim samaradorligining past bo‘lishiga olib keladi. Fikrlash qobiliyati rivojlangan o‘quvchigina bilimlarni mustahkam o‘zlashtiradi. Shu sababli o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish juda muhim.

2017-yil 14-yanvarda bo‘lib o‘tgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida davlatimiz rahbari ta’lim-tarbiya tizimida o‘quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarurligini qayd etdi. Ta’lim muassasalarida darslarni samarali tashkil etishda, yetuk kadrlar bilan bir qatorda ta’limga doir me’yoriy hujjatlar, o‘quv-uslubiy ta’minotning o‘rni katta. Prezidentimiz tomonidan o‘qitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish, o‘quvchilarning ongli ravishda kasb-hunar tanlash ishtiyoqini kuchaytirish, darsliklarni yaratishga butunlay yangicha yondashish kabi dolzarb vazifalar aynan shu maqsaddan kelib chiqqan holda qo‘yilmoqda. Haqiqatdan ham, globallashuv jarayonining jadallashuvi o‘quv dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni, keng bilimga ega bo‘lgan, mantiqiy fikrlay oladigan yoshlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladiga, takomillashgan me’yoriy hujjatlar, o‘quv-metodik majmualarni yaratishni taqozo etmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘qishga qiziqtirish, ularda ko‘nikma hosil qilishlariga yordam berishda o‘qituvchi o‘quv materialni bayon qilish emas, balki o‘quvchilarni qiziqishidan kelib chiqib, faol ijodiy yondashmog‘i kerak. Sinfda shunday ijo-

diylik ruhi bo‘lishi kerakki, har kim xohlagan fikrini bemalol ayta olishga sharoit yarata olish kerak. O‘qitishning bunday turi o‘quvchini nafaqat fikrlashga, balki tanqid qila olishga ham undaydi. Bunday sharoitda o‘quvchilardan shunday fikrlar eshitishimiz mumkinki, ularda kelajakda buyuk olimlarni tarbiyalash g‘ururi o‘zingizni quvontirishi mumkin.

Boshlang‘ich maktabda matematika ta’limi o‘quvchilarning o‘z fikrlarini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq qilish hamda ta’limning ikkinchi bosqichida o‘qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika faniga qiziqtirishda matematik o‘yinlardan, qiziqarli mantiqiy masalalardan dars jarayonida foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Qiziqarli geometrik masalalar, matematik didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurini oshirishga yordam beradi.

Muntazam ravishda spotr mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish tanani sog‘lom, kuchli va mustahkam qilganidek, muntazam matematika bilan shug‘ullanish miyaning ishlashini, aql-idrok va kognitiv qobiliyatni rivojlantiradi hamda dunyoqarashni kengaytiradi. Matematika bilan shug‘ullangan odam boshqa har qanday narsani tez va samarali o‘rganadi.

Boshlang‘ich sinflarda geometriya tushunchasi alohida fan sifatida o‘rgatilmaydi. Matematika darslarida sinflar kesimida ketma-ketlik asosida (osondan murakkabga tomon) o‘rgatib boriladi. Masalan, 1-sinfda o‘quvchilar dastlab eng sodda geometrik figuralar uchburchak, to‘rtburchak, doira, kvadrat bilan tanishadi. Figuralarning o‘xshashlik tomonlarini farqlaydi, o‘lchamlari bo‘yicha taqqoslaydi, ularning xossalari bo‘yicha to‘plamlarga ajratadi, to‘plamlarning soni orqali bir-biridan taqqoslay oladi. Bu kabi tushunchalar geometriya olamiga kirishning ilk qadamlari deb tushunsak bo‘ladi. Sekin-asta o‘quvchilar tasavvurida geometrik shakllarni chizish, qirqish yasab ko‘rish orqali kengayib boraveradi.

Buyuk pedagog olim Y.A.Komenskiyning fikricha, bolaga real narsalarni ko‘rsatish, dunyoni rasmlar orqali tushuntirish, narsalarning modelini ko‘rsatish, o‘qituvchining so‘zi o‘rganilayotgan materialni chuqur bilishga va esda uzoq vaqt saqlanishga olib keladi. Komenskiy o‘qitishda ma’no-mazmunini tushunmay, og‘zaki yodlashga qarshi chiqadi. “Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo‘rlab yodlatmaslik lozim”.


Shunday ekan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini geometrik materiallar bilan tanishtirishda amaliy yondashish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Bunday usullarni kengaytirish, takomillashtirish biz pedagoglarning vazifasi sanaladi.

Pestalotsining fikricha, boshlang‘ich maktabda o‘qitishning mazmunini tubdan o‘zgartiradi, o‘qitiladigan darslar qatoriga o‘qish, yozish, arifmetikani va geometriyaning boshlang‘ich qismlarini kiritdi va maktabda o‘qitishning yangi metodikasini vujudga keltirdi. “O‘lchashni o‘rgatmoq uchun dastlab to‘g‘ri chiziq chizishni, so‘ngra burchak va kvadrat chizishni hamda bu kvadratni bo‘laklarga (yarimta, chorakta qilib va hokazo) bo‘lib o‘rgatishni taklif qildi. Tarbiyachi bolalarga turli geometrik jismlarni ko‘rsatish va ularning nomlarini aytib berishi lozim. Bola o‘lchov natijalarini chizib va yozib olishi lozim, bunday mashqlar bolaga yozuv o‘rgatishning asosidir”.

Pestalotsining fikriga ko‘ra, dastlab o‘quvchilar eng sodda geometrik shakllar bilan tanishadilar. Nuqta, to‘g‘ri chiziq, kesma, siniq chiziq bular eng sodda geometrik shakllardir(1-rasm). Darsliklarda bu tushunchalarga ta’rif berilmagan. O‘quvchilarda tasavvur hosil qilish orqali bu tushunchalar ketma-ketligini hosil qilish

mumkin. Masalan. Nuqta: to‘g‘ri chiziq, kesma, siniq chiziq, burchak, ko‘pburchak, nur, aylana, doira, perpendikulyar to‘g‘ri chiziqlar, parallel to‘g‘ri chiziqlar, fazoviy figuralar xullas geometrik shakllarning barchasi shu oddiygina nuqta orqali hosil bo‘ladi.

Geometriya fanining asoschisi Yevklid o‘zining “Negizlar” kitobida shunday yozadi “Nuqta shudirki, u bo‘laklarga ega emas, chiziq ensiz uzunlikdir. Chiziqning chegaralari nuqtalar deb ataladi, To‘g‘ri chiziq deb shunday chiziqqa ataladiki, u o‘zining hamma nuqtalariga nisbatan bir xil joylashgandir”.



1-rasm. Eng sodda geometrik shakllar.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida geometrik shakllardan sanoq sonlarni o‘rganishda, arifmetik amallarni bajarishda, sonlarni taqqoslashda, sonlarning ulushini topishda keng foydalaniladi.

Geometrik shakllarni o‘rgatishning turli metodlari mavjud.

• Ko‘rgazmalar orqali tushuntirish.

• Geometrik shakllarning modellarini ko‘rsatish va mustaqil yasash.

• Chizish.

• Didak o‘yin

► Faqat ko‘rgazmalar orqali tushuntirishda o‘qituvchi o‘quvchi fikrini jamlashga, ularda tasavvur hosil bo‘lishiga erishishi mumkin. Lekin ularda mustaqil ishlash ko‘nikmasi hosil bo‘lmaydi.


► Faqat geometrik shakllarning modellarini ko‘rsatish va yasash orqali o‘quvchilarda tushuncha hosil bo‘ladi, taqqoslay oladi, chizish malakasi shakllanmaydi.

► Faqat chizish orqali o‘quvchi o‘zining tasavvuridagini emas balki o‘qituvchining tasavvuridagi geometrik shakllarni tasvirlay oladi, uning uchlarini, burchaklarini, tomonlarini belgilay oladi.

► Didaktik o‘yin o‘tilgan mavzuni takrorlash yoki yangi mavzuni mustahkamlash uchun samarali usuldir. Didaktik o‘yinidan foydalanish o‘quvchi diqqatini jamlab olishga, darsga bo‘lgan qiziqishini ortishiga xizmat qiladi.

Agarda bu metodlarni hammasini bir darsda qo‘llay olsakchi?

Masalan, integratsiyalashgan darslarda kuzatishimiz mumkin (matematika, tasviriy san’at, texnologiya).



2-rasm. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida integratsiyalshgan dars mazmuni.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida didaktik o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini ortishiga yordam beradi. Didaktik o‘yinli darslar o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiradi.

“O‘z o‘rnini top” didaktik o‘yin. O‘qituvchi o‘quvchiga bir sekund ichida sonlar qatorini ko‘rib, keyin uni qo‘shib, jamini yozishi kerakligi haqida oldindan ogohlantirib, 5-rasmni bir sekund davomida ko‘rsatadi. Sonlar yig‘indisi yozib bo‘lingach, har qaysi son qanday geometrik shakl ichiga yozilganligi so‘raladi.



3-rasm. Geometrik shakllar

Birinchi berilgan savolning javobi oson, yig‘indisini topish bo‘lsa, ikkinchi savol esa bir oz o‘quvchini eslab qolishga undaydi.

Natijaviyligi:

1. O‘quvchining diqqati jamlanadi;
2. Ziyraklik sinaladi;
3. Tafakkuri rivojlantiriladi;
4. Xotirasi mustahkamlanadi;

Boshlang‘ich sinflarda geometrik materiallarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirishda ekskursiyalardan foydalanishda qanday samaraga erishish mumkin?

Ekskursiya – maktab hovlisi, shahar, ko‘rgazma, muzeylarni ko‘pchilik bo‘lib ko‘rish. Boshlang‘ich sinf darslarida ekskursiyani tashkil etish o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiradi, tasavvurini oshiradi, ma’naviyatini yuksaltiradi. Masalan, matematika darslarida maktab hovlisiga ekskursiya tashkil etish. Yuza mavzusini tushuntirishda ekskursiyadan foydalanamiz. Bu yerda o‘quvchi gul maydonini yuza qismi bilan tanishadi, birinchi va ikkinchi gul maydoni yuza qismini chamalash orqali taqqoslay oladi. Kelinglar o‘quvchilar qadamlab o‘lchash orqali gul maydonchamizning yuzasini topamiz. Buning uchun o‘quvchining bitta bosgan qadami o‘lchamini aniqlab olamiz. To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi gul maydonchaning tomonlarini qadamlab o‘lchaymiz va uning tomonlarini aniqlab olamiz. Uning yuzasi tomonlari ko‘paytmasiga teng.

Matematika darslarida ekskursiya darslarini tashkil etishda nafaqat ko‘rish, tushunish, tasavvur qilish balki, og‘zaki hisoblash ko‘nikmasi ham rivojlantiriladi. Ekskursiya darsini doimo tashkillashtirish qiyin lekin barcha fan darslarida buni amalga oshirish mumkin. Vaqti-vaqti bilan ekskursiyaga chiqish o‘quvchi uchun ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilarni geometrik materiallar bilan tanishtirishda, tasavvurini kengaytirishda, geometrik elementlar va ular orasidagi munosabatlarni o‘rganishda amaliy yondashish, amalda bajarish, yon-atrofdagi predmetlarni misol keltirish orqali ularda fazoviy tasavvurini kengaytirish lozim. O‘quvchini gemetriya olamiga yetaklar ekanmiz ularning ilk qadamida to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata olish, yo‘lda to‘siqlarga duch kelmasliklari, qoqilmasliklari, yuqori cho‘qqilarga ko‘tarishlari uchun bor imkoniyatimizni safarbar etishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘uicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” da amalga oshirishga oid Davlat dasturini o‘rganish bo‘yicha ilmiy uslubiy risola. –T. “Ma’naviyat” 2017-yil. 195-196-betlar.

2. Hashimov K, Nishonova S “Pedagogika tarixi” Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti . –T. 2005.272-280-betlar.

3. Верхоглядов Александр “Вклад Эвклида в современную Геометрию” – http://www.myshared.ru/slide/971315/

4. Roziqov U.A, Mamatova N.H. “Matematika va turmush” O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti –T. 2020. 9-b.

5. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘ “Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi” –T., 2005-y. 312-b. 33-44-betlar.

6. Jumayev M.E, “ Matematika o‘qitish metodikasi” Turon iqbol. –T. 2016-y. 417-b. 300-319-betlar.

7. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M. “Matematika” 1-sinf uchun darslik. Turon iqbol. –T. 2018-y.

8. Burxonov S, Xudoyorov O‘, Norqulova Q, Ruzikulova N, Goibova L “Matematika” 3-sinf uchun darslik. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –T. 2018-y.123-124-betlar.

Dilshoda KULIYEVA,
Namangan davlar universiteti, tayanch doktoranti

FORSCHA FE’LLAR LEKSIKASI (“KODEKS KUMANIKUS” QO‘LYOZMASI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqola XIII-XIV asrlarda Lotin yozuvida yozilgan turkiy xalqlarga tarixi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan “Kodeks Kumanikus” qo‘lyozmasi va uning dastlabki 4 ta sahifasida 10 ta zamon va boshqa grammatik shakllarda tuslangan lotincha audire fe’lining forscha tarjimasi va uning fonetik va grammatik shakllarini tadqiq qiladi.

Kalit so‘zlar. Kodeks kumanikus, nomukammal mayl, qipchoq, shart-istak mayli.

Данная статья представляет собой рукопись Codex Cumanicus, написанного на латыни в XIII-XIV веках, который имеет прямое отношение к истории тюркских народов, и на первых 4-х его страницах есть латинский глагол audire в 10 временах и другие грамматические формы. анализирует его перцептивные формы.

Ключевые слова. Codex cumanicus, Модус, именительный падеж, несовершенное время, audire, половест.

This article is a manuscript of the Codex Cumanicus, written in Latin in the XIII-XIV centuries, which is directly related to the history of the Turkic peoples, and its first 4 pages contain a Persian translation of the Latin verb audire in 10 tenses and other grammatical forms. explores phonetic and grammatical forms.

Key words. Codex cumanicus, inclination, nominative case, imperfect tense, audire, kipchak, conditional desire.

Mustaqillik naqadar ulug‘ ne’mat. Oddiygina bu so‘zning tag zaminida qanchalik kuchli hayotbaxsh ma’no bor. Bugun mustaqilligimizga 30 yil bo‘libdi. O‘tgan shu vaqt ichida yurtimiz dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rni va mavqeiga erishdi. Har bir soha rivojlandi va e’tibor berildi. Adabiyot ham birinchi galda diqqat e’tiborda bo‘lgan. Ayniqsa qadimiy yozma yodgorliklarni o‘rganishga bo‘lgan e’tibor, o‘zligimizni anglash, o‘z tariximizni tanish yo‘lidagi asosiy ish desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2995-sonli qarori ana shu yodgorliklarni keng ko‘lamli tarzda o‘rganishga yana bir turtkidir.

Dastlabki lotin yozuvida yozilgan turkiy qo‘lyozma “Kodeks Kumanikus” ya’ni “Kumanlar kitobi” XIII-XIV asrlarga tegishli bo‘lib, unda turkiy xalqlar, jumladan o‘zbeklar etnogenezida muhim rol o‘ynagan qipchoqlar bilan bog‘liqdir. Kuman yoki koman bu qipchoq so‘zining lotincha tarjimasi hisoblanadi. U XIV asr boshlarida lotincha-forscha-kumancha va kumancha-nemischa, kumancha-lotincha so‘zlarni o‘zida mujassam etgan lug‘at hamda xristian monaxlari tomonidan kuman tiliga tarjima qilingan diniy madhiya va duolar, eng qadimgi turkiy topishmoqlardan tarkib topgan qo‘lyozma sifatida yuzaga kelgan.

Qo‘lyozmaning asl nusxasi bugungi kunda Venetsiyadagi Marchana milliy kutubxonasida DXLIX (№549) katalog raqami bilan ro‘yxatga olingan, u №1597 xona raqami bilan saqlanadi. Ushbu qo‘lyozma ustida ko‘plab olimlar ish olib borishgan. Qo‘lyozmaning boshqa qo‘lyozmalardan farqi shundaki, u yagona tuzatish va to‘ldirishlar amalga oshirilgan nusxadir. Ushbu maqolani yozishda bevosita dunyo olimlari yozgan monografiya va tadqiqot ishlaridan foydalanildi.

Ushbu maqolada qo‘lyozmaning dastlabki 4 ta sahifasida lotin tilining barcha zamon va shaxs-sonlarda tuslangan lotincha audire-eshitmoq fe’lining forscha va kumancha tarjimalarini tahlil qilingan.

Qo‘lyozmaning 1a sahifasida lotin tilidagi audire fe’lini 18 ta turli shaxs-son va zamonlarda tuslangan shakli berilgan. 1a sahifasining kumancha variantida birinchi so‘zning birinchi harfiga tuzatish kirgizilgan. Bundan tashqari ko‘plik shaklida tuslashdan avval uning ko‘pligi ekanligi et pr (=et plurale-ko‘plik shakli) qisqartmalari bilan aytib ketilgan. Natijada, shu sahifaning o‘zida yana 5 ta lotincha so‘z berilgan, lekin ularning forscha va kumancha tarjimalari yo‘q. Ushbu so‘zlar zamon va shaxs-sonni ko‘rsatish uchun ishlatilgan. 1b sahifada 21 ta so‘zlar uchta tilda berilgan bo‘lsa, yana 7 ta lotincha so‘zning forscha va kumancha tarjimalari yo‘q va bu 7 ta so‘zlar zamon va ko‘plik shakllarni ko‘rsatish uchun ishlatilgan. Ushbu sahifadagi 1-2-3-qatordagi va 16-dan 22-qatorgacha bo‘lgan so‘zlarning bosh harflari ko‘rinmas holatga kelgan, bundan tashqari, kumancha so‘zlar qatoridagi 9-10-13-14-19-qatordagi so‘zlarga keyinchalik boshqa siyoh bilan tuzatishlar kirgizilgan. 2a sahifada 28 ta lotincha so‘z berilgan bo‘lib, 1-qatordagi so‘zning tepasiga tuzatish kirgizilgan, lekin bu ishni aynan bitta xattot tomonidan amalga oshirilgan bo‘lishi kuchli ehtimol, chunki siyoh va dastxat bir xil. 25-qatordagi so‘zga keyinchalik bitta -a harfi boshqa siyoh bilan yozilgan, 21 ta forscha so‘zlar qatori bo‘lib, hammasining oldida agar ma’nosini beruvchi old qo‘shimcha bor. Bu yerda ham 7 ta zamon va ko‘plik shaklini ko‘rsatish uchun berilgan lotincha so‘zlarning forscha va kumancha tarjimalari berilmagan. Kumancha so‘zlar qatori ham 21 ta bo‘lib, faqat oxirgi uchta qatordagi so‘zlardan farqli tarzda, yuqoridagi so‘zlar hammasi oldida agar va koshki kabi ma’nolarni beruvchi old qo‘shimchalari ham bor. 2-qatordagi so‘z yoniga keyinchalik boshqa dastxat va siyoh bilan yana bir so‘z yozilgan. 5-qatordagi so‘zning oldiga bosh harf yozilib keyin hattot tomonidan o‘chirilgan. 7-qatordagi so‘zga ham keyinchalik boshqa siyoh bilan shaxs-son qo‘shimchasi tagiga yozib qo‘yilgan. 9-10-12-13-qatordagi so‘zlarga bittadan -y harfi keyinchalik yozib qo‘yilgan. Bu tuzatishlar ham boshqa siyoh va dastxat bilan yozilgan. 2 b sahifada 28 ta lotincha so‘z berilgan bo‘lib, shundan 6 ta so‘zning forscha va kumancha tarjimalari berilgan xolos. 22-qatordagi 4- kumancha so‘z xattot tomonidan ustiga chizib, yoniga to‘g‘irlab yozilgan. Bu sahifada ham 8 ta lotincha so‘z zamon va ko‘plik shaklini ko‘rsatish uchun ishlatilgan. 1- va 2- qatordagi so‘zlarning bosh harflari o‘chib ketgan. Yuqoridagi 8 ta lotincha so‘zdan tashqari yana 14 lotincha so‘zlarning tarjimasi berilmagan, buning sababi, o‘ylashimizcha xattot tomonidan bu so‘zlar qayta yozib qo‘yilgan. Fors tili o‘z rivojlanish bosqichiga ko‘ra uchta davrga bo‘linadi.

1) qadimgi fors tili (eramizdan avvalgi VI-III asrlar)

2) o‘rta davr fors tili (eramizdan avvalgi III va eramizning VII asrlari)

3) yangi ya’ni hozirgi fors tili (IX asrdan shu kungacha)

Qo‘lyozma yozilgan davr fors tilining 3-bosqichiga to‘g‘ri kelishini ko‘ramiz, ammo ba’zi grammatik shakllarda klassik fors tili unsurlardan foydalanilgan. Ajablanarlisi, fors tilida berilgan lug‘at fors yozuvida emas, balki lotin yozuvida yozilgan va ba’zi harfiy

belgilardan foydalanilgan. Bu grafik shakllar haqida Botir Jafarov o‘z dissertatsiyasida batafsil yoritgan.

№	График белги	Товуш	№	График белги	товуш
1		a	16		q
2		b	17		r
3		d	18		s
4		e	19		t
5		f	20		u
6		g	21		v
7		h	22		x
8		i	23		y
9		j	24		z
10		k	25		ö
ii	e, t, r,	1			ğ
12		m	27		š
13		n	28		č
14		o	29		ŋ
15		p			

Fors tilidagi so‘zni lotin tilida ifodalashda bir muncha noqulayliklar yuzaga kelgan. Jumladan, unlilar almashib qolgan. Masalan; mi- old qo‘shimchasi o‘rniga me- old qo‘shimchasi ishlatilgan. Shu kabi misollar qo‘lyozmada talaygina. Kuchli ehtimol bilan qo‘lyozmani yozgan xattotning fors tilidan xabari bo‘lmagani, lotin tilidagi so‘zlarni unga kimdir aytib turgan degan xulosaga kelish mumkin. Boisi, yuqorida aytib o‘tilgandek tovushlar bir muncha o‘zgarib ketgan.

Audire fe’li bu lotincha 4-guruh fe’li bo‘lib, tarjimasi eshitmoq. Fors tilida شنیدن-shenidan. Fors tilida fe’lning ikkita negizi bor:

1) o‘tgan zamon fe’l negizi

2) hozirgi zamon fe’l negizi

O‘tgan zamon fe’l negizi fe’lning noaniq shaklidan ن-an qismini olib tashlash orqali yasaladi.

شنیدن — shenidan fe’lining o‘tgan zamon negizini topish uchun undan ن-an qo‘shimchasini olsak u شنید – shenid shaklini oladi.

Hozirgi zamon fe’l negizi esa biror qoidaga bo‘ysunmagan holda yasaladi. Ularni faqatgina yod olib eslab qolish orqaligina o‘rganish mumkin.

شنیدن — shenidan fe’lining hozirgi zamon fe’l negizi -ونش-sheno‘u hisoblanadi. Barcha zamon shakllari mana shu ikki asosdan foydalanib yasaladi.

1a sahifada hozirgi zamon shaklida tuslanish boshlangan. Fors tili grammatikasida hozirgi zamon shakli mi- old qo‘shimchasini hozirgi zamon fe’l negiziga qo‘shish orqali yasaladi.

I) –am mishnoam- مشنوم/ eshitaman, eshityapman /
II) –i mishnoi- مشنوی- / eshitasan, eshityapsan /
III) –ad mishnoad- مشنود- /eshitadi/ eshityapti /
I) –im mishnoim- مشنویم-eshityapmiz, eshitamiz/
II) –id mishnoid- مشنوید eshityapsizlar, eshitasizlar/
III) –and mishnoand- مشنوند / eshityaptilar/ eshitadilar
Ammo qo‘lyozmada mi- old qo‘shimchasi o‘rniga me- shaklida berilgan.
I) Mesnoam II) Mesnoit III) Mesnoent
I) Mesnam II) Mesnoit III) Mesnoent
Qo‘lyozma bilan yuqorida tuslangan shakllarda ba’zi bir farqlar ko‘rinib turibdi. 2-shaxs birlik, 3-shaxs birlik va ko‘plikdagi uchchala shaxsda ham tovushlar farq qilmoqda.

Keyingi zamon lotincha imperfect zamoni bo‘lib, u fors tilida o‘tgan davomli zamonga to‘g‘ri keladi. Fors tilida bu zamonni shakllantirish uchun mi- old qo‘shimchasini qo‘shamiz va fe’lning o‘tgan zamon o‘zak shakli va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi. Bular: -am; -i; -im; -id; -and;

Masalan:
I) -am mishenidam/مىشنىدم eshitayotgan edim.
II) -I mishenidi /مىشنىدى eshitayotgan eding.
III) - mishenid / مىشنىد eshitayotgan edi.

I) -im mishenidim/ مىشنىدىمeshitayotgan edik
II) -id mishenidid / مىشنىدىدeshitayotgan edingiz
III) -and mishenidand/مىشنىدند eshitayotgan edilar

I) Me†indem II) Me†inidi III) Me†inid
I) Me†inidim II) Me†inidit III) Me†inident[1]

Bu yerda ham qo‘lyozma va yuqoridagi tuslanish shakllarida farq bor. Qo‘lyozmada mi- old qo‘shimchasi o‘rniga me- old qo‘shimcha sifatida ishlatilgan. Ikkinchi bo‘g‘indagi -e tovushi o‘rniga -i tovushi ishlatilgan. Birinchi shaxs birlikda -a harfi o‘rniga -e harfi, ko‘plikda ikkinchi va uchinchi shaxslarda jarangli undoshlar o‘rnini jarangsiz undoshlar egallagan.

Ptcito pfcto – Preterito perfecto-o‘tgan zamon natijali fe’li. Fors tilida ham bu zamon o‘tgan zamon natija fe’liga to‘g‘ri kelib, u o‘tgan zamon sifatdoshiga -استast bog‘lamasining qisqa shaklini qo‘shish orqali yasaladi. Bular: -am; -I; ast; -im; -id; -and; qo‘shimchalaridir.

I) -am/shenide-am-شنىدەام-eshitganman
II) -I shenide-I شنىدەاى-eshitgansan
III) -ast shenide-ast/ است شنىدە-eshitgan

I) im shenide-im / ايم شنىدە-eshitganmiz
II) -id shenide-id ايد شنىدەeshitgansizlar
III) - and shenide-and/ اند شنىدە

[1] Ushbu so‘zning barcha shakllarida ikkinchi bo‘g‘indagi “i” harfi xattot tomonidan o‘chirilgan. Ammo Geza Kuun monografiyasida berib ketilgan.

Qo‘lyozmada esa quyidagi holatda tuslangan:

I) Sinidem II) Sinidi III) Sinid et plural-ko‘plik

I) Sinidim II) Sinidit III) Sinident

Deyarli barcha tadqiqotchilar Klaprotdan boshlab Golib Gunergacha qo‘lyozmada berilgasn shaklni o‘z asarlarida berishgan bo‘lsa, faqatgina turkiyalik Kutluay Erk bu zamonning to‘g‘ri shaklini o‘z dissertatsiyasida bergan.

I) Shenidem II)shenide III)shenid ko‘plik shakl

I) shenidim II)shenidit III) shenident

Yuqoridagi fe’l shakllari biz tuslagan shaklga ancha mos va farqlari faqatgina jarangli va jarangsiz undoshlar almashinganida. Ushbu shaklda ham 3-shaxs birlik va ko‘plikdagi zamon qo‘shimchalari aynan bir hil emas. Aslida yuqoridagi kabi tuslanishi kerak edi.

(Practeri) to plusqrpfcto – ya’ni uzoq o‘tgan zamon fe’li

Fors tilida uzoq o‘tgan zamon fe’li o‘tgan zamon sifatdoshidan so‘ng بودن bundan ko‘makchi fe’lini qo‘yish orqali yasaladi. Uzoq o‘tgan zamon fe’lining tuslanishida shaxs-son qo‘shimchalari بودن budan ko‘makchi fe’lining o‘tgan zamon fe’l negiziga qo‘shiladi. O‘tgan zamon sifatdoshi esa o‘tgan zamon fe’l negiziga ه-e affiksini qo‘shish orqali yasaladi.

Shenidan-ندیشن

shenid-e –bu o‘tgan zamon sifatdosh shakli bo‘lib, demak shu shakldan keyin budan ko‘makchi fe’lini ishlatamiz.

Birlik

I) Shenide budam/ بودم شنیده /eshitib bo‘lgan edim/ eshitganman

II) Shenide bud/ بود شنیده /eshitib bo‘lgan eding/ eshitgansan

III) Shenide budi/ بودی شنیده /eshitib bo‘lgan edi/eshitgan

Ko‘plik

I) shenide budim/ بودیم شنیده/eshitib bo‘lgan edik/ eshitganmiz.

II) Shenide budid/ بودید شنیده /eshitib bo‘lgan edingiz/ eshitgansiz

III) Shenide budand/ بودند شنیده/eshitib bo‘lganlar/ eshitganlar

Qo‘lyozmada esa quyidagicha berilgan:

I) Sinada budem II) Sinada budi III) Sinada bud

I) Sinada budim II) Sinada budit III) Sinada budent

Qo‘lyozma bilan solishtirsak quyidagi farqlarni sezamiz. Ya’ni biz shenide deb yozgan bo‘lsak, qo‘lyozmada –e ning o‘rniga –a yozilgan va bundan tashqari birinchi va ikkinchi qatordagi –a harflari xattot tomonidan o‘chirib tashlangan.

Futuro-kelasi zamon

Fors tilida esa kelasi zamon o‘rniga bu yerda hozirgi-kelasi zamon shart istak maylidan foydalanilgan. Agar hozirgi-kelasi zamon fe’li biror ish harakatning bajarilishi aniq ekanligini ko‘rsatsa, ish-harakat ma’lum shart, istak, imkon, zaruriyat, majburiyat orqali amalga oshishi yoki uning bajarilishi gumon ekanligini bildiradi. U hozirgi zamon fe’l negiziga shaxs-son qo‘shimchalari va be- old qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi.

I) Beshnoam بشنوم eshitsam I) beshenoim بشنویمeshitaylik

II) Beshenoi بشنوی eshitsang II) beshenoid بشنود eshitsaydingiz

III) Beshenoad بشنوید/eshitsin III) beshenoand بشنوندeshitsaydilar

Qo‘lyozmada esa quyidagicha berilgan. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda uchinchi shaxs

birlik va ko‘plikda jarangli tovushlar o‘rniga jarangsiz tovushlardan foydalanilgan.

I) Bi†noem II) Bi†nov III) Bi†noet

I) Bi†noym II) Be†noy III)Be†noent

(I)mpato m- ͡buyruq gap shakli

Fors tilida ham buyruq mayli buyurish, iltimos ma’nolarini ifodalaydi. Bunda nutq ikkinchi shaxsga qaratilgan bo‘ladi. Buyruq maylining birlik shakli fe’lning hozirgi zamon negiziga be- به old qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi.

Shenidan شنیدن- (شنو-sheno)

Besheno-بهشنو- eshit

Buyruq shaklining ko‘plik shakli birlik shakliga –id ید- qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi.

beshenoidبهشنوید- - eshitinglar

1- va 3 – shaxs birlik va ko‘plikda buyruq shakli yo‘q, o‘rniga subjunctive mood-ya’ni shart-istak maylining hozirgi zamon shaklidan foydalanamiz va u ham aynan biz kutgan ma’noni beradi. Masalan:

Beshenoad - بهشنود- eshitsa, eshitsin / uchinchi shaxs birlik

beshenoand- بهشنوند / eshitsalar, eshitsinlar. uchinchi shaxs ko‘plikdagi shakllari.

Qo‘lyozmada berilgan shakl bilan solishtirsak, unda old qo‘shimcha be- o‘rniga bi-yozilgan. Bundan tashqari uchinchi shaxsda be- old qo‘shimchasidan foydalanilgan. Buning sababi esa bizga hozircha noma’lum. Buyruq mayli qo‘shimchalari qo‘lyozma-da berilgan shakl bilan biz tahlil qilib berayotgan shakllarning 2-shaxs birlik va 3-shaxs ko‘plikda tovushlari farqlansa, 2-shaxs ko‘plikda shakli ham tovushlari ham farq qil-moqda. Lekin old qo‘shimcha bir xil.

Qo‘lyozmada berilgan shakli quyidagicha:

Bu yerda ham jarangli undoshlar o‘z jarangsiz sherigi bilan almashib ishlatilgan.

(I)mpato m- ͡buyruq gap shakli

Bi†no

Bi†noytem

Be†noat

optat͡o mᵒVtınã- Optatiuo modo utinam

Forsiy tilida berilgan lug‘atda eshitmoq شنیدن- fe’lidan oldin ysalla-یالل degan so‘z berilgan bo‘lib, keying satrlarda uning qisqartma shakl sifatida Y harfining o‘zi berilgan. Qolgan qismi esa eshitmoq fe’lining imperfect – ya’ni o‘tgan davomli zamon fe’lidan foydalanib tuslangan shakli berilgan. Aslida bu zamon nafaqat o‘tgan davomli zamon uchun balki, o‘tgan zamonda tez-tez takrorlangan ish harakatlar uchun ham ishlatiladi va ma’nolari ko‘proq. Uning oldidan ishlatilgan yshalla so‘zi isalla (Klaprot-bu so‘zni in sha alloh bo‘lgan deb izoh berib ketgan) shaklida berilgan bo‘lsa, David monchezoda o‘zining “Das persische im codex cumanikus” asarida bu so‘zga quyida-gicha ta’rif bergan. Ya’ni isalla aslida in sha Alloh so‘zining vulgar shakli bo‘lib, tilak va niyatni ko‘rsatuvchi gaplarni tanishtirish uchun ishlatiladi deydi. Fe’llarning oldidan esa bu so‘zning qisqartma shakli bo‘lmish y ishlatilgan.

I) -am y mishenidam/ انشاءالله میشنیدمinsha Alloh eshitsam edi

II) -I Y mishenidi / انشاءالله میشنیدی /insha Alloh eshitsang edi.

III) - y mishenid / انشاءالله میشنید/insha Alloh eshitsa edi.

Ko‘plik shakli

I) im y mishenidim انشاءالله میشنیدیم/insha Alloh eshitsak edi

II) -id y mishenidid انشاءالله میشنیدید /insha Alloh eshitganingizda edi

III) -and y mishenidand انشاءالله میشیدند /insha Alloh eshitishganida edi

Lekin qo‘lyozma bilan biz tuslagan shaklda ham ba’zi farqlar bor. Masalan: birinchi shaxs birlikda biz –m qo‘shimchasi dan avval –a harfi yozgan bo‘lsak, bu qo‘shimcha qo‘lyozmada -e harfi bilan berilgan. 2-shaxs ko‘plikda ham –id shaxs-son qo‘shimchasi o‘rniga –it dan foydalanilgan. 3-shaxs ko‘plikda esa –and o‘rniga -ent dan foydalanishgan. Bundan tashqari mi- old qo‘shimchasi o‘rniga, ko‘pchilik tadqiqotchilarimizda ham me- shaklida berilgan, faqatgina turk yozuvchilari tomonidan qo‘lyozmadagi xatolarnio to‘g‘rilangan variantidagina aslida me- emas, mi shaklida berilishi kerakligini yozgan. Demakki biz ham bu so‘zni to‘gri tuslaganimiz ma’lum.

Qo‘lyozmada berılgan shaklı

I) Y†alla me†nidem II)Y me†(i)nidi III)Y me†(i)nid

I) Y me†nidim II)Y me†nidit III)Y me†nident

Pterıto pfc ͡to t pls q-Preterito perfecto et plus quam-uzoq o‘tgan zamon shart istak mayli

Fors tilida shart istak maylining o‘tgan zamon shakli pluperfect -uzoq o‘tgan zamon oddiy shaklidan foydalanib uning oldiga Y- old qo‘shimchasi (Yshalla so‘zi o‘rnida) ni qo‘shish orqali uzoq o‘tgan zamon shart-istak mayli yasalgan. U forsiyda qo‘shma fe’l shaklida bo‘lib, yetakchi fe’l va بودن budan ko‘makchi fe’lidan yasaladi. Bu fe’lning tuslanishida yetakchi fe’l o‘tgan zamon sifatdoshi shaklida va ko‘makchi o‘tgan zamon o‘zak shaklida bo‘ladi. Shaxs-son qo‘shimchalari ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi.

Birlik

I) Ysalla Shenide budam/ بودم انشاءالله شنیده / inshaalloh eshitgan bo‘lsaydim

II) Shenide budi/ بودی شنیده انشاءالله // inshaalloh eshitgan bo‘lsayding

III) Shenide bud/ بود شنیده انشاءالله // inshaalloh eshitgan bo‘lsaydi

Ko‘plik

I) shenide budim/ بودیم شنیده انشاءالله // inshaalloh eshitgan bo‘lsaydik

II) Shenide budid/ بودید شنیده انشاءالله // inshaalloh eshitgan bo‘lsaydinglar

III) Shenide budand/ بودند شنیده انشاءالله // inshaalloh eshitgan bo‘lsaydilar

Qo‘lyozmada berilgan shakli quyidagicha:

Y sinada budim

Y sinada budi

Y sinada bud

Etpr utina/Et plurale Utinam

Y sinada budem

Y sinada budj

Y sinada bud

Futuro utina-kelasi zamon shart istak mayli

Fors tilida esa kelasi zamon o‘rniga bu yerda hozirgi-kelasi zamon shart istak maylidan foydalanilgan. Agar hozirgi-kelasi zamon fe’li biror ish xarakatning bajarilishi aniq ekanligini ko‘rsatsa, ish-harakat ma’lum shart, istak, imkon, zaruriyat, majburiyat orqali amalga oshishi yoki uning bajarilishi gumon ekanligini bildiradi. U hozirgi zamon fe’l negiziga shaxs-son qo‘shimchalari va be- old qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. Bu yerda utinam shakli bo‘lganligi uchun ham oldiga Yshalla qo‘shimchasini qo‘shib qo‘yilgan. Bu old qo‘shimcha haqida esa yuqorida gapirib o‘tdik.

I) Yshalla Beshnoam بشنوم انشاءالله eshitsaydi

II) Y Beshnoi بشنوی انشاءالله -eshitsayding

III) Y Beshnoad – بشنود انشاءالله -eshitsaydi

I) Y beshnoim بشنویم انشائیللہ -eshitsaydik

II) Y beshnoid بشنود انشائیللہ -eshitsaydingiz

III) Y beshnoand بشنون- انشائیللہ eshitsaydilar

Qo‘lyozmada berilgan shakli:

I) yBe†noem II) yBe†noy III) yBe†noet

I) yBe†noym II) yBe†noyt III) yBe†noent

Subiucto ṁ cum[2] / Subiunctiuo modo cum

Forsiy tilida berilgan lug‘atda eshitmoq شەنیدن- fe’lidan oldin ZONCHI degan so‘z berilgan bo‘lib, keyingi satrlarda uning qisqartma shakl sifatida Z harfining o‘zi berilgan. Qolgan qismi esa eshitmoq fe’lining imperfect zamonda tuslangan shakli. Aslida bu zamon nafaqat o‘tgan davomli zamon uchun balki, o‘tgan zamonda tez-tez takrorlangan ish harakatlar uchun ham ishlatiladi va ma’nolari ko‘proq. Uning oldidan ishlatilgan so‘z zonchi-agar subjunctive modo yasalishi uchun ishlatiladi.

I) birlik -am zonchi mishenidam / چونکہ میشنیدم agar eshitganimda.

Ko‘plik -im zonchi mishenidim چونکہ میشنیدیم agar eshitganimizda

II) -I zonchi mishenidi میشنیدی/ چونکہ / agar eshitganingda.

-id zonchi mishenidid میشنیدید چونکہ agar eshitganingizda

III) - zonchi mishenid / میشنید/ چونکہ agar eshitganida.

-and zonchi mishenidand میشنیدند چونکہ agar eshitganlarida.

Lekin asl qo‘lyozma bilan biz tuslagan shaklda ham ba’zi farqlar bor. Ya’ni qo‘lyozmada meshinidem qizil rangda berilgan harf chizilgan nazarimizda ko‘rinmas holga kelgan lekin joy tashlab yozilgani va o‘sha yerda I borligi tepasidagi nuqtani o‘chirilmay ko‘rinib turganiga asoslanadi. Bundan tashqari qo‘lyozmani tadqiq qilgan bir qancha olimlarimizda ham ikki xil qarash bor. Ba’zilari shu –I harfini yozishmagan, masalan, Golib Guner, Klaprot, B. Jafarov, Kuun, ammo Garkaves va Drimbalarda esa ana shu –I harfi yozilgan. Mi- old qo‘shimchasi ham barcha izlanuvchilar tomonidan me- tarzida yozilgan, chunki qo‘lyozmada me- shaklida berilgan, aslida esa bu old qo‘shimcha me- emas, balki mi- tarzida yozilishi kerak. Shaxs-son qo‘shimchalarida ham ba’zi bir tovush o‘zgarishlari jaranglilari o‘rniga jarangsiz tovushlar ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin.

ʒonchi me†nide

ʒ me†nidi

ʒ me†nid

Et pr cum/ Et plurale cum

ʒ me†nidim

ʒ me†nidit

ʒme†nident[5.8]

pte ‿ĩto pfc ‿ẽto - Preterito perfecto cum-o‘tgan zamon natijali fe’lining subjunctive modo shakli.

Forscha shaklida oddiy o‘tgan zamon tuslangan va unga qo‘shimcha tarzda subjunctive old qo‘shimchasi zonchi ishlatilgan. Tuslanishida esa qo‘lyozma bilan ham deyarli farq yo‘q

Keyingi shakllar Preterito plusquam perfecto va future cum shakllari yana qayta berilgani uchunmi ularning kumancha va forscha tarjimalari berilmagan.

Navbatdagi ustunda fe’lnig infinitive shakli berilgan. Audire fe’lining infinitive –no-

[2]Qo‘lyozmada maxsus “ ” grafik belgisi bilan ifodalangan so‘z Geza Kuun tomonidan o‘z monografiyasiga “cum” tarzida kiritilgan.

aniq fe’l shakli hech qanday zamon va shaxs-sonda tuslanmagan holati. Huddi shunday tarzda forscha shaklida ham fe’lning noaniq formasi berilgan. Fors tilida eshitmoq fe’lining noaniq formasi shenidan- (forscha shakli), faqatgina forscha shaklida ayrim fonetik o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda.

Infinito ṁ/ Infinito

audire sanadae Eʃatmaga/ yzʜtmaga

Navbatdagi ustundagi Gerundia va Supina bu lotin tili grammatikasiga oid shakllar bo‘lgani uchun ularning forscha va kumancha shakllari berilmagan.

Yuqoridagi tadqiqotda ko‘rib turganimizdek fors tilini lotin yozuvi orqali berilganda ko‘plab tovush o‘zgarishlari va ba’zi xatolar yuz bergan. Buning sababi taxminimizcha lotin va kuman tillaridan yaxshi xabardor, lekin fors tilidan unchalik xabari bo‘lmagan xattot tomonidan yozilgan va bu xattotga kimdir fors tilidagi tarjimalarni o‘qib bergan. Qo‘lyozmani yozgan xattot esa eshitganlarini lotin yozuvida yozgan. Bunga misol qilib, jarangli undoshlar o‘rniga jarangsizlaridan foydalanganini ham olish mumkin. Uchinchi shaxsda birlik va ko‘plikda ko‘p o‘rinlarda bu hodisa ro‘y bergan. Shuningdek, agarda fors tili mutaxassisi bo‘lganda, ehtimolki, lotin yozuvi o‘rniga fors yozuvidan foydalangan bo‘lardi. Masalaning boshqa tomoni ham borki, fors tilini bilmagan yevropalik savdogarlar uchun lotin yozuvidagi bu forscha lug‘at ayni muddao bo‘lishi maqsad qilib olingan bo‘lishi ham mumkin. Keyingi tadqiqotlarda bu masalalar chuqurroq o‘rganilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH. M. (2017.24-may). PQ-2995-sonli “Qadimiy yozma manbaalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. –T.

2. Jafarov B. S. (2020). Kodeks kumanikus monografiya. –T.: Bayoz.

3. Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi “Kodeks kumanikusda lotin tilidagi fe’llar leksikasi” Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi – ilmiy jurnal –№7 (78) 2021-y.

4. Abdusamatov Malik. Fors tili. –T. 2007.

5. Monoscritto Codice Cumanico. Venetsiya, Marchana. (1597).

Mahbuba SOBIROVA,
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

YANGI O'ZBEKISTON INTEGRATSIYALASHGAN TEXNOLOGIYA ASOSIDA INSONPARVARLIK TARBIYASINI BERISH

Annotatsiya

Maqolada mavzuning tanlanish asosi va dolzarbligi yoritilgan. Mavzuga oid tadqiqotlarga munosabat bildirilgan. Hamkorlik pedagogikasi bo'yicha NamDU tajribasi sharhlangan. Boshlang'ich, o'rta bo'g'in va akademik litseydagi til ta'limida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyasi asosida insonparvarlik tarbiyasini berishning metodik imkoniyatlari ko'rsatilgan hamda ilmiy asoslangan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar. Insonparvarlik tarbiyasi, integratsiya, hamkorlik pedagogikasi, integratsiyalashgan dars tuzilishi, til ta'limini boshqa fanlarga bog'lash, o'quv jarayonini insonparvarlashtirish.

В статье объясняет основу и актуальность выбранной темы. Были даны ответы на исследования по теме. Комментируется опыт НамГУ в педагогике сотрудничества. Показаны методологические возможности преподавания гуманитарного образования на основе интегрированной образовательной технологии в языковом обучении в начальных, средних и академических лицеях, даны научно обоснованные выводы.

Ключевые слова. Совместная педагогика, гуманитарное образование, интеграция, интегрированная структура урока, увязка языкового образования с другими дисциплинами, гуманизация образовательного процесса.

Explains the basis and relevance of the topic selection. Responses were given to research on the topic. The experience of NamSU in the pedagogy of cooperation is commented. Methodological possibilities of teaching humanities education on the basis of integrated educational technology in language education in primary, secondary and academic lyceums are shown, and scientifically based conclusions and recommendations are given.

Key words. Collaborative pedagogy, humanities education, integration, integrated lesson structure, linking language education to other disciplines, humanization of the educational process.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish" kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishda integrallashgan o'qitish texnologiyalaridan foydalanish mazmuni, didaktik va metodik talablarni, tashkiliy faoliyat shakllarini aniqlashtirishni taqozo etadi. Ta'lim muassasalarida o'rganiladigan fanlar sirasiga ijtimoiy fanlar (tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, filologiya va boshqalar)ning kiritilishini, insoniylashtirish tushunchasi esa shaxs va uning faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvni anglatadi. Boshqacha aytganda, insonparvarlik – inson va jamiyat o'rtasida yuzaga keluvchi munosabatlar jarayonida inson omili, uning qadr-qimmati, sha'ni, or-nomusi, huquq va

burchlarini hurmatlashga asoslanuvchi faoliyatni tashkil etish jarayoni bo‘lsa, insoniylashtirish “barcha sharoitlar inson va uning kamoloti (taraqqiyoti) uchun” degan g‘oya asosida tashkil etiluvchi faoliyat jarayoni sanaladi.

DTSda belgilangan vazifalar asosida umumiy o‘rta ta’lim sifatining tubdan oshirilishi, muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlar: chet tillar, informatika, matematika, fizika, kimyo va biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganishning tashkil etilishida fanlararo aloqadorlik va integrativ yondashuvdan foydalanish ta’lim sifatini rivojlantirishning kafolatli omili sanaladi.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar o‘zining spetsifik vazifasiga ega. O‘quvchilarning notiqlik jihatlarini o‘stirishda ona tili va adabiyot fanlari, aqliy yetuklikka erishishida matematika turkumidagi fanlar, jismonan sog‘lom bo‘lishida jismoniy tarbiyaning, tabiatni sevishida tabiiy fanlarning, ijodkorlik qobiliyatlari va grafik bilimlari rivojlanishida rasm, chizmachilik fanlarining o‘rni beqiyos.

Integratsiya – 1) lot. Integratio – tiklash, qaytadan boshlash, to‘ldirish; 2) fanlarning yaqinlashishi, o‘zaro bog‘lanish jarayoni degan ma’nolarni anglatadi.

Tadqiqotchi B.S.Abdullayeva ham fanlararo aloqadorlikni quyidagi turlarga ajratadi: 1) mazmunli; 2) operatsion; 3) metodik; 4) tashkiliy. B.Abdullayeva ta’kidlaganidek, ko‘nikma, malakalar fikrlash operatsiyalari orqali o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarni qo‘llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib, qo‘llangan har qanday texnologiya kutilgan samara bermaydi.

Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ziyolilarning katta va keng qatlami sanalgan o‘qituvchilar manfaatlarini himoya qilishga, ularning obro‘-e’tiborini yanada mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu borada ko‘plab oliygohlar qatori Namangan davlat universitetida olib borilayotgan ishlarni ham namuna qilsa arziydi. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatida oliy ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlashga hamda pedagogik munosabatlarni rivojlantirishga o‘quv yili davomida e’tibor qaratildi. Namangan davlat universitetidagi yetuk olimlarning rahbariyat tashabbusi bilan viloyatning chekka-chekka maktablariga biriktirilishi, “Olimlar kuni”, “Hayot saboqlari”, “Kafedralar soati” kabi ko‘plab dolzarb mavzularda seminar va ochiq muloqotlar o‘tkazilishi, professor-o‘qituvchilarning maktablarda mahorat darslarini reja asosida o‘tib borishlari, to‘garaklar ishini jonlantirishlari, maktablardagi fan o‘qituvchilarining malakasini oshirish va sifat tarkibini yaxshilashga ko‘maklashuvi, yuqori sinf o‘quvchilari uchun ularning qiziqish va qobiliyatidan kelib chiqib, maktab huzurida oliy ta’lim muassasalariga kirish sinovlariga tayyorlov kurslarining tashkil etilishi, sanab o‘tilgan jarayonlarda faol qatnashgan universitet professor-o‘qituvchilarini o‘quv yili davomida moddiy va ma’naviy rag‘batlantirilishi, maktablarning texnik bazasini mustahkamlashga amaliy yordam berilishi aslida ulug‘ maqsadlarimiz davomchilari bo‘lgan yoshlarni bilimli qilish, milliy qadriyatlarimizga sodiq bo‘lish ruhida tarbiyalab, ularning yurtparvar, xalqparvar, insonparvar bo‘lib voyaga yetishida muhim o‘rin tutadi.

Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi borasida izlanish olib borgan X.Yulbarsova fanlarning nazariy taraqqiyotida differensial holat ham mavjud bo‘lishini, integratsiya esa amaliyotda o‘zaro bog‘liqlikni bildiradi va u jarayonning ijtimoiy, pedagogik-psixologik ahami-

yatini yanada orttirishini ta’kidlaydi.

Eng avvalo, integratsiyalashgan darsni loyihalashda mavzular uyg‘unligiga e’tibor qaratiladi. 1-bosqich tayyorlov bosqichi bo‘lib, bunda oldindan o‘quvchilarga integratsiyalashtirilayotgan fanlar aytiladi. Ular shu predmetlar bo‘yicha uyg‘un mavzularga tayyorlanib kelishadi. O‘qituvchi fanlar va mavzularni birlashtirib, dars loyihasi yaratadi. Sinf o‘quvchilariga ixtiyoriy tarzda guruhlarga bo‘linishlari va tayyorgarlik ko‘rishlari aytiladi. 2-bosqichda maqsadlar zamonaviy pedagogik texnologiya yordamida amalga oshiriladi. 3-bosqichda integratsiyalashtirilgan predmetlar va mavzular umumlashtiriladi va 4-bosqichda o‘quvchilar baholanadilar.

Integratsion darsning mazkur tuzilmasini ta’limning turli bosqichlariga – boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus va hatto oliy ta’lim bosqichlariga ham tatbiq etish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim-tarbiya mazmunining zamon talabi darajasida takomillashtirilishi yoshlarning ma’naviy barkamol shaxslar bo‘lib yetishishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarning integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish bo‘yicha ilmiy, pedagogik, metodik tayyorgarligini ta’minlash hamda integratsiyalashgan texnologiyalardan foydalanish malakalarini takomillashtirish talab qilinadi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonini integratsiyalashni ta’minlash bir qator pedagogik imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Fanlarning o‘zaro aloqasi bir-birini to‘ldiradi.

Har qanday integratsiyalashgan darsda asosiy ustuvor fan bo‘ladi, atrofidagi fanlar esa maqsadni amalga oshirish uchun vosita bo‘ladi, lekin shunday bo‘lsa-da, barcha fan o‘z mustaqilligiga ega bo‘ladi va darslikdagi material to‘liq qamrab olinadi. Masalan, matematika fanidan bo‘lish amali qiyin bo‘lganligi sabab uni o‘quvchilarga tushuntirishning qulay va oson yo‘li taklif qilinadi. Matematika fanidagi mavzuni o‘qish darsligidagi ertak bilan hamda Atrofimizdagi olam va Texnologiya fanlaridagi quyida ko‘rsatilgan mavzular bilan integratsiyalashtiriladi.

1-jadval

№	O‘qish	Atrofimizdagi olam	Texnologiya
	Navro‘z bayrami	Bahorgi tengkunlik. Navro‘z bayrami	Navro‘z bayramiga tabriknoma tayyorlash

Bu jarayon davomida tashkil qilingan qisqa suhbatlar, savol-javoblar, “Aqliy hujum” usullari asosida o‘quvchilarga insonparvarlik g‘oyalarini singdirish mumkin. Bu o‘rinda o‘quvchilar e’tibori o‘qituvchi tomonidan aytiladigan quyidagi fikrlarga va insonparvarlikka yo‘naltiriladi.

Qadrli o‘quvchilar, har faslning o‘ziga xos bayramlari bor. Masalan, bahor faslida Navro‘z bayrami o‘tkaziladi. Mana shunday paytlarda farzandlarning marhum ota-onalari oldidagi burchi hamda vazifalari yanada ko‘payadi. Yoshlar o‘tganlarning xotiralariga ma’lum bir ishlarni qilishi, ulug‘ ayyom arafalarida keksalarni, qarindosh-urug‘larni yo‘qlashi zarur. Ularga doimo mehrli bo‘lish kerak. Ota-onaga umrlari oxirigacha yaxshilik qilish, vafot etgan otaning yoki onaning do‘sti bilan aloqani uzmaslik, kasal kishidan tez-tez xabar olish zarur.

Keyingi yillarda o‘rta bo‘g‘inda o‘qitiladigan ona tilini boshqa fanlarga bog‘lagan holda o‘qitish ishlariga ham alohida diqqat qaratilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Negaki, ona tili bu bosqichda barcha fanlarni o‘zlashtirishning asosi, kaliti sanaladi. Ona tili darsliklaridagi deyarli barcha matnlar mazmunini ham grammatikani o‘rgatish, ham insonparvarlik ruhida tarbiyalash asosiga qurish bilan birga boshqa fanlarga bog‘lash

imkoniyati katta. Masalan, ona tili darsligidagi “O‘rin-joy nomlari va ularning imlosi” mavzusini o‘tishda tarix va geografiya fanlari bilan bog‘lab o‘tish bu borada yaxshi natija beradi. Chunki joy nomlari, toponimlar turli davrlarda ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan bebaho xazinadir. O‘qituvchi “O‘rin-joy nomlari va ularning imlosi” mavzusini o‘tish jarayonida o‘quvchilarning o‘zlari yashayotgan shahar, guzar, qishloq nomlari bilan bog‘liq tarixiy dalillarni o‘rganib kelishini oldindan vazifa sifatida topshiradi. So‘ng ona tili mashg‘uloti jarayonida ana shu to‘plangan manbalar asosida matn yozish topshirig‘i beriladi. O‘quvchi matn yozish uchun ko‘plab tarixiy manbalarga, rivoyatlarga murojaat qiladi. O‘zi yashayotgan hudud haqida ma’lumotga ega bo‘ladi va tarix, geografiya, o‘lkashunoslikdan egallagan bilimlarini ona tili darsi davomida mustahkamlaydi. O‘qituvchi tuzilgan har bir matnning bog‘lanishli ekanligiga va milliy qadriyatlar aks etganligiga, insoniylik singdirilganiga e’tibor beradi.

Ona tili darsliklarida berilgan matnlarning katta qismi o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, ularda mustaqil ijodiy fikrlash va fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos holda bayon etish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga ularda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalash va rivojlantirishga ham yo‘naltirilgan. Darslikdagi mashqlarning aksariyati adabiy materiallardan iborat bo‘lib, bu holat tilni adabiyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Masalan, 5-sinf “Ona tili” darsligining 18-betidagi “Alisher bilan bulbul” matni, xalq og‘zaki ijodiga bog‘lashda shu darslikning “Bilimlar zanjiri” (12-bet), “Ittifoq“ (69-bet), “Inson qo‘li” (117-bet) kabilarni misol keltirish mumkin. Yoki o‘zbek tilidagi ayrim mavzularni o‘tishda chizmachilikka bog‘lash mumkin. Masalan, unli va undoshlarni tasnif qilishda, aniqlashda chizmalardan foydalanib, taqqoslanadi.

Biologiyaga bog‘lashda 6-sinfning 100-betidagi “Keraksiz o‘t” matnidan; tarix faniga bog‘lashda 5-sinfning 24-betidagi “Amir Temur o‘giti” matnidan; 6-sinfning 169-betidagi Mirzo Ulug‘bek haqidagi matn, 6-betdagi “O‘zbek tili ildizlari” matni, “Joy nomlari – tarix muhri” matni, 7-sinfning 8-betidagi “Mahmud Zamahshariy”, 55-betdagi “Abdurauf Fitrat”, 67-betdagi “Imom Ismoil Buxoriy”, 118-betdagi “Sohibqiron” matni, 9-sinfning 99-mashqidagi “Ajdodlar ibrati” matnlaridan unumli foydalansa bo‘ladi.

Til ta’limini fanlarga bog‘lashda “Kim zukko” o‘yinidagi matnlardan ham foydalanish mumkin. Masalan, quyidagi berilgan matnlarning qaysi fanga oidligini tezda topish.

1. Inson yoqilg‘ilardan – o‘tin, ko‘mir, neft, gaz, torf yoqish hisobiga issiqlik olishni o‘rgandi.

(fizika faniga oid)

2. XIX asr o‘rtalarida sobiq Ashtarxoniylar davlati maydonida 3 ta yangi davlat – Qo‘qon va Xiva xonliklari hamda Buxoro amirligi joylashgan edi.

(tarix faniga oid)

3. Xalqimiz qadimdan ildiz mevalar: sabzi, qizilcha, lavlagi, turp, sholg‘omdan turli taomlar tayyorlashgan va bugungi pandemiya sharoitida ular inson immunitetini ko‘tarishga yordam beradi.

(biologiya faniga oid)

4. Yer sharida oltita materik: Avstraliya, Antarktida, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Afrika, Yevrosiyo mavjud.

(geografiya faniga oid)

5. Yon tomondan o‘lchab ol, balandlikka teng o‘lcham,

Davomidan davomin uchdan ikki qismin ham.

Shu nuqtadan agarda yoy chizig‘i chizilsa,

Asosiga teng bo‘lar uchburchakda kim bilsa.

(matematika faniga oid)

O‘zbek tili mantiq fani bilan uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tomoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog‘lanadi. Mantiq o‘zbek tili grammatika bo‘limi bilan bevosita munosabatdadir. Masalan, 6-7-sinflarda so‘z turkumlari o‘tib bo‘linganidan so‘ng o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun bir necha savollardan quyidagi tarzda foydalanish mumkin: qaysi so‘z turkum turlanmaydi, tuslanadi? Old qo‘shimchalarga qaysi so‘z turkumi ega? Zamon kategoriyasi qaysi turkumga tegishli? Qaysi so‘z turkum yasalmaydi?

Mantiq bilan mavzuni bog‘lab o‘tish o‘quvchilarning yodda saqlash qobiliyatini o‘stiradi.

Integratsiyalashgan o‘quv kurslari – bir necha o‘quv predmetlarini ma’lum bir mavzu va asosiy tushunchalar atrofida birlashuvidan iboratligini nazarda tutib, o‘qituvchi o‘quvchilarning tayyorgarlik holatini hisobga oladi, ularning psixologik xususiyatlari va qiziqishlarini tahlil qilib ko‘radi. Ularning o‘quv faoliyati davomidagi duch keladigan qiyinchiliklari integratsiyalashgan ta’limni qo‘llashga olib keluvchi sabablardan biri bo‘lishi mumkin. Ba’zida o‘quvchilarning bir predmetni muvaffaqiyat bilan o‘zlashtirishlari boshqa predmetdan olgan bilimlari va ko‘nikmalari orqali ham bo‘ladi.

Odatda, davrlar o‘tishi bilan ma’lum bir tilda so‘zlashuvchi etnik guruhlar turli joylarga tarqalib, o‘troqlashadi. Mana shu holatga bog‘liq mavzularni o‘tish davomida o‘qituvchi hozirgi o‘zbek tilini geografiya fani bilan bog‘lab ketishi maqsadga muvofiq. Umumxalq so‘zlashuv tili tarkibiga kiruvchi shevaga xos so‘zlarni o‘rganishda geografiya bilan hamkorlikda ish olib borish yaxshi samara beradi. Dars davomida o‘qituvchi umumxalq so‘zlashuv tili tarkibiga kiruvchi sheva va lahjalar haqida o‘quvchilarga ma’lumot beradi. Yangi tushunchalar haqida ma’lumot berish davomida o‘qituvchi talabalarga sheva va lahjalarni bir-biridan ajratib turuvchi geografik maydonlarni kartalashtirishni topshiriq qiladi.

Ona tili darslari jarayonida ana shu o‘rganilgan mavzular bo‘yicha ssenariylar yozdirish, ijodiy bayonlar tanlovlarini o‘tkazish kabi ijodiy ishlar o‘quvchilarning Vatanga, elga bo‘lgan mehr-muhabbatlarini yanada oshiradi, ular ongiga yuksak ijobiy fazilatlarni singdiradi.

Hukumatimizning ta’lim sohasida qabul qilgan qonunlar matni, Prezident farmonlari matni, milliy istiqlol mafkurasi bilan sug‘orilgan matnlar, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlari, tarixiy merosi, madaniyati sharhlangan matnlar til ta’limini fanlararo bog‘lashda katta ahamiyatga ega.

Integratsiyalashgan darslarning o‘ziga xos yana bir xususiyati shundaki, bu jarayonning o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilganligidir. An’anaviy darslardan farqli o‘laroq integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchini har jihatdan rivojlantirishga, tarbiyalashga, ijodkorlikka yo‘llaydi. Integratsiyalashgan darslarda o‘qituvchi ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida faoliyat olib borar ekan, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligidagi ta’lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasini berish imkoniyati kengayadi. Integratsiyalashgan darslar markazida umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan holdagi insoniylik singdirilgan o‘quv topshiriqlari, savollar turishiga e’tibor qaratiladi. Ular vositasidagi didaktik tahlil va umumlashtirish (analiz va sintez) o‘quvchilarni mustaqil izlanishga, fikrlashga, qaror qabul qilishga yo‘llaydi. Integratsion jarayon o‘quvchilar ijodiy tafakkurining tarkib topishiga imkon yaratadi. O‘quv jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalash asosidagi integratsiyalashgan o‘quv jarayoni o‘qituvchining o‘quvchi bilan ham-

korlik qilishiga imkon yaratadi. O‘quvchi shaxsining shakllanishi uni e’zozlash orqali o‘z-o‘zini rivojlantirishga qulay ijtimoiy va psixologik muhit yaratishga yordam beradi. O‘quvchi shaxsiga hurmat tufayli unda o‘z-o‘ziga ishonch hissi paydo bo‘ladi. Insonparvarlashtirish asosidagi integratsiyalashgan darslar o‘quvchini o‘z fikrini erkin bayon qilishga hamda mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatadi.

O‘qituvchining ijodkorligi shundaki, ular fan uchun ma’lum, ammo o‘quvchi bilmaydigan tomonlarni, avvalo, o‘zi loyihalaydi va o‘quvchilarini ham shunga undaydi. Modomiki, shunday ekan, o‘quvchilarda tafakkur o‘stirish uchun modul darslarini tashkil qilish orqali integratsiyani amalga oshirish samarali usul hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, insonparvarlik tarbiyasini berishda integratsion texnologiyadan foydalanish natijasida, o‘quvchi til, san’at, tarix, musiqa, adabiyot va boshqa integratsiya qilinayotgan fanlarning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. Bu jarayon o‘quvchilarni ijod qilishga o‘rgatish, izlanishga yo‘naltirish, tasavvur, fantaziyani hosil qilish, o‘qitishning zamonaviy usullari sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. /Rasmiy nashr/ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. –22-b.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –T.: O‘zbekiston nashriyoti. 2-qism. 2020. –216-b.

3. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlik turlari haqida //Uzluksiz ta’lim. –2005. №1. –14-b.

4. G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’lim mazmuni. –T.: O‘qituvchi, 1995. –38-b.

5. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –T.: O‘qituvchi, 1996. –151-b.

6. Yulbarsova X.A. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Ped.fan.bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss. – Arzamas, 2020.

7. Abdullayeva N. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish. Ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) diss.. – Namangan. 2020. –25-b.

8. Sobirova M. Til ta’limini insonparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2020. Maxsus son. –264-269-betlar.

Ulug‘bek FAYZULLAYEV,
Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi

KICHIK BIZNES – YOSHLARNI HAYOTGA TAYYORLASHNING MUHIM YO‘NALISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada keyingi yillarda mamlakatimizda biznes muhitini yaxshilash borasida amalga oshirilgan ishlar tahlil qilingan. Shu bilan birga yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlikka tayyorlash va o‘rgatish bilan bog‘liq fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Iqtisodiyot, kichik biznez, tadbirkorlik, o‘qitish, biznes muhiti, xususiy tadbirkorlik.

В статье анализируется проделанная за последние годы работа по улучшению бизнес среды в нашей стране. Также, рассматриваются мнения о подготовке и обучении молодёжи основам малого бизнеса и предпринемательства.

Ключевые слова. Экономика, малый бизнес, препринемательство, обучение, подготовка, бизнес среда, частное предпринемательство

This article analyzes the work done in recent years to improve the business environment in our country. Opinions on training and education of young people for small business were discussed at the same time.

Key words. Ekonomic, small business, business, education, business environment, preparation.

Mamlakatimizda keyingi yillarda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash tizimini takomillashtirish yuzasidan samarali ishlarni amalga oshirildi.

Avvvalo shuni aytish kerakai, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni yengillashtirish va rag‘batlantirish maqsadida sohaga oid bir qator tartiblar tanqidiy qayta ko‘rib chiqildi, eskirgan zamon talabiga javob bermaydigan byurakratik to‘siq va g‘ovlar bekor qilindi.

Davlatimiz rahbari, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qabul qilgan “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 20-noyabrdagi qarorida O‘zbekistonda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar bilan birga joylardagi ijrochilar sohada amalga oshirilayotgan izchil islohotlar mazmun-mohiyatidan to‘la xabardor emasligi o‘rinli ko‘rsatib o‘tildi.

Shu bilan birga manfaatdor vazirlik va idoralarga tadbirkorlik faoliyatini yanada jonlantirishga doir keng qamrovli tushuntirishlar olib borish topshirildi. Davlatimiz rahbari mamlakatda biznes muhitini yaratish bilan bog‘liq chora-tadbirlar haqida fikr yuritar ekanlar, ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchi-yoshlarni hayotga tayyorlash, ularda iqtisodiy va moliyaviy savodxonlikni oshirishga doimiy e’tibor beradilar.

Boisi, o‘quvchi-yoshlarni kichik biznesga va xususiy tadbirkorlikka o‘rgatish va tayyorlash, ularni hayotda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rin-

da kichik biznesga kirib kelayotgan yoshlarni, xususan, o‘quvchi-yoshlarning kichik biznes, xususiy tadbirkorlik haqidagi tushunchalariga ega bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, hayotdagi qonun hujjatlari va ijtimoiy–iqtisodiy yo‘nalishdagi adabiyotlarda ushbu tushunchaga 3 xil yondashuv mavjud.

– Birinchisi, yuridik adabiyotlar, me’yoriy hujjatlarda kichik biznes faoliyat turiga izoh berilar ekan, asosan ishlovchilar soni va aylanma pul mablag‘lari katta bo‘lmagan subyektlar nazarda tutiladi.

– Ikkinchidan, biznes nuqtayi nazaridan yondashuvlar ham mavjuddir. Bunga katta mablag‘ni va o‘ta yuqori malakali ishchilarni, shuningdek, yer va zarur asbob-uskunalarni katta hajmda talab qilmaydigan, bozor talablariga tez moslashadigan tezkor, mobil faoliyat turi tushuniladi.

– Uchinchidan, ijtimoiy–iqtisodiy yondashuv mavjud bo‘lib, bunda kichik biznesning qamrovi keng bo‘ladi. Shu boisdan davlat ham ko‘proq shu yondashuv asosida mamlakatda biznes muhitini yaratishga keng e’tibor beradi. Misol uchun bu borada, xonadonda oddiy tikuvchilik, pazandachilik yoki serviz xizmatlari tashkil qilish kabi faoliyat turlarini aytib o‘tishimiz mumkin.

Bu maktablarda o‘quvchilarda iqtisodiy bilim va moliyaviy savodxonlikni muntazam oshirib borishini taqozo qilsa, ikkinchidan, maktab, oila va mahalla hamkorligini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishini talab qiladi. Tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo‘l ochilishi o‘z samarasini bermoqda.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotida yangilanishning sifat bosqichiga yilma-yil erishib borayotgan bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi yildan yilga ortib bormoqda. Masalan, kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2002-yilda 24,5 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2019-yilda 56,5 tashkil qildi.

Bu degani ko‘plab yoshlarni yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlanmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan ishlab chiqarish korxonalari tashkil qilinmoqda, yangi xaridorgir iste’mol mahsulotlarini yetkazib berish imkoniyati yaratilmoqda. Mamlakat iqtisodiyot tarkibida bugunning o‘zidayoq kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni tobora sezilarli darajada oshib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Shvkat M. “Mamlakatda biznes muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror. Xalq so‘zi 2019-yil 20-noyabr.

2. Sharifxo‘jayev M., Rahimov F. Davrni belgilab bergan inson. –T.: Sharq nashriyoti, 2004-yil, 3-9-betlar.

3. Qodirov A. Iqtisodiyot nazariyasi, o‘quv-qo‘llanma. 2020-yil, –T., Akadem nashriyot.

4. Fayzullayev T. Mahallabay tizim samara bermoqda, “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 2021-yil, 24-fevral.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik nomli statistik to‘plami” –T., 2020-yil.

Umar BABAXODJAYEV,
Namangan davlat universiteti, ‘‘Fizika’’ kafedrasi dotsenti
Odina ISMANOVA,
Namangan davlat universiteti, ‘‘Fizika’’ kafedrasi dotsenti

AKADEMIK LITSEY VA IXTISOSLASHGAN MAKTABLARDA FIZIKA FANINI O‘QITISH SIFATINI OSHIRISH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada respublikamizdagi akademik litsey va ixtisoslashgan maktablarda fizika fanini o‘qitishdagi mavjud muammolar ko‘rsatib berilgan. Shu o‘rinda ushbu muammolarni bartaraf etish usullari taklif etilgan. Ya’ni akademik litsey, ihtisoslashgan maktablar uchun yangi avlod darsliklari, masalalar to‘plami va praktikumlar yaratilishi dolzarb muammo ekanligi ko‘rsatilgan. Masalan fizika fanidan chop etiladigan zamonaviy masalalar to‘plami o‘quvchini ijodiy fikrlashga va berilayotgan ma’lumotlarni texnika va atrof-muhitda bo‘layotgan jarayonlar bilan bog‘lashga o‘rgatishi kerakligi va qator boshqa talablar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Amaliy mashg‘ulot, fizik kattalik, ixtisoslashtirilgan maktab, akademik litsey, ijodiy fikrlash, intellektual salohiyat, energiya, darslik, o‘quv-qo‘llanma.

В статье показаны существующие проблемы преподавания физики в академических лицеях и специализированных школах страны. Вот несколько советов о том, как устранять эти проблемы. То есть показаны актуальные проблемы – создание учебников нового поколения, сборник задач и практикумом для академических лицеев и специализированных школ. Например, сборник современных задач, опубликованных по физике, должен научить студента мыслить творчески и соотносить данную информацию с процессами, происходящими в технологии и окружающей среде, а также другие требования.

Ключевые слова. Практические занятия, физическая величина, специализированная школа, академический лицей, творческое мышление, интеллектуальный потенциал, энергия, учебное пособие.

The article shows the existing problems of teaching physics in academic lyceums and specialized schools of the country. Here are some tips on how to troubleshoot these issues. That is, topical problems are shown – the creation of new generation textbooks, a collection of tasks and a workshop for academic lyceums and specialized schools. For example, a collection of modern problems published in physics should teach the student to think creatively and relate this information to the processes taking place in technology and the environment, as well as other requirements.

Key words. Practical classes, physical size, specialized school, academic lyceum, creative thinking, intellectual potential, energy, textbook.

Hozirgi kunda respublikamiz o‘quvchi yoshlarini har tomonlama intellektual qobiliyati rivojlangan, jahon bozorida raqobatbardosh mutaxassislar qilib tayyorlash shiddat bilan rivojlanayotgan davrni asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunday vazifani hal qilish uchun respublikamiz prezidenti tomonidan so‘nggi oylarda bir nechta farmon va qarorlar qabul qilindi. Ushbu farmon va qarorlarda yosh avlodning

ilm-fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, intellektual va ijodiy salohiyatini yanada kuchaytirish uchun aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishni takomillashtirish va yangi avlod darsliklarini yaratish ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatilgan. Farmon va qarorlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda 2020-yil matematika, kimyo va biologiya sohalarida islohotlar amalga oshirilgan va rejalar belgilab olingan edi. Bu yil esa Prezidentimiz tomonidan “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5032 (19.03.2021-yil) qaror qabul qilindi. Prezident qarorida o‘rta maktablardagi fizika ta’limiga katta e’tibor qaratilib, quyidagilar ta’kidlangan:

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy qilish, darsliklar va o‘quv-qo‘llanmalarni takomillashtirish, fizika fani o‘qituvchilarni, xususan, qishloq joylardagi maktablarni o‘qituvchilarini qayta tayyorlash malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash hamda ularning mahalliy va xalqaro fan olimpiadalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi hamda sovrinli o‘rinlar egallashini ta’minlash, oliy ta’lim muassasalarida fizika fanlarini o‘qitishning integrativ prinsiplarini joriy etish, yangi va ta’lim bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish orqali yoshlarning fizika ta’limi bilan qamrab olish darajasini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, sohada yechimini topmagan qator masalalar fizika sohasidagi ta’lim sifati va ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Bulardan tashqari, qarorda fizika ta’limi sohasida yillar davomida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan.

Jumladan, “Yoshlarni fizika faniga qiziqishlarini kuchaytirishga yetarli e’tibor berilmayapti, ta’lim dasturlari o‘quvchilarda mustaqil, kreativ fikrlashni shakllantirishga va rivojlantirishga, fizika fani bo‘yicha zamonaviy darsliklarni yaratish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan, masalalar to‘plami, praktikum, laboratoriya ishlarini bajarish bo‘yicha qo‘llanmalar yaratishga e’tibor qaratilmagan’’.

Yuqoridagi kamchilaklarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks dasturda umumta’lim muassasalarida fizika fanini o‘qitish sifatini oshirish, darsliklar va o‘quv-qo‘llanmalarini takomillashtirish vazifasi qo‘yilgan.

Demak, yaratiladigan yangi avlod darsliklari, masalalar to‘plami va praktikumlar o‘quvchini ijodiy fikrlashga va ushbu ma’lumotlarni texnika va atrof-muhitda bo‘layotgan jarayonlar bilan bog‘lashga o‘rgatishi kerak. Bunday darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda ta'lim va texnika rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish lozim bo‘ladi. Rivojlangan mamlakatlarda fizika ta’limi va ulardagi o‘quv-qo‘llanmalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amerika, Yaponiya va Koreya kabi davlatlarda fizikadan o‘tiladigan nazariy mavzular va ularda berilishi kerak bo‘ladigan ma’lumotlar Respublikamiz maktablarida foydalanilayotgan darsliklardagi mavzu va ma’lumotlardan deyarli farq qilmaydi. Asosiy farq mavzularni mustahkamlash uchun bajarilishi kerak bo‘lgan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishdagi maqsadni turlichaligidadir.

Respublikamizda fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda ishlanadigan masalalarda deyarli bitta hal qilinishi kerak bo‘lgan muammo yoki topilishi kerak bo‘lgan fizik kattalik talab qilinadi.

Bajariladigan laboratoriya mashg‘ulotlarida esa aniqlanishi kerak bo‘lgan fizik kattalik uchun qaysi fizik kattaliklar uchun qaysi fizik kattaliklarni o‘lchab so‘ngra berilgan ishchi formuladan foydalanib topish ko‘rsatilgan.

Mashg‘ulotlarga bu kabi yondashuv o‘z oldiga aniq fanlar bo‘yicha mutaxassis bo‘lishni maqsad qilib qo‘ygan ixtisoslashgan maktab va akademik litsey o‘quvchilarini

ijodiy fikrlashlarini va intellektual salohiyatlarini rivojlantirishga olib kelmaydi.

Akademik litsey, ixtisoslashgan maktablar va o‘quv markazlarida mashg‘ulotlarni bu kabi tashkil etilishiga quyidagilar sabab bo‘lgan deb hisoblaymiz.

1. Amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan “Masalalar to‘plam”larini bir necha yillardan beri o‘zgarmaganligi.

2. Bitiruvchilar Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilinishida test sinovlarida faqat bir xil tipdagi masala ishlaganligi.

3. Oliy ta’lim muassasalari fizika yo‘nalishidagi bakalavrlar tayyorlashdagi fizika o‘qitish metodikasiga e’tiborni kamayganligi.

4. Quyi sinflarda, ya’ni 6-8 sinflarda fizikada mavjud darsliklarning jozibadorligini pastligi, o‘quvchilar bilimini mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar kitobini yo‘qligi, dars mashg‘ulotlaridagi qiziqarli namoyishlarni kamligi.

Yuqorida aytilgan muammolarni hal etish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak.

Birinchi muammoni hal qilish uchun amaliy mashg‘ulotlarda foydalanadigan masalalar to‘plamini xorij tajribasiga ijodiy yondashgan holda har bir sinf uchun alohidadan ikkita tip (Level A va Level V) masalalar to‘plami tayyorlash kerak. Ya'ni bunda qiyinlik darajasiga ko‘ra, masalalar to‘plamini shakllantirish lozim. Chunki 6-8 sinf Fizika fani darsliklaridagi ko‘rilgan masalalar, 9-11 sinflarda foydalaniladigan A.P.Rimkevichni ‘‘Fizikadan masalalar to‘plami’’ yoki turli avtorlar tomonidan sistemalashtirib, nashr qilingan testlar to‘plamlari Sobiq Ittifoqda 70-80-yillarda foydalanilgan masalalar tuzish metodikasiga asosan tuzilgan masalalardan iborat.

Masalalar to‘plamini tuzishga bunday yondashuvni hozirgi zamon talabiga javob bermasligini Koreya Respublikasi ixtisoslashgan maktablarida ko‘p yillar faoliyat olib borgan Navosibirsk davlat universiteti qoshidagi litsey-internat o‘qituvchisi Y.L.Bashkatov ham ta’kidlab o‘tgan. U o‘z maqolasida hozirgi zamondagi har ikki mamlakatdagi fizika ta’limini tahlil qilib shunday xulosaga kelgan: ‘‘Rossiya, AQSh va Koreya Respublikasidagi ixtisoslashgan maktablardagi fizika programmasidagi va foydalaniladigan materiallar deyarli farq qilmaydi. Bu materiallarni bayon qilish va o‘quvchilarga yetkazish asosan o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq. Ammo asosan o‘rta bo‘g‘in uchun, ya’ni 5-9 sinflar uchun amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan materiallarda biz ancha orqada qolganmiz.

Bundan tashqari, uning e’tirof etishiga ko‘ra, 6-9 sinflarda o‘quvchilarda fizik dunyoqarashni shakllantirilishi kerak. Buning uchun o‘quvchilarga taklif etiladigan masalalar har bir fizik jarayonni atroflicha qamrab olishi va atrof-muhit bilan bog‘lanishi kerak.

Maqsadimiz fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish ekan buning uchun albatta O‘zbekistonda ham 5-6-7 sinflarga imkon darajasida Workbook (ish kitobi) ishlab chiqarish kerak.

O‘quvchilarga taqdim qilinadigan masalalar tuzishga bunday yondashuv Respublikamizda yangi ochilgan Prezident maktablarida foydalanilayotgan o‘quv-qo‘llanmalarida yangi Workbookda ham o‘z aksini topgan. Ushbu qo‘llanmalarda bosimga oid taqdim qilingan masalalarga e’tibor beraylik.

Masalan, quyi sinflarda taqdim qilingan masalalar asosan mulohaza yuritish orqali bir necha punktlar bo‘yicha hal qilinsa, yuqori sinflardagi masalalarda esa bir nechta fizik kattalikni aniqlash va ularni qiyoslash orqali mulohaza yuritishni rivojlantirish maqsad qilib qo‘yilgan.

Yuqoridagi turdagi masalalardan birini tahlil qilsak.

Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tanlash orqali quyidagi gaplarni to‘ldiring!

Bosim. Hajm. Chuqurlik. Yuza. Zarralar. Siqiladigan. Ko‘payish. Kamayish. Bir bo‘lib qolish. Siqilmaydigan.

Suyuqlikdagi bosim uning….. orqali suyuqlik …..itarishi tufayli yuzaga keladi.


Siz suyuqlikda chuqurroqga sho‘ng‘isangiz uning sizga ko‘rsatadigan bosimi…. suyuqlik….

Gaz suyuqlikka o‘xshamaydi, u alohida ..... iborat.

Gaz bosimi .... bog‘liq, ... ga bog‘liq emas.

Gaz … ortsa, uning…. ortadi.

Rasmga qarang va topshiriqlarni bajaring.



a) bosim qaysi nuqtada eng yuqori bo‘lishini yozing (A, B, C, yoki D)

_____

b) B nuqtaga kichik yog‘och bo‘lagi tushirilsa, nimalar o‘zgarishini tushuntiring ____

_____

_____

c) Yog‘och bo‘lagini tushirsangiz V nuqta holati qanday o‘zgarishini izohlang!

d) Suyuqlik qaysi nuqtalarga bosim ko‘rsatmasligini tushuntiring.

Demak, masalalarga yangicha yondashuvni amalga oshirishimiz uchun ixtisoslashgan maktab va akademik litseylarimizda foydalanilayotgan fizika darsliklarida va masalalar to‘plamlarini qayta ko‘rib chiqish kerak. Ya’ni darslarda masala shartlarini emas balki topilishi kerak bo‘lgan fizik kattaliklar bir nechtaligi va foydalaniladigan ifodalarga izoh berish talabini qo‘yish kerak. Agarda fizikadan amaliy mashg‘ulotlarda yuqoridagi kabi masalalardan foydalanilsa va davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli bitiruvchilar oliy ta’lim muassasalariga kirish test sinovlaridagi masalalarni bir xillik muammosi ham o‘z yechimini topadi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi fizika yo‘nalishidagi bakalavrlar tayyorlashda fizika o‘qitish metodikasiga e’tiborni kamayganligi muammosini hal qilishda esa o‘quv rejadagi ko‘rsatilgan tanlov fanlariga talabalarini qiziqishlarini e’tiborga olib 3-4- kurs talabalaridan guruh ajratib, ularga “Fizika o‘qitish metodikasi” kursidan qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil qilish. Bu mashg‘ulotlarda asosan yaratilgan yoki yaratiladigan yangi avlod darsliklari asosida ta’limga yangi yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirish lozim. Buning uchun yangi namunaviy o‘quv dastur va majmua tayyorlash kerak.

Ixtisoslashgan maktab va akademik litseyni quyi sinflarida fizika fanining ta’lim sifati jozibadorligini orttirish uchun esa yaratiladigan o‘quv-qo‘llanma va darsliklarda qiziqarli va hayotiy rasmlardan ko‘proq foydalanish lozim. Bundan tashqari, qo‘shimcha elektron darslik yoki qo‘llanma yaratib, unda asosan animatsiyaga ko‘proq e’tiborni qaratish kerak deb taklif bildiramiz.

Misol sifatida Cambridge Lover Secondary Science STAGE 7: STUDENTS BOOK 6-sinf darsligida “Energiya” mavzusini o‘quvchilarni yoshi va salohiyatlariga mos holatda atroflicha, hayotiy misollar bilan tushuntirilganligini tahlil qilinib ishonch hosil

qilishimiz mumkin.

Mavzu: Energiya

Hammasi harakat va holat haqida

Avvalo, o‘quvchilar bilan harakat va holat haqida suhbat olib boriladi va ularga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi: Har kunlik hayotda atrofimizda sodir bo‘layotgan hodisalar haqida siz nima deya olasiz? Maktabga siz qanday borasiz? Siz o‘rningizda qanday tik turasiz? Ovqatlanish uchun taomni nima yordamida pishirasiz? Kechki paytda uy vazifalarini bajarishda xonangizni qanday yoritasiz? Yuqoridagi barcha hodisalar nima tufayli sodir bo‘ladi?

Bu hodisalarning barchasi kimnidir yoki nimadir harakati tufayli sodir bo‘ladi. Barcha harakatlarni energiya orqali o‘lchanadi.

Siz o‘z energiyangiz yordamida juda ko‘p narsalarni olishingiz mumkin. Agarda energiya haqida chuqurroq bilimga ega bo‘lsangiz turli energiya manbalaridan foydalanishni o‘rganasiz.

Siz energiya haqida quyidagilarni o‘rganasiz

Energiyaning har xil turlarini.

Energiyani bir jismdan ikkinchi jismga o‘tishini.

Energiyani umuman yo‘q bo‘lib ketmasligini.

Energiyaning eng yaxshi saqlash yoki undan samarali foydalanishni.

Siz qobiliyatlisiz va uni yanada rivojlantirasiz

– Atrof-muhitni e’tibor berib kuzatish va natijalarni ko‘rsatishda

– Axborot topishda va sinchkovlikda

– O‘rgangan bilimlaringizni kundalik hayotda qo‘llashda

– Voqea yoki hodisani baholash va bashorat qilishda

Energiyadan foydalanish

O‘rganish natijalaridan kelib chiqib

– energiyani turlarga ajratish

– energiyani bir jismdan boshqasiga o‘tishini tasvirlash

– jonli tabiatni va texnikalarni faoliyatini ta’minlovchi energiya manbalarini bilish lozim

O‘quvchilar bilishlari kerak

–Tevarak atrofda sodir bo‘layotgan barcha hodisalarga energiya sababchi ekanligini

– Jismlar issiqroq bo‘lganda energiya zarralar yordamida sovuqroq tomonga uzatilishini

O‘quvchiga topshiriq beriladi

– hodisani sinchkovlik bilan kuzatishni

– kuzatuvlar natijalarini jadval shaklida taqdim etish

Faollashtirish 1

Energiya haqida nima bilasiz?

– Energiya nima?

– Energiya nima qiladi?

– Energiya qayerdan keladi?

– Energiya qanday qilib uzoq vaqt saqlanadi?

– Siz energiyani qanday turlarini bilasiz?

– Vayrongarchilik keltiruvchi energiya turlari ham bormi?

– Qanday holda foydali energiya zarar keltiradi?

Javoblaringizni hamma ko‘rishi uchun doskaga yoki qog‘ozga yozing!

Faollashtirish 2

Energiyadan foydalanadigan qurilmalar

Biror-bir faoliyatni amalga oshiradigan bir nechta qurilmani sinab ko‘ring!

Masalan: Yorug‘lik yoki ovoz chiqaradigan harakatlanadigan har bir qurilmada energiyani qanday turi ishtirok etadi va bir biriga aylanadi.

Kuzatuvlaringizni yozib oling.

Ushbu mavzu 6-sinflarda o‘quvchilarni o‘zlashtirishiga qarab 6-8 soatga mo‘ljallangan. Mavzuni yoritish jarayonida energiya tushunchasiga uzun ta’rif berilmay, asosan, tevarak-atrofdagi va o‘zimiz bilan sodir bo‘layotgan jarayonlar energiya tushunchasiga bog‘langan. Har bir bo‘limda o‘quvchilar bajarishi kerak bo‘lgan vazifalar sanab o‘tilgan va bu bo‘limlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq.

Respublikamizda talim sohasini isloh qilishda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va erishilgan yutuqlarni atroflicha tahlil qilish kerak.

Fizikadan yangi avlod darsliklari va masalalar to‘plami (Workbook) yaratishda xorij tajribasi va ulardan kelajakda qanday o‘zgarishlar rejalashtirishyotgani o‘rganib chiqilishi kerak.

Quyi sinflar uchun fizika darsliklari yaratishda foydalaniladigan fotosuratlar kundalik hayotimizni aks ettirib berishi kerak. Chunki bunda o‘quvchilarni tasavvur qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-5032-son. 19.03.2021-y.

2. Башкатов Ю.Л., Баткин В.И., Лежнин С.И., Савченко О.Я., Физика в задачах, 2013. Новосибирск. 2013 г. С.676.

3. Sadriddinov N., Raximov A., Mamadaliyev A., Jamalova Z. “Fizika o‘qitish uslubi asoslari” –T. O‘zbekiston. 2006. 150-b.

4. Анцулевич В.И., Дорофейчик В.В., Жилко В.В., Маркович Л.Г., Пенязь В.А. 9-11 классы. Пособие для учителей. 2-е изд. — Мн.: Аверсэв, 2012. С.287.

5. Белолипецкий С.Н. – Олимпиадные задачи по физике для учащихся десятых классов – 2013. С.48.

6. Babaxodjayev U.S., Ismanova O.T., Soyipov J.J. “Fizik kattaliklarni chegaraviy qiymatlarini baholash orqali o‘quvchilarda fizik jarayonlarni chuqur tahlil qilishni shakllantirish”. NamDU, Ilmiy axborotnoma. 45-49-betlar.

Mehribon RAXIMOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning diagnostik usullari yoritib berilgan. Muallif ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir o‘yin-mashqlarni qo‘llashga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqan.

Kalit so‘zlar. Ko‘nikma, ijtimoiy ko‘nikma, xulq-atvor, rivojlantirish, usul, metodika, o‘yin, mashq.

В статье описаны методы диагностики развития социальных навыков у младших школьников. Автором разработаны методические рекомендации по использованию игр для развития социальных навыков.

Ключевые слова. Умение, социальный навык, поведение, развитие, метод, техника, игра, упражнение.

The article describes methods for diagnosing the development of social skills in primary school children. The author has developed methodological recommendations for the use of games for the development of social skills.

Key words. Skill, social skill, behavior, development, method, technique, game, exercise.

Ma’lumki, ijtimoiy ko‘nikma va malakalar – bu ijtimoiy xulq-atvorning o‘zlashtirilgan elementlari bo‘lib, ular ijtimoiy olam, o‘zi va bu yorug‘ dunyodagi o‘rni haqidagi bilimlarga, ijtimoiy o‘zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda o‘rnatishga, o‘z o‘rnini belgilab olishga va o‘zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman ijtimoiylashishga yordam beradi.

Empirik tadqiqotlar natijalari xulq-atvorning asosi bo‘lgan axloqiy-huquqiy sohada boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining bilim va tasavvurlari yetarlicha rivojlanmaganligini ko‘rsatadi. Maktab o‘quvchilari tasavvurlarida saxiylik, xayrixohlik, adolatlilik va mas’uliyatlilik kabi sifatlarni tavsiflashda ba’zi noaniqliklar, xatolar qayd etiladi. Aksariyat bolalar axloqiy tushunchalarni muayyan harakatlar yoki qarama-qarshi xususiyatlar orqali belgilaydi: “mehribon – bu ochko‘z emas”, “mehribon – bu yaxshi odam”, “xushmuomalalik – demak, u hamma bilan salomlashadi”, mas’uliyatli – bu kattalarga quloq soladigan”, “xayrixoh – bu boshqalarga sovg‘a beradigan, boshqalar bilan baham ko‘radigan” va h.k.

“Muammoli maydonni” ko‘rish va bolalarning xulq-atvori qoidalari va o‘zaro hamkorlik qilish usullari, xatti-harakatlarni (o‘zlarini va boshqalarni ham) baholash qobiliyatini aniqlash uchun “Tugallanmagan gaplar”, “Men do‘stman”, “Mening do‘stim” kabi diagnostika usullaridan foydalanish mumkin.

“Tugallanmagan gaplar” metodikasining maqsadi – bolaning atrofdagilarga, o‘ziga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, nizoli vaziyatda maqbul harakatni tanlashdan borat. Ushbu metodika proyektiv metodikaning additiv guruhiga kiradi. Bolaga bir nechta so‘zlardan tashkil topgan bir qator tugallanmagan gaplar taklif etiladi, shunda u ularni

o‘z xohishiga ko‘ra, to‘ldirishi mumkin. Gaplar o‘quvchini o‘rganilayotgan hodisalarga javob berishga undaydigan tarzda tuziladi.

Boladan gaplarni miyaga kelgan birinchi fikr bilan yakunlashni so‘rashadi: 1. O‘ylaymanki, men ko‘pincha... 2. Men do‘stlashgan bolalar... 3. Meni xafa qilishganda, men ... 4. Men birga o‘ynaydigan bolalar... 5. Agar odamni hech maqtashmasa ... 6. Agar meni aldashsa ... 7. Men istayman … 8. Agar mendan biron nima so‘rashsa ... 9. Har bir inson ... 10. Kasal bo‘lganimda, sinfdoshlarim ... 11. Agar biror kishi nohaq bo‘lsa, unda men ... 12. Men bilan o‘qiydigan bolalar ...

Olingan ma’lumotlarni ham sifat, ham miqdor jihatdan qayta ishlanadi. Jadvalning ma’lum bir munosabat turiga mos keladigan har bir ustunida reaksiyalar turlari qayd etiladi: “n” – neytral, “s” – salbiy, “i” – ijobiy. Anketa natijalarini ko‘rib chiqish va keyinchalik bolalar bilan o‘rtaga tashlangan savollarni muhokama qilish ularning muhokama qilingan masalalarga munosabati va xulq-atvor me’yorlari haqidagi tasavvurlarini ma’lum darajada tuzatishga yordam beradi.

“Men – do‘stman”, “Mening do‘stim” mavzularidagi esselarning maqsadi – ma’lumotlarning kontent-tahlilidir. Bu o‘quvchilarning keltirilgan ijtimoiy rollar haqidagi tasavvurlarini aniqlashga, ushbu ijtimoiy rolni bajaruvchiga nisbatan talablarni anglashga qaratilgan. Shuningdek, tahlil bolalar tomonidan ajratib ko‘rsatiladigan munosabatlarning axloqiy-psixologik jihatini tavsiflovchi belgi va sifatlar qanchaligini aniqlashga imkon beradi.

O‘quvchilarga quyidagi ko‘rsatma taklif etiladi: “Har bir inson hayotda ba’zi rollarni (o‘g‘il, qiz, o‘quvchi, xaridor, qo‘shni va h.k.) “bajaradi”, undan ba’zi bir harakatlarni amalga oshirish, muayyan sifatlarni namoyon etishni talab qiladi. “Do‘sting”ning roli haqida aytib ber: bu rolni qanday bajarasan, bu sen uchun nimani anglatadi, bu rolda yaxshiroq bo‘lishni xohlaysanmi; o‘z do‘stingdan nimani kutayapsan – nima kutmayapsan”.

Natijalarni qayta ishlashda nomlangan ijobiy sifatlarning soni qayd etiladi (har bir sifat uchun 1 ball). Do‘stingizga nisbatan yuqoridagi harakatlarda biz iste’molchilik munosabatiga e’tibor qaratiladimi-yo‘qmi? shuni ta’kidlaymiz. Bundan tashqari, yaxshiroq bo‘lishga, yaxshilanishga intilish va o‘z do‘stining umumiy ijobiy bahosi hisobga olinadi (ushbu toifalar borligi uchun 1 ball qo‘shiladi).

O‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish samaradorligiga bilim olish va axloqiy suhbatlar ta’sir qiladi. Axloqiy suhbatlarning maqsadi – bolalar tomonidan axloqiy bilimlarni to‘plash, mavjud tushunchalar asosida axloqiy tushunchalarni shakllantirishdir. Axloqiy suhbatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga inson munosabatlarining barcha xilma-xilligini, barcha murakkabligini anglashga yordam beradi. Bunday suhbatlar jarayonida o‘quvchilar tomonidan olingan nazariy bilimlar ularning real hayotdagi amaliy harakatlari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Suhbatlarni tashkil qilishda, bolalarning mohiyati yetarli darajada anglanmasada, vaziyat haqidagi o‘z tasavvurlari, o‘zlarining fikr va mulohazalarini boshqalar bilan baham ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan muammoli masalalarga urg‘u berish lozim. Ushbu metod yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining hayotiy dunyoqarashlari sezilarli darajada kengayadi va bu yo‘lda ruhiy jarayonlar (mantiqiy fikrlash, ijodiy tasavvur, diqqat, xotira, nutq qobiliyatlari va boshqalar) rivojlanadi.

Mashg‘ulotlarni o‘tkazishda bolalarning o‘zlari o‘z hayotlaridan (ijobiy va salbiy) munozara mavzusini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi misollarni tanlab olishlari qo‘llab-quvvatlanadi. O‘quvchilarni qanday bilim va usullarni o‘rganish kerakligiga yo‘naltirish, amaliy, shaxsiy, ijtimoiy ahamiyatni ajratib ko‘rsatish muhim bo‘lib, bu ichki motivlarning tashqaridan ustunroq kelishiga yordam beradi. Muhokama davomida qo‘llaniladigan quyidagi samarali usullar sinfdagi barcha o‘quvchilarni faollashtirishda ko‘mak beradi: “Charx-

palak”, bu yerda ishtirokchilar o‘z fikrlarini doira bo‘ylab bildiradilar, “Mikrofon” – o‘quvchilar navbati bilan mikrofonni olib, o‘z tanlovlarini asoslab bergan holda ehtimoliy variantni tanlaydilar yoki masalan, o‘qituvchi tomonidan taklif etilgan fikrni tugatadilar.

Bizning fikrimizcha, konstruktiv harakat usullarini o‘rganish boshqalar bilan samarali hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining atigi 25 foizi o‘z qiziqishlari va qarindosh, do‘stlarining qiziqishlari haqida batafsil aytib berishlari, hayot tajribasining ijobiy va salbiy tomonlarini qayd etishlari, o‘zlari uchun muhim bo‘lgan narsalarni belgilab olishlari mumkin. Ko‘pgina bolalarda ego-dominant reaksiya turi uchraydi, bunda bola aybni boshqasiga tanbeh yoki muloqotdagi sherigini ochiq haqorat bilan ayblash tendensiyasi kuzatiladi, bu esa, albatta, nizoli vaziyatni hal qilishga yordam bermaydi. O‘quvchilarning katta qismi emotsional qadriyatlar va me’yorlar haqida asosiy ma’lumotlarga ega, ammo ularga nisbatan emotsional munosabat hali yetarli darajada shakllanmagan. Shuni taxmin qilish mumkinki, bu bolalar turli sabablargi ko‘ra standartlarga nisbatan emotsional munosabatlarga ega emaslar va balkim qadriyatlarning ichki rad etilishi, rasmiy, o‘zini chetga olish kabi munosabatlarda bo‘lishlari mumkin.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashga asoslangan xulq-atvori va muloqotdagi kompetentliligini o‘rganish uchun ularni “Men o‘zimni qanday tutaman?” so‘rovnomasini to‘ldirishni taklif qilish foydalidir. Unda o‘quvchi har bir gapning ro‘parasida o‘ziga mos keladigan javob variantini belgilashi kerak. Aslida sen qanday yo‘l tutishingni iloji boricha samimiyroq javob berish uchun ko‘rsatma beriladi. So‘rovnoma natijalarini tahlil qilish o‘qituvchiga bolaning xulq-atvorining o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishga va uni keyinchalik tuzatishga imkon beradi.

Atrof-muhit bilan konstruktiv o‘zaro munosabatlarni o‘zlashtirish, o‘z taxminlarini aniqlash va ularni verbal shaklga o‘tkazish qobiliyatini rivojlantirish uchun ham diagnostik, ham shakllantiruvchi funksiyaga ega mashqlar samarali bo‘ladi.

“Pochtachi” mashqi kattalar va tengdoshlarga munosabatni ta’riflash, bola uchun muhim odamlarni, kitoblardagi personajlarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. 14 ta xat-kartochka (9 ta ijobiy va 5 ta salbiy mazmundagi) nomasi bilan havola etilib, unda odamlar ijobiy va salbiy baholanadilar (masalan, “Siz eng mehribonsiz”, “Men sizdan xafaman”, “Meni yaxshi ko‘rishmaydi”, “Menga yordam berishlarini xohlayman”, “Yordam berishga tayyorman”). Bola ushbu kartalarni “pochta qutilariga” o‘z xohishiga ko‘ra tarqatadi: masalan, do‘stiga, ota-onasiga, o‘qituvchisiga, hyech kimga, sehrgarga.

“Fanta” mashqi o‘quvchilarning ma’lum ijtimoiy harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini aniqlash va shakllantirishga qaratilgan. Bolalar fanta vazifalarini bitta-bitta olib chiqib, ularni o‘ynalayotgan vaziyatda (masalan, tengdoshlaridan o‘yinda ishtirok etishlarini so‘rab murojaat qilish; do‘stini boshqalarni haqorat qilmaslik kerakligiga ishontirish) bajarishlari taklif etiladi.

O‘quvchilarning insonning emotsional holatini sxematik tasvirlar va syujetli rasmlar orqali idrok etish va to‘g‘ri talqin qilish qobiliyatini ko‘ra bilishi juda muhimdir. Shuning uchun “Emotsional holatni aniqlash” mashqi foydali bo‘lishi mumkin. Bolaga taklif etilayotgan kartochkalarni ko‘rib chiqib, tasvirlangan insonning emotsional holatini aytib berish tavsiya etiladi.

O‘quvchilar xatti-harakatlar modelini erkin va ongli ravishda tanlashi va adekvat qaror qilishlari muhimdir. Ushbu komponentning ijtimoiy ko‘nikmalar va umuman shaxsni rivojlantirishdagi ahamiyatini inobatga olmaslikning iloji yo‘q. Muhim taxminiy asos hisoblanmish bolaning muayyan bilimlariga tayanib ongli ravishda adekvat qaror

qabul qilishga qodirligi va tayyorligi uning mezoni bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlari va boshqalarni qadriyat sifatida anglab yetishlari, harakatlar motivlarini tushunishlari va mavjud ma’lumotlarga tayanib xulq-atvorning oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish va prognoz qila olish uchun, ham o‘zlarining ham boshqalarning faoliyatini adekvat baholashga harakat qilishlari kerak. Oldingi bosqichda olingan axloqiy me’yorlar va o‘zaro hamkorlik usullari haqida ma’lum bilimlar ushbu vaziyatda taxminiy asos bo‘ladi.

Refleksiya – bu o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan vositalardan biridir. Refleksiya – bu nafaqat o‘z-o‘zini o‘zgartirishga, balki uning bilim chegaralarini (bilimsizligini) aniqlay olish va ma’lum va mashhur chegaralarini kengaytirish shartlarini mustaqil ravishda topishga qaratilgan insonning o‘z faoliyatiga munosabatini shakllantirishning universal usulidir.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab bolalar do‘stlarini va o‘zlarini do‘st sifatida tasvirlayotganda, ta’lim xususiyatlariga urg‘u berishgan, ya’ni ijtimoiy rollarni va shunga mos ravishda kutilgan ijtimoiy natijalarni aralashtirib yuborishadi. Ba’zilari kishilarni ta’riflash yoki tanlashda qiynalishadi. O‘quvchilarning ma’lum bir qismi umuman do‘sti yo‘qligini yozishgan. O‘zlari haqida gapirganda, bolalar do‘stlarini ta’riflagandan ko‘ra kamroq ijobiy sifatlarni ajratib ko‘rsatishgan, garchi bolalarning taxminan 78 foiz do‘st sifatida o‘zlari haqida ijobiy fikr bildirishgan (“Men yaxshi do‘stman”, “Men aqli raso dugonaman”). O‘zini do‘st sifatida ta’riflaganda, ular axloqiy-psixologik sifatlardan ko‘ra ko‘proq harakatlar haqida gapirishgan. Bu mazkur yosh davridagi yetarlicha rivojlanmagan refleksiya yoki qandaydir o‘zini tutish, o‘z-o‘ziga baho berishga bo‘lgan ishonchni ko‘rsatishi mumkin. Adekvat o‘z-o‘ziga baho berishning shakllanmaganligi shaxsning rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin, chunki bu “tajriba uchun yopiqlik”, o‘z xatolariga, atrofdagilarning mulohaza va baholariga befarqlik bilan bog‘liq vaziyatni keltirib chiqarishi mumkin. Ba’zi o‘quvchilarda o‘zlarini baholash qobiliyatining past darajasi, kattalar bahosini o‘z-o‘ziga baho berishdan afzal ko‘rishi kuzatiladi.

Bolalar tomonidan ma’lum bir harakatni baholash, shuningdek, o‘ziga xos ijtimoiy roldagi xarakter xususiyatlari va o‘z-o‘ziga baho berish darajasini tashxislash uchun Dembo – Rubinshteynning mashhur “Shaxsning o‘z-o‘ziga baho berishi” metodikasi yoki o‘quvchilar tomonidan ular ega bo‘lgan yoki bo‘lishni xohlaydigan axloqiy fazilatlariga o‘zlarining baho berish darajasini aniqlashga qaratilgan “Sifatlar do‘koni” mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bolalar o‘zlarida mavjud bo‘lgan fazilatlarni belgilashlari va ular ega bo‘lishni istagan fazilatlarni tanlashlari tavsiya etiladi. Jadvalning birinchi ustunida mehribonlik, adolatparvarlik, qiziquvchanlik, do‘stlik, sadoqat, muhabbat, jasorat, halollik, kamtarlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, rahmdillik, mas’uliyatlilik, hozirjavoblik, maqsadga intiluvchanlik, saxiylik, tarbiyalilik, xushmuomalalilik, jonkuyarlik, optimizm, tashabbuskorlik kabi sifatlar sanab o‘tiladi. Ikkinchi ustunda o‘quvchi qaysi fazilatlarga ega ekanligini va ularni baham ko‘rishi mumkinligini, uchinchisida esa qanday fazilatlarga ega emasligini, ammo ega bo‘lishni xohlashini belgilab o‘tadi.

Psixologiyada mas’uliyatning ikki turi ko‘rib chiqilib, ularning xususiyatlari lokus nazorat deb atalgan nazariyaga asoslanadi. Bolalar nafaqat ijtimoiy me’yorlar haqida ma’lum bir bilimga ega bo‘lishlari, balki, avvalambor, emotsional kechinmalar bilan birga olib boriladigan faoliyatning ahamiyati va zaruriyatini anglab yetishlari muhimdir. Shaxsiy mas’uliyatlikni maqsadga muvofiq shakllantirish ijtimoiy infantalizmni yengib o‘tishni, demak o‘quvchilarda muhim ko‘nikma va malakalarni hosil qilishni o‘z ichiga oladi: qarorlar qabul qilish va ularning oqibatlarini baholash, ongli ravishda tanlovni

amalga oshirish va o‘z imkoniyatlarini chamalash, o‘zini namoyon qilishga bo‘lgan ehtiyojni ijtimoiy maqbul usullar bilan qanoatlantirish kabilar.

Ratsional va emotsional jihatlarning o‘zaro hamkorligi bilan baholash amalga oshirilib, uning yordamida ba’zi qarorlar qabul qilinadi, boshqalari esa rad etiladi. Baholash masalalarida to‘g‘ri harakat qilish uchun maktab o‘quvchilari muayyan baholash mezonlariga ega bo‘lishlari zarur. Mazmunni o‘zlashtirish orqali o‘quvchi nafaqat bilib olish uchun muhim vaziyatlarni, balki o‘z-o‘zini, o‘z munosabatini ham baholaydi.

Xulq-atvorni baholash uchun “Qadriyatli yo‘nalganlik ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalarining ko‘rsatkichi sifatida” metodikasidan foydalanish mumkin. Uning maqsadi bilish, shaxsiyat (uning ikki ko‘rinishida – “Men – qadriyat” va “Boshqalar – qadriyat”), mas’uliyat va ijtimoiy foydali faoliyat kabi jihatlar orqali ijtimoiy xulq-atvorning rivojlanish darajasini aniqlashdan iborat. Aynan shu jihatlar, shaxsning bazoviy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy xulq-atvorga yo‘naltirishni o‘z ichiga oladi hamda bir vaqtning o‘zida shaxsning ijtimoiylashuvi va individualizatsiyasi muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar tizimining faoliyatli va refleksiv-baholash komponentlarini rivojlantirishda kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida o‘yin faoliyati asosiy vosita hisoblanadi. Bunda syujetli-rolli o‘yin alohida ahamiyatga ega. Bu shunday faoliyatki, unda tashqi mahsulot, ya’ni ushbu faoliyat natijasi bo‘lishi mumkin emas; uning natijasi – bu shaxsning ichki o‘zgarishida, ma’lum bir tajribani egallashdadir. Rolli o‘yinda o‘z harakatlarini, ehtiyojlarini, kechinmalarini anglash, ularni boshqa odamlarning harakatlari, ehtiyojlari va kechinmalari bilan o‘zaro taqqoslash qobiliyati sifatida refleksiyani rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratilgan.

Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ma’lum bir obrazda yaratilgan va o‘quvchilar tomonidan muayyan bir hayotiy vaziyatda orientir olish qobiliyatini egallashga, hamda faqat undan chiqishning tegishli yo‘lini belgilabgina qolmasdan, ma’lum sharoitlarda eng samaralisini tanlab olishga qaratilgan syujetli-rolli o‘yin-vaziyatlar tizimi kerak bo‘ladi. Bolalar uchun o‘yin – bu ularning ijtimoiy ijodkorlik doirasi, bu yerda motivatsion-ma’noviy va axloqiy jihatlarni hal qilish mumkin.

Quyida ayrim o‘yin-mashqlarga to‘xtalib o‘tamiz.

“Plyus va minus tomonlari” mashqida o‘quvchilarning har biri uchta alohida qog‘ozchalarga o‘zining uchta ijobiy va uchta salbiy jihatlarini yozib qo‘yadi. Keyin barcha qog‘ozchalar aralashtirilib, sinf o‘rtasida joylashtiriladi. Bolalar aylana bo‘lib o‘tirishib, navbatma-navbat bittadina qog‘ozchani olib, ovoz chiqarmay o‘qib, ularning fikriga ko‘ra, bu kim to‘g‘risida yozilgan bo‘lsa, o‘sha odamning oldiga (matnni teskari qilgan holda) qo‘yadilar. Keyin hamma o‘z oldiga qo‘yilgan qog‘ozlarni o‘qishadi. Xohishga ko‘ra sharhlar beriladi.

“Men o‘zim haqida” mashqida har bir ishtirokchi 7 ta (10) ot, keyin 7 (10) ta sifat so‘z turkumiga doir so‘zlardan foydalanib, o‘zi haqida, qanday insonligi haqida yozadi. Alohida o‘z hayotiy shiorini yozadi. Barcha qog‘ozchalar aralashtirilib, navbat bilan o‘qiladi. Buni kim o‘zi haqida yozganligini taxmin qilish so‘raladi.

“Maqollar bizning hayotimizda” mashqining maqsadi – axloqiy-huquqiy munosabatlarni anglashdir. Maqollar bilan ishlashni guruhlarga ajralgan holda tashkil etish mumkin: bolalarga bir nechta qismlardan uch xil maqol yaratish taklif etiladi, so‘ngra (variant sifatida) asar quyidagicha davom etadi: 1-o‘quvchi maqol yoki matalning boshlanishini o‘qiydi, 2-o‘quvchi yakunlaydi, 3-o‘quvchi ma’nosini tushuntiradi. Guruhdagi har bir bola navbat bilan u yoki bu rolni o‘ynaydi: 1-chi, 2-chi va 3-chi o‘quvchi rolida. Ishning boshqa variantida o‘quvchilarga o‘zaro munosabatlarning turli vaziyatlari taklif

etiladi, ular esa vaziyatga mos keladigan maqol yoki matalni tanlashlari kerak (ishni juftlik yoki guruhda ham bajarish mumkin). Uchinchi variant – inson huquqlari deklaratsiyasi yoki bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaning moddalariga muvofiq maqollarni mavzu bo‘yicha tarqatish.

“Vujudga kelgan vaziyatning sababini qidirib top” mashqi ishtirokchilar o‘zlariga tashqi tomondan qarashlari, muayyan ziddiyatli vaziyatda muloqot qilishda o‘zining kuchli va zaif tomonlarini tushunishlariga yordam berish uchun; bunday vaziyatlarda muvaffaqiyatli muloqot qilishda nimani o‘zgartirish kerakligini tushunib olishi uchun zarurdir. Sinf bir nechta guruhga bo‘linadi. Har bir guruh ma’lum bir vaziyatga ega bo‘lgan kartochkani oladi. Uning ishtirokchilari ushbu holatning sabablarini ko‘rib chiqishlari kerak. Masalan, quyidagi holatlarni taklif qilish mumkin:

– Akmal doimo o‘z sinfdoshlarining narsalarini ruxsatsiz oladi.

– Diyor Dilbek bilan janjallashdi.

– Jahongir sinfdoshlaridan u bilan do‘stlashishni xohlamayotganliklari uchun xafa bo‘layapti.

– Nozima navbatchi bo‘lishiga qaramasdan doskani artishdan bosh tortdi.

– Amirxon stulni sindirib, kim buni qilganini bilmasligini aytdi.

“Muloqot vaziyatlari” mashqida tanishish, iltimos qilish, taklifni qabul qilish, kelishuv, kechirim, rad etish, yordam so‘rash, yordam berish taklifini berish, hamdardlik bildirish, qo‘llab-quvvatlash va h.k. vaziyatlarda ishlatiladigan iboralarning variantlarini tanishtiradi. Mashq asosini muayyan vaziyatlarni takrorlash, sahnalashtirish tashkil etadi. Noverbal munosabatlar variantlari ham ko‘rib chiqiladi.

Axloqiy tajribani kengaytirish va chuqurlashtirish, o‘quvchilarda axloqiy ong hamda o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish uchun o‘quv faoliyati mazmuni tarkibiga kiradigan, o‘quvchidan tanlash va uni asoslab berish, vaziyatning turli xil variantlarini ijro etishni talab qiladigan vaziyatlar tahliliga e’tibor qaratiladi. Masalan:

– Agar siz boshqa bolalar bilan hovlida sayor qilib yurganingizda va ulardan biri yoningizda yiqilib, oyog‘ini qattiq jarohatlasa, nima qilgan bo‘lardingiz?

– Bolalar guruhda o‘ynashardi, ba’zilari rasm chizishardi, kimdir kitobdagi rasmlarni ko‘rardi. Anora yolg‘iz o‘zi juda g‘amgin bo‘lib o‘tirardi... Bunday vaziyatda sen qanday harakat qilarding: biron bir narsa qilarmiding yoki yo‘q?

– O‘rtog‘ingiz darsda topshiriqni bajarishga qiynaladi va sizdan yordam berishni so‘raydi. Nima qilgan bo‘larding?

Keltirilgan metodika va mashqlardan nafaqat tarbiya fani doirasida, balki sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu o‘quvchilarga zarur ijtimoiy ko‘nikmalar egallashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Domberg A, Kцymen B, Tomasello M. 2018. Children's reasoning with peers in cooperative and competitive contexts. Br J Dev Psychol. 36(1): P.64-77.

2. Flook L., Goldberg S.B., Pinger L., and Davidson R.J. 2015. Promoting prosocial behavior and self-regulatory skills in preschool children through a mindfulness-based Kindness Curriculum. Dev Psychol. 51(1): P.44-51.

3. Gibbs L, Staiger PK, Townsend M, Macfarlane S, Gold L, Block K, Johnson B, Kulas J, Waters E. 2013. Methodology for the evaluation of the Stephanie Alexander Kitchen Garden program. Health Promot J Austr. 24(1): P.32-43.

4. Goldstein TR and Lerner MD. 2018. Dramatic pretend play games uniquely improve emotional control in young children. Dev Sci. 21(4): e12603.

Baxodir MADAMINOV,
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi,
"Fakultetlararo jismoniy madaniyat" kafedrasi mudiri

JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING INSON KAMOLOTIGA ERISHISHDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsning rivojlanishida jismoniy madaniyatning tutgan o'rni, jamiyat va sport muammolari, jismoniy madaniyat va sport haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy madaniyat va sport, turmush tarzi, sog'lik va salomatlik, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, yoshlarni tarbiyalash, barkamol avlod, barkamol shaxs, yetakchi kuch.

В данной статье рассматриваются роль физической культуры в развитии личности, взаимодействие общества и физической культуры и спорта.

Ключевые слова. Физическая культура и спорт, образ жизни, здоровье и благополучие, социально-экономическое развитие общества, воспитание молодежи, гармонично развитое поколение, гармонично развитая личность, ведущая сила.

This article discusses the role of physical culture in personality development, the interaction of society and physical culture and sports.

Key words. Physical culture and sports, lifestyle, health and well-being, social and economic development of society, education of young people, harmoniously developed generation, harmoniously developed personality, leading force.

Jahon miqyosida "jismoniy madaniyat va sport" mavzusi orqali jamiyat a'zolarining bo'sh vaqti, turmush tarzi, sog'lik va salomatligini namoyon etishning bir belgisi sifatida qaralmoqda. Globallashgan dunyo manzarasida "milliy", "diniy", "irqiy", "gender" tengsizliklar mavjudligi ijtimoiy mazmun kasb etib, u zamonaviy axborot jamiyatidagi jarayonlarning mohiyati, tendensiyalari va sabablarini jismoniy madaniyat va sport orqali ijobiy tomonga mustahkamlash, kishilik jamiyatining ijtimoiy-ruhiy kayfiyatiga bo'lgan salbiy ta'sirlarni ushbu jarayon orqali bartaraf etishga bo'lgan obyektiv zarurat tufayli yuzaga kelmoqda.

Dunyoda jismoniy madaniyat masalalari o'rganilar ekan, uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni psixologik, sotsiologik, antropologik, falsafiy va madaniy mazmunda ilmiy tadqiqotlarning mavzusi bo'lib qolmoqda. Sotsiologik adabiyotlarda "jismoniy madaniyat – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning umumiy bir qismi bo'lgan madaniy jarayonlarida insonning maqsadli jismoniy kamol topishidagi ratsional jarayondir".

Globallashuv tufayli dunyoda shakllanayotgan zamonaviy qadriyatlar jismoniy madaniyat va sport orqali bugungi davr va insoniyat orttirgan hayotiy tajriba o'rtasidagi uzviylikka asoslangan insonlararo munosabatlar dinamikasini o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda "sog'lom turmush tarzi", "sog'lom avlod",

“sog‘lom millat”, “jismoniy va ijtimoiy-ruhiy sport” tushunchalariga alohida ilmiy aniqlik kiritildi. Ushbu jihatlar O‘zbekistonda yuksak ma’naviyatli, madaniy va estetik jihatlarni o‘zida to‘liq jamlagan jismonan sog‘lom, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash omillarini shakllantirdi.

Yosh avlodni xalqimizning ko‘p asrlik an’analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi rolini oshirish kabi islohotlar natijasida jismoniy madaniyat va sport orqali vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi yuzaga keldi. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi keng qatlamini sport bilan shug‘ullanishga va sog‘lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlaridagi yutuqlarini targ‘ib qilish va uning keng e’tirof etilishiga qaratilgan yagona davlat siyosati jarayonlarining sotsial bashoratini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son, “Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 15-fevraldagi PF-4956-son Farmoni, “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son, “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son, 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar-kelajagimiz” Davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga bugungi kunda butun mamlakatimizda sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Insonlarning jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga bo‘lgan qiziqishlarini qay tarzda uyg‘otish va ularni qanday usullar yordamida mazkur mashg‘ulotlarga jalb qilish haqidagi savollarga javoblarni aynan shu fan doirasida topish mumkin ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologik bilimlar tizimida jismoniy madaniyat va sport to‘g‘risidagi bilimlar B. Makferson, J.Kenon va J.Loyalarning sport sotsiologiyasini takomillashtirishga oid ilmiy qarashlarida o‘z ifodasini topadi. MDH mamlakatlari tadqiqotchilaridan N.Vizitey, Y.Fomin, B.Lisitsinlar o‘z asarlarida jismoniy madaniyatni sotsiomadaniy kontekstda o‘rganishni tavsiya qiladilar.

O‘zbekistonda milliy mentalitetning jismoniy va ijtimoiy-ruhiy madaniyatga ta’sirining sotsiologik masalalari M.Bekmuradov, R.A.Ubaydullayeva, M.Ganiyeva, ijtimoiy-psixologik va madaniy omillari A.Umarov, A.Xolbekov, Sh.Sodiqovalarning, ma’naviy va ekologik jihatlari T.Matibayev, A.Kaxarovlarning tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Biroq bugungi kunga qadar sotsiologiyada jismoniy madaniyat va sportning O‘zbekistonda mental, estetik, bo‘sh vaqt, turmush tarzi va kasbiy jihatlari ijtimoiy omil sifatida aynan sotsiologik so‘rovlar o‘tkazgan holda yetarli darajada o‘rganilmagan. O‘zbek xalqining jismoniy madaniyat va ommaviy sport bilan shug‘ullanishlari doirasi-

da bo‘sh vaqtini tashkil etish dinamikasi turmush tarzi tabiatini belgilab beruvchi sotsial xarakter, mentalitet va yoshga oid davriy ko‘rsatkichlar xususiyatlari ochib berilmoqda;

o‘zida sotsiomadaniy qadriyatlarni ifodalovchi ‘‘sog‘lom avlod’’, ‘‘sog‘lom millat’’, ‘‘barkamol avlod’’, ‘‘barkamol shaxs’’ tushunchalari sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanib, ma’naviy meros tamoyillari asosida takomillashtirilmoqda;

zamonaviy jismoniy madaniyat va sport milliy, mahalliy, fuqarolik, kasbiy, hududiy, yoshga oid, ekologik turlarga bo‘linib, u o‘z qamrovidagi insonlarni iqtisodiy, siyosiy, maishiy, ma’naviy, madaniy, mental jihatdan hayot tarzida ma'lum stereotiplar hosil qilishi, fikrlash, xulq-atvor natijasida sotsial guruh yoki qatlamlarni yaratishi bilan ajralib turish muammolari yetarli darajada emas. So‘nggi paytlarda butun dunyoda sport va jismoniy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda. U ko‘pincha bayram tadbirlari, ommaviy sport o‘yinlari, ko‘cha sport musobaqalari va boshqalar orqali gavdalanadi. Sportning jamoat hayotida mavjudligi va muhim rol o‘ynashi juda muhim bo‘lib, uning ahamiyati katta siyosat va mafkuraviy darajagacha ko‘tarildi. Sport, jismoniy tarbiya sifatida muhim ijtimoiy hodisa sanalib, sotsiologlarning ham tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi. Sport sotsiologiyasi birinchi navbatda sportning o‘zi, ikkilamchi jismoniy tarbiyani sog‘lom turmush tarzining asosi sifatida o‘rganishni, shuning asosida uning tarbiya texnologiyalari, o‘qitish usullarini takomillashtirishni tavsiya etadilar, unga nisbatan davrning ijtimoiy hodisasi sifatida qarashni ilgari suradilar. Sotsiologiya sport orqali murakkab ijtimoiy tizimlar va tuzilmalarni tushunish, ijtimoiy dunyo qay tarzda yashashi va faoliyat olib borishini anglash imkoniyatini beradi.

Har qanday ijtimoiy rivojlanishni ta’minlovchi asosiy kuch va omil shaxsdir. Alohida insonni yetakchi kuch sifatida idrok etish, shaxsga har qanday rivojlanish va jamiyat istiqbolini yaratuvchi manbaa sifatida qarash ijtimoiy hayotning real voqeiyligini tan olish demakdir. Sobiq sovet tizimi va kommunizm mafkurasi alohida shaxsning o‘rnini mutlaqo qadrsizlantirdi hamda jamoaviy ongni yetakchi o‘ringa ko‘tardi. Natijada, shaxs erkinligi, uning yaratuvchanlik va tashabbuskorlik qudrati chetga surib qo‘yildi va individuallik fenomeni mutlaqo tan olinmay kelindi. Nazarimizda, chet el ijtimoiy fanlarining rivojlanishidagi asosiy omillardan biri – aynan inson kamolotini, alohida shaxs individualligini tan olish, insonga har qanday vaziyatda tanlov erkinligiga imkon berish, shaxsning psixologik to‘kinligini ta’minlash yo‘lidagi izlanishlar bilan bog‘lik deyish mubolag‘a bo‘lmaydi. Shaxsning o‘zligini namoyish etish imkonini berish, uning o‘ziga xosligini tan olish va umuman, har qanday vaziyatda shaxsga tanlov imkonini berish ijtimoiy munosabatlarning yetukligi, jamiyatning rivojlanganlik darajasini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biridir. Shu munosabat bilan, zamonaviy ijtimoy fanlar orasida muhim va yetakchi mavzu sifatida alohida shaxs va uning ruhiy farovonligini ta'minlash masalasi yetakchi mavzuga aylanishi mumkin. Shaxsning psixologik to‘kinligi tom ma’noda nafaqat yagona bir individning, balki jamiyat rivojining asosida yotuvchi muhim bir kuch va omildir. Chunki, o‘ziga ishongan, o‘z imkoniyat va qobiliyatlariga yuqori baho beradigan insongina nafaqat o‘z hayoti, balki jamoada ham yetakchilik rolini o‘z bo‘yniga olishi mumkin. Aynan shu sababli ham, barcha ijtimoiy va gumanitar fanlarning muhim tutashuv nuqtasi sifatida alohida shaxsning ruhiy farovonligini ta’minlash markaziy masalaga aylanishi lozim. Yoshlar orasida yetakchi qadriyatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot natijalariga ko‘ra, bugungi yoshlarda o‘z hayotidagi muhim masalalarni mustaqil hal qilish, o‘z hayot yo‘lini mas’uliyatli tarzda qurish, umuman olganda chin ichki tuyg‘ularni namoyish etish bilan yashash istagi yetakchi qadriyatlar sirasiga kirishi aniqlangan. Shaxsning o‘zligini namoyish etishi, muammoli va muhim

hayotiy vaziyatlarda erkin tanlovni amalga oshirish istagi ulg‘ayayotgan inson uchun doimo muhim qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda ham ushbu holat qayd etilar ekan, bunday chin insoniy fenomeni ro‘yobga chiqarish uchun sotsial, gumanitar fanlarning birlashishi va umumiy maqsad yo‘lida harakat qilish davr taqozosidir. Nazarimizda, falsafa umumilmiy fan sifatida barcha ilmiy izlanishlarning metodologik asosi sifatida namoyon bo‘lar ekan, pirovard natija esa alohida shaxsning ruhiy barkamolligi va farovonligi bilan o‘lchanishi mumkin. Ya’ni, har qanday ijtimoiy fanlarning ilmiy va amaliy yutug‘i oxir oqibat shaxsning erkin rivoji uchun yaratilgan sharoitning mavjudligi va uning imkonyatlari bilan baholanishi lozim.

Bugungi kunda ayniqsa, sport sohasida katta islohotlar amalga oshayotgani guvohi bo‘lyapmiz. Maktab va litseylar va institutlar qayta qurilib, kapital ta’mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Zamonaviy o‘quv binolari, shinam sinflar, o‘quv anjomlari bilan ta’minlanganlik kabi yangiliklar moddiy resurslar sirasiga kirsada, sport jarayonini tashkil etishda qator vazifalar turibdi. Jumladan, dars va mashg‘ulotlarni interfaol sport texnologiyalarida tashkil etish, o‘quvchi shaxsida komillikka intilish va uning ruhiy holatini, mustaqil xulqini shakllantirishni yetakchi o‘ringa qo‘yish – zamonaviy pedagogik jarayonning markaziy nuqtasiga aylanishi lozim. Buning uchun birinchi o‘rinda, ilg‘or sport texnologiyalari bilan qurollangan pedagoglar, boladagi shaxs erkinligi va mustaqil tanlovini eng oliy qadriyat sifatida tan olgan murabbiylar bo‘lishi juda muhim. Ko‘p jihatdan sport sohasini ta’minlovchi fanlarning oldida turgan vazifalardan biri ham aynan shunday sport jarayonini ta’minlovchi o‘quv dasturlari va materiallari bilan ta’minlashdan iborat bo‘lishi lozim. Bugungi kundagi ko‘pgina sohalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, shaxsning erkin tanlovini ta’minlash yo‘lida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish mumkin. Kasb tanlash va ayniqsa, xorijda o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lish, shaxsning o‘z hayotini mustaqil qurishdagi asosiy omillardan biridir. Turli sohalarni tahlil qilarkanmiz, erkin va komil shaxsni tarbiyalashda oila institutining yetakchi o‘ringa chiqishi alohida ta’kidlab o‘tilishi lozim. Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatda o‘tayotgan islohotlarning yorqin ko‘zgusi sifatida ijtimoiy fanlarning holati degan muhim tezisni e’tirof etish payti keldi. Ushbu sohada ayniqsa, bevosita inson va uning ijtimoiy hayotini tadqiq etuvchi fanlar – sotsiologiya, falsafa va psixologiya fanlari yetakchi o‘ringa chiqadi. Ushbu fanlarning mahsuli sifatida esa, jamiyatda yashab istiqomat qilayotgan insonlarning ruhiy farovonligini aniqlash va ushbu mezonning yanada oshishiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘rganish hamda ularni faollashtirish bo‘yicha tadbirlar yaratish muhim va dolzarb masalaga aylanadi. ushbu yo‘nalishda barcha ijtimoiy fanlar oldida integratsiyalashgan vazifalarni qo‘yish, ushbu vazifalarni hal etishda barcha mas’ul olim va izlanuvchilarni boshini birlashtirish yanada muhim masaladir. Balki bunday ulkan vazifani hal etishda alohida, biron ijtimoiylashgan ilmiy-amaliy markazning yaratilishi ehtimoldan holi emasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Журбина А.Д. Социологические аспекты физической культуры и спорта // Научный вестник МГТУ ГА. Серия: История. Философия. Социология – 2007. № 113. – С. 146.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

Musharrafxon IKROMOVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

KELAJAKKA YO‘NALTIRILGAN O‘QUV DASTURLARINING TAHLILI (Maktabgacha ta’lim tizimi misolida)

Annotatsiya

Maqolada kelajak uchun zarur bo‘lgan malakalar va ularni farzandlarimiz egallashlari yo‘lida O‘zbekiston ta’lim tizimining bosh bo‘g‘ini maktabgacha ta’limda olib borilayotgan ishlar yoritilgan. Jumladan, tayanch o‘quv dasturlarining yillar davomidagi takomillashuvi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Raqamli dunyo, kognitiv malakalar, ijtimoyi-hissiy malaka, texnik malaka, maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti, elementar matematika, mantiqiy tafakkur, algoritmik tafakkur.

В статье рассматриваются навыки необходимые для будущего и работы проводимые на пути приобретения их нашими детьми в дошкольном образовании, которая является основным звеном образовательной системы Узбекистана. В частности, был проведен анализ совершенствования базовых учебных программ за прошедшие годы.

Ключевые слова. Цифровой мир, когнитивные навыки, социально-эмоциональные навыки, технические навыки, государственный стандарт дошколного образования и воспитания, элементарная математика, логическое мышление, алгоритмическое мышление.

The article discusses the skills necessary for the future and the work carried out on the way of acquiring them by our children in preschool education, which is the main link of the educational system of Uzbekistan. In particular, the analysis of the improvement of basic training programs over the past years was carried out.

Key words. Digital world, cognitive skills, social and emotional skills, technical skills, state standard of pre-school education and upbringing, elementary mathematics, logical thinking, algorithmic thinking.

Axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir davrda turgan ekanmiz, hayotimizga raqamli texnologiyalarini kirib kelishi hayotimizni tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga kirib kelishi bilan “raqamli dunyo”, “raqamli iqtisodiyot”, “raqamli bilimlar”, hatto “raqamli O‘zbekiston” atamalariga duch kelyapmiz. Hozirgi davrda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng, avvalo, davlat boshqaruvi, ta’lim, sog‘liqni saqlash va qishloq xo‘jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan. Bu degani raqamli jamiyatni barpo etmoqdamiz. Yangi O‘zbekiston qurish ham ayni shu davrga to‘g‘ri kelmoqdaki, raqamli texnologiyalarini qay darajada jamiyatga joriy etilishi uning taraqqiyotini belgilab bermoqda.

Taraqqiyotga erishish uchun esa raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi. Albatta bunday jarayon bilan to‘qnash kelgan har qanday jamiyat uchun raqamli dunyoni boshqara oladigan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantira oladigan kelajak mutaxassislarini tayyorlash ustuvor masalalardan biridir. Yurtimizda ham raqamli bilimlarga ega, strategik fikrlay oladigan, zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydiganyoshlarni tarbiyalash ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylangan. Demak, yangi O‘zbekiston qurish uchun yangicha bilimlar, yangicha dunyo qarashlarni shakllantirishimiz talab etiladi. Ta’lim tizimini zamonaviy yondashuv asosida isloh qilish, raqamli dunyo talablariga javob bera oladigan kelajak avlodni tarbiyalash zamon taqozosi. XXI asr ostonasida ilg‘or ta’lim tizimlari va xalqaro tashkilotlari(YUNESKO, IXRT, Jahon banki) tomonidan milliy ta’lim dasturlarini chuqur qayta shakllantirish zarur degan xulosaga kelindi. Avvalgi yillardagi eng zo‘r amaliyot va modellarni kiritish vaziyatni yaxshilashga yordam bermaydi, ta’lim kelajakka qaratilgan bo‘lishi kerak. Ta’lim yoshlarni o‘zgarib borayotgan dunyo muammolarini osonlikcha hal etishga qaratilgan keng ko‘lamli malakalarni egallashiga qaratilgan bo‘lishi kerakligini butun dunyo hamjamiyati ta'kidlamoqda. Jahon banki tomonidan 2018-yilda tayyorlangan hisobotida quyidagi malakalarning kategoriyalari keltirilgan: kognitiv malakalar, ijtimoyi-hissiy malakalar va texnik malakalar.

Kognitiv malakalarga murakkab g‘oyalarni anglash qobiliyati, atrof muhitga tez moslashish, tajriba asosida o‘rganish, turli tafakkur shakllarida mulohazalash, to‘siqlarni o‘ylab yengish kabilar kiradi. Kognitiv malakalar ta’lim olish, shaxsiy va kasbiy rivojlanish va boshqa malakalarni rivojlantirishda zarur bo‘ladi. Kognitiv malakalarni bir necha tanch malakalarga bo‘lish mumkin, bular tayanch savodxonlik, sanash malakasi, tanqidiy tafakkur va muammolarni yechish, shuningdek, yanada yuqori darajadagi malakalardir.

Ijtimoyi-hissiy malakalar – bu shaxslararo va ijtimoyi vaziyatlarni samarali boshqarish va shuningdek, kundalik muammo va masalalarni samarali va axloqiy yechishda insonga kerak bo‘ladigan xulq-atvor, munosabatlar va qadriyatlardir. O‘z-o‘zini anglash, yetakchilik qilish, jamoada ishlash, o‘z-o‘znini boshqarish va motivatsiya ijtimoyi-hissiy malakalar hisoblanadi. Kognitiv malaka va ijtimoyi-hissiy malakalar o‘zaro ta’sir o‘tkazadi. Hayotda va ish faoliyatida vujudga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli yechimi ularga bog‘liq bo‘ladi.


Texnik malakalar – bu ishchiga aniq ish faoliyat bilan bog‘liq o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishda kerak bo‘ladigan bilim, tajriba va o‘zaro hamkorlik.

Malakalarning har xil turlari vaqt o‘tishi bilan insonni neyrobiologik va psixologik rivojlanishiga bog‘liq holda rivojlantiriladi.

Ko‘pchilik kognitiv malakalar bolalikda egallaniladi va o‘smirilkda ularni kuchaytiriladi. Erta bolalik – tayanch kognitiv malakalarni egallashning eng optimal davridir, negaki bu davr kelajak uchun kognitiv va ijtimoyi-hissiy malakalar rivojlanishiga qulay shart-sharoit yaratib beradi. Erta bolalik maktabgacha ta’limga to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim, tizimining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi.

Nobel mukofoti laureate Jeyms Xekman va uning shogirdlari tomonidan ta’limga kiritilgan sarmoyaning unumli vazifasi va daromad keltirishi bo‘yicha olib brogan izlanishlari inson rivojlanishi nuqtai nazaridan olganda erta (0-6) yoshdan sarmoya qilish eng unumli bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Ushbu izlanishlar insoniyatni maktabgacha ta’lim tizimiga fikrini batamom o‘zgartirib yubordi, endilikda ushbu ta’lim byudjet xarajatlari emas, balki sarmoya deb qaralyapti. Xekmanning shogirdlari bolalarning kogni-

tiv va nokognitiv bilimlariga qo‘yilayotgan sarmoyalarning o‘zgaruvchanligini tekshirib inson kelajakda qay darajada yaxshi fikrlovchi bo‘lishiga sarmoya kiritish, bolalarni faqat 5 yoshga to‘lish davrigacha foydali bo‘lishini aniqladi. Bu kabi izlanishlardan turli davrlarda Amerika va Buyuk Britaniyada o‘tkazilgan, ularning natijasi diqqatni jalb etadi, ayniqsa, uzoq muddatli izlanishlar, bolalarni erta rivojlantirish bo‘yicha dasturlar samarasi 40 yil mobaynida kuzatilganda ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Bunday dasturlar kiritilgan sarmoya mablag‘larini yuqori darajada daromad berganini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Bolalarni erta yoshdan rivojlantirish dasturlariga kiritilgan sarmoyalar samarasi.

Ushbu grafikdan, Perrining maktabgacha ta’lim tizimida har bir bolaga tikilgan bir dollar 40 yilda 16 barobar miqdorda qaytgani ko‘rinib turibdi. Bunday davlat tomonidan kiritilgan sarmoyalar salmoqli va uzoq muddatli samara beradi. Bundan tashqari, bunday dasturlar kelajakda aholini ijtimoyi ta'minotga tobeligini kamayishi, nisbatan yuqori ish bilan bandlik va ish haqini, yuqori davlat daromadlari va kam xarajatlikni, shuningdek, jinoyatchilikni kamayishiga olib keladi. Bunga misol tariqasida Yamaykada “Reach Up” va “Learn” bolalarni erta yoshdan rivojlantirish dasturlari ikki o‘n yillik davomida jinoyatchilikni kamayishiga, psixologik ahvolni yaxshilanishiga va daromad 25 foizga ortishiga olib keldi. Shuning uchun dunyo arenasida maktabgacha ta’limga katta e’tibor qaratilmoqda.

Butun dunyoda bolalarni kelajakka tayyorlash maqsadida yuqorida aytib o‘tilgan bilim va malakalarga tayyorlash tendensiyasi ketyapti. Tayanch kognitiv va ijtimoyi-hissiy malakalarni shakllantirish raqamli tafakkurni (Compytational thinking yoki Vichislitelnoe mishleniye) shaklantirish asosida amalga oshirilyapti. Bunday tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish dasturlash orqali amalga oshirilmoqda. Rivojlangan davlatlarda dasturlashni maktabgacha ta’lim tizimidan boshlash amalda qo‘llanilib, o‘quv dasturlariga asosiy fan siqatida kiritish harakatlarini ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda ham maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasida ko‘tarilgan. 2017-yildan boshlab davlatimiz rahbarligi ostida bir qator qaror va qonunlar ishlab chiqilishi bilan birga Maktabgacha ta’limni Xalq ta’limidan ajratgan holda alohida Maktabgacha ta’lim Vazirligi tashkil etilishigina bu sohaga e’tibor nechog‘lik ekanligini ko‘rsatib qo‘ydi. Bundan tashqari, ta’limga sarmoya kelajakka sarmoya naqli bilan ish ko‘rib O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi 2019 – 2024-yillarda “Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko‘maklashish” loyihasini amalga oshirmoq-

da. Moliyalashtirish uchun Jahon bankining 73,85 mln. AQSh dollari miqdoridagi grant va kredit mablag‘lari jalb qilingan. Ushbu mablag‘ning asosiy qismi maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, sifatli ta’lim muhitini yaxshilash va uning ommabopligi ta'minlash, xususiy sektor bilan sherikchilik, ta’lim sifatini o‘lchash tizimini tashkil etish kopnonentlarni tatbiq etish uchun yo‘naltiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilovchi hamda maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladigan hujjat ishlab chiqilgan. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi deb yuritiladi. Ushbu Konsepsiyaning maqsadi bola hayoti va faoliyatining barcha sohalarini rivojlantirishni ta’minlovchi muhim manba bo‘lgan sifatli maktabgacha ta’limdan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Unda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari keltirilgan va ular quyidagilardir:

– maktabgacha ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;

– bolalarni sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta’minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;

– maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

– maktabgacha ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta’minlash;

– maktabgacha ta’lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta’minlash.

Konsepsiyani amalga oshirish doirasida maktabgacha ta’lim sohasida me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish bo‘yicha tadbirlar orasida bolalarda tayanch kognitiv, ijtimoiy-hissiy malakalarni egallashlarini ko‘zda tutuvchi ishlar tilga olingan. Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishga qo‘yiladigan amaldagi davlat talablarini qayta ko‘rib chiqish hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida shakllantirilishi lozim bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar va mahoratlarga qo‘yiladigan talablarni nazarda tutuvchi Maktabgacha ta’limning davlat standartini ishlab chiqish ko‘rsatilgan. Maktabgacha ta’limning davlat standarti Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabr 802-qarori bilan Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlandi. Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim jarayonini olib borishga qaratilgan hujjat, tayanch dastur asosida ish olib borilar edi, endilikda u takomillashtirilib davlat standartiga aylantirildi. Maktabgacha ta’limga e’tiborni 10 yil mobaynida takomillashib borgan tayanch o‘quv dasturlari asosida ham ko‘rish mumkin. Quyida maktabgacha ta’lim tizimining tayanch o‘quv dasturlarini 10 yil davomida (2010y-2020-y.) Bilish jarayoning rivojlanishi rivojlanish sohasidagi elementar matematik malakalariga bo‘lgan davlat talablari va o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zgarib borganligining tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Yuqorida aytib o‘tilgan tayanch kognitiv malakalarning asosi elementar matematika mashg‘ulotlarida shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning muvaffaqiyatli matematik rivojlanishi ko‘p jihatdan ta’lim dasturlarida aks ettirilgan aqliy faoliyatlari mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan ham keyingi yillarda bir qator pedagoglar va psixologlar jamoalari tomonidan ishlab chiqilgan maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning rivojlantirish va tarbiyalash dasturlarini tahlil qildik.

Tayanch kognitiv malakalarning asosi hisoblanmish mantiqiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish ahamiyatli hisoblanadi va shuning uchun dasturda mantiqiy fikrlash mashg‘uloti kiritilgan. Mantiqiy tafakkur raqamli dunyo insoni uchun zarur ko‘nikma algoritmik tafakkurni shakllanishi va rivojlanishiga yo‘ldosh hisoblanadi, ushbu tafakkurlar birini to‘ldirib turadi biri ikkinchisini rivojlanishiga yetaklaydi. Mantiqiy tafakkur barcha tafakkurlarning asosi hisoblanar ekan, uning aynan shu davrda shakllanishi maktabgacha ta’limda o‘quv dasturlari va mashg‘ulotlarga jiddiy e’tibor qaratilishini talab etadi. Shuningdek, chet el amaliyotida bu ikkala tafakkurni rivojlantirish bo‘yicha juda ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda, ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu ishlar ilmiy asoslarini o‘rganish va bu sohada ko‘proq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 05.10.2020, PF-6079-son, “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni https://lex.uz/docs/5030957. (дата обращения: 15-fevral 2021).

2. Mirziyoyev Sh.M., “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi,” 24-yanvar 2020. https://president.uz/uz/lists/view/3324. [дата обращения: 19-noyabr 2020].

3. Mirziyoyev Sh.M., “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi”, 29-dekabr 2020. https://president.uz/uz/lists/view/4057. [дата обращения: 19-yanvar 2021].

4. Добряковой М.С., И. 500 фрумин.; Первый Уча Баранников К.А., Зиила Х. Мосс Д.Д., Реморенко И.М., Хаутамяки Я. Универсальный компетентности и новая грамотность: ОТ лозунгов к реальности., Нац. исслед. а-т “Высшая школа экономики” Высшей школы экономики, 2020, С. 472.

5. Всемирный банк. 2018 год. Доклад о мировом развитии 2018: “Обучение для реализации образовательной перспективы”. Вашингтон, округ Колумбия: Всемирный банк. DOI: 10.1596 / 978-1-4648-1379-5. Лицензия: Creative Commons Attribution 200 от 3.0 IGO

6. Детство золотое. Как инвестиции в дошкольное образование влияют на экономический рост // Forbes. URL: https://www.forbes.ru/finansy-i-investicii/351965-detstvo-zolotoe-kak-investicii-v-doshkolnoe-obrazovanie-vliyayut-na (дата обращения, 8.06.2020).

7. Ikromova M. N. Jamiyat rivojida maktabgacha ta’lim tizimining o‘rni. “Ta’lim-tizimida innovatsion islohotlar: olimlar va yoshlar nigohida” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari // –T, 2020-yil 17-iyun. – 212-217-betlar.

8. Ikromova M.N. Raqamli tafakkur va uni ta’limga joriy etish masalalari (ilmiy manbalar tahlili). Zamonaviy ta’lim Respublika jurnali. 2021-yil 3-son.

9. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. https://lex.uz/docs/4327235.

Ismoiljon MIRABDULLAYEV,
Namangan davlat universiteti 2-bosqich talabasi

IQTISODIY MASALALARNI YECHISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ayrim iqtisodiy masalalarni yechishda MS Excel dasturidan foydalanishning bir qator afzalliklari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Axborot texnologiyalari, bo'lg'usi mutaxassis, kasbiy kompetensiyalar, mutaxassislik kompetensiyalari, axborot texnologiyalari bo'yicha kompetensiyalar, iqtisodiy masalalar, matematik model, elektron jadval, MS Excel dasturi.

В этой статье описывается ряд преимуществ использования программы MS Excel для решения некоторых экономических задач.

Ключевые слова. Информационные технологии, будущий специалист, профессиональные компетенции, компетенции по специальности, компетенции в области информационных технологий, экономические проблемы, математическая модель, электронная таблица, программа MS Excel.

This article describes the advantages of using program MS Excel to solve some economic problems.

Key words. Information technology, future specialist, professional competence, competence in the specialty, competence in the field of information technology, economic problems, mathematical model, electronic table, MS Excel program.

Kishilik jamiyati rivojlanishining zamonaviy bosqichi universal axborotlashtirishga o'tish, iqtisodiyotning barcha sohalari va jabhalarida kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini joriy etish bilan tavsiflanadi. Yangi axborot texnologiyalari ta'siri ostida zamonaviy jamiyat iqtisodiyotida, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Shuning uchun bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganish va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish malakali mutaxassis tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo'lg'usi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim oluvchilarga bir qator qulayliklarni beradi. Axborot texnologiya vositalarining axborotni qulay, oson va qiziqarli, shuningdek, katta hajmdagi ma'lumotlarni qisqa vaqtda tushunarli tarzda etkazish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, mutaxassislik fanlarini axborot texnologiyalari yordamida o'rganish orqali bo'lg'usi mutaxassis kasbiy, mutaxassislik va axborot texnologiyalari bo'yicha kompetensiyalarga ega bo'ladi.

Iqtisodiyot darslarining aksariyati iqtisodiy masalalarni hal qilish va mashqlarni bajarishga bag'ishlanadi. Iqtisodiy masalalarni hal qilish orqali talabalar ko'plab iqtisodiy tushunchalarni egallaydilar, matematik belgilashlarni o'zlashtiradilar, farazlarni isbotlashni o'rganadilar va umuman olganda, iqtisodiyot fani bo'yicha bilim, ko'nikma va

malakalarga ega bo‘ladilar.

Iqtisodiyotda ko‘pincha ma’lum bir ko‘rsatkichning eng yaxshi yoki optimal qiymatini topish talab qilinadi: eng yuqori mehnat unumdorligi; maksimal foyda, minimal xarajatlar va shu kabilar. Ko‘rsatkichning optimal qiymatini topish bir yoki bir nechta o‘zgaruvchili funksiyaning ekstremumi (maksimal yoki minimal) qiymatini topishga keltiriladi.

Iqtisodiyotda o‘rtacha qiymatlar keng qo‘llaniladi: o‘rtacha mehnat unumdorligi, o‘rtacha xarajatlar, o‘rtacha daromad va h.k. Ko‘pincha, agar xarajatlar oshirilsa, natija qanday qiymatga o‘sishini yoki aksincha, agar xarajatlar kamaytirilsa, natija qanchalik kamayishini aniqlashga to‘g‘ri keladi. Bunday holatlarda natija va xarajatlardagi o‘sish nisbatining chegarasini aniqlash va uning limit nuqtasini topish kerak bo‘ladi.

Iqtisodiy masalalarni axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yechishning eng ko‘p tarqalgan qulay usuli – bu elektron jadvallardir. Elektron jadval dasturlarining keng qo‘llanilishi ko‘p jihatdan ularni qo‘llashning universal imkoniyatlari bilan bog‘liq.

MS Excel dasturidan oddiy buxgalteriya masalalarini hal qilishdan tortib, turli shakllar, biznes grafiklar va xatto kompaniyaning to‘liq balansini tuzishda ham foydalanish mumkin. Masalan, MS Excel dasturidan foydalangan holda korxonada buyurtmalarni qayta ishlash va ishlab chiqarishni rejalashtirish, soliq va ish haqi hisobkitoblari, sotish va mulkni boshqarish bo‘yicha kadrlar va xarajatlarni hisobga olish kabi masalalarni ham hal etish mumkin.

Biroq, dasturni qo‘llash doirasi faqat ish sohasi bilan chegaralanib qolmaydi. MS Excel dasturining kuchli matematik va muhandislik funksiyalari tufayli tabiiy va texnik fanlar sohasidagi ko‘plab masalalarni ham hal qilishda foydalanish mumkin.

Quyida MS Excel dasturi yordamida ayrim iqtisodiy masalalarni yechish usullarini ko‘rib chiqamiz:

1-masala. Korxona har kuni to‘rt turdagi mahsulot ishlab chiqaradi, ularning ishlab chiqarish-iqtisodiy ko‘rsatkichlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval.

Korxonaning kunlik ishlab chiqarish-iqtisodiy ko‘rsatkichlari


Mahsulot turi. Shartli raqami	Mahsulotni ishlab chiqarish soni, dona	Xomashyo xarajati, kg/dona	Ishlab chiqarish vaqti, s/dona	Mahsulot narxi, pul birligi/dona
	A	S	T	P
1	25	8	12	28
2	35	3	6	13
3	50	5	18	46
4	46	7	5	35

Kunlik ko‘rsatkichlarni topish talab etiladi: xomashyo xarajati S, ish vaqtining sarfi T, va korxona ishlab chiqaradigan maxsulotning narxi R.

Elektron jadvalda berilgan ishlab chiqarish -iqtisodiy ko‘rsatkichlar quyidagi vektorlar ko‘rinishida taqdim etilishi mumkin: a = (20, 50, 30, 40) – ishlab chiqarilgan mahsulotlar sonining mahsulot turlari bo‘yicha vektori; s = (5, 2, 7, 4) – mahsulot turlari bo‘yicha xomashyoni sarf qilish vektori; t = (10, 5, 15, 8) – mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan vaqt vektori; r = (30, 15, 45, 20) – narxlar vektori. U holda masalaning ye-

chimi a vektor bilan qolgan uchta vektorlardan birining skalyar ko‘paytmasidan iborat bo‘ladi: sutkalik xomashyo iste’moli $S = (a, c)$, ish vaqti sarfi $T = (a, t)$, ishlab chiqarilgan mahsulotning qiymati $P = (a, p)$ formulalar orqali hisoblanadi.

Masalaning MS Excel dasturidagi yechimi 1-rasmda keltirilgan.



A	B	C	D	E
Махсулот тури. Шартли	**Махсулотни ишлаб чиқариш сони,**	**Хом ашё харажати, кг/дона**	**Ишлаб чиқариш вақти, с/дона**	**Махсулот нархи, пул бирлиги/дона**
	A'	S	T	P
1	25	8	12	28
2	35	3	6	13
3	50	5	18	46
4	46	7	5	35
Масаланинг ечими				
S	877			
T	1640			
P	5065			

1-rasm. 1- masalaning MS Excel dasturidagi yechimi.

Demak, korxona bir kunda bir dona mahsulot uchun 877 kg xomashyo ishlatib, unga 1640 sekund (27,33 minut) vaqt sarflab ishlab chiqarganda, bu mahsulotning narxi 5065 pul birligiga teng bo‘lar ekan.

Mahsulot yoki boshqa resurslarning zaxiralari ma’lum bo‘lganda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini, xizmatlar ko‘rsatishni va shu kabilarni topishga bag‘ishlangan iqtisodiy masalalar chiziqli tenglamalar sistemasini yechishga keltiriladi. Buni quyidagi misol orqali ko‘rib chiqamiz.

2-masala. Korxona uch xil xomashyodan uch xil mahsulot ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish tavsifi 2-jadvalda berilgan. Xomashyoning berilgan zaxirasidan har bir turdagi mahsulotdan ko‘pi bilan qanchadan ishlab chiqarish mumkinligini aniqlash talab etiladi.

2-jadval.

Korxonaning ishlab chiqarish tavsifi

Xom ashyo turi	Xomashyoning mahsulot turlari bo‘yicha xarajati, og‘irlik birligi/dona			Xomashyo zaxirasi, og‘irlik birligi/dona
	1	2	3	
1	7	5	3	2 350

2	2	4	2	1 560
3	3	4	3	1 680


Noma'lum hajmdagi mahsulotlarning har birini mos ravishda x1, x2, x3 lar orqali belgilaymiz. U holda xomashyo zahirasini to'liq iste'mol qilish sharti bilan va boshqa resurslar bilan belgilanadigan cheklovlar bo'lmasa, balans munosabatlarini quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasi shaklida yozish mumkin bo'ladi:

$$\begin{cases} 7x_1 + 5x_2 + 6x_3 = 2350 \\ 2x_1 + 4x_2 + 3x_3 = 1560 \\ 3x_1 + 4x_2 + 5x_3 = 1680 \end{cases}$$

Ushbu chiziqli tenglamalar sistemasiga mos keluvchi asosiy matritsa va ozod hadlar matritsasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$A = \begin{pmatrix} 7 & 5 & 6 \\ 2 & 4 & 3 \\ 3 & 4 & 5 \end{pmatrix}, \qquad B = \begin{pmatrix} 2350 \\ 1560 \\ 1680 \end{pmatrix}$$

Bu sistemada tenglamalar soni noma'lumlar soniga teng. Shuning uchun bu uni teskari matritsani topish usulidan foydalanib yechish mumkin bo'ladi. Masalaning MS Excel dasturidagi yechimi 2-rasmda ko'rsatilgan ko'rinishda bo'ladi.



	A	B	C	D	E
1		A			B
2	7	5	3		2350
3	2	4	2		1560
4	3	4	3		1680
5					
6	Масаланинг ечими				
7	x1=	85			
8	x2=	330			
9	x3=	35			
10					
11					
12					

2-rasm. 2-masalaning MS Excel dasturidagi yechimi.

Demak, korxonada har bir turdagi xomashyoning berilgan zaxirasidan maksimal darajada foydalanib, xomashyoning mahsulot turlari bo'yicha sarfi 2-jadvalda keltirilganidek bo'lganda, korxona 1-tur mahsulotdan 85 dona, 2-tur mahsulotdan 330 dona va 3-tur mahsulotdan 35 donadan ishlab chiqarish imkoniyatiga ega ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi / Darslik. – T., 2009-y.

2. Aripov M., Haydarov A. Informatika asoslari / Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv-qo'llanma. – T.: "O'qituvchi". – 2002-y.

Sadulla BOLTOBAYEV,
Namangan davlat universiteti, tibbiyot fanlari nomzodi,
"Jismoniy madaniyat" kafedrasi mudiri
Sobit AZIZOV,
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi,
"Jismoniy madaniyat" fakulteti dekani

GANDBOLCHILARNING MUSOBAQA OLDI VA MUSOBAQA DAVRIDAGI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKLARI ULARDAGI STRESS HOLATLARINI OLDINI OLISH OMILI

Annotatsiya

Maqolada gandbolchilarni musobaqa oldi va musobaqa davridagi psixologik tayyorgarliklari o'yin paytida sodir bo'ladigan stress holatlarini oldini olishning asosiy omili ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar. Jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik.

В статье рассматривается психологическая подготовка гандболистов до и во время соревнований, как основной фактор, предотвращающий стрессовые ситуации.

Ключевые слова. Физическая подготовка, специальная физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, психологическая подготовка.

The article deals with the psychological training of handball players before and during the competition, as the main factor that prevents the occurrence of stressful situations during the games.

Key words. Physical preparation, special physical preparation, technical-tactical preparation, psychological preparation.

Gandbol o'yini bugungi kunda gandbolchidan har tomonlama mukammal tayyorgarlikni talab qilmoqda, chunki har tomonlama mukammal (jismoniy, maxsus jismoniy, texnik-taktik, intellektual, psixologik) tayyorgarliklar yetarli bo'lmasligi, maydondagi harakatlarning samarasiz tugallanishiga, xususan, jamoaning o'yinni muvaffaqiyatsiz tugatishiga olib keladi. Sport mahoratining yuksak bosqichida, ya'ni malakali, katta yoshdagi sportchilarda shunday ko'ngilsiz oqibatlar ro'y bermasligi uchun mashg'ulotlarni to'g'ri yo'naltirish, tayyorgarlikni barcha turlariga ilmiy asosda yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ayniqsa, mashg'ulotlarni tashkillashtirishda oydan-oyga, yildan-yilga mashg'ulot yuklamalarining hajmi va shiddati "zinapoya" sifatida emas, balki "to'lqinsimon" shaklda orttirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Har bir jamoaning murabbiysi o'z kasbiy faoliyatlarini ilmiy asosda tashkil qilishi, malakali gandbolchilar tayyorlash muammosining prinsipial jihatlaridan biridir.

Shunday qilib, tadqiqotning maqsadi, gandbolchilarni musobaqa oldi va musobaqa davridagi psixologik tayyorgarliklari, ulardagi stress holatlarini oldini olish omili

ekanligini o‘rganib, ilmiy jihatdan asoslashdan iboratdir.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Tadqiqot ishining asosiy materiallari mavzuga oid adabiyot manbalari va metodik hujjatlardan iboratdir. Tadqiqot ishida mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar va me’yoriy hujjatlar tahlili, umumlashtirish va qiyoslash metodlaridan foydalanilgan.

O‘zbekiston terma jamoasi qizlarini musobaqalarga tayyorgarlik darajalarini Shimoliy Koreya bilan birinchi o‘yindan oldin so‘rovnoma orqali aniqlandi:

1. Maqsadga intiluvchanlik – 71 foiz;
2. Jasurlik va qat’iyatlik – 69 foiz;
3. Harakatchanlik va tirishqoqlik – 75 foiz;
4. Tashabbuskorlik va ijodkorlik – 67 foiz;
5. O‘z-o‘zini boshqarish – 65 foiz.

O‘yindagi natija 26:25 Shimoliy Koreya terma jamoasi qizlari foydasiga.

Ikkinchi o‘yindan oldingi natijalar esa quyidagicha bo‘ldi:

1. Maqsadga intiluvchanlik – 81 foiz;
2. Jasurlik va qat’iyatlik – 79 foiz;
3. Harakatchanlik va tirishqoqlik – 82 foiz;
4. Tashabbuskorlik va ijodkorlik – 75 foiz;
5. O‘z-o‘zini boshqarish – 69 foiz.

Ikkinchi o‘yinda 32:27 hisobida O‘zbekiston terma jamoasi gandbolchi qizlari g‘olib bo‘lishdi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni tahlili shuni ko‘rsatdiki, murabbiylar ish faoliyatida gandbolchilarni musobaqa oldi va musobaqalar davrida psixologik tayyorlashda quyidagilarga alohida e’tibor berishlari o‘yinchilardagi stress holatlarini oldini olishga yordam beradi:

1. Sportchining tayyorgarligi. Sportchi o‘z oldida turgan musobaqaga qanchalik yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan bo‘lsa, u o‘zini shunchalik ishonchli his qiladi, uning ruhiy holati ham optimal darajada bo‘ladi, yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagan sportchida esa uning aksi kuzatiladi. Bunday sportchi nihoyatda qattiq hayajonlanadi, xavotirga tushadi.

2. Musobaqalashuv tajribasi. Sportchi turli miqyosdagi musobaqalarda qancha ko‘p qatnashgan bo‘lsa, uning shaxsiga xos ijobiy sifatlar, shunchalik yaxshi namoyon bo‘ladi. Biroq bunda sportchining jismoniy, texnik, taktik, nazariy va psixologik tayyorgarligini o‘zida mujassam etgan sport tayyorgarligi darajasi ham katta rol o‘ynaydi.

3. Musobaqalar miqyosi. Musobaqalarning miqyosi qanchalik baland bo‘lsa, sportchilardagi ruhiy zo‘riqish ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Chunki sportchining musobaqa faoliyati natijalarining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati, uning ‘‘g‘alabasi’’ yoki ‘‘mag‘lubiyati’’, sportchi yoki jamoaning, davlatning ijtimoiy maqomi va obro‘si oshishiga ta’sir ko‘rsatadi. Albatta, zo‘riqishning intensivligi sportchining oldiga qo‘ygan vazifalariga ham bog‘liqdir.

4. Emotsional holatlarning sur’ati. Emotsional holatlarning sur’ati sportchilarning musobaqa davomidagi motivlari darajasiga bog‘liq bo‘ladi, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– musobaqalarda qo‘lga kiritilgan g‘alaba, xususan, qo‘lga kiritilgan sport natijasi orqali o‘z shaxsiyatini namoyon qilish motivi;

– sport orqali o‘zining moddiy ehtiyojlarini qondirish motivi;

– sport murabbiysiga yaxshi munosabat, murabbiyning umid va ishonchini oqlash

motivi;

– sportga xos kurashchanlikka intilish, sportga muhabbat motivlari;

– o‘zini musobaqaviy faoliyatga xos bo‘lgan ekstremal sharoitlarda sinab ko‘rish motivlari;

– musobaqalardan g‘alaba quvonchini kutish motivlari;

– musobaqalarda yuqori sport natijalariga erishib, mamlakat terma jamoasi tarkibiga kirish motivlari;

– sport orqali dunyoni ko‘rish orzularini qondirish motivlari;

– dunyoviy rekordlarni o‘rnatish bilan bog‘liq motivlar;

– chempion bo‘lish, sovrindor bo‘lish va hokazo unvonlarga erishish bilan bog‘liq motivlar;

– sportchining estetik tuyg‘ulari bilan bog‘liq motivlar;

– sportchining – vatanparvarlik, mamlakat, jamiyat, jamoa oldidagi burchi va majburiyati tuyg‘usi, sportchilik sha’ni tuyg‘usi kabi ma’naviy tuyg‘ulari bilan bog‘liq motivlar.

Motivatsiyalar shaklining xilma-xilligi sportchining shaxsiy xususiyatlariga ham shuningdek, musobaqa ishtirokchilarining, sport natijalarining ijtimoiy ahamiyatiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Sport tayyorgarliklari tizimida musobaqada ishtirok etish motivini shakllantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Motivning ijtimoiy ahamiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, uni sportchi tomonidan yaxshi anglab yetilsa, sportchining yuqori sport natijalarini qo‘lga kiritishiga, xususan, musobaqalarda g‘alaba qozonishiga zarur bo‘lgan sharoit shunchalik yaxshiroq yaratilgan bo‘ladi.

5. Musobaqa ishtirokchilarining tarkibi. O‘z kuchlariga ko‘ra, teng raqiblar musobaqalashganda kurashlar yanada qizg‘in tus olib, sportchilarning emotsional zo‘riqishlari yuqori darajaga yetadi. Agar musobaqalashayotgan tomonlarning tayyorgarlik darajalari bir-biridan sezilarli farq qilsa, emotsional zo‘riqish ham shu qadar past bo‘ladi.

6. Musobaqalarni tashkil etish va jihozlash shart-sharoitlari. Odatda, musobaqa yomon tashkil etilsa, hakamlar noto‘g‘ri ish tutsalar, emotsional zo‘riqishning kuchayishi va agressiv, tajovuzkor his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishi yuz beradi. Bundan tashqari, agressiv his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishiga tomoshabinlar sonining, ayniqsa, musobaqalashayotgan sportchilarga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lmayotganlar sonining katta bo‘lishi ham sabab bo‘ladi.

7. Emotsional zo‘riqishning kelib chiqishi. Emotsional zo‘riqishning kelib chiqishi sportchi shaxsining individual xususiyatlariga ham bog‘liqdir. Bunga quyidagilar kiradi: asab turi, temperament, shaxsning xarakteri, sportchining irodaviy va ma`naviy rivojlanish darajasi.

8. O‘z-o‘zini tartibga solish usullarini egallaganlik darajasi. Agar sportchi o‘z-o‘zini tartibga solish usullarini egallagan bo‘lsa, bu uni turli noxush vaziyatlarda himoya qiluvchi ichki himoya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, stress holati yuzaga kelganda yoki musobaqa jarayonida ko‘plab sal’biy omillar paydo bo‘lganda tezkorlik bilan o‘z vaqtida ularni bartaraf eta oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Handball” History and stories Dr. Hassan Moustafa. 2013.
2. “Handball training” Werner Grage. 2012.
3. “Positions training” Axel Kramer. 2015.
4. Akramov L. A. Gandbol. Darslik. T. 2008-y.

G‘ofurjon ABDULLAYEV,
Namangan davlat universiteti, biologiya fanlari doktori,
“Fiziologiya va valeologiya asoslari” kafedrasi dotsenti,
Dilshoda JABBAROVA,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIDA OILAVIY MUHITNING SALBIY VA IJOBIY TA’SIRINI PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada bolalarning psixik rivojlanishida oilaviy muhitning salbiy va ijobiy ta’sirini psixologik jihatlari yoritilgan. Hamda oilada kelajakda uning xulq-atvor normalarini shakllantiradigan, ichki dunyosini boyitadigan insonning axloqiy tarbiyasi, madaniy rivojlanishi asoslari haqida, ajrim sabablari va oqibatlari, uning bola psixikasiga ta’siri bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Bolalar psixologiyasi, psixofiziologiya, oila muhiti, sog‘lom oila, xulq-atvor, to‘liq bo‘lmagan oila.

Статья о психологических аспектах и условиях отрицательного и положительного влияния семейной среды на психическое развитие детей, кроме того в статье приводятся статистические данные. Также освещаются нравственное воспитание человека, основы культурного развития, причины и последствия развода и его влияние на психику ребенка, которые формируют его нормы поведения в будущем, обогащает внутренний мир.

Ключевые слова. Детская психология, психофизиология, семейная среда, здоровая семья, поведение, неполная семья.

The article is about the psychological aspects and conditions of the negative and positive influence of the family environment on the children’s mental development; in addition, the article provides statistical data. It also highlights the moral education of a person, the foundations of cultural development, the causes and consequences of divorce and its impact on the psyche of the child, which form his norms of behavior in the future, enriches the inner world.

Key words. Child psychology, psychophysiology, family environment, wealthy family, behavior, incomplete family.

Oila – har birimizda mavjud bo‘lgan eng muhim qadriyatdir. Qadim zamonlardan beri O‘zbekiston oilaviy rishtalarni xalqning boyligidan biri sifatida ardoqlagan va asrab kelgan, chunki sog‘lom oila va kuchli davlat kuchli oila asosida shakllanadi.

Oilada kelajakda uning xulq-atvor normalarini shakllantiradigan, ichki dunyosini boyitadigan insonning axloqiy tarbiyasi, madaniy rivojlanishi asoslari qo‘yiladi. Oila uning ijtimoiy va ijodiy faoliyatini muayyan jihatdan rag‘batlantiradi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shadi. Oila institutining barqarorligi mamlakatning muvaffaqiyatli va har tomonlama rivojlanishining kafolatidir. Jamiyatda oilaning o‘rni uning kuchi va boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslanmaydi, chunki aynan oilada shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uning ijtimoiy rollarni egallashi sodir bo‘ladi. Bu insonning butun hayoti davomida his qiladigan birinchi ta’lim muassasasi vazifasini bajaradi.

Oila nafaqat shaxsiyatni shakllantirishga, balki insonning o‘zini-o‘zi tasdiqlashiga ham hissa qo‘shadi, uning ijtimoiy, ijodiy faoliyatini rag‘batlantiradi, individualligini ochib beradi.

L.B. Shnayder shunday deb yozadi: “Bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonligi holati sifatida belgilanadigan sog‘lig‘ini saqlab qolish va mustahkamlash bilan birga uning barkamol rivojlanishi mumkin. Ruhiy salomatlik – bu bolaning hissiy va kognitiv sohadagi farovonligi, fe’l-atvori rivojlanishi va shaxsning shakllanishi, bolalarning asab-psixik holatidir”. Bu faqat oilada bo‘lishi mumkin. Bola oilaning bir qismidir. Farzandsiz oila, xuddi oilasiz farzand kabi, to‘liq bo‘lmaydi. “Bola oilada o‘zining o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan barcha narsani oladi. O‘z navbatida, oila boladan uning o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan barcha narsalarni oladi. Boladan oilaga va aksincha, har ikkala yo‘nalishda ham o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sir mavjud.

To‘liq bo‘lmagan oilalarning ko‘payishi bevosita nikoh va oilaviy munosabatlar sohasiga bog‘liq:

– gender munosabatlar sohasida axloq normalarining o‘zgarishi;
– nikohgacha bo‘lgan aloqalar;
– erkaklar va ayollarning an’anaviy rollari o‘zgarishi;
– oila ishlab chiqarish funksiyasini yo‘qotishi;
– yoshlarning nikohga tayyor emasligi;
– turmush o‘rtog‘iga nisbatan oshirib yuborilgan talablar;
– alkogolizm va giyohvandlik.

To‘liq bo‘lmagan oilalarning paydo bo‘lishining bir necha sabablari bor. Ularning eng keng tarqalgani, turmush o‘rtoqlarning ajralishi sababli oilaning buzilishi bilan bog‘liq.

To‘liq bo‘lmagan oila – bu oilada faqat bitta yoki bir nechta bolali bitta ota-ona mavjudligidir. Buning sababi, turmush o‘rtog‘idan birining o‘limi yoki spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish, turmush o‘rtoqlarning oilaviy tartibsizligi, oilaviy xiyonat, uy vazifalarini taqsimlash bilan bog‘liq muammolar va psixologik nomuvofiqlik bilan bog‘liq holda ajralish bo‘lishi mumkin. Ammo ko‘pincha to‘liq bo‘lmagan oila bola noqonuniy tug‘ilishi yoki hatto yolg‘iz ayol tomonidan boshqa birovning bolasini qabul qilishi natijasida shakllanadi. Ushbu oilalardagi bolalar mustaqil fikrlashi, aqli va emotsiyalari bilan ajralib turadi. To‘liq bo‘lmagan oila zamonaviy oilaning asosiy ijtimoiy-demografik turlaridan biridir.

Ijtimoiy-iqtisodiy muammolar barcha to‘liq bo‘lmagan oilalar uchun ham xos emas; har qanday holatda ham, ularni oila a’zolari, ayniqsa, bolalarning shaxslararo munosabatlarida mavjud bo‘lgan ijtimoiy-psixologik muammolardan ko‘ra hal qilish osonroqdir. Bular, birinchidan, xafagarchilik, zulm va o‘zlarining kamsitilish hissi, bunday vaziyatga ota-onalari ajrashganidan keyin bolalar duch kelishi mumkin. Bolalar ko‘pincha oilaning buzilishi uchun o‘zlarini ayblashadi. Ikkinchidan, ayollar oldida kamdan-kam uchraydigan bolalar oldida aybdorlik hissi (chunki aksariyat hollarda to‘liq bo‘lmagan oilalar bolalarni yolg‘iz o‘zi tarbiyalayotgan onadir), ularni haddan tashqari himoya qilish uchun sababdir. Farzandlari turmush darajasining farovon oilalar farzandlari bilan solishtirganda pasayishining oldini olish maqsadida, ona ortiqcha og‘ir mehnatda qoladi, lekin ortiqcha ish tufayli, o‘z navbatida, ularga yetarlicha vaqt va e’tibor bera olmaydi. Shuningdek, ayol o‘z oilasida, oilasining buzilishida aybdor bo‘lgan sobiq turmush o‘rtog‘iga nisbatan shafqatsizlik ko‘rsatib, unga nisbatan g‘azabini namoyon etadigan holatlar ham uchrab turadi. Nima bo‘lganda ham, oilada qulay psixologik iqlim

mavjud bo‘lmaydi.

To‘liq bo‘lmagan otali oilaning muammolari o‘ziga xosdir. Bu mutlaqo an’anaviy model emas, shuning uchun butun hayot tarzi, shu jumladan, jamoatchilik idrokining odatlari unga to‘liq moslashmagan. Bundan tashqari, bolasi bo‘lgan ota, yolg‘iz onaga nisbatan ko‘proq “turmush qurish qobiliyatiga ega”, u yangi oila qurish uchun ko‘proq imkoniyatga ega. Shuning uchun bunday oilaning muammolaridan biri bola va otaning yangi rafiqasi (ehtimol uning bolalari bilan) o‘rtasidagi munosabatlarni qurish bo‘ladi.

Voyaga yetmagan bolalari bo‘lgan to‘liq bo‘lmagan oilaga jamiyat e’tiborini tortadigan navbatdagi xususiyat bolalar salomatligi sifati bilan bog‘liq. Bolalarning sog‘ligi darajasini o‘rganayotgan pediatrlar, to‘liq bo‘lmagan oilalar to‘liq oilalarga qaraganda ancha og‘ir, o‘tkir va surunkali kasalliklarga duchor bo‘lishlari mumkin degan xulosaga kelishdi. Shu bilan birga, mutaxassislar bolalar sog‘ligining noqulay ko‘rsatkichlarini nafaqat ajralish stressining ta’siri bilan, balki ajralishdan keyin, onaning adaptatsiyasi bilan bog‘lashadi, bu esa, avvalambor, uning vazifasini bajarishni talab qiladi oilani moddiy qo‘llab-quvvatlash bolalarning tarbiyalash va sog‘ligini mustahkamlash bo‘yicha an’anaviy onalik majburiyatlariga ziyon yetkazishdir. Shifokorlar, shuningdek, to‘liq bo‘lmagan oilaning turmush tarzidagi sezilarli farqlarni ta’kidlaydilar, bu zararli odatlar, chekish, spirtli ichimliklarni iste’mol qilish, to‘liq bo‘lmagan oilada ijtimoiy va maishiy va uy-joy muammolari, gigiena me’yorlariga rioya qilmaslik, bolalar qarovsiz hayoti, o‘z-o‘zini davolash va bolalar kasal bo‘lganda shifokorlarga muorjaat qilishning imkoniyati yo‘qligi va h.k.

Shunday qilib, to‘liq bo‘lmagan oila – bu qisman to‘liq bo‘lmagan aloqalarga ega bo‘lgan kichik guruh, bu yerda ota-ona va bola munosabatlarining an’anaviy tizimi mavjud emas.

Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi aloqalar insonning eng kuchli rishtalaridan biridir. “Oila birligini buzilishi, shuningdek, bola shaxsini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan emotsional aloqalarni, rivojlanishning muhitining yo‘q bo‘lishiga olib keladi”. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar har doim ota-onalarning o‘zaro munosabatlari, oilaning turmush tarzi, sog‘ligi, farovonligi va uning baxt-saodati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bolaning farovonligini do‘stona muhitda rivojlanadi va bunday xavfsizlik hissi beradigan va shu bilan birga uning rivojlanishini rag‘batlantiradigan va boshqaradigan oilaviy munosabatlarning tizimidir.

Oilaviy munosabatlarning bolaga ta’sirining o‘ziga xosligini ta’kidlab, L.B. Shnayder ota-onaning mehrini ta’kidlaydi. “Inson sevgida kurtak yozishi, sevgida tug‘ilishi va butun bolaligini odamlar orasida sevgi va o‘zaro hurmat muhitida o‘tkazishi kerak”. Sevgi – bu bolaning ma’naviy rivojlanishi, hissiyotlari, axloqiy fazilatlari, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va asosiy dunyoqarashining eng buyuk va ajralmas manbaidir. U g‘amxo‘rlik, odamlarga muhabbat manbai. Bola uchun oila tug‘ilgan joy va asosiy yashash joyidir. Faqat oilada bola o‘zini jismoniy va ma’naviy jihatdan rivojlantiradigan hayot yo‘lini boshlaydi.

Oilaning ta’siri quyidagicha amalga oshiriladi va o‘zini namoyon qiladi:

Oila tashqi dunyo bilan aloqada bo‘lganida, uni tadqiq etishni va unga javob berishning yangi usullarini egallashda bolaning xavfsizligini ta’minlash orqali asosiy xavfsizlik hissi bilan ta’minlaydi.

Bolalar ota-onalaridan xulq-atvorning ayrim tayyor usullarini o‘zlashtirgan holda, muayyan xatti-harakatlarini o‘rganadi.

Ota-onalar muhim hayotiy tajribalarning manbaidir. Ular muayyan xatti-harakat-

larni rag‘batlantirish yoki qoralash, shuningdek jazoni qo‘llash yoki bolaning xatti-harakatlarida qabul qilinadigan erkinlik darajasiga imkon berish orqali bolaning xatti-harakatlariga ta’sir qiladi.

Oila – bu ma’lum axloqiy va psixologik iqlim, bu bola uchun odamlar bilan munosabatlar maktabidir. Aynan oilada yaxshilik va yomonlik, odob-axloq to‘g‘risida, moddiy va ma’naviy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish haqidagi g‘oyalar shakllanadi. Oiladagi bola atrofdagi dunyo haqida asosiy ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Yaqin odamlar bilan u sevgi, do‘stlik, burch, javobgarlik, adolat tuyg‘ularini his qiladi...

Bola ham ota ham onaga muhtojdir, ya’ni u mehribon ota va onaga har doim intiladi. Turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi munosabatlar bolaning shaxsiyatini rivojlantirishga ulkan ta’sir ko‘rsatadi. Ziddiyatli, keskin muhit bolani asabiy, injiq, itoatsiz, tajovuzkor qilib qo‘yadi. Ota-onalar o‘rtasidagi urush-janjallar bolani ruhiy va jismoniy jihatdan shikastlantiradi.

Nikoh munosabatlarining patologiyasi shaxsning ruhiyatida ham, uning xatti-harakatlarida ham anomaliyalarni keltirib chiqaradi va bundan tashqari u juda jiddiydir. “Bolaning kelajakdagi hayoti uni kim va nima o‘rab turganiga, oilada qanday munosabatlar ustunligiga, uning qanday ulg‘ayishiga ta’sir qiladi: qo‘pol, xudbin yoki mehribon inson bo‘lib yetishadi”.

Bola ulg‘aygan oila kelajakda u yaratadigan oila uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilar turli yoshdagi va bir xil yoshdagi ota-onalari bo‘lgan oilalarda ota va onaning bolani tarbiyalashga bo‘lgan munosabatidagi sifat farqlarini aniqladilar. Er va xotin o‘rtasida farq 10-15 yosh undan yuqori bo‘lganda turli yoshdagi oilalar shakllanadi. Agar er-xotinlar bir xil yoshda bo‘lsa yoki yosh farqi uncha katta bo‘lmasa bir xil yoshdagi oilalar shakllanadi.

Eksperimental tadqiqotda tadqiqotchilar tomonidan olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bir xil yoshdagi ota-onasi bo‘lgan oilada ona asosiy parvarish va nazorat funksiyasini bajaradi. U bola bilan munosabatlarda ko‘proq avtoritar va simbiotik avtoritardir. Bola bilan o‘zaro aloqada u cheklash yo‘li bilan nazoratga olishni namoyish etadi, u o‘z ehtiyojlari va bola uchun eng yaxshisi nimaligi g‘oyalarini ishlab chiqadi va shu bilan uning irodasi va ehtiyojlarini boshqaradi. Ota ko‘proq chetda turadi, ammo onasi singari avtoritar pozitsiyani egallaydi va bu turdagi oilalarda yetakchi emas. Bola o‘z ehtiyojlarini faol ravishda ko‘rsatishga va o‘z faoliyatini amalga oshirishga majbur. Ota-onalar va bola o‘rtasidagi tez-tez ziddiyatli vaziyatlarda bola shaxsining faol turi shakllanadi.

Turli yoshdagi oilaning bolasi o‘zaro munosabatlarda “subyekt-baholovchi”, “subyekt-koordinator” va “subyekt-ehtiyoj obyekti” funksiyalarini bajarishga moyil. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, bola pozitsiyasidagi bunday o‘zgarishlar turli yoshdagi ota-onalar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni yanada murakkab tashkil etish bilan belgilanadi.

Bunday oiladagi bola ikki raqobatdosh pozitsiya o‘rtasida bo‘ladi va natijada, “subyekt – baholovchi”, “subyekt – koordinator” funksiyalari shakllanadi. Bunday funksiyalarni shakllantirishning asosiy sharti - bu ota va onaning pozitsiyalarining mos kelmasligidir.

Turli yoshdagi oilalarda ota-ona va bola munosabatlari tarkibida ma’lum siljish mavjud. Erkaklar ko‘pincha xotiniga nisbatan “er-ota” pozitsiyasini, xotin esa eriga nisbatan – “xotin-bola” pozitsiyasini egallaydi. Bolaning bu oilaga qo‘shilishi qiyin, uning “bola” pozitsiyasi allaqachon egallab bo‘lingan. Endi u oiladagi ahamiyati, ushbu ijti-

moiy tizim tomonidan iste'mol obyekti vazifasi uchun kurashishi kerak.

Tadqiqot ma'lumotlari turli yoshdagi ota-onalari bo'lgan oilada onaning va bolaning pozitsiyalari bir-biriga yaqin bo'lganligini tasdiqlaydi: ular bir-biri bilan sheriklik aloqalaridadir. Turli yoshdagi otalar ijtimoiy himoya funksiyasini bajaradilar, ular o'z farzandiga ham, xotiniga ham g'amxo'rlik qiladi va nazorat qiladi. Bunday oiladagi ota ko'proq avtoritar va himoya qilish funksiyasini bajaradi. Ushbu shartlar bolaga oilada baholovchi yoki koordinator holatini egallashga imkon beradi, bu odatda katta va tajribali subyektlar uchun faoliyatni tashkil qilishda eng xarakterli rol hisoblanadi.

Shunday qilib, har xil yoshdagi ota-onalarning farzandlari, bir xil yoshdagi ota-onalarning farzandlari bilan taqqoslaganda, o'z-o'zini anglashning yanada murakkab shakllariga moyilroqdir; ular o'zlarini boshqa odamning harakatlarini baholash yoki muvofiqlashtirish orqali amalga oshiradilar.

Oila shaxsiyatni yaratishi yoki uni yo'q qilishi mumkin, bu shaxsning ruhiy salomatligini mustahkamlash yoki uni izdan chiqarish oilaning kuchidir. Oiladagi o'zaro munosabatlar jarayoni hissiyotlarni tanlab boshqaradi, ba'zi bir hissiyotlarni chiqarish kanallarini qo'llab-quvvatlaydi va boshqalarini esa tormozlaydi. U identifikatsiyalash chegaralarini ko'rsatadi, shaxsning "Men" obrazining paydo bo'lishiga yordam beradi. Shaxs hayotda duch keladigan xavfni oila belgilaydi.

Oilaviy munosabatlar tajribasi bola uchun nafaqat uning shaxsiyatini, xulq-atvorining muayyan shakllarini va boshqalar bilan munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, bola Yaratuvchi haqidagi idrokini shakllantiradi, u bilan aloqa qiladi, shuningdek, oilaviy tajriba bolaning aqliy rivojlanishini shakllantiradi.

Insonlar ota-onalar bo'lib tug'ilmaydi. Ular hayotda ota-onalarga aylanishadi. Bu hayotning tabiiy qonuniyatidir. Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, shaxsni rivojlantirishning boshlang'ich nuqtasi oilaviy hayot va ota-onalar bilan bo'lgan munosabatlardir. "Insonning eng mas'uliyatli va muqaddas kasblaridan biri – ota va ona bo'lish – eng kam sog'liq va balog'at yoshi bilan mavjud. Ammo faqatgina shaxsiy dindorlik bu imkoniyatga jiddiy yondashishga imkon beradi". Otalik va onalik uyg'unligi bolani kattalar dunyosiga kiritadi. Ota va onaning obro'si va o'rnagi – bu o'sish, aqlan va ma'naviy jihatdan sog'lom insonni tarbiyalashning asosiy omilidir.

Har bir millatning oilaviy urf-odatlari va ular bilan bog'liq huquqiy munosabatlar mavjud. O'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlari bor. Sharaf va qadr-qimmat uchun o'zlarini ayamagan buyuk ajdodlarimizning hayoti va ishlari tarixda saqlanib kelinmoqda. To'maris, sha'ni va erkinligini himoya qilish uchun bosqinchilarga avvalo, uning oilasi uchun fidokorona kurash olib bordi. Alpomish sevimli Barchinoyni ozod qilish uchun uzoq qalmiq dashtlariga borgan. Afsonaviy qo'mondon Amir Temur oilaning sha'ni va qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'ygan. O'zbekiston xalqi tomonidan yaratilgan tarbiya tizimi har doim oldingi avlodlar to'plagan ijtimoiy tajribani ko'plab tarixiy davrlarga o'tkazish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilgan. O'zbek xalq pedagogikasi nihoyatda boy folklor materiallariga ega: epik she'rlar, turli xil ertaklar, qo'shiqlar, maqol va matallar, topishmoqlar. Ularning barchasi doimiy bilim va tarbiyaviy ahamiyatga ega, ular hozirgi paytda o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Mehnat g'oyasi xalq pedagogikasida alohida o'rin tutadi. Mehnat ta'lim jarayonining asosiy shartidir. Yoshlar orasida mehnatsevarlikni shakllantirish insonda aqliy yetuklik, jismoniy salomatlik, axloqiy va estetik tamoyillarni shakllantirish bilan bog'liq. O'zbek oilalarida ota-onalarga nisbatan yuqori obro'-e'tibor va hurmat saqlanib qolgan. Oila qurishda ota-onaning duosini olish zarurligiga amin bo'lgan fuqarolarning ulushi

o‘sishda davom etmoqda. Mamlakatning har ikkinchi aholisi oilani yaratish uchun yangi turmush qurganlarning moddiy mustaqilligi va o‘zaro muhabbat zarurligiga amin. Biroq, turmush qurgandan so‘ng, o‘g‘il bolalar bir-birlariga va kenja o‘g‘li odatda o‘zi bilan birga qoldigan qoladigan ota-onalariga doimiy ravishda yordam berish uchun ota uyida yashashadi. Har qanday oila hali ham mustahkam o‘rnatilgan oilaviy aloqalarni uning mulki deb biladi va shuning uchun bolalarda oilaviy tuyg‘ularni tarbiyalashga katta e’tibor beradi.

O‘zbekistonda sog‘lom oila yaratish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Respublikamizda oila institutining ahamiyati mamlakatning har bir fuqarosi uchun yuksakdir. Buning sababi shundaki, ular asosiy maqsadni, avvalo, mamlakatda va jamiyatda barqarorlikni ta’minlash va mustahkamlashda, barkamol yosh avlodni tarbiyalashda ko‘rishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Каримов И. Узбекистан на пороге XXI века. Угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – Т.: Ўзбекистон. 1997. – С.131.

2. Антология педагогической мысли Узбекистана. – М.: Педагогика. 1996. – С. 285-286.

3. Вишневский Ю. Р. Практикум по социологии молодежи. – М.: Социум, 2010. С.109.

4. Гонеев А. Д., Лифинцева Н. И., Ялпаева Н. В. Основы коррекционной педагогики: Учеб. Пособие для студ. высш. пед. учеб.С. 61

5. Дементьева И. Негативные факторы воспитания детей в неполной семье // Соц. исслед. – М., 2011. № 11. С. 108-118.

6. Дементьева И. Степень социальной ответственности подростка в полной и неполной семьях. Воспитание шк.-в. 2013. № 10. С. 13-17.

7. Никитин В. О. Социальная педагогика: Учеб. пособие для студентов высш. учеб. заведений. М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2012. С.272.

8. Павлов Б. С. Неполная семья как объект дифференцированной социальной защиты. Институт экономики УрР РАН, Ч. 2. Екатеринбург, 2016. С. 96.

Xurshid MIRZAHMEDOV,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

YOSHLAR SOTSIOLOGIYASI: INNOVATSION TARBIYA

Annotatsiya

Yoshlarning ong va tafakkurini o‘zgartirishga urinish barkamol avlod, ya’ni iffatli yoshlarning yuksak ma’naviyatini tarbiyalashning og‘irlashib borishi kuzatilmoqda. Ijtimoiy tarbiyada yoshlarning intizomi va mas’uliyatini shakllantirish davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarida tarbiya nochorligi holatini ko‘rsatkichiga aylananligi to‘g‘risida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Globallashuv, yoshlar, tarbiya, innovatsiya, onlayn tahdidlar, milliy intizom va mas’uliyat.

Наблюдается стремление изменении в сознании и мышлении молодежи, что осложняет проблемы воспитании высокой духовности молодежи. Формирование дисциплины и ответственности молодежи в социальном воспитании стали показателями воспитательное банкротство в отношениях государство, общество и личности.

Ключевые слова. Глобализация, молодежь, воспитание, инновация, угрозы онлайн, национальная дисциплина и ответственность.

There is a tendency to change in the consciousness and thinking of young people, which complicates the problems of educating high spirituality of young people.

Key words. Globalization, youth, education, innovation, online threats, national discipline and responsibility.

Bozor munosabatlarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarini kapitallashuvi jarayoniga aholining innovatsion pul topish va iste’molchilik yashash kayfiyati yoshlar ma’naviyatida transformatsiyalashuvi murakkab tarbiya muammolarini tug‘dirmoqda. Natijada, yoshlar fenomenida kashfiyotchilik qobiliyatidan susayishi bilan globallashuvi tufayli iste’molchilik kayfiyati 99 foizga oshib ketishini kuzatish mumkin. Yoshlarning ong va qalbida ijtimoiy iffatni saqlab qolish kundan kunga og‘irlashib borishi har bir ota-onaning tarbiyaga innovatsion yondashuvida ijtimoiy hamkorligini talab etmoqda. Bu oila, davlat va jamiyat ijtimoiy hamkorligini bola tarbiyasi yuzasidan yangi (oilaviy) yuvenologik immun innovatsiyasini yaratish dolzarb masala hisoblandi.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlarning ma’naviy tarbiyasi ‘‘Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan’’ – deya ta’kidladi.

Jamiyat yoshlarining ehtiyoj, xohish-istagi, orzu-umidi, turmush falsafasini yuqori

ijtimoiy maqomini to‘g‘ri yo‘naltirish uchun ta’lim va tarbiyada chet el tajribasidan milliy xususiyatni saqlagan holda unumli foydalanish, millat yoshlarining tarbiya immunitetini shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Fikrimizni Yapon tajribasi: oilada ota-ona o‘z farzandini “Ikudzi” nomli tarbiya berish usuli bilan voyaga yetkazishi, inson tabiyatida vatanparvarlik, millatparvarlik, insonparvarlik sifatlarini shakllanishi bilan dalillaymiz.

Yaponiya tajribasi: “Ikudzi” tarbiya texnologiyasi:

Yapon oilalarida dunyoga kelgan farzandga nisbatan besh yoshgacha farzand − poshsho, o‘n besh yoshgacha − qul, o‘n besh yoshdan keyin − do‘st sifatida munosabatda bo‘lishadi. Ayniqsa, bu faqat pedagogik ta’lim berish majmui bo‘libgina qolmay, yangi avlod ta’lim olishiga yo‘naltirilgan falsafadir.

Ona va bola birdamligi tamoyili. Yaponiyada ona ‘‘amae’’ deb nomlanib, ma’nosi ‘‘amaeru’’ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, ‘‘erkalash’’, ‘‘homiylik qilmoq’’ ma’nolarini anglatadi. Yaponiyada ona obrazi kasblashtirilgan, yapon ayolini onalik kasbiga hech kim xalaqit bermaslik kerak. Yapon ayolning asosiy majburiyati − onalikdir, o‘zini butunlay oilaga bag‘ishlashi yapon ayoli uchun tabiiydir. XX asrgacha yapon ayoli bola tarbiyasi va xonadon ishlari bilan shug‘ullanishgan bo‘lsa, bugungi kunda esa zamonaviy yapon ayollari bola tarbiyasidan ortgandan so‘ng ta’lim olishadi, ishlashadi va sayohat qilishadi. Yaponiyada o‘z majburiyatlarini birovning zimmasiga yuklab qo‘yish tartibi bo‘lmaganligi uchun kichkintoy bir yoshga to‘lmaguniga qadar ona va bola − bu bir butunlikni tashkil qiladi. Ona qayerga bormasin, nima ish qilmasin, chaqaloq doim ona bilan bo‘lishi zarur. ‘‘Amae’’ − o‘z farzandining yillar davomida soyasiga aylanadi, muntazam jismoniy va ruhiy munosabat, bolada onaga bo‘lgan mustahkam obro‘-e’tibor negiziga aylanadi.

Bola – poshsho tamoyili. Ikudzi nuqtayi nazarlariga ko‘ra, besh yoshgacha bolaga farishtadek munosabatda bo‘lishadi. Yapon bolasiga hech narsa ma’n qilinmaydi. Natijada, yapon bolasi o‘zining bilim orttirish dunyosida erkin hayot kechiradi. Ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi. 1994-yil Amerika va Yaponiya o‘rtasida bolalarga tarbiya hamda bilim berish bo‘yicha tafovut ilmiy-tekshirishi o‘tkazilgan. Olim Azuma Xiroshi ikki xil madaniyat vakillari ona-bolasidan piramida-konstruktorini yig‘ish shartini e’lon qildi. Natijada, tadqiqotchilar shuni guvohi bo‘lishdiki, yapon ona avval konstruktorni o‘zi yig‘ib, buni o‘z farzandiga ko‘rsatgan. Keyin bolasidan o‘zi − mustaqil ravishda yig‘ib ko‘rishini so‘ragan. Bolaning qo‘lidan kelmasa, ona yana bir marotaba yasab ko‘rsatib bergan. Amerikaliklar esa konstruktorni yasashdan avval, uning yasalish algoritmi haqida bolasiga tushuntirgan, so‘ngra ona-bola konstruktorni birgalikda yasashni boshlashgan.

Pedagogik usullarning sezilarli farqini Azuma ota-onalikning ‘‘tushuntiruvchanlik’’ turi deya sharhladi. Ya’ni, yapon ayollari o‘z farzandlariga muomala va ish-harakatlari orqali ‘‘tushuntirishadi’’. Shu bilan birga farzandlariga yoshligidanoq o‘z hissiyotlarga, yaqinlari va hatto buyumlarga ham e’tiborli bo‘lishni o‘rgatishadi. Sho‘x kichkintoyni hech qachon issiq choynak oldidan haydashmaydi, bolakay kuyib qolsa, ‘‘amae’’ ish-harakatlari bilan band bo‘lib e’tiborsizlikdan unga og‘riq yetkazganini eslatib undan uzr so‘rab qo‘yadi. Boshqa misol: erkalanib ketgan bolakay hamma o‘yinchoqlarini sindirib tashlaganda rus yoki o‘zbek onalar qanday yo‘l tutadi? Taxmin qilish mumkinki, qo‘lidan o‘yinchoqni tortib olib, uni sotib olish uchun qancha mehnat qilganligi haqida ‘‘ma’ruza’’ o‘qib, keyin jismoniy jazo bilan boshqa qimmatbaho o‘yinchoq olib bermaslikni aytadi. Yapon ayoli esa hech qanday chora qo‘llamaydi. Farzandiga ‘‘Sen

uning jonini og‘rityapsan’’ deydi xolos. Buni natijasida, yapon bolalarida ‘‘Men’’ timsoli hamda ‘‘yaxshi’’ − tarbiyali va chin dildan sevuvchi ota-ona fikri shakllanadi.

Bolaning qullik tamoyili. Yapon farzandi besh yoshidan keyin rioya qilishi shart bo‘lgan berahm qoida va cheklanishlar ‘‘shafqatsiz haqiqat’’ bilan yuzlanadi. Yapon jamiyatida jamoa bo‘lib yashash va jamoaviy qiziqishlar barcha narsalardan ustun urf-odat hisoblanib, aynan shu sabablarga ko‘ra bolalarga 5 yoshgacha ushbu guruh a’zosi bo‘lishni o‘rgatishadi. Doim o‘zgaruvchi tarbiyachi yoki maxsus tayyorlovchi maktab o‘qituvchisi ham murabbiy yoki tarbiyachi rolini emas, “yo‘naltiruvchi” vazifasini bajaradi. Ya’ni bolani ongida oilaviy tarbiya mexanizmi va ota-ona idealiga zarar keltirmaydi. Yapon bolakaylarining sevimli mashg‘uloti komandada bajariladigan sport o‘yinlari, estafeta va xor qo‘shiqlarini kuylashdir. Bolani turli xil jamiyat qonun-qoidalariga rioya qilishda ona obrazi yordam beradi. Shunday qilib, bolakayning keyingi 10 yil hayoti guruhning bir qismi bo‘lishga, jamoada kelishib ishlashga o‘rgatadi. Bunga ko‘ra, unda guruhiy ongi hamda jamoaviy javobgarligi shakllanadi.

Bolaga do‘stlik munosabati tamoyili. Yapon farzandi 15 yoshdan keyin to‘laqonli shakllanib voyaga yetgan shaxs sanaladi. Ikudzi − tarbiya berish shakli bilan vataniga sodiq, qonunlarga rioya qiluvchi tarbiyali fuqaroni katta qilishda yordam beradi.

Globallashgan axborot texnologiyalari, ijtimoiy munosabatlarning demokratik transformatsiya sharoitida ta’lim va tarbiya muammolariga ananaviylik va zamonaviylikning eng muqobil uslubiyati va vositalarini qo‘llash ehtiyoji ortib boradi. Shu bilan birga milliy pedagogik tarbiyaning ananaviy azaliy shakl va vositalari mavjudki, insoniyat kelajagini kelgusi mingyilligida ham o‘zini qimmatini yo‘qotmaydi. Tarbiya muammolari ayni paytda “eskirmaydigan” milliy jihatlari mavjud bo‘lib zamonaviylikka ortiqcha urg‘u berish aks natija berishi ham mumkinligini yodda saqlash lozim.

Eng oliy jazo tamoyili. Axloqiy jihatdan aybdor bola uchun eng oliy jazo o‘qituvchining o‘zining o‘quvchilaridan ixlosi qaytishi hisoblanadi. Yo‘qotilgan ishonchni qayta tiklash uchun o‘quvchi va uning ota-onasi juda ham ko‘p ter to‘kishlariga to‘g‘ri keladi.

Biz yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagicha taklif va tavsiyalarni havola etamiz:

- Tarbiya muammolari davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarining bir butun tizimlilik va funksionallik tamoyilida ishlashi, ijtimoiy talab va ehtiyojni ortib borishi ijtimoiy amaliyotini monitoringi vaziyatni oydinlashtirib borishi zaruratga aylandi;
- Ta’lim va tarbiyada innovatsion usul va yondoshuvlar yuqoridan emas, balki har bir mintaqa xususiyatidan kelib chiqqan holda tashkil etilishi darkor. Yoshlarning smartfon va zamonaviy qurilmalarga egaligi ta’lim-tarbiya tizimini izdan chiqarib, axborotlashuvning me’yori va tolerantlik madaniyatiga ehtiyojni tug‘dirmoqda;
- tarbiya muammolarida nazariya va amaliyot bo‘shliqlari, hatto noandozaviy holatlarda “boqimandalik, davlat majburiyatlari” ijtimoiy ongda salbiy illatlarni tarkib topishga olib keldi;
- yoshlarni tarbiyasida mehnat tarbiyasi, erkak va ayol tarbiyasi bolaning shakllanishida jiddiy oilaviy va ta’lim intizomini qayta tiklash, milliy xususiyatdan kelib chiqib, tarbiyani tizimli texnologiyalashtirish kerak;
- kelajakda o‘g‘il bola tarbiyasida namunali ota (kuch-quvvatli, chidamli, intizomli, mas’uliyatli, sabr-toqatli) bo‘lish xususiyati, qiz bolada esa ona bo‘lish (latofat, yumshoqlik, mehribonlik, nafosat va farosatlilik) xususiyatini saqlashga ehtiyoj ortib bormoqda.

- o‘quvchi va talabalarda yangi ijtimoiy ideal milliy harbiy vatanparvarlik maktabi, yozgi mehnat-rohat lageri, ta’lim-tarbiyada psixologik motivatsiya beruvchi ta’lim formasini qo‘llash kerak. (Masalan: matros yoki uchuvchilarni kiyim formasi).
- yoshlarning milliy intizomi deganda milliy odat va an’analarga sadoqat, avlodlarning ma’naviy meros va boyliklarni milliy manfaatlar yo‘lida o‘rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish vazifasini tushuntirishdir.
- ta’lim-tarbiyaga innovatsion yondashuv: smartfonlarda bog‘cha yoshidagilarga bola aqlan va ruhan rivojlanishi uchun smartfon dasturi (Misol: 1-sinf uchun ‘‘Gapiruvchi alfavit’’ dasturi), maktab yoshidagi bola-o‘spirinlarga maktab fan-programmasini tez va qulay o‘zlashtirish uchun maktab fanlarini o‘yin va interaktiv dasturlarini yaratish zarur;
- ta’lim tizimi adabiyot darslarida o‘quvchilar asarni to‘laqonli anglash uchun audio kitob va audio teatr lingafon xonalarini tashkil etish zarur;
- oilada ota-ona tomonidan dastlabki mutolaa muhabbatini shakllantirish kerak.

Ta’lim va tarbiya tahlil va talqinlari Yaponiyada maktab o‘quvchilariga ko‘p asrlar davomida yashab kelayotgan millat milliy o‘zligi va qadriyatlarini saqlab qolish va avloddan-avlodga yetkazish uchun “Shodo va xayku” she’riy san’atini dars mashg‘ulotlaridan tashqari o‘rgatiladi. Fransiyada taniqli arxitektorlar mamlakati sifatida ta’limda an’anaviy dars mashg‘ulotlaridan tashqari o‘quvchilarga dizayn va arxitektorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun to‘garaklar tashkil qilinadi. Italiyada qo‘shimcha darslarni ta’lim sohasida o‘zgachaligi rassom va xaykaltaroshlar VATANI maqomini saqlab qolish uchun ham dars mashg‘ulotlaridan keyin o‘quvchilarga to‘garaklar tashkil qilinadi. Rossiya tarixan mudofaa ehtiyoji yuqorligi va ta’lim tizimida xarbiy litseylarni tashkili orqali yoshlarda vatanparvarlik va jangovorlik ruhini saqlab qolish uchun qo‘shimcha darslarni tashkil qiladi.

Oilaviy tarbiyani jamiyatda yo‘qolishi yoshlarni YURTga sadoqat kayfiyatini susaytiradi. Er-yigitni xarbiy xizmatga bormasa, davlatning mudofaa va xavfsizlik kuch-qudrati pasayishi mumkin. Bu hol davlatga nisbatan urush va bosib olish kayfiyatini hosil qiladi. Oilaviy tarbiyani qiz bolada yo‘qolishi ona bo‘lish, halol turmush o‘rtoq bo‘lish kayfiyati o‘ladi. Bunday jamiyat va davlat halokatga uchraydi. Shu sabab, yoshlarni oilada xush fe’l va ezgu fazilatli qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi muhim masala hisoblanadi. Bugungi globallashuv davrida etnokonfessional qo‘l-oyog‘i, tilso‘zi, ko‘zi-qulog‘i ijtimoiy iffatli avlodni tarbiyalash, bir farzandni voyaga yetkazish eng buyuk jasoratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yaponlarda bolalar tarbiyasi qanday? URL: ttps://farzand.uz/post/yaponlarda-bolalar-tarbiyasi-qanday [ko‘rilgan muddati: 22.04.2021]

2. Shavkat Mirziyoyev: yoshlar tarbiyasi – eng muhim masalalardan URL: https://soglom.uz/archives/8338 [ko‘rilgan muddati: 22.04.2021]

3. Как правильно растить детей или секреты японского воспитания! URL:https://hronika.info/obwestvo/21135-kak-pravilno-rastit-detey-ili-sekrety-yaponskogo-vospitaniya/ [ko‘rilgan muddati: 22.04.2021]

4. Prezident mamlakat mafkurasining asosiy g‘oyasi nimalardan iboratligini ma’lum qildi. URL: https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector/ [ko‘rilgan muddati: 22.04.2021]

5. Isoqov B. Oila – jamiyatning yuragi. – Namangan, 2018. – 85-b.

Dilafro'z MUMINOVA,
Namangan davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
"Boshlang'ich ta'limda aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi" kafedrasi mudiri

BOLALARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar o'rtasida ilm-ma'rifat asoslarini targ'ib qilish kitobga muhabbat uyg'otish, kitobxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, mutolaa madaniyati, to'g'ri o'qish qoidalari, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga doir pedagogik-psixologik ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Talabalar, kitob, shaxs, kitobxonlik, ko'nikma, mutolaa, nutq, badiiy adabiyot, ta'lim, savodxonlik, o'qish, texnologiya, mutolaa madaniyati.

В статье представлена педагогическая и психологическая информация по пропаганде основ естествознания и просвещения среди детей, развитию любви к книге, развитию навыков чтения, культуры чтения, правилам правильного чтения, повышению интереса к художественной литературе.

Ключевые слова. Начальный класс, книга, ученики, читательских, умений, художественная литература, чтение, культура чтения.

This article contains pedagogical and psychological information on the promotion of the basics of science and enlightenment among children, the development of love for books, the development of reading skills, the culture of reading, the rules of correct reading, increasing interest in fiction.

Key words. Students, book, personality, reading, skill, reading, speech, fiction, education, literacy, reading, technology, reading culture.

Jahonda kitob o'qish ijtimoiy antropologiyaning yangi madaniy amaliyoti deya baholanib, uni tahlil etish tarixiy tadrijiylik negizida amalga oshiriladi. Shuningdek, kitob o'qish ijtimoiy-madaniy jarayonning indikatori sifatida belgilangan.

Mustaqillik yillarida ko'p millatli O'zbekiston xalqi o'zining buyuk salohiyati, mustahkam irodasi va matonatini namoyon etdi, og'ir sinov va mashaqqatlarni mardona yengib, katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

So'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarimiz natijasida, ayniqsa, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini hayotga joriy etish asosida mamlakatimizning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotini tubdan yangilash, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini real voqelikka aylantirish borasida salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz yilligi bosib o'tgan rivojlanish yo'limizni sarhisob qilish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlarini chuqur tahlil qilish orqali oldimizda turgan ustuvor vazifa – O'zbekiston-

ning yangi taraqqiyot davri uchun poydevor yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlarimizni yanada kuchaytirishga g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyat bir necha mo‘jizaviy ne’mat – moddiy va ma'naviy ashyoga ega bo‘lgan. Ular: ovoz, nutq, yozuv va kitob. Taraqqiyotning turli bosqichlarida evolyutsion (asta-sekin oddiydan murakkabga tomon borish) asosida insoniyat qo‘lga kiritgan bu ashyolar sivilizatsiyaning navbatdagi bosqichi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Agar insoniyat ovoz, nutq va yozuv yordamida o‘zaro ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish, xohish-istaklarni, intilishlarni bir-biriga bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, kitob vositasida o‘z ongini boyitish, nutqi, fikrlash va mantiqiy tafakkur yuritish qobiliyatini rivojlantirishga muvaffaq bo‘lgan.

Kitobni ulug‘lash, bolalar o‘rtasida ilm-ma’rifat asoslarini targ‘ib qilish maqsadida kutubxona tashkil etishda jadidchilik harakatining vakillari ham ibrat ko‘rsatgan. Masalan, namanganlik ma’rifatparvarlardan biri Is’hoqxon Ibrat o‘z uyida “Kutubxonai Is’hoqiya” deb nomlangan kutubxona tashkil qilgan. Ushbu kutubxona fondidan o‘zbek, rus, turk, tatar, fors-tojik tillarida yaratilgan adabiyotlar o‘rin olgan. Is’hoqxon Ibratning kutubxonasi nafaqat u o‘qitgan o‘quvchilarga, shuningdek, qishloq aholisiga ham xizmat qilgan. Kutubxonadagi kitoblar ularning xarakteri, yo‘nalishiga ko‘ra, bir necha bo‘limlarga ajratilgan. Xususan, maktab o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘limdan S.Saidazizovning “Ustodi avval”, Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, R.Yusufbek hoji o‘g‘lining “Rahbari hisob” kabi darslik va o‘quv-qo‘llanmalari o‘rin olgan. Ibrat kutubxonasi doimiy ravishda boyib borgan. Ma’rifatparvar tomonidan kutubxona faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, kitobxonlar tomonidan kitoblarning olinishi va topshirilishi qayd etilgan daftarlarning yuritilishi, shuningdek, o‘quvchilarning kitob mutolaa qilishlari, o‘qishlari shaxsan nazorat qilib borilgan.

Mutolaaga qiziqishning susayishi, o‘z navbatida, aholi savodxonligi darajasining pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat’iy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Qarorda jamiyatda kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, aholi, xususan, yoshlarda kitob o‘qish hamda kitobxonlikka bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, kitob mutolaasini kundalik faoliyatga aylantirishga erishish mohiyatini yorituvchi qator vazifalar belgilab berilgan. Chunonchi:

– kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish, noshirlik va matbaa sohalarini yanada rivojlantirishga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash; kitob mahsulotlari bo‘yicha davlat buyurtmasining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, adabiy-badiiy, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy, ilmiy-ommabop va ko‘rgazmali adabiyotlarni chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, ixtisoslashtirilgan kitob do‘konlari faoliyatini rivojlantirish;

– jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish bo‘yicha davlat buyurtmalari berish, ularni ko‘p nusxada yuksak sifat bilan nashr etish va moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish, kitob tarqatish tizimini yanada rivojlantirish va kitob mahsulotlarining narxini shakllantirish va sotish bo‘yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish choralarini belgilash;

– axborot-kutubxona faoliyatini kuchaytirish, ta’lim muassasalari axborot-resurs markazlarining kutubxona fondlari, kutubxonalar, tashkilot va muassasalarning “Ma’naviyat xonalari”ni o‘quv-uslubiy adabiyotlar, adabiy-badiiy, ma’rifiy va ilmiy-om-

mabop kitoblar bilan boyitish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

– nashriyotlar va matbaa sohasi mutaxassislarini, badiiy va texnik muharrirlar, grafikachi rassomlar, axborot-kutubxona xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish; lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosidagi ilmiy-texnik, adabiy-badiiy va ensiklopedik adabiyotlarni yanada ko‘paytirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

– O‘zbekiston Milliy kutubxonasi va axborot-kutubxona markazlaridagi barcha turdagi axborot-kutubxona resurslarining yagona bazasini shakllantirish va undan boshqa axborot-kutubxona muassasalarida turib foydalanishni ta’minlash;

– qishloq aholisiga kutubxona xizmati ko‘rsatish tizimini tashkil etish choralari to‘g‘risida tadbirlar rejasi loyihasini tayyorlash;

– mamlakatimizda internet orqali zarur adabiyotlarni topish va xarid qilish imkonini beradigan eReader elektron o‘quv qurilmalarini ishlab chiqarishni tashkil etish, ularning axborot bazasiga umumta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari uchun darsliklar, o‘quv-qo‘llanmalari, o‘quv-uslubiy, ilmiy-nazariy manbalarni joylashtirish, bunday mahsulotlarni arzon narxlarda sotib olish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar tayyorlash;

– mazmunan sayoz, milliy ma’naviyat va qadriyatlarimizga, axloq me’yorlariga mos kelmaydigan, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan adabiyotlarni tayyorlash, bosib chiqarish va tarqatishning oldini olish choralarini ko‘rish;

– kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ‘ibotchilar o‘rtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi ko‘rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o‘tkazishniyo‘lgaqo‘yish. Yozuv paydo bo‘lganidan boshlab kitob tarixiy taraqqiyoti davomida insoniyatga, uning ma’naviy ehtiyojini qondirishga xizmat qilib kelmoqda. O‘tgan vaqt davomida uni tayyorlashda ishlatilgan xomashyoning turi ijtimoiy taraqqiyotga mos, mutanosib ravishda shakli, hajmi, dizayni va turi ham izchil o‘zgarib bordi. Insoniyat sivilizatsiyasining bevosita ta’siri tufayli qo‘lyozma, bosma va elektron kitoblar tizimi yuzaga keldi. Shakli, hajmi, dizayni, turi va boshqa xususiyatlaridan qat’iy nazar kitoblar jamiyat ravnaqi, shaxs kamolotini ta'minlashda o‘ziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shaxsda kitob o‘qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab, kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish lozim. Shaxsni kitoblar bilan tanishtirishda uzluksiz ta’limning izchil, tizimli va maqsadli amalga oshiriladigan dastlabki bo‘g‘ini – boshlang‘ich sinflar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Boshlang‘ich sinflarda tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik, psixologik talablar negizida tizimli faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Kitoblar orasida bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblar o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bu turdagi adabiyotlar ham boshqa turdagi kitoblar kabi borliq to‘g‘risidagi axborotlarni jamlovchi, kishilik taraqqiyoti tajribasini o‘zida jamlovchi manbadir. Shu sababli yoshlarni ham kitobga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lishlariga erishishda bolalar adabiyotlarini shunchaki ermak, o‘yinchoq deb emas, balki ularni intellektual, hissiy, axloqiy madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, kitob va kitob o‘qish “yosh avlodning ma’naviyatini yuksaltirish, milliy

adabiyotimiz va san’atimizni yanada rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash”da o‘ziga xos o‘rin tutadi. Kitob “bolalarni qiziqtira olishi, zavqlantirishi, hayratlantirishi, to‘lqinlantirishi kerak”.

Pedagogik kuzatish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, shuningdek, ularning ota-onalari bilan olib borilgan savol-javob, suhbatlar natijasida, bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqish quyidagi omillar yordamida yuzaga kelishiga ishonch hosil qilindi: kitobning o‘ziga xos shaklga egaligi, ko‘plab tasvirlar bilan boyitilganligi, ularni bezatishda yorqin ranglardan foydalanilganlik, asar syujetining oson, ravon bayon etilganligi, asar qahramonlarining hayvonlar, o‘simliklar, gullar, qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlardan iborat bo‘lishi, shuningdek, sehrgarlik, sarguzasht va sayohatlarga asoslanganligi, asar xotimasining ijobiy yakuni. Shu bilan birga tadqiqotni olib borish davrida bolalarda kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishni hosil qilishda samarali bo‘lgan pedagogik faoliyatning tashkiliy shakllarini aniqlashga ham e’tibor qaratildi.

Turli yoshdagi bolalarning psixologik, fiziologik va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ular uchun kitobni mutolaa qilish vaqti hamda asar hajmining to‘g‘ri tanlanishi ham ularda badiiy adabiyotlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga yordam beradi. Qolaversa, yosh xususiyatiga ko‘ra kitob o‘qish uchun vaqt va asar hajmining to‘g‘ri tanlanishi kitobni o‘qish jarayonida uning mazmunini yetarli darajada tushunish, bayon etilayotgan voqyea va hodisalarning mohiyatini anglash, fikrlash, yuzaga keladigan savollar yuzasidan mushohada yuritish, ularga javob topish hamda muayyan xulosalar chiqarishga xizmat qiladi. Kitob mazmunining oson tushunilishi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uni o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Shaxsning kitobga bo‘lgan ijobiy munosabati u tomonidan izchil, samarali tashkil etiladigan kitobxonlik faoliyatida namoyon bo‘ladi. “Kitobxonlik faoliyati – shaxsning kundalik faoliyati va hayot tarzini tashkil etishga bo‘lgan yondashuvi”ni anglatadi. Bu o‘rinda keltirilgan ta’rif, bizning fikrimizcha, kitobxonlik faoliyati mohiyatini yetarlicha yoritmaydi, chunki “kundalik faoliyat” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, yo‘nalishi, xarakteri, qolaversa, shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi tufayli bir necha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv-bilish faoliyati, ijtimoiy faoliyati, kasbiy faoliyati va boshqalar. Shu sababli berilayotgan ta'rif aniq ifodalanishi zarur. Bu o‘rinda tushunchani quyidagicha ta’riflash mumkin: kitobxonlik faoliyati – shaxsning kitob tanlash, uni o‘qish, asar g‘oyasi va mazmunini tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, asar syujetiga nisbatan munosabat bildirishdan iborat xatti-harakati.

Kitobxonlikda nimalar ko‘zga tashlanadi? Yoki boshqacha aytganda, haqiqiy kitobxon qanday sifatlarga ega bo‘ladi?

Tadqiqotni olib borish davrida hayotiy tajriba, pedagogik kuzatish hamda kitoblarni, shu jumladan, badiiy kitoblarni ko‘p o‘qiydigan shaxslar faoliyatini kuzatish natijasida, o‘qish va kitoblarga mehr qo‘yishgan shaxslar quyidagi sifatlarga ega bo‘lishlari aniqlandi: asar mazmunini tushunish; asar voqeiyliklari o‘rtasidagi izchil bog‘liqlik va aloqadorlikni ko‘ra olish; asar qahramonlarining kechinmalari, o‘y-fikrlari, hayotiy intilishlarini tushunish va ularga hamdardlik bildira olish; o‘zini asar qahramonining o‘rniga qo‘yib, u duch kelgan muammolarni hal qilishga urinish, muammoni hal qilishning yo‘llarini izlash; asar mazmuni va voqeiyliklariga nisbatan shaxsiy munosabatni ifodalash.

Xalqaro o‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash dasturi – PISA (Programme for International Student Assessment) jamoasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida kitobxonlik kompetentligi negizida g‘oyasi, maqsadli va rasmiy tuzilishiga

ko‘ra turli xarakterdagi matnlarni tushunish, ular o‘rtasida aloqani bir qadar kengroq hayotiy tajriba bilan bog‘lay olish, ulardan o‘quv faniga muvofiq turli maqsadlar uchun foydalanish imkoniyatiga ega, shuningdek, muhim bo‘lsa-da, biroq, qo‘yilgan maqsadga mos kelmaydigan axborotlarni matndan chiqarib tashlash qobiliyati tushuniladi.

Bugungi kunda ko‘pincha bolalar kitob o‘qimayotganlikda ayblanadilar. Lekin ularga rang-barang adabiyotlar tavsiya qilish zarurligi o‘qituvchilarning ham, kutubxonachilarning ham e’tiboridan chetda qolmoqda. Buning uchun o‘qituvchilardan o‘quvchilarning kitoblarga bo‘lgan qiziqishlari, ehtiyojlarini yaxshi bilishilari talab etiladi... O‘quvchilar kitob o‘qimasligining sabablardan biri oilada ota-ona, maktabda o‘qituvchi tomonidan kitobga mehr uyg‘ota olmaslik yoki o‘qiydigan, qiziqarli badiiy kitoblar yetishmasligidadir. Shunday qilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish – murakkab pedagogik jarayon. Uning samarali tashkil etilishi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan ushbu jarayonga maqsadli, tizimli yondashishni talab etadi. Binobarin, tegishli yosh davri o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari yetakchi o‘rin egallaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining pedagogik-psixologik asoslari, tashkiliy-metodik talablaridan yetarli darajada xabardor bo‘lsalargina kutilgan natijani qo‘lga kiritish mumkin. Ular, shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda bu boradagi mavjud ahvoldan, qolaversa, mazkur jarayonning samarali kechishiga xizmat qiladigan omillar, ularning pedagogik-psixologik ta’siridan ham xabardor bo‘lishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi (2017-yil 13-sentabr) Qarori //lex.uz/docs/3338600.

2. Sayyid S. Kitobsiz kelajak yo‘q //http://uza.uz/oz/society/kitobsiz-kelazhak-y-16-01-2017.

3. Qayumxo‘jayeva Y. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – T.: A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti, 2007. – 12-48-b.

4. Збаровская Н.В. Информационная культура личности // Ж. Библиотечное дело. – М.: 2005. – №1. – С. 7-8.

5. Денисова С.А. Родители о детском чтении и роли библиотек // Ж. Родительское собрание по детскому чтению. – 2008. – С. 30-32.

6. Мокина М. Чтение – основа грамотности // Ж. Этносфера. – М.: 2008. – № 12. – С. 21-22.

7. Заруцкая Т.П. Развитие самостоятельной читательской деятельности младших школьников //https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/chtenie/ 2012/03/ 31/ razvitie-samostoyatelnoy-chitatelskoy-deyatelnosti-mladshikh.

8. Методика обучения литературе в начальной школе / Учебник для студ. высш. учеб.заведений. Под ред. М.П.Воюшиной. – М.: Издат.центр Академия, 2010. – С. 288.

Азиза МИРЗАНАЗАРОВА,
Наманганский государственный университет,
преподаватель кафедры "Русского литературоведения"

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН – ИНИЦИАТОР И АРХИТЕКТОР ДОБРОСОСЕДСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonning Ipak yo'li orqali tarixiy munosabatlarga asoslanib qurilgan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining tashabbuskori bo'lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi ko'rib chiqiladi. Vatanimiz Mustaqilligining 30 yilligiga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar. Ipak yo'li, millatlararo munosabatlar, Markaziy Osiyo, Renessans, Xiva, Markaziy Osiyo dunyo sivilizatsiyalari chorrahasida.

В статье рассматривается сотрудничество Узбекистана со странами Центральной Азии, где Узбекистан выступает инициатором добрососедских взаимоотношений построенных на исторических взаимосвязях через Шёлковый путь.

Ключевые слова. Шёлковый путь, добрососедские отношения, Центральная Азия, Ренессанс, Хива, Центральная Азия на перекрестке мировых цивилизаций.

The article examines the cooperation of Uzbekistan with the countries of Central Asia, where Uzbekistan acts as the initiator of good-neighborly relations built on historical relationships through the Silk Road.

Key words. Silk Road, national relations, Central Asia, Renaissance, Khiva, Central Asia at the crossroads of world civilizations.

В преддверии тридцатилетия со дня Независимости Республики Узбекистан выступает в роли, прочного фундамента устойчивого развития и процветания и искреннего стремления к сотрудничеству за общее будущее с центральнооазиатскими странами. В 1993 году, Президент Узбекистана И.Каримов, выдвигал идею укрепления дружеских отношений между узбеками, казахами, киргизами, каракалпаками, таджиками, туркменами и всеми народами, проживающими в регионе, под эгидой "Туркестан – наш общий дом".

"Узбекистан при Каримове вел активную региональную политику на всех этапах интеграционного процесса – от провозглашения Центрально-Азиатского Содружества (ЦАС) в 1991 году, до создания Центрально-Азиатского Экономического Сообщества (ЦАЭС) в 1994 году, до создания Организации Центрально-Азиатского Сотрудничества (ОЦАС) в 2001 году".

Начинания первого президента, в совершенно в новой динамике и формате, отвечающий требованию современной политики связанной с Глобализацией, продолжил наш действующий президент Ш.Мирзиёев. В истории наших стран уже была первая волна Глобализации, это Великий шёлковый путь – караванная дорога,

связывавшая Восточную Азию со Средиземноморьем в древности и в средние века. создав торговые сети во всех странах Центральной Азии Кыргызстана, Таджикистана, Казахстана, Узбекистана, Туркменистана и Афганистана, а также современного Пакистана и Индии на Юго-Востоке.

И сегодня в современном геополитическом мире Центральная Азия является регионом с большим геополитическим, богатым ресурсным потенциалом, имеющим огромный вес в системе политических, экономических и международных связей. Узбекистан географически находится в центре Великого Шёлкового пути и представляет собой древнейший очагом цивилизации. История Узбекистана связана с именами Великих предков, таких как Амир Темур, Мирзо Улугбек, Джалолиддин Мангуберды, Алишер Навои, Имам Бухари, Абдухолик Гиждувони, Бахоуддин Накшбанд, Имам Термези, Имам Мотуриди, Ахмад Фаргони, Бурхониддин Маргиноний.И спустя столетия наше государство во главе нашего президента продолжает многовековые традиции наших предков “поставив перед собой великую цель – формирование фундамента нового Ренессанса в нашей стране, и с этой целью ведется масштабная работа для создания среды и условий для воспитания новых Хорезми, Беруни, Ибн Сино, Улугбеков, Навои и Бабуров”. В ежегодном послании к Олий Мажлису Узбекистана, наш президент выделил приоритетным направлением изучение физики и иностранных языков. Ведется работа по организации Международной научной олимпиады по физике имени Ахмада Фергани. “Новый Узбекистан начинается с порога школы, с системы образования и воспитания”.

Приоритетной задачей создание стабильной поддержки нашего подрастающего поколения, и это зависит от экономической политической стабильности Республики В связи с этим, политика Республики направлена на создания прочной основы устойчивого экономического роста. Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах, ставит перед собой цели и задачи создание конкурентоспособной экономики, основанной на поддержке национальных ресурсов и внешэкономических связей с регионами Центральной Азии. Ведутся масштабные работы, укрепления роли парламента и политических партий, что способствует модернизации страны при демократической поддержке.

Между Республиками Центральной Азии, в 90 - годы, были подписаны договора “О Вечной дружбе” С целью укрепления братских, дружественных и добрососедских отношений между Казахстаном, Кыргызстаном, Таджикистаном, Туркменистаном. Лишь спустя десятилетие, начиная с 2016 года с инициативы нашего президента делаются конкретные шаги, по объединению и восстановлению добрососедских отношений. Этот поворотный момент в отношениях между странами Центральной Азии связан с президентом Узбекистана.

С 28.03.2001 года был подписан договор о вечной дружбе между Республикой Узбекистан и Республикой Таджикистан, где были поставлены вопросы о целесообразности согласованных действий на международной арене и тесного сотрудничества в военно-политической области, углубления экономического сотрудничества двух стран для создания благоприятных условий для его развития. Но на деле все выглядело иначе, вплоть до 2016 года, когда наш президент Ш.Мирзияев смог вывести затянувшееся отчуждение между нашими странами, на новые взаимоотношения, став инициатором сближения и укрепление сотрудничества между Таджикистаном и Узбекистаном. Подписание в 2018 году соглашения “о

взаимных поездках граждан Таджикистана и Узбекистана”, которое облегчило жизнь миллионам граждан с обеих сторон, начался бурной рост экономического сотрудничества, а также начался процесс взаимодополняемости экономик.

“От слов к делу”, можно так охарактеризовать политику нашего государства На протяжении всего периода коронавирусной пандемии, Узбекистан являлся одним из главных “доноров” гуманитарной помощи Республике Таджикистан. За четыре месяца текущего года Таджикистан получил от Узбекистана гуманитарную помощь на сумму 2,5 млн. долларов США. направил в Таджикистан 18 железнодорожных вагонов с медикаментами и продуктами питания.

“Прорыв в отношениях”, так характеризуют официальный визит президента Узбекистана в Республику Таджикистан.

В ходе исторического визита, Лидер Таджикистана Эмомали Рахмон отметил, что благодаря политической воле Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева стали крепче дружба и взаимное доверие между нашими странами. Именно президент Таджикистана охарактеризовал политику лидера Узбекистана как Инициатором и архитектором дружеских взаимоотношений между регионами Центральной Азии.

В Узбекистане 15 таджикских национальных культурных центров. На таджикском языке издаются газеты и журналы, выпускаются -теле и радиопередачи. В Узбекистане действует 255 школ с таджикским языком обучения, факультеты и отделения в ряде вузов республики. Только за последние годы более 130 наших сограждан таджикской национальности были удостоены высоких государственных наград Узбекистана – все эти факторы являются важным вкладом в укрепление межнационального согласия между узбекскими и таджикскими народами.

Договор “О Вечной Дружбе” между Республикой Узбекистана и Республикой Казахстана, направленный на укрепление братских, дружественных и добрососедских отношений между народами обоих государств. Нужно отметить, что Узбекистан и Казахстан постоянно поддерживали друг друга на международной политической арене, осуществляя ряд конкретных мер в рамках ООН, ШОС, СНГ.

С 2016 года взаимоотношение между двумя странами переходят на новый уровень. Результатом новых взаимоотношений стал подписание новых договоров, инвестиционных соглашений, проведение бизнес – форума направленные экспорта продукции на внешние рынки.

Президент Республики Узбекистан 1 марта 2018 года принял Постановление “О широком изучении и пропаганде творческого наследия великого казахского поэта и мыслителя Абая Конанбаева”.На основе Историческую значимость во взаимоотношениях двух стран обретает объявление 2018 года в Казахстане годом Узбекистана, а 2019 года в Узбекистане — годом Казахстана.

Общность культурологических истоков и традиций Узбекистана и Кыргызстана не вызывает сомнений. На протяжении более тысячи лет оба народа жили вместе бок о бок. Между нашими государствами заложен прочный фундамент основанный на многовековой истории, а так же духовных ценностей. “Договор о вечной дружбе ” между Кыргызстаном и Узбекистаном был подписан 24 декабря 1996 года. И 5 октября 2017 года принята “Декларация о стратегическом партнёрстве, дружбе, добрососедстве и укреплении доверия” от 5 октября 2017 г. В этих документах зафиксированы основные принципы двустороннего сотрудничества: взаимное уважение независимости и государственного суверенитета, равноправие, невмешательство во внутренние дела друг друга, обоюдное стремление к

установлению взаимовыгодных партнерских экономических связей как на государственном уровне, так и на уровне хозяйствующих субъектов.

Начиная с 2017 года был дан мощный импульс укреплению и расширению узбекско-кыргызских отношений по урегулированию государственных границ, совместному использованию водных ресурсов.

Двусторонние отношения между Узбекистаном и Кыргызстаном обращают на себя внимание важность совместного решения таких актуальных вопросов как транспортная замкнутость, энергетическая безопасность.

Принято решение о создании узбекско-кыргызского фонда развития. В рамках Фонда будут реализованы проекты по следующим направлениям: агропромышленный комплекс, швейная и текстильная промышленность, обрабатывающая промышленность, горнодобывающая и металлургическая промышленность, транспорт, жилищное строительство, торговля, развитие предпринимательства, энергокомплекс и туризм. 5 июня 2020 г. был запущен первый состав поезда по мультимодальному транзиту по маршруту “Ланчжоу – Кашгар – Иркештам – Ош – Андижан – Ташкент – Мари”.

19 ноября 2004 года между Республиками Узбекистан и Туркменистан был подписан договор “Вечной дружбе”, и первый визит Ш. Мирзиёева , как президента Республики Узбекистан в зарубежное государство, которое состоялось 6 марта 2017 года стал Туркменистан.

Именно там Президент нашей страны озвучил исторически важное направление в политике о добрососедских отношениях между странами Центральной Азии, что является логическим продолжением взаимовыгодного и активного диалога, основу которого заложил Первый Президент нашей страны Ислам Каримов, в свою очередь “Шавкат Мирзиёев – инициатор и архитектор добрососедских отношений” Узбекистан за короткий период провел огромную работу по налаживанию добрососедских отношений с республиками, создание Международного института Центральной Азии – государственного научно-исследовательского учреждения, который занимается междисциплинарным исследованием цивилизационного многообразия и современных процессов устойчивого развития региона. Основной сферой научной и практической деятельности МИЦА является региональные процессы и международные отношения, связанные с внешнеполитическим приоритетом нашей страны. Это проведение открытой и конструктивной политики в отношении ближайших соседей, решение региональных вопросов и проблем Центральной Азии на основе равноправия, взаимного учета интересов и поиска разумных компромиссов, а также создание вокруг Узбекистана пояса дружбы, добрососедства, процветания, и стабильности.

Создание МИЦА отражает объективную глобальную тенденцию возрастания роли региональных факторов в политической и экономической жизни государств. Это особенно проявляется в Центральной Азии – едином культурно-цивилизационном регионе, который исторически являлся важнейшим звеном Великого Шелкового пути, а теперь движется в сторону новой экономической, транспортно-коммуникационной, культурной взаимосвязанности.

16.07.2021 года в Ташкенте состоялась Международная конференция “Центральная и Южная Азия: региональная взаимосвязанность. Вызовы и возможности”, которая была организована с инициативы, президента Узбекистана во время своего доклада на 75 Ассамблее ООН.

Во время выступления на Международной конференции, Президент Узбекистана Мирзиёев выступил с предложением о заключении многостороннего Соглашения об экономическом сотрудничестве стран Центральной и Южной Азии, так же о необходимости ускорения проекта строительства железной дороги “Термез – Мазари-Шариф – Кабул – Пешавар”.Строительство этой дороги позволит в полной мере реализовать транзитный потенциал двух регионов, сформировать кратчайший маршрут, значительно сократить сроки и издержки на транспортировку грузов между Южной Азией и Европой через Центральную Азию и страны Содружества Независимых Государств.

Проведение в середине сентября этого года Международного культурного форума “Центральная Азия на перекрестке мировых цивилизаций”, при поддержке ЮНЕСКО в городе Хиве, станет историческим шагом, к единению стран Центральной и Южной Азии, который повторяет путь Великого шёлкового пути, под лозунгом “Новый Узбекистан инициатор добрососедских отношений”. “Расположенные на перекрестке дорог Великого шелкового пути Центральная и Южная Азия в течение многих веков способствовали активному диалогу между народами и цивилизациями”. “Благодаря тесному взаимодействию Центральной и Южной Азии распространялись новые знания и философские идеи, достижения в медицине и астрономии, географии и математике, геодезии и архитектуре, искусстве дипломатии и государственном управлении, высокие культурные и духовно-нравственные ценности”.

С приходом к власти нашего президента Ш.Мирзиёева, ощутимо стали сближаться братские народы во имя будущего нашей Молодежи.

